



Elif Shafag

SHQQAQOID QIRQ QOIDA

Elif Shafaq

ISHQQA OID QIRQ QOIDA

Tarjimon:
Shahnoza Qahhorova

MUQADDIMA

Daryoga tosh otsangiz, u suvning qayeriga va qanday tushganini bila olmaysiz. Juda nari borsa, suvning beti biroz jimirlaganini ko'rishingiz mumkin; balki oqim shovqini ostidan kelgan zaifgina shalplashni eshitishingiz mumkindir. Vassalom.

Tosh ko'lga otilsa, natijasi ancha ko'rinarli bo'ladi. Sokin suvning tinchi buzilib ketadi. Otilgan tosh borib tushgan joydan to'lqinlanish boshlanadi, oynadek sokin ko'l yuzi jimirlab, mavj urib ketadi. To'lqinlar qirg'oqqa qadar etib keladi va ancha vaqtgacha tinchlanish bo'lmaydi.

Tosh daryoga otilsa, daryo bunga pinagini ham buzmay, o'zining bahalovat oqimida davom etaveradi. Lekin ko'lga otilgan tosh uni butkul o'zgartirishi mumkin.

Ella Rubinshteynning qirq yillik hayoti ana shunday sokin ko'lning sathi kabi edi - u ertaga

nima bo'lishini oldindan aytib berish mumkin bo'lgan odatlardan, mayda-chuyda kundalik ehtiyojlar va ularni qondirish tashvishlaridangina tashkil topgan edi.

Ehtimol, kimgadir bunday hayot juda sayoz (tor) va zerikarli ko'rinishi mumkindir, lekin bunday hayot o'zining joniga tegmagan edi.

Keyingi yigirma yil mobaynida kechgan hayotida uning barcha istak-xohishlari, barcha muammolari va ularning yechimlari, hattoki dugonalari ham - hamma-hammasi turmushga chiqqan ayolning hayot tarziga muvofiq tarzda shartlangan edi. Eri Devid o'z ishining ustasi bo'lgan dantist (tish shifokori) bo'lib, ko'p ishlar va topish-tutishi yaxshigina edi. Ularni o'zaro telbalarcha ehtiros bog'lab turmagan esada missis Rubinshteyn (Ella) yigirma yillik birgalikda kechirilgan uzoq turmushdan keyin bundan ortig'ini kutib bo'lmasligini hamisha tan olar edi. Axir nikohni ehtiros emas, balki undan ancha muhim bo'lgan boshqa narsalar - bir-birlarini tushunish, o'zaro bog'liqlik,

qadrlash, kechirimli bo'lish kabilar saqlab turadi. Bularga nisbatan olganda sevgi ikkinchi darajali bo'lib qoladi. Ehtiroslar faqat romanlarda yoki kinofilmarda yaxshi ko'rindi.

Ellaning hayotida farzandlari, kollej talabasi bo'lgan fusunkor katta qizi Janet hamda o'smir egizaklari Orli bilan Avi eng bиринчи о'rinni egallashadi. Oilada yana Spirit nomli o'n ikki yoshli tillarang retriver zotli it ham yashaydi, Ella u bilan ko'p yillar mobaynida ertalablari sayrga chiqib kelgan va it unga quvnoq do'st bo'lib kelgan edi. Hozir Spirit qarib, og'ir bo'lib qolgan, qulog'i eshitmay qolgan va ko'zi ham deyarli ko'rmaydi. Uning hayoti yakuniga yetib borayapti, lekin Ella bu haqida o'ylashni istamaydi.

Rubinshteynlar oilasi Massachusetts shtatida, Nortgemptonda, qirolicha Viktoriya davridan qolgan, ta'mirlashni talab qiladigan, lekin chiroyli katta uyda yashaydilar. Unda derazalari katta-katta beshta yotoqxona, uchta

vannaxona, uchta mashina sig'adigan garaj va hammasidan zo'ri bog'dagi jakuzi (basseyн vannasi) edi.

Rubinshteynlar o'z hayotlarini, avtomobillarini, nafaqalarini, bankdagi mablag'larini, shuningdek, o'zlari yashayotgan uydan tashqari Bostondagi hashamatli kvartiralarini va Rodos orolidagi dang'illama uylarini ham sug'urta qilgan edilar. Bularning hammasiga yetish Ella va Devid uchun oson bo'lмаган edi. Uyda pishirilgan pirogning isi kelib turadigan kenggina, yaxshi mebellar bilan jihozlangan, katta oilaga mo'ljallangan bu uy balki kimlargadir oddiy bir narsa bo'lib ko'rinar.

Lekin Rubinshteynlar uchun bunday emas edi. Ular uchun bularning hammasi risoladagiday hayotning belgisi edi. Ular o'zlarining nikohdagi hayotlarini (turmushlarini) bir-birlariga muvofiqlashgan tarzda qurban va o'zlarining barcha, deyarli barcha istaklarini amalga oshirgan edilar.

Eng keyingi Valentin kuniga (sevishganlar

bayramiga) Devid Ellaga yurak shaklidagi brilliant shokilali taqinchoq sovg'a qilgandi. Undagi kartochkaga «*Mening yoqimtoy Ellamga - yuvosh xarakterli, keng fe'lli va farishta kabi sabru toqatli ayolga. Meni bo'lganimcha qabul qilganing uchun senga rahmat. Mening xotinim bo'lganing uchun senga rahmat. Sening Deviding» degan yozuv yozdirilgan edi.*

Ella Devidga aytmasa hamki, ushbu yozuvni o'qiganida o'zi uchun yoziladigan nekrolog (ta'ziyanoma)ni ko'rganday bo'lgan edi. «Men o'lGANIMda mana shunday yozishar ekanda», deb o'ylagan edi u. Agar haqqoniy bo'lsalar, yana bir necha jumlani qo'shishlari mumkin edi:

«*Ella o'z hayotini eri va farzandlariga parvona bo'lib yashash bilangina o'tkazdi va o'z holicha yashash nimaligini unutdi. U oqimga qarshi suzadiganlardan bo'lmanan edi. Hatto damlaydigan qahvasining navini almashtirish ham uning uchun deyarli qahramonlikday*

bo'lar edi».

Va hech kim, hatto Ellaning o'zi ham, nima uchun 2008 yilning oxirlariga kelib yigirma yillik nikohdan keyin, ajrashish uchun ariza bergenini tushuna olmadi.

Sababi sevgi edi.

Ular (sevishlaridan oldin) boshqa-boshqa shaharlarda yashayotgan edilar. Hattoki boshqa qit'alarda edilar. Ularni nafaqat oralaridagi masofa ajratardi, ularning o'zlari ham xuddi tun bilan kun kabi juda har xil edilar. Ularning hayotiy prinsiplari shu darajada turlicha ediki, bir-birlarini yaxshi ko'rish u yoqda tursin, hatto bir-birlarining yonlarida turishga ham toqat qila olmas darajada edilar. Lekin bo'lar ish bo'ldi. Va bu shunchalar tez sodir bo'ldiki, Ellaning uni anglash va undan himoyalanish uchun vaqtি ham bo'lindi, agar sevgidan himoyalanish mumkin bo'lsa, albatta.

Sevgi Ellaning yuragiga tom ma'noda yorib kirgan edi - uning sokin hayot ko'liga qaerdandir to'satdan va hech qanday takallufsiz

otilgan tosh kabi edi u.

Ella

2008 yil, 17 may, Nortgempston.

Oshxona derazasi ortida bahor quyoshi nur sochib turgan tongda qushlar baralla sayrashar edi. Keyinchalik Ella (o'z hayotida) sodir bo'lган bu hodisani xayolan juda ko'п marta miridan-sirigacha qayta tiklashga urinarkan, oxir-oqibat bu uning uchun endi xotira bo'lmay qoldi va uni davom etayotganday his etadigan bo'ldi.

Yakshanba kuni odatda birgalikda va kechroq qilinadigan nonushtaga butun oila a'zolari xursandchilik bilan yig'ilib, stol atrofiga joylashgan edilar. Eri o'z likopchasiga qovurilgan tovuq oyog'ini soldi. Avi pichoq va sanchqini o'ynatar edi, uning egizak singlisi Orli esa - kuniga 650 kaloriyadan iborat - o'z parhezini buzmaslik uchun yutayotgani har bitta luqumini sanab o'tirar edi. Yaqinlaridagi

Maunt-Xoliok Kollejining birinchi kursida o'qiyotgan Janet nonga qaymoqli pishloq surtardi va o'z xayollari g'arq bo'lib ketganday ko'rinaldi. Uning yonida qarindoshlarining o'zi pishirgan mashhur marmar torti bilan siylash uchun kelgan, keyin ular bilan birga nonushta qilishga qolgan Ester xola o'tirar edi, Ella bugunga juda ko'p ishlarni rejalashtirgan edi, shunga qaramay u stoldan turishga shoshmay o'tirardi. Keyingi paytlarda butun oila yig'ilib, bir stol atrofida o'tiradigan hollar uncha ko'p bo'lmayotgan edi va Ella oilani birlashtiradigan bunday qulay imkoniyatni boy bermaslik kerak, deb hisoblardi.

- Ester, Ella senga bir ajoyib yangiligi borligini aytdimi? - so'radi dabdurustdan Devid. - U o'ziga ajoyib ish topdi.

Garchi Ellaning ingliz adabiyoti bo'yicha bakalavrlik darajasi bor va o'qishni juda yaxshi ko'rsa hamki, kollejni bitirganidan keyin ishlari uncha yaxshi yurishmagan edi: ayollar

jurnallarida nashr etish uchun yoziladigan kichik-kichik maqolalarni tahrir etish, kam sonli kitob klublari bilan hamkorlik qilish va onda-sonda mahalliy gazetalar uchun resenziyalar yozib turishdan nariga o'ta olmagan edi. Bir vaqtlar esa Ella taniqli tanqidchi bo'lishni orzu qilgan edi, keyin hayot unga boshqa yo'l tanlaganini tan oldi va sansanoqsiz uy ishlariga butkul g'arq bo'lib ketgan onaga aylandi.

Uch bolaning onasi, erli xotin, iti va uy xizmatchisi bor ayol sifatida u bir on ham tinim bilmas edi. Baxtiga tirikchilik uchun pul topish tashvishi ham yo'q edi. To'g'ri, Smit Kollejida u bilan birga o'qigan dugonalari Ella tanlagan yo'lni ma'qullamas edilar, lekin uning o'zi uy ishlari bilan astoydil shug'ullanar va eri bilan birgalikda erishgan barcha narsalar uchun taqdiridan xursand edi. Boz ustiga kitob o'qishni hamon juda sevardi.

Ammo keyingi bir necha yil mobaynida Ellaning hayoti o'zgara boshlagan edi. Bolalari

ulg'aya boshlagan va onalarining tinimsiz sarvarishiga muhtoj emasliklarini anglatishga urina boshlagan edilar. Bo'sh vaqtি ko'paygani uchun Ella endi ish topishga harakat qilsa, to'g'ri bo'lishini o'ylab qolgan edi. Devid xotinini qo'llab-quvvatladi. To'g'risi, bu haqida qancha kup gaplashilgan bo'lsa hamki, u unchalik shoshilmas, ishga takliflar ham uncha ko'p tushmas edi. Taklif tushib, suhbatdan o'tish vaqtি kelganda esa, ish beruvchilarga yoshroq va tajribaliroq kimdir kerak ekani ma'lum bo'lar edi. O'zining rad etilishlaridan sarosimaga tushgan va biroz qo'rqqan Ella ish qidirishdan voz kechib qo'ya qolgan va bu ishlarning hammasini yig'ishtirib, o'z holiga tashlab qo'ygan edi.

Shunga qaramasdan 2008 yilning may oyida, o'zining qirq yoshga to'lishidan oldin u birdan markaziy idorasi (ofisi) Bostonda joylashgan adabiyot agentligidan taklif olgan edi. Aslida esa eri o'z klientlaridan biri vositasida, bu uning jazmanlaridan biri bo'lsa ham ajabmas,

unga shu ishni topib bergen edi.

- E, yo'q, bu shunchaki, uncha arzirli ham emas, - tushuntira boshladi Ester xolaga Ella. - Men faqat adabiyot agenti uchun o'qiymen, xolos, u ham bo'lsa, to'liq ish kunini qamramaydi.

Lekin Devid Ellaning o'z ishini kamsitishga urinishiga qat'iyan yo'l qo'ymadidi.

- Yo'q, bu taniqli agentlik, - uqtirdi u xotinini qo'zg'atishga harakat qilar ekan va bundan natija chiqmaganidan keyin, o'zi tushuntirishda davom etdi. - Bu boobro' ish, Ester. Boshqa assistentlarni ham ko'rsangiz edi! Hammalari eng yaxshi kollejlarni bitirishgan! Faqatgina Ella ko'p yil uyda o'tirib qolgan. Endi esa uning ham tuzukkina obro'si bo'ladi!

«Nahotki eri yuragining tub yerida uning karera qila olmaganida o'zini aybdor hisoblar ekan?» deb o'yladi Ella. Yoki vijdoni uni o'z xotiniga qilgan xiyonatlari uchun tinchlik bermayaptimikin? Uning bu ishda nega bunchalik tashabbus ko'rsatayotganining

sababini u boshqacha tushuna olmas edi.

- Men buni dadillik deb atayman. Biz onamiz bilan faxrlanamiz, - kulimsirab, o'z gapini yakunladi Devid.

U maqsadiga yetadi. U har doim shunaqa bo'lgan, - dedi Ester xola hayajon bilan, nazdida jiyani hoziroq stoldan turadiganday va o'z qarindoshlarini butunlay tashlab chiqib ketadiganday edi.

Hammalari Ellaga mehrli nigoh bilan qarab turardilar. Hatto Avi ham istehzoli gap qilishdan o'zini tiyib turardi, o'zining tashqi qiyofasidan boshqasi xayoliga

keltirolmaydigan Orli ham o'ylab qolgan edi.

Ella bu onlarni yuqori baholadi, lekin ajablanarlisi, birdan avvallari o'ziga notanish bo'lgan cheksiz bo'shliq borligini his etdi. U stol atrofida boshlangan bu suhbat mavzusini kimdir o'zgartirishini istab qolgandi.

Ellaning katta qizi Janet xuddi uni eshitganday, to'satdan gapga aralashdi:

- Menda ham yaxshi yangilik bor.

Hamma o'girilib unga qaradi...

- Biz Skott bilan turmush qurishga ahd qildik, - e'lon qildi Janet. - O, nima demoqchi bo'layotganingizni tushunib turibman! Biz hali yoshmiz, hali kollejni ham bitirmaganmiz va hokazolar. Lekin biz ikkimiz ham o'zimizning bunday o'zgarishga tayyor his etayotganimizni tushunishingiz kerak.

Oshxonadagi stol atrofiga og'ir jimlik cho'kdi. Hozirgina hammalarini birlashtirgan iliqlik va mehribonlik tuyg'usi bir zumda o'chdi. Orli bilan Arli bir-birlariga hayron nigoh tashlashdi, Ester xola esa olma sharbati solingan stakanni qo'lida siqqanicha toshday qotdi. Devid ishtahasi xippa bo'g'ilgan kabi sanchqisini qo'ydi va och rangli qo'y ko'zlarini qisib Janetga shunday tikilib qaradiki, burchaklarida kulimsiragandagi kabi chuqr ajinlar paydo bo'ldi. Lekin u kulmayotgan edi. Yuzi xuddi bir ho'plam sirkani ichib yuborgan kabi bujmayib ketgan edi.

- Qoyil-e! Men bo'lsam xursand bo'lasizlar, deb

umid qilgandim, buning o'rniga muzdekkina dush qabul qilgandek bo'ldim, - dedi cho'zilibgina Janet.

- Sen hozirgina turmushga chiqmoqchiman deding, - dedi Devid qizi aytgan xabarni unga eslatganday.

- Dada, biz biroz shoshayotganimizni bilaman, lekin kecha Skott menga nikohdan o'tishni taklif qildi va men rozi bo'ldim.

- Lekin nima uchun? - so'radi Ella.

Ella Janetning nigohidan o'zining butunlay boshqacha savol bergen bo'lishi kerakligini angladi.

- Chunki men uni sevsam kerak, deb o'ylayman, - yosh bolaga tushuntirganday homiyarcha ohangda javob berdi Janet.

- Azizam, men nima uchun bunchalik shoshilinch, deb so'ramoqchi edim? - tushuntirdi Ella. - Sen homiladormisan?

Ester xola stulda tinmay qimirlardi, hamma uning xijolat chekayotganini his etdi. Birozdan keyin u cho'ntagidan kislotalanishga qarshi

tavsiya etilgan tabletkasini oldi va chaynay boshladi.

- Men tog'a bo'lar ekanman, - hirengladi Avi. Ella Janetning qulini ushladi va uni mayingina siladi.
- Sen bizga to'g'risini aytishing mumkin. Sen axir buni bilasan, to'g'rimi? Nimaiki sodir bo'lmasin, biz sening tarafingdamiz.
- Oyi, iltimos, bas qiling, - dedi uni kesib Janet, qo'lini tortib olarkan. - Hech qanday homiladorlik yo'q. Siz meni gangitib tashladingiz-ku!
- Men senga yordam bermoqchiman, xolos, - bosiqlik bilan dedi Ella, garchi bu uncha oson kechmayotgan esada.
- Meni shu zayl xafa qilib, yordam bermoqchimisiz? Biz Skott bilan faqatgina shu sababdan turmush qurmoqchi bo'lishyapti, deb o'ylayotganingiz ochiq-oydin ko'rinish turipti! Kallangizga men uni qattiq sevganim uchun bu yigitga turmushga chiqishni istayotganim haqidagi xayol kelmadimi? Biz sakkiz oydan

buyon uchrashib yuribmiz.

Ella o'zini kinoyali kulgudan to'xtata olmadi:

- Ha, albatta, sakkiz oy-a! Va sen uni endi o'zingni besh barmog'ingday yaxshi bilib olding. Mana biz dadang bilan yigirma yil birga yashadik va haligacha bir-birimizni unchalik tushunmadik. Sakkiz oy - jiddiy munosabatlar o'rnatish uchun juda qisqa muddat!

- Xudo dunyoni olti kunda yaratgan, - oraga suqildi Avi, lekin qarindoshlarining sovuq qarashlarini ko'rib jim bo'ldi.

Devid oradagi tarang vaziyat tobora o'sib borayotganini his etarkan, katta qizidan ko'zlarini uzmay o'tirardi.

- Jonginam, - qovog'ini uygancha dedi u, - oying faqat uchrashib turish boshqa, turmush qurib yashash butunlay boshqa narsalar ekanini aytmoqchi edi.

- Lekin, dada, biz bir umr uchrashib turishimiz kerak, deb o'ylamassiz axir?

- Ochig'ini aytsam, - dedi og'ir xo'rsinib Ella, -

biz seni boshqa birov bilan topishishingni istardik. Jiddiy munosabatlar qurish uchun ikkingiz ham juda yoshlik qilasiz.

- Men hozir nimani o'ylab qolganimni sizga aytaymi, oyi? - dedi Janet odatdagi quvnoq ovoziga sira o'xshamaydigan g'amgin ovozda. - Siz o'z qo'rquvlaringiz haqida gapiryapsiz, deb o'ylab qoldim. Biroq agar siz juda yosh turmushga chiqqan va hozirgi mening yoshimda meni tuqqan bo'lsangiz, bu mening ham siz kabi xato ish qilayotganimni bildirmaydi.

Ellaning yuzi qizi go'yo yuziga tarsaki tushirganday qizarib ketdi. U o'zining muddatdan oldin tug'ruq bilan tugagan og'ir ko'targan homiladorlikni hamon unutmagan edi. Keyin esa bu bolaning parvarishi shunday katta kuch-quvvat talab qilgan ediki, faqat olti yil o'tganidan keyingina u keyingi homiladorlikka jur'at eta olgan edi.

- Azizam, biz seni Skott bilan uchrashayotganiningni bilganimizda sen uchun

xursand bo'lgandik, - ehtiyotkorlik bilan suhbat taktikasini o'zgartirmoqchi bo'ldi Devid. - U yaxshi bola. Lekin universitetni bitirganingdan keyin sen qanday o'zgarishing mumkin, buni oldindan bilib bo'ladimi? Hamma narsa o'zgarib ketishi. mumkin.

Janet go'yo uning bu gapini inobatga olganday, ohista bosh silkib qo'ydi.

- Skott yahudiy bo'lmagani uchun shunday deyapsizlarmi?

Qizining so'zlariga ishonmay, Devidning ko'zлari chaqchayib ketdi. U hamisha o'zining erkin qarashlari bilan g'ururlanardi va irqchilik, dinlar, jinslar orasidagi tenglik va shu kabi masalalar haqida gap ketganda o'zini doimo olib qochar edi.

Lekin Janet qat'iyatli edi. Onasiga o'girilib dedi:

- Mening ko'zimga tik qarab ayting-chi, agar Skott Xorun ismli yahudiy bo'lganida ham, sizda xuddi shunday e'tiroz bo'larmidi?

Janetning ovozida shunchalar katta alam va

kinoya bor ediki, Ella hatto uning yuragida nimalar kechayotgani haqida o'ylashga ham qo'rqardi.

- Jonginam, garchi bu senga yoqmasa ham, senga chin dildan gapiray. Men yosh bo'lish, sevish qanchalar yoqimli ekanini bilaman.

Ishon, men ham buni bilaman, Lekin o'z doirangdan bo'limgan odamga turmushga chiqish juda xatarli. Biz sening ota-onang sifatida sen to'g'ri ish qilayotganingga ishonch hosil qilishni istaymiz, xolos.

- Sizlar to'g'ri deb qisoblaydigan ishlar men uchun ham to'g'ri bo'ladi, deb hisoblaysizlarmi?

Bu savoldan Ella bir qadar xijolat tortdi. U xo'rsinib qo'ydi va xuddi boshi qattiq og'riyotganday o'z peshonasini siladi.

- Oyi, men uni sevaman. Siz buni biroz bo'lsa ham tushunasizmi? Siz «sevgi» so'zi nimani bildirishini esingizdan chiqarib qo'yaganmisiz? Skottni ko'rgan zahotim, yuragim tez urib ketadi. Men usiz yashay

olmayman.

Ella qizining tuyg'ulari ustidan kulishni istamasa-da, beixtiyor kinoyali tovush bilan «hmm» deb yubordi. O'ziga tushunarli bo'lмаган allaqanday sabablarga ko'ra u qattiq asabiylashardi. U Janet bilan avvallari ham ko'p marta janjallahib turishardi, lekin bugun Ella odatdagidan ancha jiddiy, shu paytgacha o'zi uchun notanish allanima bilan to'qnash kelib qolganini tuydi.

- Oyi, siz qachon bo'lmasin sevgini boshdan kechirganmisiz? - so'radi Janet, uning gapirish ohangida kansituvchi ishora aniq jaranglab turardi.
- Bas qil! Osmonlarda uchib yurganing yetarlidir, yerga tush endi. Sen haddan ziyod...
- Ella kerakli so'z axtargan kabi derazaga qaradi. - Sen haddan ziyod romantiksan, - dedi nihoyat to'g'ri so'zni topib.
- Buning nimasi yomon ekan? - xafa bo'lib so'radi Janet.

«Chindan ham, romantik bo'lishning nimasi

yomon?

xayolan qizining gapini ma'qulladi Ella. - Bu nima uchun birdan mening g'ashimni keltirib qoldi?» O'z xayollarida paydo bo'lган savollarga javob berishga ojiz qolgan Ella hamon bo'sh kelmasdan o'z gapida turardi:

- Azizam, qulq sol, sen qaysi asrda yashayotganining bilasanmi? Sen hozirgi ayollar o'zlari sevgan erkakka turmushga chiqmasligini bu yoshgina boshchangga quyib olgin. Turmush qurish vaqtি-soati kelganida ular yaxshi ota bo'ladigan va hayotda ishonchli juft bo'la oladigan erkaklarni tanlaydilar. Sevgi yoqimli tuyg'u, lekin u keladi va ketadi ham. Shu gapni aytib bo'lgach, Ella eriga o'girildi. Eri xuddi suv ichida harakatlanayotganday sekinlik bilan barmoqlarini o'zaro chirmashtirdi va xuddi birinchi marta ko'rayotgan kabi xotiniga qarab qoldi.

- Siz nima uchun bunday deyayotganingizni men tushunaman, - dedi Janet. - Sizni mening baxtimga va yoshligimga rashkingiz kelyapti.

Siz meni bir bebaxt uy bekasiga aylantirishni xohlaysiz. Oyi, siz meni o'zingizga o'xshashimni istaysiz.

Ella qorni ostida g'alati og'riq turganini his etdi. Nahotki u baxtsiz uy bekasi bo'lsa? Nikoh qopqoniga tushib qolgan o'rta yoshli bir onaxonmanmi? Nahotki farzandlari uni shunday qabul qilayotirlar? Eri hammi? Do'stlar, qo'ni-qo'shnilar-chi? U tuyqusdan hamma unga yashirincha achinayotganini his etdi va bu hissiyot shunchalar keskin ediki, Ellaning hatto nafasi qaytib ketayozdi.

- Sen oyingdan kechirim so'rashing kerak, - dedi Devid xo'mraygancha qizi tomonga o'girilib qarab.

- Mayli. Kechirim so'rashning keragi yo'q, - dedi Ella g'amginlik bilan.

Janet onasiga zimdan masxaraomuz nigoh tashladi, stulini ortga surdi, salfetkani stolga otdi va oshxonadan chiqib ketdi. Orli va Avi ham, balki uni qo'llaganlari uchunmi yoki kattalarning gaplaridan zerikib ketganlari

uchunmi, shu zahoti opalari ketidan ergashishdi. Ester xola esa oxirgi tabletkasini chaynarkan, noaniq allanimalarni valdirardi. Devid bilan Ella oraga cho'kkан xatarli taranglikni his etgancha stol atrofida o'tirardilar. Ella o'zini behuzur his etardi: u bu taranglik endi Janet bilan bog'liq emasligini sezib turardi.

Devid yaqinda stolga tashlagan sanchqisini qo'liga olib, uni zo'raki diqqat bilan tomosha qila boshladi.

- Sen sevgan odamingga turmushga chiqmagan ekansan, deb xulosa chiqarishim kerakmi men endi?

- O, iltimos, qo'y, men mutlaqo buni nazarda tutmadim.

- Unda nimani nazarda tutding? - ko'zini sanchqidan uzmagancha so'radi Devid. - Menga turmushga chiqishingni so'raganimda, meni sevganing uchun rozilik bergenningni his etganday bo'lgan edim.

- Seni sevardim... o'shanda, - deb yuborda Ella

vaqtida o'zini to'xtata olmay qolib.

Va qachondan boshlab meni sevmay qo'yding?
- sovuqqonlik bilan so'rashda davom etdi
Devid.

Ella xuddi birinchi marta ko'rayotganday eriga hayron bo'lib qaradi. Men uni qachondan boshlab sevmay qoldim? U hech qachon o'ziga-o'zi bunday savolni bermagandi. U javob berishni istardi, lekin kerakli so'zlarni topa olmas edi. Ella o'zi va eri bolalar haqida emas, ko'proq o'zaro munosabatlari haqida tashvish chekishlari kerakligini yuragining tub-tubida anglab turardi, buning o'rniga ular hamisha o'zlari uchun oson bo'lgan ishni qilib kelishgan - o'z hayotlarini o'z holiga tashlab qo'yishgan edi. Mutaassib hayot o'z girdobiga tortib olgan edi.

Ella o'z tabiatining bir qismiga aylanib bo'lgan, o'zining odatdagi holatiga aylangan hasratni tiyib tura olmay, yig'lab yubordi. Devid alamdiyda ko'rinish olib yuzini o'girdi. Ikkalasi ham bunday yig'idan nafratlanishardi. Devid

Ellaning yig'isiga qanday nafrat bilan qarasa, Ella ham uning oldida yig'lashdan shunday nafratlanardi. Baxtlariga telefon qo'ng'irog'i jiringlab qolib, ikkisini ham keyingi savol-javoblardan to'xtatib qoldi.

Trubkani Devid oldi:

- Salom... Ha, u yonimda. Hozir, shoshmay turing. Ella o'zini tutib olishga harakat qilib trubkani

oldi va xuddi kayfiyati zo'r odam kabi gaplasha boshladi:

- Ha. Bu menman.

- Salom. Men Mishelman. Dam olish kuni bezovta qilayotganim uchun ikkingizdan ham uzr so'rayman, - sayrab ketdi yoshgina ayol ovozi. - Lekin kecha Stiv mendan siz bilan bog'lanishimni iltimos qilgan edi, mening esimdan chiqib ketgan ekan. Siz qo'lyozma ustida ishlashni boshladitingizmi?

- E... - nafasini rostladi Ella, o'z xizmat burchi borligi uning esiga endigina tushgan edi.

Adabiyot agentligi tomonidan unga berilgan

birinchi topshiriq bir yevropalik noma'lum yozuvchining asarini o'qib chiqish, undan keyin juda mufassal hisobot yozishdan iborat edi.

- Unga ayting, xotirjam bo'l sin. Men o'qishni boshladim, - dedi yolg'on gapirib Ella. U birinchi vazifadayoq Mishelning hafsalasini pir qilishni sira istamas edi.

- Juda soz. Sizga yoqyaptimi?

- Ella fikrlarini yig'ib olishga harakat qilib, biroz jim qoldi. U hali qo'lyozmani qo'liga ham olmagan, uning markazida «Islom dunyosining Shekspiri» hisoblanuvchi mashhur mistik-shoir Rumiy obrazi turgan tarixiy roman ekanini bilardi, xolos. (Bunda gap «Devon» lirk falsafiy traktatining, so'fizm ta'limoti asosiy g'oyalarini qamrab olingan «Ma'naviy masnaviy» poemalarining muallifi bo'lgan taniqli sufiy-shoir Jaloliddin Rumiy (1207-1273) haqida ketmoqda).

- U... juda mistik ko'rinyapti, - dedi mavzuni

tezroq yopish uchun ovoziga hazilomuz ohang berib.

- To'g'ri, - dedi u shashti tushgan ovozda. - Menga qarang. Balki hisobot yozishingiz uchun sizga biz o'ylaganimizdan ko'proq vaqt kerakmikin...

Shu payt Mishelning ovozi g'oyib bo'lib, boshqa noaniq ovozlar eshitila boshladи. Ella Mishelning bir vaqtning o'zida bir qancha ish qilayotganini - elektron pochtani tekshirayotganini, o'z hammualliflaridan birining hisobotini o'qiyotganini, sendvich ye yayotganini, tirnoqlarini silliqlayotganini va shularni qilaturib, telefonda ham gaplashayotganini ko'z oldiga keltirdi.

- Eshitayapsizmi? - so'radi Mishel bir daqiqadan keyin.

- Ha, ha.

- Yaxshi. Bilsangiz edi, mening uyim naqd jinnixonaning o'zi. Men chiqib ketayapman. Shunchaki esingizda tursin, sizni uch hafta vaqtingiz bor.

- Esimda, - shartta kesdi Ella, o'ziga ishongan odamday ko'rsatishni istar edi u.
- Ulguraman.

Aslida esa Ellaning o'zida qo'lyozmani baholashga xohishi bor yoki yo'qligiga unchalik ishonch yo'q edi. Boshida u shoshilgan va o'ziga ishongan edi. Noma'lum muallifning nashr etilmagan romanini birinchi bo'lib o'qish, garchi muallif taqdirida uncha katta bo'lmasa ham, har holda muayyan rol o'ynashi mumkinligi haqidagi fikr uni hayajonlantirgan edi. Endi esa diqqatini o'z hayotidan shunchalik uzoq bo'lgan so'fizmga va uzoq o'n uchinchi asrga bura olishiga shubhalanardi.

Mishel uning shubhasini sezganday edi.

- Sizni nimadir bezovta qilayaptimi? - so'radi u.
- Javob bo'lmagach, qat'iyatliroq so'radi. Siz menga ochig'ini aytishingiz mumkin.

Biroz jim turganidan keyin, Ella Mishelga to'g'risini aytishga qaror qildi:

- Shunchaki men tarixiy romanga diqqatimni

to'play olishimga unchalik ishona olmayapman. Rumiy va shunga oid narsalar men uchun qiziqarli, lekin ular menga butkul notanish. Balki menga boshqa biron narsani - oddiyroq romanni berarsiz.

- Ishga g'alati yondoshish, - to'ng'illadi Mishel.
- Siz tasavvur eta oladigan muhitga oid kitoblar bilan ishslash osonroq, deb o'ylaysizmi? Bo'limgan gap! Shu shtatda yashayotganingiz uchun faqat Massachusettsga oid qo'lyozmalarni o'qishingiz kerak ekan-da.
- Men buni nazarda tutmagandim... - dedi Ella va shu zahoti bugun bu iborani juda ko'p ishlatganini angladi. Erim bunga e'tibor bermadimikin, deya eriga o'girildi, lekin Devidning yuzidan hech nimani anglab bo'ljadi.
- Biz odatda o'z hayotimizga sira aloqasi bo'limgan kitoblarni o'qiymiz. Ishimiz shunday. Bu hafta menga avval Tehronda ishratxona egasi bo'lgan va mamlakatdan qochishga majbur bo'lgan eronlik ayolning

kitobini o'qishimga to'g'ri keldi. Unga yozgan kitobingni Eron agentligiga yubor, deyishim kerakmidi?

- Yo'q, albatta, - g'o'l diradi Ella o'zini ahmoqona va shuning bilan birga aybdor his etarkan.

- Haqiqiy adabiyotning kuchi odamlarni va kontinentlarni birlashtira olishida emasmi?

- Ha, to'g'ri aytdingiz. Mening gaplarimni xayolingizdan chiqarib tashlang. Mening hisobotim kelishilgan muddatda stolingiz ustida bo'ladi, - dedi Ella, o'ziga ahmoq bir ta'viyaday qaragan Misheldan ham, bunga yo'l qo'yib bergen o'zidan ham nafratlanarkan.

- Juda soz, shunday bo'lsin, - cho'zib dedi Mishel. - Meni to'g'ri tushuning, lekin o'rningizni egallahni xohlaydigan o'nlab odamlar ham borligini unutmasangiz yaxshiroq bo'lardi. Aytmoqchi, ulardan ko'plari sizdan ikki barobar yosh ham. Ularning afzalligi bor, deb o'ylayman.

Ella telefon trubkasini joyiga qo'yib qaraganida

Devid uni diqqat bilan kuzatayotganini ko'rdi. Aftidan u o'zaro munosabatlarini aniqlashni kelgan joyidan davom etishini kutayotgan edi. Keyin, kechga yaqin, Ella uyga kiraverishdagi ayvonda o'zi yaxshi kurgan tebranuvchi o'rindiqda o'tirar va Nortgempton osmonida to'q sarg'ish-qizg'ish nurlanib botayotgan quyoshni kuzatardi. Osmon qo'l cho'zib, tegsa bo'ladigan darajada yaqin ko'rinardi. Ellaning fikru xayoli yana odatdagi yo'nalishga tushdi: Orli tuzuk ovqatlanmayapti. Avining baholari uncha yaxshi emas. Spirit quvvatsizlanib borayapti. Janetning nikoh haqidagi rejasi, Devidning yashirin ishqiy yurishlari, sevgi tuyg'usining yo'qligi... Ella kundalik hayotidagi mana shu ko'ngilsizliklarning barchasini fikran ko'zdan kechirib, miyasidagi tegishli g'aladonlarga joyladi va keyinroq ochish uchun yaxshilab berkitdi.

Shundan keyin konvertdan qo'lyozmani oldi va xuddi vaznini o'lchayotganday kaftlarida biroz ushlab turdi. Muallif roman nomini konvert

ustiga ko'k rangli siyohda «Shirin shakkoklik» deb yozgan edi.

Agentlikdagilar Ellaga muallif haqida hech kim hech nima bilmasligini - bu Gollandiyada yashovchi qandaydir A.Z. Zaxara ekanini aytishgan edi. Qo'lyozma agentlikka Amsterdamdan jo'natilgan, konvert ichida yana ustki tomoni turli pushti, sariq, qizil rangli lolalarning suvrati tushirilgan pochta kartochkasi ham bor edi. Kartochkaning orqa tomoniga esa chiroyli dastxat bilan quyidagi satrlar yozilgan edi:

Qadrli ser /madam!

Sizga Amsterdamdan salom yo'llayman. Men Sizga yuborayotgan tarixiy voqeа Kichik Osiyodagi Konya shahrida sodir bo'lgan. Lekin shaxsan men uning hozir uchun ham, barcha mamlakatlar, madaniyatlar va asrlar uchun ham dolzarb ekaniga ishonaman.

Umid qilamanki, o'z davrining juda buyuk shoiri va islom ruhiyatining yo'lboshchisi sifatida hurmatga sazovor bo'lgan Rumiyni

*butun hayoti turli janjallar va mojarolar bilan
to'la tabrizlik darvish Shams bilan bog'lagan
hayratlanarli rishtalar haqidagi bu tarixiy va
mistik roman, «Shirin shakkoklik»ni o'qib
chiqishga vaqtingiz topiladi.*

*Hamisha muhabbat Sizga yor bo'lsin va Sizni
hamisha muhabbat qurshab tursin.*

A.Z. Zaxara

Ella aynan mana shu satrlar adabiyot agentligini qiziqtirib qo'yganini angladi. Lekin havaskor yozuvchining qo'lyozmasini o'qishga Stivning vaqtি yo'q edi, shuning uchun uni o'z o'rinosari Mishelga bergen, Mishel esa o'z navbatida uni yangi assistent (Ella)ga bergen edi. «Shirin shakkoklik» shu zaylda Ellaning qo'liga kelib tushgan edi.

Ella u vaqtida bu kitob uning nafaqat birinchi ishi bo'lishini, balki o'zining butun hayotini ag'dar-to'ntar qilib yuborishini xayoliga ham keltirmagan edi. Zaxaraning qo'lyozmasi uning taqdirini o'zgartirib yuborishini tasavvur

etmagan edi.

Ella birinchi betni ochdi. Muallif haqidagi ma'lumotnomani o'qidi:

«A.Z. Zaxara olam bo'ylab sayohatga chiqmagan vaqtlarida Amsterdamda o'z kitoblari, mushuklari va toshbaqalari qurshovida yashaydi». «Shirin shakkoklik» - Zaxaraning birinchi romani va bu oxirgisi bo'lishi ham mumkin. Zotan uning yozuvchi kasbini egallah niyati yo'q va bu kitob uning buyuk faylasuf, mutasavvif va shoir Rumiy va uning quyoshi (Bunda «Shams» ismining lug'aviy ma'nosi «quyosh» ekaniga ham, Shams Tabriziyning Rumiy hayotida o'ynagan roliga ham ishora jo bo'lgan) Shams Tabriziyga bo'lgan favquloddagi maftunligi va muhabbati hosilasidir.

Ellaning ko'zi quyiroqda turgan, unga hayratomuz darajada juda tanish tuyulgan quyidagi satrlarga tushdi: «Ba'zilarning fikrlari aksi o'laroq, sevgi (ishq) faqat kutilmaganda keladigan va tez ketadigan shirin tuyg'ugina

emas».

O'qigan narsasi shu bugun ertalab nonushta vaqtida o'zining katta qiziga aytgan gapiga shunchalar zid ediki, Ellaning hayratdan og'zi ochilib qoldi. U bir zum qotib qoldi, keyin g'alati mistik tuyg'udan seskanib ketdi: qandaydir bir kuch yoki o'zi bog'lanib qolgan bu muallif, u kim bo'lsa hamki, nazarida uni kuzatayotganday edi. Balki kitobni u birinchi bo'lib kim o'qishini oldindan bilib yozganday edi. Romanni yozganida uni ko'zda tutganday edi. Allaqanday tushunarsiz sababga ko'ra Ellani bezovtalik va hayajon qamrab oldi. «Juda ko'p ko'rsatkichlarga ko'ra, yigirma birinchi asr o'n uchinchi asrdan uncha katta farq qilmaydi. Har ikkisining ham tarixiga dinlararo misli ko'rilmagan nifoqlar, madaniyatlararo tushunmovchiliklar, himoyalananmaganlik va narigi dunyodan qo'rquv hislari birday xosdir. Bunday vaqtarda ishq tuyg'usi odamlarga har qachongidan ko'proq kerak».

Birdan salqin va kuchli shamol turib, eshik oldiga daraxtlarning to'kilgan yaproqlarini sochdi. Quyosh gorizont ortiga o'tgan va tevarak-atrof zerikarli va g'amnok bo'lib qoldi. «Ishq hayotning mohiyati va maqsadidir. Rumiy bizga eslatganiday, u hammani, hatto undan o'zini saqlovchilarni ham, «romantik» so'ziga salbiy ma'no beruv- chilarni ham zabit etadi».

Ella bu satrlarni o'qir ekan: «Ertami yoki kechmi ishq hammani, hatto Nortgemptondagi Ella Rubinshteyn nomli o'rta yashar uy bekasini ham zabit etadi» deya o'qiganday bo'ldi.

Uning ichki tuyg'usi qo'lyozmani o'qishdan to'xtashga, Mishelga qo'ng'iroq qilib, bu roman haqida yozmasligi- ni aytishga undar edi. Buning o'rniga Ella og'ir xo'rsinib qo'ydi, keyingi sahifani ochdi va o'qiy boshladi.

A.Z. Zaxara

«ShIRIN ShAKKOKLIK»

Roman

So'fiylar Qur'onning bиринчи - «Al Fotiha» surasiga va uning bиринчи «Bismi Allahi Ar-Rahmoni Ar-Rahim» (Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan boshlayman) oyatiga jo bo'lган sir haqida gapiradilar. Va Bismillohning mohiyati «ba» harfidir. Va «ba» harfi ostida nuqta bordir. Butun koinot mana shu «ba» harfi ostidagi nuqtadadir.
«Masnaviyalar «B» harfidan boshlanadi. Romanning har bir bobи ham shunday boshlangan...

SO'ZBOSHI

Diniy ziddiyatlar, siyosiy bahslar va hokimiyat uchun olib borilgan tinimsiz kurashlar tufayli o'n uchinchi asrda Anatoliyada ahvol juda suronli edi. G'arbda salibchilar Ierusalimga ketayotib, Konstantinopolni (Rimning sharqiy imperiyasi - Vizantiyaning poytaxti bo'lgan hozirgi Istanbulni) bosib olgan va talon-toroj qilgan edilar, bu esa Vizantiya imperiyasining inqirozga yuz tutishiga olib kelgan edi.

Sharqdan esa harbiy daho Chingizzon boshchiligidagi qo'shin jadal olg'a siljib kelayotgan edi. Markazda esa, Vizantiya o'zining yo'qotgan kuch-qudratini qayta tiklashga urinayotgan chog'ida, turk qabilalari o'zaro jang qilishardi. Bu xristianlar xristianlar bilan, xristianlar musulmonlar bilan, musulmonlar musulmonlar bilan jang olib borayotgan bemisl xaos (boshboshdoqlik, tartibsizlik) davri edi. Qayoqqa qaramang, hammayoqdan nafrat va azobu uqubat, boz

ustiga kelajak vahimasi ham ufurib turardi. Mana shu xaosning markazida taniqli islom ulamosi Jaloliddin Rumiy yashar edi. Uni Mavlono - «Ustoz» deb atar edilar, chunki Konyaning o'zida va undan tashqarida uning minglab shogirdlari bor edi va barcha musulmonlar uni o'zlarining yo'lchi yulduzlari deb hisoblar edilar.

1244 yil Rumiy o'zining g'ayrioddiy xulqu atvori va noshar'iy nutqlari bilan ajralib turadigan, darbadar darvish - Shams bilan uchrashadi. Bu uchrashuv har ikkisining ham hayotini o'zgartirib yuboradi. Ayni paytda bu uchrashuv, so'fiylar ikki ummonning birlashuviga qiyos etgan, mustahkam va hayratlanarli do'stlikning boshlanishiga ham olib keladi. Bu g'alati inson bilan tanishgach, Rumiy o'z ta'limotining bosh yo'nalishidan chetlashib, ehtirosli sufiy shoirga, ishq targ'ibotchisiga va darvishlar ekstatik holga olib keluvchi raqs uslubining yaratuvchisiga aylanadi. Omma ongiga fanatizm

(mутаассиблик) о'та сингдирілган va шу білан bog'liq зиддияттар va to'qnashuvlar davrida Rumiy barcha insonlarni bir-biridan (e'tiqodi bo'yicha) ajratmaydigan yalpi umumiy ma'naviyatni yoqlab chiqdi. O'sha vaqtدا ham hozirgi kunlardagiday, e'tiqodi boshqa odamlarga qarshi tashqi jangni jihod deb hisoblaydigan ko'pchilikning qarashlariga qarshi o'laroq, Rumiy insonni o'z soxta «мен»ига, o'z nafsiга qarshi ichki jang olib borishi va g'alabasiga olib keladigan jihodni himoya qildi.

Bu g'oyalarni yoqlovchilar uncha ko'p emas edi, shuningdek hamma ham o'z qalbini ishq uchun ocha olmas edi. Shams bilan Rumiy oralaridagi ma'naviy bog'lanish turli g'iylbatlar, egri qarashlar va hujumlar manbaiga aylandi. Ularni tushunishmas, ularga hasad qilishar, balchiqqa bular edilar va oxir-oqibat eng yaqin kishilari ularga xiyonat qilishdi. Birinchi uchrashuvlaridan keyin uch yil o'tgach, ular fojiali tarzda bir-birlari bilan ajrashdilar.

Lekin bu tugallangan voqea emas.
Aslida bu tarixning nihoyasi yo'q. Va hozir,
sakkiz asrdan keyin ham, Shams va Rumi
ruhlari hamon tirik va oralarimizda ufurib
turibdi.

Qotil

1252 yil, noyabr. Aleksandriya.

Bechora murda yotipti. Ustida qalin suv
qatlami. Lekin ko'rар ko'zлari charaqlab turipti,
bamisolи, qayoqqa bormayin, osmonlardan
turib meni dahshat bilan kuzatib yurgan ikki
qora yulduz kabi. Men endi
Aleksandriyadaman va yana sayohat qilsam
meni arralayotgan bu xotiralardan,
quloqlarimga eshitilib turgan bu ingrashdan,
so'yilgan odamning so'nggi nafasi chiqishidan
oldin aytgan, uning oxirgi kalimasi «kechir»
degan vidolashuv hayqirig'idan qutulaman, deb
umid qilaman.

Birovni o'ldirsang, u odamdan nimadir o'zingga

o'tadi - uning oxirgi nafasi, oxirgi qilgan harakati. Men buni qurbon bo'lgan odamning «tavqi la'natı» deyman. O'sha «narsa» senga yopishib oladi, teringning ostiga, yuragingga kiradi va ichingda yashaydi. Meni ko'chada ko'rayotgan odamlar bu haqida bilishmaydi va lekin men o'zim o'ldirgan barcha odamlardan nimalarnidir o'z ichimda saqlab yuraman. Ularni men xuddi ko'rinas marjon kabi bo'yninga osib yuraman, ularning mening vujudimga og'ir teginishlarini his etib turaman. Garchi yoqimsiz esada, men bu yuk bilan yashashga o'rganib qolganman va buni o'z ishimning bir qismi deb hisoblayman. Qobil Hobilni o'ldirganidan buyon har bitta qotilda uning o'ldirgan odami nafas oladi. Men uchun bu yangilik emas. Men bundan hatto xafa bo'lmayman. Xafa bo'lmay qolganman. Lekin nega men bu oxirgi qatldan keyin sira o'zimga kela olmayapman?

Bu safar hammasi boshqacha bo'ldi, avvalboshdan hammasi noto'g'ri ketdi.

Masalan, men bu ishni qanday olgan edim? Yoki, to'g'rirog'i, bu ish meni qanday topgan edi? 1248 yil erta bahorida men Konyadagi ishratxonaning egasi bo'lgan, jahldor erkakshoda ayolning xizmatida edim.

Fohishalarni itoatda saqlash va o'zini to'g'ri tutishni istamaydigan tashrif buyuruvchilarni tiyib qo'yish mening xizmat vazifamga kirar edi.

O'sha kunni xuddi kechagina bo'lganday eslayman. Menga Xudoni izlash istagida ishratxonadan qochib ketgan fohishani topib kelish buyurilgan edi. Bu kabi jononalar mening yuragimni ko'p marta vayron qilishgan, shuning uchun jahlim chiqib, uni tutib olib, yuzini bironta erkak hatto qaragisi kelmaydigan qilib, dabdalasini chiqarmoqchi bo'lib turgan edim. Bu ahmoq xotinni endi qo'lga kiritay deb turganimda birdan uyim ostonasida sirli xat paydo bo'ldi. Savodsiz bo'lganim uchun uni madrasada o'qiydigan talabaga olib borib, unga pul berib o'qitdim.

Xat muallifi yashirin (anonim) edi, «Bir nechta chin e'tiqod egalari» degan imzo qo'yilgan edi. «Bizga sening qayerdan kelganing va avval nima bilan shug'ullanganing ishonchli manbadan ma'lum. Sen Qotillar jamoasining a'zosi bo'lgansan! (Qotillar yoki Assasianlar jamoasi (1096-1252) - salibchilarini o'ldirish uchun diniy va siyosiy arbob Hasan Ibn Sabboh tomonidan tuzilgan fanatik-musulmonlar jamoasi). Bizga shuningdek, Hasan Ibn Sabbohning o'limidan keyin va jamoangiz rahbarlari turmaga qamalganidan keyin jamoaning mavqeい o'zgargani ham ma'lum. Sen Konyaga jazodan qochib kelgansan, shundan buyon yashirinib yuribsan». Va xatdan ularga bir ish yuzasidan mening xizmatim shoshilinch kerak bo'lib qolganini bildim. Shuningdek, menga bu ish uchun katta haq to'lanishi va'da qilingan va agar men rozi bo'lsam, qorong'u tushganda shahardagi ma'lum qovoqxonaga borishim kerakligi aytilgan edi. U erga kirkach, men

derazaga eng yaqin stol yoniga, eshikka orqa o'girib, faqat polni ko'rish mumkin bo'lgan holda boshimni egib o'tirishim kerak edi. Shundan keyin bir yoki bir necha odam mening yonimga kelib o'tiradi va men bilan uzil-kesil bitimga keladi. Men ulardan hamma kerakli ma'lumotni olaman. Ular yonimga kelayotganlarida ham, suhbat vaqtida ham, ketayotganlarida ham men boshimni ko'tarmasligim va ularning betlariga qaramasligim kerak edi.

G'alati maktub edi u. Ammo men shu paytgacha buyurtmachilarining injiqliklariga o'rganib ketgan edim.

Ko'p yillar mobaynida turli odamlar meni ishga yollagan va ko'pchiligi o'z ismlarining sir saqlanishini istar edilar. O'z tajribamdan bilar edimki, buyurtmachi o'z ismini qanchalik qattiq yashirsa, u qurbon etiluvchiga shuncha yaqin bo'lib chiqardi. Lekin mening bu bilan ishim bo'lmasan. Mening ishim o'ldirish. Alamut (Alamut - joyning nomi, ma'nosi:

burgut uyasi. Qotillar jamoasining qal'asi)dan ketgach, men o'zim uchun shunday hayotni tanlagan edim.

BIRINChI QISM

YER

Bundagi barcha narsalar qattiq, o'ziga shimuvchi va quzg'almasdir.

Shams

1242 yilning mart oyi, Samarqandga yaqin shaharchadagi karvonsaroy.

Oldimdagi usti yoriq yog'och xontaxta ustida katta mum shamlar notekis yonib turipti.

Bugun kechqurun menga namoyon bo'lgan manzara odatdagidan ravshanroq edi.

Men katta uyni va sariq atirgullar ochilib turgan hovlini ko'rdim, hovli o'rtasida dunyoda eng salqin suvli quduq bor edi. Sokin avgust kechasi edi, osmonda to'lin oy nur sochardi.

Yaqin atrofda tungi yirtqichlar qichqirishar va uvillardi.

Birozdan so'ng uydan o'rta yoshlardagi xushsurat, elkalari keng va chuqurroq joylashgan och qo'ng'irrang ko'zli kishi chiqdi. U menga qaradi. Uning chehrasida vahima, ko'zlarida qayg'u bor edi.

- Shams, Shams, sen qayerdasan ?! - qichqirdi u goh o'ngga, goh chapga o'girilarkan.

Shu payt kuchli shamol turdi, oy ham, xuddi keyin nima bo'lganini ko'rgisi kelmaganday, bulutlar ortiga berkindi. Boyqushlar jim bo'lib qolishdi, ko'rsichqonlar yashirinishdi, hatto uy ichida o'choqlarda yonayotgan o'tinlar ham chirsillamay qoldi. Yer yuziga qilt etmas og'ir jimlik cho'kdi.

U kishi sekin-asta quduqqa yaqinlashdi, engashdi, ichiga qaradi.

- Shams, azizim, Sen shu yerdamisan? – shivirladi. Men javob bermoqchi bo'lib og'zimni ochdim, lekin lablarimdan biron ovoz ham chiqmadi.

Kishi quduq yonida tik turdi va yana unga qaradi. Avvaliga u qop-qora suvdan boshqa hech nimani ko'rmadi. Keyin suvning jimirlashi ostida, eng chuqurda mening qo'llarim qimirlayotganini ko'rди. Keyin misoli ikki qora tosh kabi yaltiragan, zalvorli qora bulutlar ortidan chiqqan oyga qarab turgan ko'zlarimni payqadi. Mening ko'zlarim falaklardan tushuntirish kutayotganday oyga tikilardi.

Kishi tiz cho'kdi, u ko'kraklariga urar va yig'lar edi.

- Uni o'ldiribdilar! Mening Shamsimni o'ldiribdilar! - bo'riday uvillab yubordi u. Shu payt butalarning ortidan tezlik bilan o'tib ketgan soya ko'rindi va u xuddi yovvoyi

mushuk kabi chaqqonlik bilan bog' devoridan sakrab chiqib ketdi. Lekin u kishi qotilga e'tibor bermadi. Nogahon yopirilgan bu musibat ostida u bor ovozida, to sinib chil- chil bo'lgan stakan ovoziday zirillab qolmagunicha qichqirar va na'ra tortardi.

- Hoy, sen, jinniga o'xshab baqirishni bas qil.
- Jim bo'l, bo'lmasa men seni tashqariga sudrab chiqib uloqtiraman!
- Ovozingni o'chir, dedim! Eshitdingmi?
O'chir!

Ovoz tahdidli edi. Shunga qaramay, men o'zimga namoyon bo'lgan manzara ichida yana biroz muddat qolishni istab, o'zimni eshitmaganga soldim. O'z o'limim tafsilotini ko'proq bilishni istardim. Shuningdek, o'sha g'amgin nigohli erkakni tuzukroq ko'rib olishni ham istardim. Kim o'zi u? Men bilan qanday aloqasi bor? Va nima uchun u avgust tunida meni bunchalar o'rtanib izlamoqda?

Ammo meni yana ko'rgunimcha boshqa o'lchamdag'i kimdir qo'limni tortqilayotgan va

katta kuch bilan shunday silkita boshlagan ediki, hatto tishlarim qattiq taqillab ketdi. U meni bu dunyoga tortib oldi.

Men istamasdan, sekin ko'zlarimni ochdim va yonimda turgan kishini ko'rdim. Bu oqargan soqolli va uchlari tepaga buralgan mo'ylabli, gavdali, balandbo'y kishi edi. Bu karvonsaroyning egasi edi. Va o'sha zahoti ikki narsaga e'tibor berdim. Bu kishi odatda o'zaro so'kishib ketadigan va janjalga moyil odamlarni taftidan tushirib yurardi. Hozir u juda darg'azab edi.

- Mendan nima istaysiz? - so'radim undan. -

Nima uchun qo'limni tortqilayapsiz?

- Nimani istaymanmi? - jahl bilan baqirdi u. - Sen baqirishdan to'xtashingni istayman, to'xtashingni. Sen barcha ijarachilarimni esidan og'dirasan-ku bu turishda.

- Men baqirdimmi? - so'radim, uning kuchli changalidan chiqishga urinar ekanman.

- Bo'lmasa-chi! Sen panjalari orasiga tikon kirib ketgan ayiq kabi bo'kirding. Nima bo'ldi

senga? Ovqat ustida uqlab qolganmiding?
Bosinqiradingmi?

Bu izoh qabul qilsa bo'ladigan yagona izoh ekanini va agar tasdiqlasam, karvonsaroy egasi qoniqish hosil qilishi va meni o'z holimga qo'yishini tushunib turardim. Lekin meni yolg'on gapirgim kelmas edi.

- Yo'q, birodar, men noqulay uqlab qolib, bosinqiraganim yo'q. Men sira uxlamayman.
- Bo'lmasa, nima uchun baqirding? - so'roq qilishda davom etdi karvonsaroy egasi.
- Menga voqealar manzarasi ko'rindi. Bu sira tush emas.

U menga hayron bo'lib qaradi-da, keyin mo'yloving uchlarini shima boshladi.

Shundan keyin dedi:

- Siz, darvishlar, xuddi hujradagi kalamushlarga o'xshagan, telba odamlarsiz. Kun bo'yi och yurasiz va duolar o'qiysiz, boz ustiga qizib turgan quyosh tafti ostida yurasiz. Nimalardir ko'ringan bo'lsa bordir, oftobda miyangning jizg'anagi chiqqan bo'lsa kerak.

Men kulimsiradim. Balki u haqli hamdir.
Aytadilar-ku, aqldan ozish bilan o'zingdagi
Xudoni topish orasidagi masofa juda qisqa deb.
Shu payt qovurilgan echki go'shti, quritilgan
tuzlangan baliq, turli dorivorlar qo'shib
pishirilgan qo'y go'shti, kulcha nonlar, turk
no'xati va qo'y go'shtining dumbasida
pishirilgan no'xatli va yasmiqli sho'rvalar
solingan katta patnislarni ko'targan ikki
xizmatchi oldimizdan o'tib qolishdi. Ular
piyoz, sarimsoqpiyoz va dorivorlarning hidi
butun mehmonxonani tutib ketgan ovqatlarni
odamlarga tarqatib yurishardi.

Ular yonimda to'xtaganlarida men bug'i chiqib
turgan bir kosa yovg'on sho'rva va ozroq qora
non oldim.

- Ovqatga to'lash uchun puling bormi? - so'radi
karvonsaroy egasi homiylarcha ovoz bilan.
- Yo'q, - dedim men. - Lekin agar rozi bo'lsang,
evaziga bir narsa berishim mumkin. Sen menga
yemish va boshpana berasan, men esa sen
ko'rgan tushlar ta'birini aytib beraman.

U ikki qo'lini beliga qo'yib to'ng'illadi:

- O'zing men hech qachon tush ko'rmayman, deding-ku.
- To'g'ri, o'zim tush ko'rmayman, lekin boshqalar ko'rgan tushlar ta'birini ayta olaman.
- O'zi seni haydab chiqarishim kerak edi.

Hamma darvishlar jinni bo'ladi, degan edim-ku, - dedi karvonsaroy xo'jayini har so'zini jahl bilan chertib gapirar ekan. - Mening senga maslahatim: yoshing nechadaligini bilmaymanu, lekin sen butun umringga yetarli duoyu fotihalar qilding. Endi o'zingga yaxshi bir xotin topib uylan va dunyoda darbadar kezishni bas qil. U senga bolalar tug'ib beradi. Shunda sen bir yerda qo'nim topasan.

Hammayoq g'am-g'ussaga to'lib yotgan bu dunyoni kezishda nima ma'no bor? Menga ishonaver. Hech qayerdan biron yangilik topa olmaysan. Menikiga turli tomonlardan turli odamlar kelib ketishadi. Ozroq sharob ichib olsalar, bas, o'sha bir xil narsalar haqida gapira boshlaydilar. Odamlar hamma yoqda bir xil.

O'sha ovqat, o'sha suv, o'sha axlat.

- Men bulardan hech birini izlamayapman.

Men Xudo izlovchiman. Haqni izlayapman.

- U holda sen Uni noto'g'ri joydan izlayapsan, - dedi kutilmaganda g'amgin bo'lib qolgan xo'jayin. - Bizning yerlarga Xudo nazar solmaydi! Bizga Uning qachon bo'lmasin bu yerlarga qaytishi ham dargumon.

- Buni eshitar ekanman, mening yuragim uvishib ketdi.

- Xudo haqida yomon gapirish, odamning o'zi haqida yomon gapirishi bilan barobar, - dedim men.

Karvonsaroy egasi masxaraomuz g'alati iljaydi. Men uning yuzida alam isyon va bolalarga xos arazga o'xshash nimadir borligini ko'rdim.

- Axir Xudo men sizlarga bo'yningizdagi qon tomiringizdan ham yaqinroqman demaganmi? - so'radim men.

- Xudo uzoq osmonlarda emas. U har birimizning o'z ichimizda. Shuning uchun U bizlarni hech qachon tark etmaydi.

- Lekin U bizni tashlab qo'yadi ham, - dedi xo'jayin sovuq va kishining jig'iga tegadigan nigoh bilan qararkan. - Biz azob chekayotganimizni ko'rib turib ham pinagini buzmasa, Uning borligi haqida nima deyish mumkin?
- Birodar, eng birinchi qoida shudir, - dedim men uning arzu e'tiroziga javoban. - Biz Xudoni o'zimizning aynan akslanishimiz deb bilamiz. Agar Xudo bizga haddan ziyod ko'p qo'rquv va aybdorlik haqidagi fikrlarni yuklayotgan ekan, bu bizning o'zimizda qo'rquv va aybdorlik juda ko'pligini bildiradi. Agar Xudo bizga mehr va yupanch berayapti, deb o'ylasak, bu biz o'zimiz mehr va yupanch ularashmoqqa tayyorligimizni bildiradi. Xo'jayin shoshib e'tiroz bildirganiga qaramay, u mening gaplarimdan hayron bo'lganini tushundim.
- Bundan chiqadiki, Xudoning so'zlaridan boshqa hammasi o'zimizning tasavvurimizda tug'ilalar ekan-da? Tushunmadim.

Lekin men unga javob berishga ulgurmadi, chunki mehmonxonaning narigi tomonidan qattiq janjal ovozlari kela boshladi...

Biz o'girilib qaraganimizda u tomonda ko'rinishi uncha yaxshi bo'lмаган ikki kishini ko'rdik. Ular g'irt mast edilar, so'kinishar va mehmonxonadagilarning tinchini buzayotgan edilar. Boshqalarning idishlaridagi go'sht bo'laklarni olib yeishar, qadaxlaridagi mayni ichishar, unga qarshilik ko'rsatishga uringanlarni esa masxara qilib bezbetlarcha kular edilar.

- Bunga chek qo'yish payti keldi, shekilli, nima deysan? - dedi karvonsaroy egasi lablarini qisib gapirarkan.

U bir zumda narigi tomonda paydo bo'ldi, piyonistalardan birini mahkam tutib, stoldan turg'azdi va yuziga shapaloq tortdi. U buni kutmagani uchun xuddi bo'sh qopday stoldan polga ag'darilib tushdi.

Ikkinci piyonista baquvvatroq chiqdi. Rosa qarshilik ko'rsatdi, lekin ko'p o'tmay u ham

tinchidi. U bu mijozining ko'kragiga tushirdi, keyin panjasini og'ir etigi bilan qattiq bostirib turdi. Suyaklarning singan tovushi chiqdi.

- To'xta! - baqirdim men. – O'ldirib qo'yasan. Shuni xohlaysanmi?

Men so'fiy sifatida inson hayotini himoya qilishga ont ichganman. Bu dunyoda bo'lar-bo'lmasga (besabab) ham mushtlashib ketishga tayyor turadigan odamlar ko'p; boshqalari esa bunga sabablari bor odamlar. Lekin so'fiy, sababli bo'lsa hamki, mushtlasha olmaydi.

Mening ham zo'ravonlikka qarshi zo'ravonlik bilan javob berishga haqqim yo'q. Lekin xo'jayinga tashlanib, uni to'xtatishim mumkin.

- Nari tur, darvish, bo'lmasa, miyangni qoqib olaman! - baqirdi xo'jayin; lekin ikkimiz ham uning bunday qilmasligini bilardik.

Bir daqiqadan keyin xizmatchilar ikkala piyonistani o'rnidan turg'azishdi, ulardan birining barmoqlari singan, ikkinchisining esa burni singan edi; yer ham, ikkalasining ustiboshi ham rosa qon- ga belangan edi.

Mehmonxonaning bu katta xonasiga qo'rqinchli jimlik cho'kdi. Shu tariqa ijara chilarga qo'rqinch hissini singdirganidan g'ururlangan xo'jayin menga ko'z qirini tashladi. U yana gapira boshlaganida bu gaplar butun mehmonxonadagilar uchun ham mo'ljallab aytilayotganday edi va ovozida g'urur jaranglar edi:

- Agar bilsang, dervish, menda har doim bunday bo'lmaydi. Men mushtlashishni xush ko'rmayman, lekin goho shunday qilishga to'g'ri keladi. Xudo o'zining oddiy bandalarini unutgan chog'daadolatni o'z qo'llarimiz bilan himoya qilishimiz ham kerak bo'ladi. Sen qachon U bilan gaplashsang, Unga shuni shama qilgin: agar U o'zining qo'yday yuvosh bandalarini himoyasiz qoldirsa, ular ham kimdir kelib, so'yib ketishlarini kutib o'tirmas ekanlar, deb ayt. Ular o'zlari bo'riga aylanar ekanlar degin.

Men elkalarimni qisdim-da eshik tomonga yo'naldim.

- Sen xato qilayapsan, - dedim unga.
- Nimasi xato buning? Qo'y bo'lib, endi bo'rige aylanganimmi?
- Yo'q, gap bunda emas. Sen chindan ham bo'rige aylangansan. Lekin qilayotgan ishingniadolat deb atab xato qilayapsan.
- Shoshma, men hali sen bilan gaplashib bo'lmadim! - baqirdi u ortimdan.

Sen mendan qarzdorsan. Ovqating va yotar joying haqi uchun tushlarim ta'birini aytib berishni va'da qilgan eding.

- Men bundan ortiqrog'ini qilaman, - taklif qildim men. - Kaftingga qarab turib, bilganlarimni aytib beraman.

Men ortga o'girildim va mehmonxona egasining chaqnab turgan ko'zlariga tik qaragancha, u tomonga tikka yurib keldim. U ishonqiramay, beixtiyor o'zini chetga oldi. Shunga qaramasdani o'ng qo'lidan tutdim va kaftini tepaga qaratib ochdim, u meni itarib tashlamadi. Kaftidagi

- chuqur, notekis, taqvosiz hayotdan darak

beruvchi chiziqlarni o'rgana boshladim. Sekin-
asta uning aurasidagi zangga yaqin jigarrangni
va deyarli kulrangga yaqin och havoranglarni
ilg'ay boshladim. Uning ruhiy quvvati ancha
kamaygan va zaiflashib qolgan, tashqi dunyo
bilan kurashishga boshqa kuchi yetmay
qolayotganday edi. Bu odam o'z ichki
dunyosida misoli qurib qolgan o'simlik kabi
notirik edi.

Ichki dunyosini boy bergach, u jismoniy
kuchini ikki barobar oshirgan, bundan ko'p
foydalana boshlagan edi.

Shu tobda mening yuragim tez-tez ura
boshladi, chuyki nimanidir ko'ra boshlagan
edim. Manzara tobora oydinlasha borar edi.
Qizg'ish-qo'ng'ir sochli va yalango yoqlarining
terisi ostiga naqsh (tatuirovka) chizilgan,
yelkasiga guldor shol ro'mol tashlab olgan yosh
ayol.

- Sen sevgilingdan judo bo'lgansan, - dedim
men va uning chap qo'lini oldim.

Ko'kraklari sutga to'lgan, qorni esa shunday

tarangki, yana biroz kattalashsa - yorilib ketguday. U yonayotgan kulba ichida bo'lgan. Atrofda kumush yugur- tirilgan egarlar bilan egarlangan otlarni mingan jangchilar.

Yonayotgan odam go'shti hidi kelayotgan og'ir havo. Otliqlarning burunlari keng va yassi, bo'yinlari kalta va yo'g'on, yuraklari esa toshdan qattiq. Chingizzxonning qudratli qo'shini.

- Sen biryo'la ikki sevimli odamingdan judo bo'libsan, - gapimni tuzatdim men. - Xotining birinchi bolangga yukli bo'lgan ekan.

Karvonsaroy egasi o'zining charm etigidan ko'zlarini uzmagan holda, qoshlarini qansharida tutashtirdi, keyin lablarini qattiq qimtidi, yuzi ma'nosiz tus oldi. Shu bir daqiqa ichida u ko'p yillarga qarib qolganday edi.

- Hozir aytadigan gaplarim balki seni yupatmasa ham kerak, lekin sen bularni bilishing kerak deb o'ylayman, - dedim men. - U olovdan ham, tutundan ham o'limgan.

Shiftdagি taxta boshiga tushib ketgan. U shu

zahoti, og'riqni his etmayoq o'lgan. Sen hamisha uni qattiq azob chekkan deb o'ylab kelgansan, aslida esa bunday bo'lмаган.

Xo'jayin bamisoli ko'rинmas og'ir yuk ostida qolgандай bukchaydi.

- Sen qanday bilding? - г'ижирлаб со'ради у.

Men uning bu savoliga javob berib o'tirmadim.

- Sen uni urf-одатга ко'ра дарсан олмаганинг учун о'зингни айблаб kelgansan. Sen hamon tushlaringda uning ko'milgan chuqurdan emaklab chiqayotgani ko'rasan. Bular tafakkuring o'yinlari. Aslida esa xotining va o'g'lingni ahvoli yomon emas, ular nur parchalari kabi abadiyat bag'rida sayohat qilib yurishipti

- Keyin har bir so'зимни chertib-chertib shuni ham qo'shib ko'ydim. - Sen endi qaytadan qo'yga aylanishing mumkin, chunki sening qalbing o'zi shunday.

Mening gaplarimni eshitib bo'lgach, xo'jayin qo'lini tovada kuydirib olgandek, shoshilinch tortib oldi.

- Darvish, sen menga yoqmading. Buguncha bu yerda qolasan, lekin ertaga men sening qorangni ham ko'rmay. Seni ko'rarga ko'zim yo'q.

Hamisha shunday bo'ladi. Haqiqatni aytsang, seni yomon ko'rishadi. Ishq haqida qancha ko'p gapirsang, sendan shuncha qattiq nafratlanishadi...

Ella

2008 yil, 8 may, Nortgempton.

Devid va Janet bilan bo'lib o'tgan janjallaridan keyin Ella o'zini suvi siqib olingan limonday his etdi, bir muddatga «Shirin shakkoklik»ni nari surdi. Nazarida qattiq biqirlab (jo'sh urib) turgan qozonning qopqog'i biroz ochilgan-u, undan bug' bilan birga janjal va ranju alamlar erkinlikka yorib chiqayotganday edi. Baxtga qarshi, qopqoqni uning o'zi surib qo'ygan - Skottga telefon qilib, undan qizini o'z holiga qo'yishini iltimos qilgan edi.

Ella keyinroq o'zining telefonda Skottga aytgan gaplari uchun qattiq afsuslandi. Lekin may oyining o'sha kunida Ella to'g'ri ish qilayotganiga shunchalar amin ediki, hatto o'zining bu aralashuvi qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini bir daqiqa bo'lsa ham xayoliga keltirmagan edi.

- Salom, Skott. Men Ellaman, Janetning oyisi. - Ella xuddi qizining do'stiga har kuni telefon qilib yurganday quvnoq ohangda gapirishga harakat qildi. - Sen bir daqiqaga bo'shmisan? - Missis Rubinshteyn, bemalol, nima xizmat? - sustgina ohangda, lekin odob saqlagan holda dedi Skott.

Ella yana ham kuchliroq odob saqlagan holda shaxsan unga qarshi hech nima yo'qligini, lekin uylanish uchun u hali juda yoshligini va hayotni juda kam bilishini aytdi; vaqtি kelib buni uning o'zi ham tushunishini va hatto o'z vaqtida ogohlantirgani uchun undan minnatdor bo'lishini aytdi. Keyin yana nikohni esdan chiqarishini va bu suhbatni hech kimga

aytmasligini iltimos qildi.

Oraga sukunat cho'kdi.

- Missis Rubinshteyn, - dedi nihoyat Skott tilga kirib. - Biz Janet bilar bir-birimizni sevamiz. Buni tushunsangiz kerak.

Yana sevgi haqida gapiradi-ya! Nahotki odamlar sevgi tufayli boshqa hamma narsaga ko'z yumish mumkin, deb o'ylaydigan darajada sodda bo'lishsa?!

Ella buni unga aytmadi.

- Men sening tuyg'ularingni tushunaman, - dedi u.

- Menga ishon, tushunaman. Lekin sen hali yoshsan, oldinda esa uzun hayot turibdi. Kim bilsin, balki ertaga boshqa qizni sevib qolarsan?

- Missis Rubinshteyn, men qo'pollik qilmoqchi emasman, lekin sizningcha, bu hammaga ham, jumladan, sizning o'zingizga ham taalluqli emasmi? Kim bilsin? Balki ertaga siz ham boshqa bir erkakni sevib qolishingiz mumkindir.

Ella kinoyali kulib yubordi va bu kulgu kutganidan balandroq chiqdi.

- Men turmushga chiqqan katta yoshli ayolman. Men allaqachon o'z tanlovimni qilib bo'lganman. Va erim ham shunday. Men ayni shu haqida gapiroayapman. Nikoh
- jiddiy ish va unga katta ehtiyyotkorlik bilan qadam qo'yiladi.
- Sizningcha, men bir kun kelib boshqa qizni sevib qolishim mumkin bo'lgani uchun, qizingizni sevsam ham, unga uylanmasligim kerakmi? - so'radi Skott.

Suhbat hech qanday natija bermadi, ikkisining ham ta'bi tirriq, hafsalasi pir bo'ldi. Gap nihoyat tugagach, Ella oshxonaga kirdi va o'z yumushlariga urindi, kayfiyati yomon bo'lganda u hamisha shunday qilardi. Ovqat pishirishga kirishar edi.

Yarim soatlardan keyin Ellaga eri telefon qildi:

- Sen Skottga telefon qilib, qizimizga uylanma, debsanmi, men bunga sira ishona olmayapman. Unday qilmadim, deb ayt.

Ella og'ir xo'rsindi:

- Gap-so'zlar buncha tez tarqalmasa! Azizim, men sizga tushuntirib beraman.
- Tushuntirishga hojat yo'q. Sen noto'g'ri qilgansan. Skott hammasini Janetga aytgan va qizing qattiq xafa. U bir necha kun dugonalarinikida yashamoqchi. Hozir esa seni ko'rishni istamayapti, - Devid birpas jim qoldi.
- Va men buning uchun uni ayblay olmayman ham.

Kechki ovqatga nafaqat Janet kelmadi. Devid xam Ellaga xabar yuborib, shoshilinch ishi chiqib qolganini aytdi. Qanaqa shoshilinch ishligini esa aytmadi.

Tushuntirish uning odatida yo'q edi. U boshqa ayollar bilan o'ynashishi, birga bo'lishi ham mumkin edi va lekin kechqurun, albatta, qaytar va uyda ovqatlanardi. Oralaridagi janjal qancha chuqur bo'lmasin, Ella hamisha kechki ovqatni tayyorlar va Devid uni xursandchilik va minnatdorlik bilan er, likopchasiga nima solib bersa, hammasini eb qo'yardi. U hech qachon

rahmat deyishni esidan chiqarmas edi va bu chin yurakdan aytilgan minnatdorlikni Ella xiyonat uchun uzr sifatida qabul qilar edi. Va uni kechirardi. Hamisha kechirardi.

Bu safar eri chegaradan chiqdi, lekin buning uchun Ella o'zini koyidi. Har doimgidek, «aybdor» Ella Ru-binshteynning ikkinchi ismi edi.

Egizaklari bilan stolga o'tirgach, undagi aybdorlik hissining o'rnnini g'amginlik egalladi. Tashqaridan qaraganda Ella doimgiday g'amxo'r ona bo'lib ko'rinayotgan esa-da, lekin ichida tug'yon urayotgan tanglik to'lqinini his etayotgan, og'ziga esa birdan safroning achchiq ta'mi kelgan edi.

Kechki ovqatdan keyin u oshxonadagi stol yonida boshlangan jimjitlik ichidagi qandaydir og'irlikni his etgan holda yana uzoq o'tirdi.

Shunda unga birdan hamisha o'zi tayyorlaydigan ovqatlar va umuman butun bajaradigan uy yumushlari miyani o'tmaslashtiradigan darajada zerikarli bo'lib

ko'rindi. Ella o'ziga achinib ketdi. U o'z umrini to'g'ri sarflay olmaganidan o'ziga achinib ketdi, axir u allaqachon qirq yoshga kirgan edi. Yuragi mehr-muhabbatga to'la edi, lekin bu kimga kerak?

Ella fikran «Shirin shakkoklik»ka qaytdi, Shame Tabriziyning xarakteri uni hayratga solgan edi.

«Shunday bir insonga ro'para kelsam yaxshi bo'larmidi, - fikran hazil qildi u. - Bunday inson bilan bir kun ham zerikish bo'lmas edi!» Shu dam Ella xayolan o'z ro'parasida baland bo'yli, charm shim kiygan, motosiklistlar kurtkasida, qora sochlari elkasigacha tushgan, yuz ifodalari jiddiy sirli erkakni ko'rdi; u rulida qizil shokila osilgan qizil rangli «xarli-devidson» (markali) motosiklda edi. Ella unga tabassum qildi. Kelishgan norg'ul so'fiy cho'l yo'li bo'ylab motosiklida tez yurardi. Shunday yigit bilan avtostopda sayohat qilish yomon bo'lmas edi!

Qiziq, Shams uning kaftini o'qiy olgan

bo'larmidi? Balki u Ellaning xayollari nima
uchun vaqtি-vaqtি bilan bunchalar
qorong'ulashib ketishini tushuntirib bera
olarmidi? Yoki shunday katta va mehr-
muhabbatli oilasi bo'la turib ham, u nima
uchun o'zini bunchalar yolg'iz his etishini
tushuntira olar? Va mening auramning rangi
qandayligini aytar? Bu ranglar qanchalar
yorqin? Va umuman keyingi paytlar hayotimda
biron yaraqlagan (nurli) narsa bo'ldimi o'zi?
Yoki keyingidan boshqa davrdachi? Ayni
o'shanda, oshxonadagi stol yonida o'tirganida,
Ella o'zi aytgan balandparvoz gaplariga, o'zini
ruhan tetik tutishga urinishlariga qaramasdan,
qalbining eng teran erida hamon sevgi orzusi
borligini anglagan edi.

Shams

*1242 yil, mart, Samarqandga yaqin
shaharchadagi karvonsaroy.*

Karvonsaroyning yuqori qavatida o'ndan ortiq

charchagan yo'lovchilar uyquga g'arq bo'lib yotishipti. Men ter va mog'or isi kelib turgan o'rog'liq o'rinn-ko'r- palarim turgan joyga etib borishim uchun allakimlarning qo'l yo oyoqlaridan sakrab o'tishimga to'g'ri keldi. Qorong'uda yotar ekanman, xayolimda kun bo'yi sodir bo'lgan hodisalarni baholar, ular orasida ilohiy ishora bo'lishi mumkin bo'lgan hech nimani shoshqaloqlik yoki jaholat tufayli o'tkazib yubormadimmikin, deya birma-bir ko'zdan kechirardim.

Menga bolaligimdayoq turli hodisalar namoyon bo'lgan va men ovozlar ham eshitar edim. Men hamisha Xudo bilan gaplashardim va U ham meni javobsiz qoldirmas edi. Goho osongina yuqoriga, yettinchi osmonga ko'tarilardim. Gohida esa bahaybat emanlar va yer hidi kelib turgan joylar orasiga yashiringan qandaydir chuqur chohga qulab tushardim. Shunday vaqtarda mening ishtaham yo'qolar va ko'p kunlar taom yemay yura olardim. Meni hech nima qo'rqita olmas edi va keyinchalik

o'zim kurgan narsalarni boshqalarga xuda-bexudaga aytavermaydigan bo'ldim. Odamlar odatda o'zlari tushunmaydigan narsalarga beparvo munosabatda bo'ladilar. Va men eng oldin ayni shuni esimda saqlab qoldim.

Menga namoyon bo'lgan narsalarni noto'g'ri talqin etgan birinchi odam otam edilar. Men o'z himoyachi-farishtamni har kuni ko'ra boshlaganimda o'n bir yoshga to'lgan edim, lekin soddaligimdan hammada shunday bo'ladi, deb o'ylagan edim. Bir kuni otam meni kelgusida duradgor bo'lishimni istab, qarag'aydan sandiq yasashni o'rgatayotganlarida, men unga o'z himoyachi-farishtam haqida aytgandim.

- Sen xayolotga ko'p berilasan, o'g'lim, - degan edi u quruqqina qilib. - Bu xayollarining hammaga aytaverma. Qo'ni-qo'shnilar e'tiborini o'zingga tortishning hech keragi yo'q.

Gap shundaki, bir necha kun oldin qo'shnilarimiz mening ota-onamga o'zimni g'alati tutishimni, bu ularning bolalarini

qo'rqiayotganini aytib, shikoyat qilishgan edi.

- Men seni tushunmayman. Nima uchun o'z ota-onangga o'xshab yurishni istamaysan? - Hamma bolalar o'z ota-onalariga o'xshaydilar-ku. Axar sening bizdan farqing yo'q.

O'shanda men garchi ota-onamni yaxshi ko'rsam ham va ular meni yaxshi ko'rsalar ham, biz mutlaqo har xil ekanimizni tushungan edim.

- Ota, boshqa bolalaringizdan farqli o'laroq men boshqa tuxumdan chiqqandekman. Men xuddi tovuq tuxum bosayotganda, tovuq tuxumlari orasiga solib qo'yilgan o'rdak tuxumidan chiqqan kabiman. Men bir tovuqxonada butun umrini o'tkazadigan uy qushi emasman. Siz suvdan qo'rkasiz, menga esa suv quvvat beradi. Sizdan farqim shuki, men suzishni bilaman va suzaman ham.

Ummon - mening uyim. Agar men bilan bo'la olsangiz, birga suzaylik. Aks holda menga xalal bermang va tovuqxonangizda qolavering. Otamning ko'zlari hayratdan katta-katta ochildi

keyin mendan chetlashayotganday ko'zlarini qisdi.

- Sen hozir o'z otang bilan shunday gapplashsang, - dedi u g'amgin ohangda, - katta bo'lganingda, dushmanlaring bilan qanday gapplashasan?

Katta bo'lgan sarim, turli hodisalar ko'z o'ngimda namoyon bo'lishdan to'xtamas va bu ota-onam dillarini vayron qilar edi. Aksincha, ular ko'payib borar, ta'sir kuchlari ortib borar edi. Men ota-onam qayg'uga botayotganini tushunar, o'zimni aybdor his etar, ammo ko'rayotganlarimni qanday to'xtatishni bilmas edim. Bilgan taqdirimda ham, balki to'xtatmas edim. Shundan keyin uydan butunlay ketdim. Shundan buyon «Shams» so'zi mening tilimdagi eng shirin, eng yoqimli, eng aziz so'zga aylandi. Bolaligimdan xotira bo'lib faqat uchta hid qoldi: kesilgan daraxt hidi, ko'knor urug'i surtib yopilgan nonning hidi va yerdagi yurganda g'irchillaydigan yupqa qor hidi. Shundan buyon men darbadar kezuvchi

darvishman, hech erda bir kundan ortiq tunamayman, hech qachon bir idishdan ikki marta ovqat emayman va har kuni atrofimda har xil odamlarning yuzlarini ko'raman. Och qolmaslik uchun, odamlarning tushlari ta'birini aytib, uch-to'rt tanga pul topaman. Shu alfozda men Sharqu G'arbni kezib Xudoni izlab yuraman. Men yashashga arzirli hayotni izlayman va bilishga arzirli ilmni izlayman. Va hech yerda qo'nim topa olmayman, daydiganim-daydigan.

Sayohatlarim mobaynida ko'p yo'llarni bosib o'tdim, barchaga ma'lum savdo-sotiq yo'llaridan tortib, to ko'p kunlar odam oyoq bosmaydigan yerkiriga qadar- Qora dengiz bo'yalaridan tortib Eronga qadar, Osiyoning bepoyon cho'llaridan tortib Arabiston qum uyumlariga qadar. Men qalin o'rmonlarni, yam-yashil yaylovlarni va bo'z yerkirarni kezdim; karvonsaroylarda va mehmonxonalarda bo'ldim; eski kutubxonalarda olimlar bilan suhbatlashdim; maktablarda yosh bolalarni

o'qitayotgan ustozlarga qulq soldim;
madrasalardagi talabalar bilan tafsir xususida
olib borilayotgan bahslarda qatnashdim;
ibodatxonalarini, monastirlarni va muqaddas
joylarni ziyyarat qildim; g'orda yashayotgan
tarkidunyochilar bilan birga ularning g'orlarida
muroqabalar qildim; darvishlar bilan birga zikr
tushdim; donishmandlar bilan birga ro'za
tutdim va bid'at ahli bilan tanovul qildim; oy
to'lgan kunda shomonlar bilan raqs tushdim.
Men barcha din, barcha yosh va barcha kasb
kishilari bilan birga bo'ldim; baxtsizliklar va
mo'jizalarni kuzatdim.

Men qashshoq qishloqlarni, yondirilgan, qop-
qora ekinzorlarni, talon-toroj etilgan, qon daryo
bo'lib oqqan va biron ta tirik erkak yoki o'n
yoshdan katta bola qolmagan shaharlarni
ko'rdim. Men eng yaxshini ham, eng yomonni
ham ko'rdim. Va endi meni hech nima hayron
qila olmaydi.

Shu sinovlarning barchasidan o'tgach, men
hech qaysi kitobda yozilmagan narsa haqida

yozishga jazm etdim, zero bu narsa mening qalbimda tug'ildi.

Bu men «Darbadar kezgan musulmon-sufiylarning asosiy g'oyalari» deb atagan g'oyalar ro'yxati edi. Men uchun ular xuddi tabiat qonunlari kabi hamma jabhalarga taalluqli, ishonchli va o'zgarmas g'oyalar edi. Bular «Ishqqa oid 40 qoida» bo'lib, ular faqat ishq orqali hayotga qo'llanishi mumkin edi. Qoidalardan birida shunday deyiladi: «Haqqa olib boruvchi yo'lni topish boshning emas, yurakning ishi. Yurak senga yo'lboshchi bo'lishi kerak! Bosh emas. Nafshi yurak yordamidagina yengish mumkin. Shunda o'z Haqiqiy «Men»ingni topasan va natijada Xudoni topasan».

Bu qoidalarni aniqlash uchun menga ko'p yillar kerak bo'lgan edi. Shu ishni yakunlagach, o'z hayotimning yakuniy bosqichiga yetganimni angladim. Lekin o'lish meni xafa qilmayotgan edi, chunki o'lim hamma narsaning yakuni emasligini bilar edim - men o'zimdan meros

qoldira olmayotganimdan xafa edim.

Yuragimda aytlishi kerak bo'lgan juda ko'p narsa to'planib yotar edi. Men o'z ilmim va g'oyalarimni ustoz bilan emas, shogird bilan ham emas, boshqa bir inson bilan bo'lishishni istar edim. O'zimga teng keladigan insonni - suhbatdoshni izlardim.

- Yo, Tangrim, - shivirlar edim men qop-qorong'u zax xonada yotar ekanman, - butun umr dunyo kezib Sening yo'lingda yurdim. Men har qanday insonni xuddi ochiq kitob, jonli Qur'on kabi kabi o'qiydigan bo'ldim. Men boshqa ko'plab ilm ahllari kabi fil suyaklari ustiga qurilgan qal'alarda yashamadim, o'z vaqtimni boshqalar bilan - jamiyatdan chetlashtirilgan, qochqindagi va quvg'indagilar bilan o'tkazishni afzal deb bildim. Endi esa bardoshim tugadi. Sening hikmatlaringni to'g'ri yo'ljadi insonga uzatmog'im uchun menga yordam ber. Shundan keyin O'zing meni nima qilsang qil.

Shu payt xona xuddi kunduzgiday yorishib

ketdi. Havo xuddi xonaning barcha oynalar keng ochib qo'yilganday toza havoga to'ldi, shamol esib uzoqlardagi bog'lardan lola va yasmin gullarining iforini ufurdi.

- Bag'dodga bor, - himoyachi-farishtamning ovozi eshitildi menga.

- Bag'dodda nima bo'ladi? - so'radim men.

- Sen suhbatdosh so'rab iltijo qilding, suhbatdoshni topasan. Bag'dodda ustozni uchratasan va u senga qayoqqa borishing kerakligini aytadi.

Mening ko'zlarimdan minnatdorlik yoshlari oqdi. Men endi ayonlikda ko'ringan inson o'z suhbatdoshim, ruhiy birodarim ekanini bilib olgan edim. Biz ertami yo kech uchrashishimiz taqdir qilingan edi. Endi men bu insonning och qo'ng'irrang mehrli ko'zlarini nima uchun hamisha g'amga to'liqligi sababini bila olaman va nima uchun meni bahor tunida o'ldirishlari sababini bila olaman.

Ella

2008 yil, 19 may, Nortgempton.

Ella uy yumushlari kutayotganini eslab, «Shirin shakkoklik» qo'lyozmasining kelgan betini belgiladida, yopdi va stoldan boshqa yoqqa olib qo'ydi. Lekin roman muallifi uni qiziqtirib qo'ygan edi va Internetga kirib A.Z. Zaxarani izladi. Bu shunchaki oddiy qiziqish edi. Qizig'i shundaki, u yerda yozuvchining o'z blogi bor ekan. Uning varaqlari safsarrang va feruzaranglar bilan qoplangan bo'lib, tepasida uzun oq libos kiygan erkak ohista aylanar edi. Ilgari aylanuvchi darvishlarni sira ko'rмаган Ella tasvirga uzoq qarab qoldi. Blog «Hayot» deb atalmish tuxum po'chog'i» deb nomlangan edi. Pastda xuddi shunday sarlavhali she'r ham bor edi:

Biz bir kun sen bilan suhbat qururmiz!

Va bir kun sen bilan bo'lurmiz birga!

Axir dilimizda juda yaqinmiz,

Garchi ko'inishda bo'lsak-da boshqa.

Blogda dunyoning turli mamlakatlaridan yuborilgan xabarlar ko'p edi. Har bir xabar ostiga uning qayerdan yuborilgani haqida bir necha so'z yozilgan. Bunda uch narsa uning diqqatini o'ziga tortdi. Birinchisi: A.Z. Zaxaraning birinchi «A» harfi Azizni bildirishi. Ikkinchisi: Aziz o'zini so'fiy hisoblashi. Uchinchisi- u hozir Gvatemalaning qayeridadir sayohatda ekani edi, Boshqa bo'limga borilgan joylardan olingan fotosuratlar qo'yilgan edi. Bular dan ko'pi turli til va millat kishilarining portretlari edi. Odamlar bir-birlaridan qanchalik farq qilmasınlar, ularni birlashtiruvchi bir umumiyat bor edi: har birida nimadir yetishmas edi. Ba'zilarining kiyimida biron detal, masalan, zirak, tuqli, tugmacha etishmas edi; boshqalarida tish, barmoq, oyoq kabi muhimroq narsalar yo'q edi. Ella fotografiyalar ostidagi yozuvni o'qi- di: «Bizning qaerda yashayotganimizning

ahamiyati yo'q, hammamiz ham ich-ichimizdan o'z noqisligimizni, bizga nimadir etishmasligini his etamiz, go'yo nimamiznidir yo'qotgandaymiz va uni topishimiz kerak. Bu nima ekanini ko'pchiligidan hech qachon bila olmaymiz. Bila olgan ozchilik esa uni izlashni boshlaydi».

Ella bu yozuvlarni diqqat bilan o'qidi, har bitta rasmni, Azizning biron izohini o'tkazib yubormasdan ko'rib chiqdi. Pastda elektron manzil berilgan edi - azizZahara@gmail.com. U manzilni qog'ozga ko'chirib oldi, keyin Rumiyning quyidagi she'riy satrlarini ko'rib qoldi:

Ishq izla odamzot, izlagal ishqni! Ishq totin tuymasdan yorug' dunyoda yashashning qadru qimmati yo'q tushungil buni.

Ella she'rni o'qidi-yu, shu zahoti yalt etib miyasiga g'alati fikr keldi: Aziz 3. Zaxaraning butun blogi - undagi fotografiyalar, izohlar, sitatalar va she'rlar - bularning hammasi faqatgina unga (Ellaga) mo'ljallanganday

tuyulib ketdi.

Keyinroq u qattiq charchoqni va o'zidan norizolik hissini tuygan holda deraza yonida o'tirardi. Quyosh botmoqda edi, oshxonani duxovkada pishayotgan yong'oqli, shokoladli pirojniy isi tutib ketgan edi. «Shirin shakkoklik» qo'lyozmasi stolda ochilgancha yotar, lekin Ella fikrlar ortidan shunchalar ergashib ketgan ediki, diqqatini kitobga to'play olmay qolgan edi. Dabdurstdan miyasiga men ham hayotning asosiy qoidalari to'g'risida biron nima yozsam bo'lar ekan, degan fikr kelib qoldi. Keyin uni balki «Kundalik ro'zg'or tashvishlariga bo'g'zigacha botgan uy bekasining qirq qoidasi» deb atasa bo'lar?

- Birinchi qoida, - to'ng'illadi u. - Sevgi orzusiga chek qo'yish kerak! Turmush kurgan qirq yashar ayol hayotida bundan ancha muhim bo'lgan narsalar bor.

Va bu hazili unga o'sha ancha muhim narsalarni esiga soldi. U boshqa chiday olmay, qiziga telefon qildi. Lekin qiziga emas,

avtojavob beruvchi apparatga gapirishiga to'g'ri keldi.

- Janet, azizam, men Skottga telefon qilganim noto'g'ri bo'lganini tushundim. Lekin men buni sira yomon xayolda qilmadim, shunchaki aniq ishonch hosil qilmoqchi edim, xolos...

Ella birpas jim qoldi, aytadigan gaplarini oldindan tayyorlab qo'yaganiga afsuslandi. Avtojavob beruvchining shovqini uning asabiga tegardi.

- Janet, meni kechir. Men asli shunday ajoyib oilam borligi uchun xursand bo'lishim kerakligini bilaman. Lekin... agar bilsang... men juda baxtsizman...

Shiq etgan ovoz eshitildi. Avtojavob beruvchi o'chgan edi. Beixtiyor og'zidan chiqib ketgan oxirgi so'zlaridan yuragi qattiq qisildi. Nima bo'ldi, meni jin urdimi? Axir uning miyasiga hech qachon men baxtsizman, degan fikr kelmagan edi-ku! Nahotki inson o'zining ezilib yurganini o'zi bilmasa? Eng ajablanarlisi, shu gapni aytganidan zarracha afsuslanmadı ham.

Ellaning ko'zi Aziz 3. Zaxaraning elektron manzili yozilgan qog'ozga tushdi. Manzil juda oddiy edi,
bu uni go'yo nimanidir yozishga chorlayotganday edi. Ella uzoq o'ylab o'tirmasdan kompyuter oldiga o'tirdi va xat yoza boshladi:

Qadrli Aziz 3. Zaxara!

Mening ismim Ella va men adabiyot agentligining topshirigi bilan Sizning «Shirin shakkoklik» romaningizni o'qiyapman.

Hozircha uning faqatgina bir necha varagini o'qishga ulgurgan esam-da, u menga juda yoqqanini tan olaman. Bossning bu boradagi qarashi qanday bo'lishidan qat'i nazar, mening shaxsiy fikrim shu. Siz bilan bitim tuzish yo tuzmaslik masalasida u buni nazarga oladi, deya olmayman ham.

Nazarimda, Siz hayotning ma'nosi ishqda ekaniga va boshqa hamma narsalar katta ahamiyatga ega emasligiga ishonasiz. Afsuski, men bu fikringizga uncha qo'shila olmayman.

Lekin Sizga yozayotganimning sababi bu emas. Men Sizning «Shirin shakkoklik» romaningizni o'qishim ajablanarli tarzda o'z hayotimda sodir bo'lган kutilmagan bir hodisa bilan bir vaqtga to'g'ri kelib qolgani uchun yozmoqdamан.

Hozir men katta qizimni juda erta turmush qurish kerak emasligiga ishontirishga urinayotgan edim. Kuni kecha men uning yigitidan ular bu rejalaridan qaytishlarini iltimos qildim. Endi esa qizim mendan nafratlanayapti va men bilan gaplashmayapti ham. Menimcha, qizim Siz bilan hamfikr bo'lsa kerak, chunki ikkingizning ham sevgiga bo'lган qarashlaringiz bir xil.

Sizga o'z muammolarim yukini ortganim uchun uzr so'rayman. Men buni istamagan edim. Blogingizda hozirda Siz Gvatemalaда ekaningiz aytilgan ekan. Dunyo bo'ylab sayohat qilish ajoyib bo'lsa kerak. Agar Siz mabodo Bostonga ham kelib qolsangiz, balki uchrashib, bir finjon qahva ichish chog'ida suhbatlasha olarmiz.

*Sizga barcha ezguliklarni tilagan holda
Ella*

Ella o'zining shinam sokin oshxonasida o'tirgan holda, yaqin orada ham, olis kelajakda ham uchratishi mumkinligi sira kutilmagan, noma'lum bir insonga bu xatni qanday yozib yuborganini o'zi ham anglamay qoldi.

Ustoz

1242 yil, aprel, Bag'dod.

Shame Tabriziyning kelgani Bag'dodda bilinmadi, ammo men uning darbadar darvishlarning nochorgina qo'nalg'asida birinchi marta paydo bo'lgan kunni sira esimdan chiqarmayman. O'sha kuni biz e'tiborli mehmonlarni kutayotgandik. Qozikalon o'z yaqinlari bilan biznikiga tashrif buyurgan edi; men uning tashrifi oddiy do'stlik izhoridan kattaroq bo'lsa kerak, degan fikrda edim. So'fizmga salbiy munosabatda ekani ma'lum,

bu qozi bizni, shuningdek, o'ziga tegishli bu mintaqadagi barcha so'fiylarni o'z nazorati ostidan chetda emasligimizni menga eslatmoqchi bo'lib kelgan edi.

U keng yuzli, qorni osilgan va kalta barmoqlariga qo'sha-qo'sha uzuklar taqib olgan edi. Qoziga ovqatdan parhez qilish joiz edi, lekin hech kim, hatto o'z tabiblari ham bu haqida unga og'iz ocha olmagan bo'l salar kerak, deb o'layman. Bizning tomonlarda obro'si katta edi. Undagi izzattalablik va hukmdorlik maylining kuchliligi elga doston bo'l gan edi. Taniqli imomlar oilasiga mansub bu kishi uchun bir qalam tortish bilan istagan kishisini dor ostiga ravona qilish yoki xuddi shu zaylda jinoyatchini kechirib, zindondan chiqarib yuborish cho't emas edi. U hamisha kimxobdan va boshqa qimmatbaho matolardan tikilgan kiyimlar kiyib yurar va o'z hukmdorligiga ishonchi katta edi. Menga uning o'ziga bino qo'yganligi yoqmas edi, lekin jamoamiz tinchini ko'zlab bu hokimiyat vakili

bilan yaxshi munosabatda bo'lishga urinar edim.

- Biz dunyodagi eng badavlat shaharda istiqomat qilmoqdamiz, - der edi qozi og'ziga anjir solarkan
- Bugun Bag'dod mo'g'ullardan qochgan qochoqlar bilan to'lib ketdi. Biz ularga boshpana berayapmiz. Bugun Bag'dod dunyoning markaziga aylandi, shundaymi, Bobo Zamin?
- Bu shahar haqiqiy xazina, - ehtiyyotkorlik bilan dedim men. - Lekin shaharlar ham bandalarga o'xshashini esimizdan chiqarmasligimiz kerak. Ular ham tug'ilishadi, bolalik va yoshlik davrlarini boshdan kechirishadi, keyin keksayishadi va oxiri qazo qilishadi.

Hozir Bag'dodning ayni yoshlik chog'i. Garchi biz hozir xalifa Xorun ar-Rashid davridagidek boy bo'lmasak-da, shahrimiz savdo-sotiq, san'at va she'riyat markazi ekanidan faxrlansak arziydi. Biroq ming yildan keyin Bag'dod

qanday bo'lishini hech kim bilmaydi. Hammasi o'zgarib ketishi mumkin.

- Bu tushkunlik qayoqdan keldi? - Qozi bosh chayqadi va boshqa idishdagi xurmoga qo'l cho'zdi. - Abbosiylar hukmdorligi abadiy qoladi va biz hamisha gullab-yashnaymiz. Agar xoin va buzg'unchilar o'rnatilgan tartibotni buzishga harakat qilishmasa, albatta. O'zlarini musulmon deb ataydigan, ammo kofirlardan ham badtar xavfli kimsalar bor. Zero, dinimizni noto'g'ri talqin etishdan ko'ra xavfliroq hech nima yo'q.

Men unga javob bermaslikni lozim topdim.

Qozi islomni so'fiyona va qisman individualistik talqin etganlarni buzg'unchilar deb hisoblashi ma'lum edi. U bizni din Qonunlari (Aqidalar)ga va marosimlarga bepisandlikda va shuning tufayli, o'zi kabi hokimiyatning boshqa vakillarini ham hurmat qilmaslikda ayblar edi. Goho menga u barcha so'fiylarni Bag'doddan haydab chiqarishga tayyor turganday tuyulardi.

- Sizning birodarlarlingiz bezarardirlar va lekin barcha so'fiylar Qonunga qat'iy bo'y sunadilar deb bo'ladimi? - so'radi qozi soqolini silarkan. Unga qanday javob berish mumkin? Xudoga shukurki, ayni shu payt eshik taqillab qoldi. Mallasoch xizmatchi yonimga kelib qulog'imga bir darbadar darvish mehmon bo'lib kelganini, u men bilan, albatta, bog'lanishi kerakligini va boshqa hech kim bilan gaplashmoqchi emasligini ta'kidlayotganini aytdi.

Bunday hollarda men odatda mehmon kutib turishini va toki kelgan odamlarni kuzatmagunimcha uni xoli bir xonaga olib kirishlarini va ovqatlantirishlarini so'ragan bo'lar edim. Lekin hozir qozi meni noqulay ahvolga solib qo'ygani uchun, bu darbadar darvishni yonimizga taklif etsam yomon bo'lmasa kerak: balki u turli mamlakatlarda ko'rgan-kechirganlarini hikoya qilib, vaziyatdagi taranglikni yumshatar, deb o'ylab qoldim. Shu o'y bilan mehmonni yonimizga taklif etishlarini so'radim.

Bir necha daqiqadan so'ng eshik yana ochilib, boshdan-oyoq qora kiyim kiygan odam kirib keldi. Ozg'in, holdan toygan, yoshi nechadaligini bilib bo'lmaydigan bu odam darhol diqqatimni o'ziga tortdi. Qirra burunli, ichkariroq botgan qora ko'zli va qora qoshli, peshonasiga qalin jingalak sochlari tushib turardi. Qaytarma yoqasiga qalpoq qo'shib tikilgan uzun plash va qo'y terisidan tikilgan etik kiygan edi. Bo'ynida bir necha tumor osilib turardi. Qo'lida yog'och kosasini - darbadar darvishlarning xayr-ehson solinadigan idishini ushlab turardi - bu izzatparastlik va kibrning yengib o'tilganligi majozi edi. Menga uning qozi va uning hamrohlariga uncha e'tibor bermagani darhol ravshan bo'ldi. Uning o'zini daydi yoki gadoy sifatida qabul qilishlari mumkinligining ham unga farqi yo'qday edi. Men kirish va o'zini tanitish uchun ruxsat berishlarini kutib, eshik oldida turganini ko'rganimdayoq uning boshqa darvishlarga o'xshamasligini darrov ilg'adim. Bu uning

ko'zlarida, xatti-harakatlarida, butun qiyofasida ko'riniб turardi. U kichkina va zaif bir zarra bo'lib ko'ringani bilan, bamisolи qudratli eman daraxti urug'ini o'z ichiga olgan mevasi kabi edi.

- Xush kelibsан, darvish, - dedim men va qo'lim bilan ro'paramdagi ko'rпachadan joy ko'rsatdim.

Darvish hamma bilan salomlashib, atrofdagi barcha odamlarga e'tibor bilan va hech narsani nazaridan chetda qoldirmagan holda o'tirdi. Keyin uning nigohi qozida to'xtadi. Nazarimda, ular bir daqiqadan kam bo'lмагan vaqt mobaynida biron bir so'z aytmagan holda, bir-birlaridan ko'z uzmay qolishdi. Ular ijtimoiy pillapoyaning butkul qarama-qarshi tomonlarida turgan bu kishilar - bir-birlari haqlarida nimalarni o'ylayotganlari men uchun juda qiziq edi.

Men darvishni iliq echki sutidan ichishga, shirin anjir va xurmodan tanovul qilishga taklif etdim, lekin u bularni odob bilan rad etdi.

Ismini so'raganimda ismi Shams Tabriziy ekanini va u Xudo izlab kezgan darbadar darvish ekanini aytdi.

- Xo'sh, topdingmi Uni? - so'radim men.

Darvishning yuziga soya tushganday bo'ldi; u boshirg'itdi.

- Albatta, U hamisha va hamma yoqda men bilan birga.

Qozi odob saqlashni xayoliga ham keltirmasdan, hingillab kuldi:

- Nima uchun siz darvishlar o'z hayotingizni bu qadar murakkablashtirib yuborasiz, shuni hech qachon tushunmaganman. Hamon Xudo xamisha va hamma yoqda sen bilan birga ekan, nima uchun dunyo kezib Uni izlab yurasan?

Shams bir zum boshini quyi soldi va bir necha daqiqa javob qilmadi. Keyin boshini ko'tardi.

Uning chehrasi sokin, ovozi bir tekis edi:

- Chunki Uni faqat izlaganlar topa oladilar.

- Bu so'z o'yini, - masxaraomuz kuldi qozi. -

Sen bizni bir umr bir yerda yashab kelayotganimiz uchun Xudoni topa

olmaysizlar, demoqchimisan? Bo'l magan gap.
Hamma senga o'xshab juldur kiyimlar kiyib,
darbadar yurishi shart ekanda.

Kulgu ovozlari keldi: odamlar shu zayl
o'zlarining qozi bilan hamfikr ekanliklarini
bildirardilar. Bu baxtsiz, zaif, xukmronlik
lavozimidagi odamlarga yoqishni istaydigan
kishilar kulgusi edi. Men allanechuk bo'lib
ketdim. Qozi bilan darvishni birga uchrashadir,
xato qilib qo'yganim ravshan edi.

Shams qoziga deydi:

- Nazarimda, siz meni to'g'ri tushunmadingiz.
Men inson tug'ilgan shahrida Xudoni topa
olmaydi, deganim yo'q. Xudoni qayerda
bo'l mang, o'sha yerda topish mumkin, - davom
etdi darvish. - Biron marta ham o'z uyidan
ketmagan, shunga qaramay, Xudoni topgan
insonlar ham bor.

- To'g'ri! - quvonch bilan xitob qildi qozi, lekin
uning xursandligi uzoqqa bormadi.

Darvish gapida davom etdi:

- Men hozir siz kiyib yurganingizdek, kimxob

va ipak matolardan tikilgan liboslar kiyish va qimmatbaho taqinchoqlar taqish bilan kishi Xudoni topa olmasligini nazarda tutgan edim, qozikalon.

Xonaga og'ir sukunat cho'kdi. Hammaning nafasi ichida edi.

- Seni darvish desam, tiling haddan ziyod o'tkir-ku,- dedi nihoyat qozi.
- Agar burch taqozo etsa, butun dunyo hiqildog'imdan olib, jim bo'lishga majbur etmoqchi bo'lsa ham, aytishim kerak bo'lган narsani aytaman.

Qozi qovog'ini uydi, keyin xuddi murosaga kelgan kabi yelkalarini qisdi.

- Boringki, - shunday bo'la qolsin, - dedi u. - Mayli, bizga sen kabilar ham kerak. Sen kelishingdan salgina oldin biz aynan shahrimizning naqadar go'zalligi haqida gaplashayotgandik. Sen ko'p joylarni kurgan bo'lsang kerak. Ayt-chi, dunyoda Bag'doddan go'zalroq shahar bormi?

O'tirganlarga bir-bir qarab chiqarkan, Shams

ovozini balandlatmay dedi:

- So'zsiz, Bag'dod - buyuk shahar, lekin dunyoviy go'zallikning umri qisqa bo'ladi. Shaharlar unda yashovchi insonlarning qalblari tufayli ravnaq topadi. Agar bu qalblarda Haqqa ishonch yo'qolgan bo'lsa, shaharlar ham tanazzulga uchraydi. Hamisha shunday bo'ladi. Men o'zimni tuta olmay bosh irg'idim. Shams Tabriziy menga o'girildi va men uning ko'zlarida do'stona hamfikrlikni ko'rdim. Umenga qarab turarkan, nazarimda, quyoshning iliq nurlari tekkanday bo'ldi. Shunda men uning ismi jismiga monand ekanini angladim. Bu insondan hayotiy quvvat taralib turardi. U chindan ham Shams - «quyosh» edi.

Lekin qozi bunday fikrda emas edi:

- Siz, so'fiylar, hamma narsani haddan ziyod murakkablashtirasiz. Xuddi shoirlar va faylasuflar kabi. Shuncha gapning nima keragi bor? Odamlarning ehtiyojlari juda oddiy. Yo'lboshchilar ularning shu oddiy ehtiyojlari qondirilishini va hech kim to'g'ri yo'ldan

og'masligini nazorat qilib tursalar bo'ldi.
Buning uchun esa ular qonunlar (shariat)ga
og'ishmay amal qilishlari yetarli.

- Qonun, misoli sham, - javob qildi Shame Tabriziy, - u yoritadi. Lekin biz qorong'uda sham yorug'ida faqat bir yerdan boshqa yerga o'tishimiz mumkinligini ham unutmasligimiz kerak. Agar biz bor e'tiborimizni faqat shamga qaratib, aslida qayoqqa ketayotganimizni (yo'lni) unutsak, yaxshi bo'ladimi?

Qozining basharasi burishib ketdi. Qiyofasi tund edi. Men qo'rqib ketdim. Ishi odamlarni so'roq qilish va jazolash bo'lgan qozi bilan Aqoid borasida bunday gap talashish daryo oqimining xavfli joyiga borib qolishiday gap edi. Shams buni bilarmikin?

Darvishni bu yerdan olib chiqib ketish uchun bahona izlar ekanman, uning ovozini eshitdim:

- Hamma uchun umumiyligi bo'lgan bir qonun bor.
- Bu qanday qonun? - gumonsirab so'radi qozi.
Shams gavdasini tik qildi, nigohini ko'rinxas

bir kitobga qaratganday edi va dedi:

- Har bir inson Muqaddas Qur'onne o'z layoqatida va mohiyatga kira olishi darajasida tushuna oladi. Bunda to'rt daraja bor.

Birinchisi, tashqi daraja va ko'pchilik shu daraja bilan qanoatlanadi. Ikkinchisi, ichki daraja. Uchinchisi, ichkining ichkisi.

To'rtinchisi esa shuday chuqurki, uni so'zlar vositasi ila ifodalab bo'lmaydi, shuning uchun uni tafsirlab ham bo'lmaydi,

tafsirlanmaganicha qoladi. Butun e'tiborni shariatga qaratgan ulamolar, - ko'zlari yaltirab davom etdi Shams, - tashqi ma'nolarni biliшади. So'fiylar ichki ma'nolarini biladilar.

Avliyolar ichkining ichkisini biladilar.

To'rtinchisini esa, faqat Xudoga yaqin turuvchi payg'ambarlar biladilar.

- Sen oddiy so'fiy Qur'onne ilohiyotchi olimdan chuqurroq tushundi, demoqchimisan? - so'radi qozi barmoqlari bilan piyolani chertar ekan. Darvishning lablari bilinar-bilinmas kinoyali jilmayishga burildi va javob qilmadi.

- Ehtiyyot bo'l, birodar, - dedi qozi, - Sen aytgan gap bilan yashirin shirk orasida masofa juda yaqin.

Uning so'zlarida tahsid bor edi, darvish buni ilg'amaganga soldi.

- Ochiq shirk nima o'zi? - savol berdi u. Javob bo'lmagach, og'ir xo'rsindi. - Ruxsatingiz bilan bir rivoyatni aytib beray.

Bir kuni Muso payg'ambar yolg'iz o'zi tog'u toshlarda ketayotib bir cho'ponga duch kelipti. Cho'pon qo'llarini osmonga ko'tarib, Xudoga nola qilardi: «Ey Xudojon Sen qayerdasan, kel, sochlaringni bitdan tozalay, qulqlaringni tozalab qo'yay, senga choriq tikib beray va nainki o'z jonim, balki qo'ylarim, farzandlarim ham senga qurban bo'lsin. Qaerdasan, borib, dastyoring bo'lsam, sut, qaymoqlarim bilan qorningni to'ydirlsam, boshing og'risa, silabi-siypasam, yuz-ko'zingdan o'psam.

Oyoqlaringni uqalasam...»

Bularni eshitgan Muso cho'ponni koyib ketipti: «Ey, gumroh, to'xta! Sen nimalar deyapsan

o'zi? Axir Xudo choriq ham, to'n ham kiymaydi, yemaydi ham, ichmaydi ham, Uni nega o'zingga o'xshatasan. U Quyosh misoli, sen esa misoli bir chivinsan...» Cho'pon bu gaplarni eshitib xijolatdan uyalib, qattiq xafa bo'lgancha jim qolipti. Keyin Muso unga bir nechta duoni o'rgatib, qaytib ketipti.

O'sha kuni kechasi Muso ovoz eshitipti. Bu Parvardigori olamning ovozi edi.

«Ey Muso, sen nima qilib qo'yding? Sen cho'ponni men uchun naqadar qadrli ekanini bilmasdan uni koyiding. U balki qoidaga muvofiq duo qila olmagandir ham, lekin u otashin so'zlayotgan edi. Uning qalbi, niyatlari toza edi. Balki uning so'zlari sening quloqlaringga shakkoklik bo'lib eshitilgandir, lekin Men uchun ular shirin shakkoklik edi». Muso (a.s.) o'zi xato qilib qo'yganini darhol tushundi. Ertasi erta bilan turib, toqqa, cho'pon bilan uchrashgan yeriga bordi. Uni topdi. Bu safar cho'pon u aytganday duo o'qirdi. U ehtirossizgina qilib, tushunarsiz jumlalarni

valdirardi. Qilgan ishidan afsuslangan Muso (a.s.) cho'ponni elkasidan qoqibdi va debdi: «Do'stim, men senga nohaqlik qilibman. Iltimos, meni kechir. Sen o'zing bilganingday duo qil. Xudo uchun asosiysi shu».

Buni eshitib, cho'pon yengil tortipti. Ammo u avvalgi o'z duosiga qaytmapti. Lekin Muso o'rgatgan duo ham unga ma'qul ko'rinxapti. U Xudo bilan gaplashmoqning boshqa usulini topibdi. Chunki Xudoga beg'ubor ishqini yoqqanidan endi o'zining avvalgi shirin shakkokligi darajasidan yuqoriq pog'onaga ko'tarilgan edi.

- Bundan ko'rinxadiki, odamlar Xudo bilan qanday gaplashishlariga qarab xukm chiqarish kerak emas ekan, - rivoyatdan xulosa chiqardi Shams. - Har bir insonning o'z yo'li va o'z duosi bor. Xudo biz haqimizda aytgan so'zlarimizga qarab xukm chiqarmaydi. U bizning qalbimizga teran nazar soladi. Qonun-qoidalar (aqidalar) asosiy emas, asosiysi,

bizning qanchalar sofligimiz.

Qoziga zimdan nazar solar ekanman, uning sokin va o'ziga ishonch bilan o'tirishi niqob ekanini, bu niqob ostiga g'azab yashiringanini tushundim. Ayni chog'da, aqli odam sifatida u o'zining noqulay vaziyatga tushib qolganini tushunar edi. Qoidaga ko'ra darvishni qo'polligi uchun jazolash kerak edi, lekin u holda bu oddiy darvishning qozikalonga qarshi gapirishga jur'at qilgani hammaga ma'lum bo'lib qolar edi. Shuning uchun o'zini go'yo bu rivoyatga aloqasi yo'qday, beparvo tutishi afzalroq edi.

Quyosh bota boshlagan edi. Qozi, uni muhim ishlar kutib turganini aytib, o'rnidan turdi. Menga bosh irg'itib va Shams Tabriziyga sovuq qarash qilib, xonadan chiqdi. Uning mulozimlari ketidan ergashdilar.

- Qozi seni yomon ko'rib qoldi, deb qo'rqaman,
- dedim men darvish bilan yolg'iz qolanimizda.

Shams sochlarni yuzidan olib tashladi va

jilmayib qo'ydi:

- O, hechqisi yo'q. Men odamlarga kamdan-kam yoqaman. Bunga o'rganib qolganman. Meni qo'rquv bosdi. Bunday mehmonlar bizda uncha ko'p uchramasligini anglab turardim.
- Seni Bag'dodga nima yetaklab keldi, darvish? Men uning javobini juda bilgim kelardi, lekin, shunisi qiziqki, uni eshitishdan qo'rqar edim ham.

Ella

2008 yil, 20 may, Nortgempton.

Devid uyga qaytmagan o'sha tunda Ella tushida qorin raqsiga tushayotgan yalim yalang'och ayollarni va darvishlarni ko'rdi; u yo'l bo'yidagi karvonsaroyda ovqatlanayotgan jangari askarlarni ham ko'rdi; ularga go'sht solib pishirilgan somsalar va turli shirinliklar solingan likoplar ketma-ket tashib keltirilar edi. Keyin Ella o'zini ko'rdi. U allaqanday begona mamlakatda goh g'ala-g'ovur bozorda, goh

qandaydir qo'rg'onda kimnidir izlar edi. Uning atrofida ko'p odamlar asta harakatlanar edilar, ular ham allaqanday eshitilmas musiqa ohangi ostida raqs tushar edilar go'yo. Ella allanima so'ramoqchi bo'lib, uzun mo'ylabli semiz kishini to'xtatdi, lekin nima so'ramoqchi bo'lganini esidan chiqarib qo'ygan edi. U kishi tushunmay unga qarab qo'ydi va nari ketdi. Keyin u yana kimlar bilandir gaplashmoqchi bo'ldi, lekin hech kim unga javob bermas edi. U avvaliga mahalliy tilni bilmaganim uchun meni tushunishmayotgandir, deb o'yladi. Lekin keyin qo'lini og'ziga olib borgach, dahshat bilan o'zining og'zi yo'qligini bildi. Sarosimaga tushib, o'zining qanchalik o'zgarganini ko'rish va tushunish uchun hamma yoqqa qarab ko'zgu izlay boshladi, lekin hech qaerda ko'zgu yo'q edi. Keyin Ella yig'lab yubordi va g'alati tovushlardan uyg'onib ketdi.

U ko'zlarini ochganida, Spirit (iti) zo'r berib orqa eshikni tirmalayotganini ko'rdi. Biron hayvon pillapoyaga chiqqan bo'lsa kerak. It

ayniqsa sassiqko'zanolarni yomon ko'rardi. O'tgan yil qishda ulardan biri bilan to'qnashib qolganini haligacha esidan chiqarmagan bo'lsa kerak. O'shanda Ella bir necha hafta unga o'rnashib qolgan sassiq hidni ketkazish uchun itni cho'miltirgan bo'lsa ham, kuygan rezinkanikiga o'xshagan bu hid sira ketmagan edi.

Ella devorda osilib turgan soatga qaradi. O'n besh minut kam uch. Devid hamon qaytmagan edi va balki hech qachon qaytmas. Janet qo'ng'iroq qilmadi. Qattiq umidsizlikka tushgan Ella uning qachondir qo'ng'iroq qilishidan gumonda edi. Eri va qizi undan yuz o'girganlaridan dahshatga tushgan holda Ella muzxona eshigini ochdi va bir necha daqiqa u yerdagi masalliqlarga ko'z yogurtirdi. Vanilli-olchali muzqaymoq egisi kelar edi, lekin semirishdan qo'rqb, nafsini tiydi, muzxona eshigini keskin yopib nari ketdi.

Qizil vinoli shishani ochdi. Bu yengil, unga yoqadigan achchiq-chuchuk ta'mlar aralashgan,

yaxshi vino edi. Faqat ikkinchi qadahni to'ldirayotganida Ella Devidning qimmatbaho «Shato Margo 1996» bordosini ochishi ham mumkinligini o'ylab qoldi. Nima qilishini bilmay, noxushlik bilan shishaga qarab qoldi. Kun bo'yi charchagan va yurgan yo'lida uyqusi kelib turgan Ella elektron pochtasiga ham bir nazar solib qo'ymoqchi bo'ldi. O'ndan ortiq keraksiz xabarlar orasida Mishelning qo'lyozmani o'qish bo'yicha ishlar qandayligi haqidagi savoli va Aziz Z. Zaxaradan kelgan xat bor edi.

Azizam Ella (Sizni shunday atashimga ruxsat etsangiz, albatta)!

Xatingiz menga Gvatemalaning Monostenango deb atalgan qishlog'idaligimda yetib keldi. Bu odamlar hamon mayya kalendariga rioya etib kelayotgan kamdan-kam joylardan biri. Men qo'ngan mehmonxonaning naq ro'parasida xilma-xil ranglardagi yuzlab mato parchalari bilan bezangan xohish-istiklar daraxti ko'rini turipti. Uni bu yerda chilparchin bo'lgan

(*parchalangan yuraklar*) daraxti deb atashadi. *Yuraklari chil-chil bo'lgan odamlar, singan yuraklariga shifo istab, iltijo qilgan holda mato bo'lagiga o'z ismlarini yozishadi va daraxt shoxlariga osib quyishadi.*

Sizning e-mail ingizni o'qigach, mening shu daraxt yoniga kelib, Siz bilan qizingiz yarashib ketishingizni tilab, duo qilganim Sizga nisbatan uncha katta behurmatlik bo'lib ko'rinas, degan umiddaman. Zero, muhabbatning biron uchquni ham uvol ketmasligi kerak, chunki Rumiy aytganidek, muhabbat - tiriklik chashmasidir.

O'tmishda menga bir narsa yordam bergen edi. Men atrofimdagи odamlarga ular o'zlari istaganlariday yashashlariga xalal berishdan, ularni o'zgartira olmaganimdan, ruhan ezilishlardan o'zimni to'xtatdim. Agar ruxsat etsangiz, Sizga (boshqa insonlar hayotiga) aralashishdan ko'ra (boshga tushgan ishlarga) rizolik vaziyatida bo'lishni maslahat bergen bo'lardim.

Ba'zilar «rizolikni» (mo'minlikni) «zaiflik» deb tushunar ekanlar, ular katta xatoga yo'l ko'yadilar, vaholanki, zaiflikning bunga mutlaqo aloqasi yo'q. Rizolik (mo'minlik) insoniyat bir jamoa bo'lib yashashi shartlarini tinchlik bilan (qarshiliksiz) qabullashi shakli bo'lib, bunga biz hozirda o'zgartira olmaydigan yoki tushuna olmaydigan barcha vaziyatlar ham kiradi.

Mayya jadvaliga ko'ra, bugun yaxshi kun. Astrologiyaviy o'zgarishlarning ko'pi endi sodir bo'ladi va ular insonlarda yangi ong shakllanayotganidan darak bermoqda. Men bu xatni quyosh botmasidan oldin, ya'ni bugungi kunning oxiriga qolmasdan yetkazishga ulgurishim kerak.

Ishq kutmagan vaqtningizda va kutmagan yeringizda Sizni tutib oladi.

Sizga samimiyat ila Aziz.

Ella butkul begona inson dunyoning boshqa chekkasida turib unga ezgulik tilab duoi iltijo qilganidan ta'sirlangan holda noutbukni yopdi.

Ko'zlarini yumib, istaklar daraxtiga bog'langan matoga kimning ismi yozilganini va uning shamoldagi varrak kabi silkinayotganini tasavvur etdi.

Bir necha daqiqadan so'ng Ella oshxona eshigini ochdi va hovliga chiqib, salqin esgan shamol lazzatini tuydi. Mamnuniyat his etmayotgan, notinch Spirit yonida turar va zo'r berib havoni iskar edi. U oldin ko'zlarini qisdi, keyin uzoqda qo'rqinchli bir nimani ko'rayotganday, ko'zlarini ochdi va quloqlarini ding qildi. Oy yorug'ida Ella va iti yonma-yon turar va har ikkisi ham zim-ziyo qorong'ulikka qarab, u yerda harakatlanayotgan narsadan va noma'lumlikdan bir xilda qo'rqqanlaricha turar edilar.

Xizmatchi

1242 yil, aprel, Bag'dod.

Men qozikalонни quyуq та'зим ва тавозе билан
eshikka qadar kuzatib qo'ydim va idish-

tovoqlarni yig'ishtirib olish uchun darhol orqaga qaytdim.

Ajabki, Bobo Zamon (Ustoz) va darbadar darvish, avval qanday o'tirgan bo'lsalar shunday, biron so'z ham aytmasdan o'tirardilar. So'zsiz suhbat - bu qanaqasi, tushunmay ko'z qirimni tashlar edim men. Qiziqishning zo'ridan yostiqlarni tuzatayotib, chiqindilarni yig'ishtirayotib, gilamdag'i ushoqlarni terib olayotib vaqtni ataylab cho'zardim, lekin oxiri chiqib ketishimga to'g'ri keldi.

Istar-istamas oshxonaga kirganimda, men kurgan zahoti oshpaz menga buyruqlar berib tashladi.

- Peshtaxtani art, yerni supur! Idishlarni yuvish esingdan chiqmasin! O'choq va devorlarni artib kuy! Keyin sichqonning qopqonini tekshir! Men so'fiylar xonaqohiga kelganimga yarim yilcha bo'ldi, oshpaz esa meni hamon turtkilaydi. Kun bo'yi itday charchayman, u esa o'zi berayotgan bu azoblarni ruhiy tayyorgarlik deb ataydi, go'yoki chirk bosgan idishlarni

yuvish ruhiy ish emish.

Gapga uncha chechan bo'l magan bu odam faqat bir hikmatni - «Ozodalik - duo bilan barobar, duogo'ylik - bu tozalik demak» degan gapni tinmay takrorlayverardi.

- Agar shunday bo'lsa, u holda Bag'doddagi barcha ayollar allaqachon avliyo bo'lib ketgan ekanlar, - deb yubordim unga javoban bir kun jasorat qilib.

O'shanda u mening boshimga yog'och qoshiqni otib yuborgan va bor ovozi bilan baqirgan edi:

- Bunday gaplar yaxshilikka olib bormaydi, bola! Darvish bo'lishni istasang, mana shu yog'och qoshiqday so'zsiz bo'l. Mahmadalik - solikka xos fazilat emas. Kam gapirib, ko'p o'yla!

Men oshpazni yomon ko'rardim, lekin ko'proq qo'r qardim undan. Hech qachon buyruqlarini bajarmay qoldirmagan edim. Shu bugungi kechga qadar.

Oshpaz sal chalg'igan zahoti, qiziqishdan toqatim toq bo'lgancha, oyoq uchida yurib

oshxonadan chiqdim, darbadar darvish haqida biron bir narsa bilishga qaror qilib, asosiy mehmonxona eshigi oldiga keldim. Kim o'zi bu? Bu yerga nima uchun keldi? U boshqa darvishlarga o'xshamas edi. Uning nigohlari hatto tavoze bilan bosh eggan vaqtlarida ham o'tkir va mustaqil edi.

Eshik tirqishidan qaradim. Avvaliga hech nima ko'rinnadi. Birozdan keyin ko'zlarim mehmonxona nimqorong'usiga ko'nikkach, ustoz bilan darvishning yuzlarini farqlay boshladim.

- Shams Tabriziy, senday insonni Bag'dodga nima olib keldi? - so'radi ustoz. - Bizning shahrimizni tushingda ko'rib keldingmi?

Darvish bosh chayqadi:

- Yo'q, tushimda ko'rib kelmadim. Menda namoyonlik sodir bo'ldi. Men hech qachon tush ko'rmayman.

- Hamma tush ko'radi, - dedi muloyimlik bilan Bobo Zamon. - Sen balki ularni eslab qolmassan. Lekin bu tush ko'rish yo'q, degani

emas.

- Tush ko'rmayman, - o'z gapida qattiq turdi darvish. - Men Xudo bilan shunga kelishganman. Bolaligimda men farishtalarni ko'rardim va ko'zlarimga koinot sirlari ochilar edi. Men ko'rganlarimni ota-onamga aytardim, lekin bu ularga yoqmas edi, ular menga boshqa ertak to'qimaslikni buyurishdi. Do'stlarimga aytib berardim, lekin ular meni xayolparastga chiqarishdi. Keyin ko'rganlarim haqida o'qituvchilarimga aytdim, ular ham shunday javoblar qilishdi. Nihoyat, odamlar barcha g'ayrioddiy narsalarni tush yoki xayol, deb hisoblashlarini tushundim.

Keyin darvish xuddi qandaydir shovqinni eshitganday, to'satdan jim bo'lib qoldi. Shunda g'alati ish bo'ldi. U o'rnidan turib, qaddini rostladi va men tomonga qaraganicha, sekin-asta eshikka yaqinlashdi. Go'yo mening yashirincha kuzatayotganim unga ma'lumday edi.

Nahotki, u eshik ortidagini ko'rар ekan?

Yuragim juda qattiq dukillardi. Oshxonaga qochib ketishni istardim, lekin bunday qila olmasdim. Qo'llarim, oyoqlarim, butun tanam qotib qolganday edi. Eshik ortidan Shamsning tim qora ko'zлari menga qarab turardi. Meni dahshat bosdi, lekin ayni paytda butun tanam bemisl kuchga to'ldi.

Darvish yaqin keldi, kaftini eshik dastasiga qo'ydi, lekin hozir eshik ochiladi va u meni ushlab oladi, deb turganimda, nimadir uni to'xtatdi. Menga uning yuz ifodalari ko'rinnmas edi va men uni nima uchun maqsadini amalga oshirmaganini tushunmadim. Biz ik- kimiz eshikning ikki tomonida, menga chidab bo'lmas darajada uzun ko'ringan ikki daqiqa mobaynida, shu tariqa turib qoldik. Keyin darvish menga orqasini o'girdi, eshikdan nari ketdi va o'z hikoyasini davom ettirdi:

- Biroz kattaroq bo'lganimdan keyin men har sa-far Uni ko'rGANIMDA bu tush emasligini bilishim uchun, mendan tush ko'rish qobiliyatini olib tashlashini Xudodan iltijo qilib

so'radim. U rozi bo'ldi, shuning uchun men buni aniq bilaman, tush ko'rmayman, menga voqelik o'zi namoyon bo'ladi.

Shams Tabriziy xonaning narigi tomonidagi deraza oldida to'xtadi, tashqarida yomg'ir shivalab turardi, u gapida davom etishdan oldin yomg'irga uzoq qarab turdi:

- Xudo mendan tush ko'rish qobiliyatini oldi. Biroq buning o'rniga U menga boshqalar ko'rgan tushlarini tushunish imkonini berdi. Men odamlarga ular ko'rgan tushlari ma'nosini tushuntiraman.

Men Bobo Zamon, odatda hamisha menga qilganiday, uning bunday puch gapiga ishonmasligi va darvishning ustidan kulishiga amin edim.

Ammo u buning o'rniga hurmat bilan bosh irg'adi:

- Sen boshqalarga o'xshamaydigan ko'rinasan. Qani endi ayt-chi, men sen uchun nima qilib berishim mumkin.

- Bilmadim. Aslida, siz menga o'zingiz buni

ayta- siz, deb umid qilgan edim.

- Qanday qilib? - hayron bo'lib so'radi Ustoz.

- Men qirq yil darbadar darvish bo'lib yurdim.
Tabiat qonunlarini tushunishni o'rgandim,

jamiyat qonunlari esa hamon menga qorong'u.

Agar kerak bo'lib qolsa, men yirtqich hayvon
bilan jang qila olaman, biroq insonga zarar

yetkaza olmayman. Men osmondag'i barcha

yulduz turkumini, o'rmondagi har qanday

daraxtni nomma-nom aytib bera olaman va

tangri Taolonning O'zidan nusxa olib yaratgan

har bir insonni ochiq kitob kabi o'qiy olaman.

Ustoz moychiroqni yoqqunicha Shams yana

biroz jim qoldi. Keyin davom etdi:

- Qoidalardan birida: «Sen Xudoni hamma
narsalarni va hamma odamlarni bilish orqali
bila olasan, chunki xudo nafaqat masjiddadir, u
sinagogda ham yoki boshqa ibodatgohlarda
hamdir. Ammo shunda ham uning

qayerdaligini bilishni istasang, Uni O'z

sodiqlari qalbidan izla» deyilgan. Uni ko'rib,

tirik qolgan kimsa yo'q, shuningdek uni ko'rib,

o'luvchi ham yo'q. Uni topgan hamisha Uning bilan birga qoladi.

G'ira-shira yoritilgan xonada Shams Tabriziy o'zi bo'lganidan baland ko'rinaridi va sochlari yelkalariga tushib tutardi.

- Men ko'p yillar o'z duolarimda Xudoga iltijo etib, o'z ilmimni bo'lishmog'im uchun suhbatdosh so'radim. Nihoyat Samarcanddaligimda menga namoyonlik berildi. Menga Bag'dodga borishim va u yerda maqsadim amalga oshishi mumkinligi aytildi. Menimcha, siz menga suhbatdosh bo'ladigan kishi ismini bilasiz, uning qayerda istiqomat qilishini bilasiz va menga aytasiz, hozir emas, keyinroq bo'lsa ham aytasiz.

Sekin-asta Yerga kech tushgan, lekin oy nuri xonani yoritganidan keyingina men vaqt allamahal bo'lib qolganini payqagan edim.

Oshpaz meni rosa izlagan bo'lsa kerak. Lekin menga baribir edi. Qoidani buzayotganim menga birinchi marta yaxshi ko'rinar edi.

- Mendan qanday javob kutayotganiningi

tasavvur ham eta olmayapman, - g'o'ng'illab qo'ydi ustoz. - Lekin hamon menga buni senga ochish buyurilgan bo'lsa vaqtি-soati kelganda bu menga ma'lum bo'lishiga ishonaman. Unga qadar biz bilan qol. Mehmonimiz bo'l.

Buni eshitgach, darbadar darvish tavoze bilan ta'zim qildi va minnatdorlik bilan Bobo Zaminning qo'lini o'pdi. Shundan keyin ustoz darvishga g'alati savol berdi:

- Sen o'zingdagi barcha ilmni boshqa insonga berishga tayyorman, deding. Sen Haqiqatni xuddi qimmatbaho dur kabi o'z kaftingda ushlab turibsan va uni kimgadir taqdim etishni istaysan. Lekin o'z qalbini ruhiyat nuri uchun ochish oddiy inson uchun juda murak- kab masala. Sen bunda Xudoga tegishli huquqqa da'vo qilmoqdasan. Buning uchun sen qanday badal to'lay olasan?

Men darvishning bergen javobini bir umr esimdan chiqarmayman.

- Badaliga boshimni bermoqchiman.

Butun tanamda chumoli o'rmalayotganday

bo'ldi, titrab ketdim. Tirqishdan yana qarab, ustoz ham mendan kam larzaga tushmaganini ko'rdim.

- Balki, gaplashganimiz buguncha yetarlidir, - tin oldi Bobo Zamin. - Sen charchagansan. Ruxsating bilan xizmatchimizni chaqiray. U yotar joyingni ko'rsatsin, toza ko'rpa-to'shak va bir piyola sut bersin.

Shams Tabriziy yana eshikka o'girildi, u meni ko'rib turganiga hech shubham qolmadi. Boz ustiga, u nafaqat tashimni, balki butun qalbimni ham ko'rib turganday, undagi o'zim hali bilmaydigan sirlarni ham biladiganday edi. Hoynahoy, u Bobildagi Xorut va Morutdan Qur'on rad etgan jodularni ham bilib olgan chiqar. Yo bo'lmasa, u eshik va devor tashqarisini ko'rishga qobil bo'lgan g'ayrioddiy insoniy qobiliyatga ega bo'lsa kerak. Harqalay u meni qo'rqitib yubordi.

- Xizmatchingizni chaqirishga hojat yo'q, - dedi darvish ovozini biroz balandlatib. - Men uning yaqin yerdaligini va bizni eshitib

turganini his etayapman.

Men shunday qattiq oh tortib yubordimki, nazarimda, bu hatto qabristondagi o'liklarni ham uyg'otib yubordi. Sarosimalikdan sakrab, qorong'u joyga berkinmoqchi bo'lib, bog' tomonga otildim. Biroq u yerda meni kutilmagan noxushlik poylab turgan edi.

- Shu yoqda ekansanda, yaramas! - oshpazning ovozi keldi menga, u qo'lida supurgi bilan chopib kelardi. - Boshing baloga qoldi endi, bola, baloga qoldi!

Men boshqa tomonga sakrab qochdim va supurgiga qoqilib ketishimga oz qoldi.

- Beri kel yo oyoqlaringni sindiraymi! - ketimdan chopib, pishillab baqirardi oshpaz. Lekin men to'xtamadim. Buning o'rniga o'qday otilib bog'dan chiqib ketdim. Ko'zlarimga Shams Tabriziyning yuzi ko'rinxmay qolguncha chopaverdim, egri-bugri yolg'izoyoq yo'ldan chiqib, katta ko'chaga chiqdim, keyin esa katta ko'cha bo'ylab chopdim, chunki hech to'xtay olmay qolgandim. Ko'krak qafasimda yuragim

dukillar, tomog'im qurib ketgan edi, men esa baribir chopaverdim, toki tizzalarim qayrilib, yerga ag'darilib tushgunimcha chopdim.

Ella

2008 yil, 21 may, Nortgempston.

Devid qochib qutulib bo'lmaydigan janjal oldidan o'ziga dalda bera-bera azonda uyga qaytganida xotini o'z o'rnida uxbab yotganini ko'rди. Yonida «Shirin shakkoklik» qo'lyozmasi yotar va vino ichilgan bo'sh stakan turardi.

O'n minutlardan keyin Ella uyg'ondi.

Devidning vannaxonada dush qabul qilayotganidan hayron bo'lmedi. Eri boshqa ayollar bilan o'ynashishga o'ynashishi qatto tunni ular bilan o'tkazishi ham mumkin edi-yu va lekin ertalab dushni hamisha o'z uyida qabul qilar edi. Devid yotoqxonaga qaytib kirganida, uning uyga kelmagani borasidagi tushuntirishlaridan qochish uchun o'zini

uxlayotganga soldi.

Bir soatcha o'tar-o'tmas Devid va bolalar o'z ishlariga tarqab ketishdi va Ella yana oshxonada yolg'iz qoldi. Hayot oqimi yana o'zining odatdagi o'zaniga tushganday edi. Ella o'zining sevimli «Pazandalik san'ati - oson va tez» oshpazlik kitobini ochdi va bir nechta reseptni o'qib ko'rib, o'zini kun bo'yi ish bilan band qilishi mumkin bo'lgan ancha murakkab menyuni tanladi.

Dengiz mollyuskalaridan za'faron, kokos va apelsin solib tayyorlanadigan yovg'on sho'rva. Qo'ziqorin, xushbo'y ko'katlar va besh xil pishloq bilan pishiriladigan spaghetti.

Xo'shbo'y olma moyi, sirkva va sarimsoqpiyoz shimdirib pishiriladigan buzoq qovurg'alari.

Layma sokidagi yashil loviyadan va gulkaramdan tayyorlanadigan salat.

Keyin desert (shirinlik) tanladi: iliq shokolad suflesi.

Ella ovqat tayyorlashni yaxshi ko'rardi. Eng oddiy masalliqlardan shirin taomlar

pishirishdan u nafaqat huzur qilardi, balki, qizig'i shuki, kayfiyati ham ko'tarilib ketardi. Boz ustiga bu ish juda a'lo darajada chiqishi unga yana ham ko'proq huzur berardi. Bundan tashqari, ovqat tayyorlash uni tinchlantirardi ham. Oshxona uning hayotida o'zini dunyodan ajratib olishi va vaqt tezligini go'yo qisqartirishi mumkin bo'lgan joyi edi. Ba'zi odamlar uchun intim munosabatlar shunday rol o'ynaydi, fikrlar edi Ella, lekin buning uchun ikki kishi bo'lishi kerak, oshxona uchun esa vaqt, ishga mehr va masalliq bo'lsa, bas.

Televideniyadagi pazandalik dasturlari boshlovchilari kishidan ruhiy ilhom va ijodiy qobiliyat talab qilishini uqtiradilar. Ular hamisha "eksperiment" so'zini takrorlaydilar. Ella ularning fikrlariga qo'shilmaydi.

Eksperimentni olimlarga g'aroyibotlari esa rassomlarga havola etish joizroq emasmi? Bu yerda esa an'analarga rioya etish va sira ham eksperiment qilmaslik kerak. Taom tayyorlashni bilish bu urf-odatga na qoidalarga

rioya etish degani. Xozirgi davrda ahamiyati qanchalik kam qadrlanayotgan bo'lmasin, oshxona yumushlarida ularga rioya etish sira ayb emas, Ella o'zining uy yumushlarini eskicha yuritish odatini qadrlardi. Ertalablari butun oila deyarli hamisha bir vaqtida nonushta qilar, dam olish kunlarini hamisha bir yerda o'tkazishar, har oyning birinchi yakshanbasida qo'shnilarini tushlikka (mehmonga) chaqirishardi. Devidning o'z ishidan sira vaqtি ortmagani uchun butun ro'zgor ishlari: xarajatlar, uy-ro'zg'orni, bolalarni tartibda tutish, ularning dars tayyorlashlarini kuzatib borish - barchasi faqat Ellaning zimmasida. Payshanba kunlari Ella Pazandalik klubiga borardi, u yerda klub a'zolari o'zaro pazandalik retseplarini bo'lishar edilar. Har jumaning bir necha soatini bozorda, fermerlar bilan, ularning mahsulotlarini muhokama qilish va ta'mini totish va tajribasi kam yosh bekalarga maslahatlar berish bilan o'tkazardi. Qolgan narsalarni u uyga qaytishda magazindan olar

edi.

Shanba kunlari kechqurun Devid Ellani restoranga (odatda yapon restoraniga) olib borardi - shunda agar uncha charchamagan bo'lishsa va unchalik mast bo'lishmasa uyga qaytishgach, birga bo'lishardi. Qisqagina o'pichlar va erkalashlar ehtirosning emas, balki shunchaki bog'lanishning ifodasi edi. Nikohlari barqaror va odatiy tusga kirganidan keyin birgalik o'z jozibasini yo'qotgan edi. Ular ba'zan haftalab bir-biriga yaqinlashmas edilar. Ella hatto bir vaqtlar er-xotinlik munosabati uning hayotining muhim qismini tashkil etganiga hayron bo'lardi, endi esa yengil tortgan, o'zini deyarli erkin his etardi.

Unga ko'p yillar nikohda yashagan va keyinchalik boshqa ishonchliroq va muhimroq munosabatlar uchun yashashga o'tib, jismoniy quvonchlardan uzoqlashadigan juftlar haqidagi fikrlar yoqar edi.

Bunda birdan-bir muammo Devidning umuman shahvatdan emas, faqatgina o'z xotini

bilan bo'ladigan munosabatdan voz kechayotganida edi. U bu sarguzashtlari uchun erini hech qachon ochiqchasiga ayblamas, hatto o'z taxminlarini unga aytmas edi ham. Yaqin do'stlari bunday taxminlardan uzoq ekanliklari uchun, o'zini bilmaganga solish uning uchun osonroq kechar edi. Hammasi yashirin edi, hech qanday janjalsiz, g'iybatlarsiz. Ella bu ishlarni Devid qanday yo'lga qo'yishini xayoliga ham keltira olmas edi. Uning ayollar bilan, ayniqsa, yoshgina assistent ayollar bilan tez-tez muloqotda bo'lishi hisobga olinsa, bu ish uncha murakkab emasday ko'rindi. Lekin eri hamisha hushyorlik va vazminlikni boy bermas edi. Shunga qaramay Ella buni bilardi. Zero, xiyonatning o'z isi bo'lar ekan.

Ella bunda gap nimada ekanini aniq ayta olmas edi. Xiyonatning sababi Ellaning befarqligidami yoki boshqa bir sabab bormi? Nahotki avval Devid yo'ldan ozdi-yu, keyin Ella o'z vujudini va xohishlarini yoqtirmay

qoldimi?

Nima bo'lganda ham, natijasi bitta. Uch farzand tug'ilgan yigirma yillik nikoh mobaynida avvalgi ehtiroslardan asar ham qolmagan edi. Uch soat mobaynida Ellani shunday fikrlar o'rtar ekan, qo'llari o'z ishini bilib qilardi. U pomidor to'g'rар, sarimsoqpiyozni maydalar, piyoz to'g'rар, sous qaynatar, apelsin po'chog'ini archar, bug'doy noni uchun xamir qorardi. Devidning onasi bergen oltin nasihatga binoan, nonni u hamisha o'zi yopardi.

- Hech nima arning esiga uyi borligini yangi yopilgan nonchalik solib tura olmaydi, - degan edi Devidning onasi ular unashadirilgan kunda. - Hech qachon nonni magazindan sotib olma. Hamisha nonni o'zing yop, azizam, bu uyingda mo'jizalar yaratadi.

Kun bo'yi shu tariqa ishlarni qilgach, Ella stol ustini chiroyli bezashga tushdi. Salfetkalarni, xushbo'y shamlarni, sariq va qovoqrang guldastalari bor guldonlarni stolga qo'ydi.

Salfetkalar o'tkazil- gan yaltiroq uzukchalar,
ayniqsa, zo'r chiqdi.

Charchagan, lekin mamnuniyat his etgan holda
Ella mahalliy yangiliklarni eshitish uchun
televizorni yoqdi. Yosh ruhshunosni o'z uyida
pichoqlab ketishihti; qisqa tutashuv tufayli
kasalxonada o't chiqipti; mакtabning katta sinf
o'quvchilaridan to'rttasi maktab mulkini talon-
toroj qilishda ayblanib qamalishihti. Bularni
tinglarkan, uydan tashqarida odamni qanday
xatarlar kutib turishini o'ylab, bosh chayqadi.
Amerikaday mamlakatning shahar yaqinidagi
joylarda yashash shunchalik xatarli bo'lib
qolgan vaqtda, Aziz Z. Zaxaraga o'xshagan
odamlarda shunday yovvoyi mamlakatlarda
sayohat qilish istagi qanday paydo bo'lar ekan-
a?

Uni va u kabi boshqa ko'pchilikni ham to'rt
devor orasiga qamab qo'ygan bu noma'lum,
xatarli va tushunarsiz shu hayot, Aziz kabi
kimsalarni sarguzasht istagida dunyo kezdirishi
g'alati edi.

Rubinshteynlar (oila a'zolari) chiroyli bezatilgan stol atrofiga to'planganlarida soat roppa-rosa yetti yarim bo'lgan edi. Xushbo'y shamlar yemakxonaga qandaydir mo'tabarlik baxsh etib turardi. Begona odamga bu oila namunaviy bo'lib ko'rinishi mumkin edi. Hatto Janetning yo'qligi ham manzarani buzmadı. Ovqat vaqtida Orli bilan Avi o'zlarining mактабдаги ишлари ҳақида тинимсиз valaqlashardilar va Ella ularning bu bir daqiqa ham tinib-tinchimasliklari va sho'xliklari uchun ulardan minnatdor edi, aks holda eri bilan u azobli sukunat qa'riga cho'kib ketishlari mumkin edi.

Ella ko'z qiri bilan Devid sanchqini gulkaramga qanday sanchganini, uni og'ziga olib borganini va sekin chaynay boshlaganini kuzatardi. Ko'zi uning yupqa rangpar lablariga, oppoq yaltiroq tishlariga tushdi. Bir vaqtlar u bu og'iz bilan o'pishishni yaxshi ko'rарди... U erini boshqa ayol bilan o'pishayotganini tasavvur etdi. Uning xayolidan yosh va

ko'kraklari durkun, tor ko'ylak kiygan, tizzasigacha chiqadigan baland poshnali etik kiygan, kosmetik krem qalnligidan yuzlari yaltiragan assistentka o'tdi. Ella Devidni hozirgiday oilaviy stol oldida o'tirib, shoshmasdan gulkaram eyayotganiday emas, shosha-pisha ochko'zlik bilan uni o'payotganini tasavvur etdi.

Aynan o'sha payt, eri o'z sarguzashtini boshlagan o'sha ayolni ko'z oldiga keltirganida, Ellaning ichida nimadir uzilib ketdi. O'zining tajribasizligi va jur'atsizligiga qaramay, u birdan ertami-kechmi bularning hammasini: o'z oshxonasini, itini, bolalarini, qo'ni-qo'shnilarini, erini, o'zining pazandachilik kitoblarini va uyda yopadigan nonlarini tashlab ketishini qo'rqinchli bir aniqlik bilan tushundi... U hamisha qo'rqinchli narsalar sodir bo'ladigan o'sha dunyoga shunchaki ketvoradi, vassalom.

Ustoz

1243 yil, 26 yanvarb, Bag'dod.

Shams Tabriziy darvishlar jamoasi a'zosi sifatida, o'zi kutganidan ortiqroq vaqt mobaynida sabr bilan kutishiga to'g'ri kelmoqda edi. Mana to'qqiz oy o'tdi hamki, u hamon Bag'dodda edi.

Men avvaliga uning istalgan vaqt narsalarini yig'ishtirib ketvorishi mumkinligini kutdim, zero, uning hamishalikka o'rnatiladigan tartibotni qabul qilmasligi ochiq-oydin edi. Jamoadagilarning qolgan barchasi bo'ysunadigan kundalik hayot tarzi: bir vaqtda uqlashga yotib, bir vaqtda turish, muayyan aniq vaqtda ovqatlanish va shu kabilar uni qanchalar zeriktirayotganini men ko'rib turardim. Uning fe'l-atvori yolg'izlikda yashaydigan yovvoyi erkin qushniki kabi edi. Hatto ikki martta ketib qolishiga oz qolganini ham taxmin qilardim. Shunga qaramay, uning yolg'izlik va erkinlikka bo'lgan mayli qancha kuchli bo'lsa, ko'nglidagi hamsuhbatni topish ishtiyoqi ham shunchalar

kuchli edi. Ana shu ishonch uni kutishga va sabr-toqat qilishiga yordam berardi.

To'qqiz oy mobaynida men Shamsni diqqat bilan kuzatdim va ko'rdimki, boshqa darvishlar oylar, yillar mobaynida o'rganadigan narsalarni u bir hafta, hatto uch-to'rt kundayoq o'zlashtirardi. Uning har qanday yangi va g'ayrioddiy narsalarga qiziqishi juda katta edi, u tabiat hodisalarini kuzatishni yaxshi ko'rardi. Bir necha marta bog'da men uning yo'rgimchak ini simmetriyasini, yoki daraxtlarda yaltirab turgan shabnam tomchilarini zavq bilan kuzatayotganini ko'rdim. Go'yo hasharotlar, o'simliklar, hayvonlar unga kitob va qo'l- yozmalardan qiziqarliroqday edi. Lekin uni o'qishga qiziqishi yo'q ekan, deb o'ylagan zahotim, qo'lida qalin kitob ushlab turganini ham ko'rib qolardim. Keyin esa haftalab hech nima o'qimay yuraveradi.

Men undan bu holatning sababini so'raganimda u aqlni hamisha mammunlik holatida saqlab turish kerakligini va lekin uni buzib qo'ymaslik

uchun hamisha ehtiyot bo'lish kerakligini aytdi. Bu uning qoidalaridan biri edi. «Tafakkur bilan ishq turli matolardan to'qiladi, - der edi u. - Tafakkur odamlardan chigallik to'qiydi va hech nimasini boy bermaydi, ishq esa barcha chigallarni yozadi va boru yo'g'ini boy beradi. Tafakkur hamisha ehtiyotkor va har doim: «Me'yorsiz zavqu shavqdan saqlanish»ni maslahat beradi. Ishq esa «Oh, bu gaplar behuda! Zahmatlar tubiga tushib boraver!» deydi. Aqlni aldab bo'lmaydi, ishqni esa loyga belash mumkin. Lekin ana shu loy ichiga xazina jo bo'lishi mumkin. Pora bo'lgan yurak xazinani o'zida saqlaydi.

Uni yaxshiroq bilib borar ekanman, undagi jasurlik va aqlning o'tkirligi menga tobora ko'proq yoqib borardi. Lekin men Shamsdagi o'ziga xoslikning boshqa tomoni ham borligini ko'rardim. Masalan, u qo'pollikka o'tib ketar darajada dangalchi edi. Men o'z darvishlarimga boshqalarning kamchiliklariga e'tibor qaratishlarini va lekin shuning bilan birga

xotirjamlikni yo'qotmasdan, kechirimli bo'lishlarini o'rgatardim. Shams esa xato qilgan kishi kim bo'lmasin, buni o'tkazib yubormas edi. Kishi xato qilganini ko'rgan zahoti darhol va ochiqchasiga aytardi. Uning shartakiligi ko'pchilikni xafa qilardi, shunga qaramay odamlarning qitiq patiga tegish, keyin esa jahllari chiqqanda ular o'zlarini qanday tutishlarini kuzatish unga yoqardi.

Shamsni xo'jalik ishlariga jalb qilish qiyin masala edi. Buning uchun unda toqat yetishmas edi, ishga kirishgan zahoti qiziqishi so'nardi. Mutaassiblik uni xunibiyron qilar, shunday paytlarda xuddi qafasga tushib qolgan sherni eslatardi. Agar suhbat ze-riktirsa yoki suhbatdoshi unga o'rinsiz tanbeh beradigan bo'lsa, bexuda vaqt o'tkazishdan qochib, o'rnidan turardi va ketib qolardi. Oddiy odamlar qadrlaydigan xavfsizlik, qulaylik degan narsalar uning uchun ahamiyatsiz edi. So'zlarning qimmatiga ishonchsizligi shunchalik kuchli ediki, hatto bir necha kun

gaplashmay ham yuraverardi. Bu ham uning qoidalaridan biri edi: «Insoniyat muammolarining juda ko'pi o'zaro bir-birlarini tushunmasliklaridan kelib chiqadi. So'zlarni to'g'ridan-to'g'ri qabullab bo'lmaydi. Ishq mintaqasiga kirilganida, tilni qo'llab bo'lmaydi. Ishq tuyg'usini so'zlar bilan qamrab olib bo'lmaydi, uni so'zsizlikda ifodalash mumkin, xolos».

Keyinchalik men uning sog'lig'idan xavotirga tusha boshladim. Dilimda o'zini bu qadar o'tga ham, cho'g'ga ham qattiq uraveradigan odam ertami-kechmi xatarli axvolga tushib qoladi, degan gumon paydo bo'ldi.

Umriz nihoyasida biz o'zimizni Xudoga topshiramiz, bizning qachon va qay tariqa bu dunyodan ketishimiz faqat Uning O'zigagina ayon. Men Shamsdagi jo'shqinlikni bir qadar pasaytirishga va uni iloji boricha tinchroq yashashga o'rgatishga qaror qildim. Muayyan ma'noda bunga erishganday edim ham. Keyin qish kirdi va bir kuni bizga uzoqdan xat olib

kelgan chopar keldi.

Bu xat hayotimizdagi barcha narsalarni ag'dar-to'ntar qilib yubordi.

Maktub

1243 yil. Fevral. Qaysariydan Bag'dodga.

Bismillohir rohmanir rahim!

Qadrli birodarim Bobo Zamon! Sizga hamisha Xudoning roziligi nasib etsin!

Siz bilan oxirgi marta ko'rishganimizdan buyon ancha vaqt o'tib ketdi, ammo bu xatim etib borganida Siz sog' va omon bo'lgaysiz, degan umiddaman. Sizning Bag'doddagi darvishlar xonaqohingiz va u yerda darvishlarga hikmatlardan, Ilohiy ishqidan berayotgan ta'limingiz haqida ko'p go'zal fikrlar eshitganman. Ushbu maktubni esa menga tinchlik bermayotgan fikrlarni Siz bilan bo'lishmoq istagida yozmoqdaman. Ruxsat eting, hammasini bir boshidan aytay. Sizga ma'lumki, sulton Alovuddin Qaykubod qiyin

davrlarda hukmronlik yuritgan ajoyib inson edi. Uning orzusi shoirlar, hunarmandlar va faylasuflar hamjihatlikda yashashlari va ijod qilishlari mumkin bo'lgan shaharni qurish edi. Salbchilar va mo'g'ullarning ustimizga ikki tomondan bostirib kela boshlagani tufayli vujudga kelgan boshboshdoqlik va o'zaro nafratlar oqibatida sultonning bu orzusini ko'pchilik amalga oshmas orzu deb hisoblar edi. Biz ham bunga guvoh bo'lgan edik.

Xristianlar musulmonlarni o'ldirishar,
xristianlar xristianlarni o'ldirishar,
musulmonlar xristianlarni o'ldirishar,
musulmonlar musulmonlarni o'ldirishardi.
Dinlar, mazhablar, qabilalar, hatto aka-ukalar
bir-birlari bilan jang qilardilar. Lekin
Qaykubod o'z ahdida mustahkam edi. O'z
orzusini amalga oshirmoq uchun u Konya
shahrini tanlagen edi.

Balki eshitgandirsiz yoki eshitmagandirsiz,
hozir bizning davrimizda Konyada bir fozil
inson istiqomat etmoqda. Uning ismi Mavlono

Jaloliddin Rumiy, lekin odatda uni Rumiy deyishadi. Men u bilan tanishmoq sharafiga noil bo'lganman, nafaqat noil bo'ldim, balki avvaliga unga ta'lim berdim, otasining vafotidan keyin unga ustozlik qildim. U shunchalar iqtidorli va aqlli ediki, ma'lum vaqt o'tgach, u mendan emas, men undan ta'lim oluvchi bo'ldim. Uning otasi ham buyuk fozil inson edi. Ammo Rumiyda boshqa mutafakkirlarda uchramaydigan noyob sifat bor: unda boshqa inson qaysi dinga mansub bo'lmasin, o'sha din qobig'i ostida qamalib yotgan qalbining ichiga kira oladi, u erdag'i xazinalarni yuzaga chiqara oladi.

Siz faqat men bu fikrda emasligimni bilishingizni istardim. Yosh Rumiy buyuk sufiy, attor va ruhiyat bunyodkori Farididdin Attor bilan uchrashganida, u «Hademay uning qalbida dunyo qalbi o't olur, uning uchqunlari Xaqiqat tashnalari yuragida alanga yoqur» degan edi. Taniqli faylasuf, olim va sufiy Ibn Arabiy ham otasi bilan birga yurgan Rumiyni

ko'rganida «Sharaflar bo'lzin, qul yonida ummon odimlamoqda», deya xitob silgan edi. Yigirma to'rt yoshida Rumiy Madrasa bosh mudarrisi bo'ldi. Mana o'n to'rt yildan buyon Konya ahli unda din peshvosini ko'radi, har jumada shahar va uning atrofidagi aholi kelib, suhbatlaridan bahra oladi. Rumiy falsafa, ilohiyot, astronomiya, tarix, alkimyo va al-jabr ilmlarini a'lo darajada biladi. Uning muridlari o'n mingga yetgan, degan gaplar yurardi. Izdoshlari har bir so'zini ilib olishga intilishadi va unda butun dunyo tarixida bo'lmasa hamki, aqalli islom tarixida burilish yasagan buyuk ma'rifatparvarni ko'rishadi.

Rumiy menga o'z o'g'limday, men uning otasiga uni o'z otalig'imga olishga va'da bergenman. Lekin men endi qaridim, vaqtu soatim yetdi, shuning uchun Rumiy atrofida o'ziga loyiq insonlar bo'lishiga ishonch hosil qilishni istayman.

Rumiy hozir qanchalik mashhurlikka va ajoyib marralarga erishgan bo'lmasin, menga bir

necha marta o'zi erishganlaridan qoniqmayotganini aytdi. Uning hayotida nimadir yetishmayapti - u na oila a'zolari va na muridlari to'ldira olmaydigan qandaydir bo'shliq borligini tuymoqda. Bir kuni men unga qancha ko'p ishlyotgan bo'lmasin, negadir to'liq yona olmayotganini aytdim. Uning dil qadahi to'lib turipti, qalbidagi ishq oqib chiqmog'i uchun uning ochilmog'ini istaydi. U mendan buni qanday amalga oshirish mumkin deb so'raganida men unga u bilan maslakdosh hamsuhbat kerakligini aytdim, otasining «Maslakdoshlar bir-birlariga ko'zgu bo'lib xizmat qiladilar» degan gapini eslatdim. Keyin bu haqida boshqa gaplashmadik, to mening Konyadan ketar vaqtim bo'lmagunicha, Rumiy mendan o'ziga tinchlik bermayotgan bir tushining ma'nosini aytib berishimni so'rab kelmagunicha, buni butkul esimdan chiqarib yuborgan ekanman. U tushida Konyadan uzoqdagi allaqanday g'ala-g'ovur katta shaharda kimnidir izlab yurganini ko'rganini

aytdi. U yerdagi odamlar arab tilida gaplashishar ekan. U yerda go'zal kun botarini ko'ripti. U erda tut daraxtlari o'sar ekan, ipak qurtlari o'z pillalari ichida Xudoning yorug' olamiga chiqadigan vaqtłari kelishini kutib yotgan emishlar. U yana o'zini, o'z uyi hovlisidagi quduq yonida qulida chiroq tutib o'tirgan va yig'lab o'tirgan holda ko'ripti. Dastlab men bu tush nimani anglatishini tushuna olmadim. Keyin nogahon ipak matodan bo'yinbog' sovg'asini oldim, javob o'z-o'zidan keldi. Jumboq yechilgan edi. Men Sizning ipak matolarni yoqtirishingizni esladim. Shuningdek, Sizning so'fiylik xonaqohingizdagi ko'p ajoyib narsalar haqidagi gaplarni esladim. Shundan keyin men Rumiyl shularni tushida ko'rganini angladim. Qisqasi shuki, bundan buyon men o'zimga Rumiyning suhbatdoshi bo'ladigan odam Sizning xonaqoyingizda yashamayotganmikin, degan savolni o'zimga bermoqdamman, birodarim. Sizga bu maktubni shuning uchun ezdim.

Sizning darvishlaringiz orasida shunday odam bor yo yo'qligini bilmayman. Lekin agar bor bo'lsa, unga shuni ma'lum qilasizmi yoki yo'qmi, bu Sizning ixtiyoriningiz- da.

Men esa, agar biz Siz bilan bu ikki daryoni birlashtirsak, ikkisining Haqda birlashmoqlari, o'z suvlarini Muqaddas Ishq ummoniga olib borib quymoqlari uchun nimadir qila olganimizdan baxtiyor bo'lur edim.

Lekin e'tiborga olish kerak bo'lgan yana bir narsa bor. Rumiyni ko'pchilik yaxshi kuradi va hurmat qiladi, lekin bu unga tanqid ko'zi bilan qaraydiganlar yo'q, degani emas. Ular bor. Boz ustiga bunday ikki insonning bir bo'lishi norozilik, nifoq, raqobat va dushmanliklar keltirib chiqarishi mumkin. Rumiyning o'z suhbatdoshiga bog'lanib qolishi uning oilasida va umuman atrofdagilarda muammolar keltirib chiqarishi mumkin.

Shularning hammasi Rumiyning suhbatdoshiga hazilakam xavf keltirmasligi mumkin.

Boshqacha aytganda, Siz Konyaga yo'llaydigan

odam ortga qayta olmasligi mumkin. Shuning uchun Sizdan aniq qarorga kelishingizdan va bu maktubni kimgadir berishingizdan oldin, yaxshilab o'ylab ko'rishingizni iltimos qilaman. Sizni qiyin vaziyatga qo'yganim uchun uzr so'rayman, lekin Alloh bandasiga o'zi ko'tara oladiganchalik yukni berishini bilamiz. Sizning javobingizni kutaman va Siz qanday qaror qilmang, qaroringiz to'gri bo'ladi, deya umid qilaman.

E'tiqod nuri Sizni va Sizning darvishlaringizni aslo tark etmasin.

Ustoz Said Burxoniddin.

Shams

1243 yil, 18 dekabrь, Bag'dod.

Tomlardan uzun sumalaklar osilib turgan qish kunlaridan birida qor bosgan yo'lda chopar ko'rindi. U Qaysaridan keldim, dedi. Bundan darvishlar hayajonga tushdilar: yilning bu faslida mehmon kelishi yozda pishadigan

uzumning paydo bo'lishiday gap edi. Sovuq va qorga qaramay, shoshilinch maktub bilan, choparning yo'lga chiqqani ikki narsadan dalolat bo'lishi mumkin edi: yo bir yomon hodisa sodir bo'lgan, yoki bu endi sodir bo'ladi. Ustozga keltirilgan bu maktubda nima yozilgani barcha darvishlarni juda qiziqtirardi, lekin ustoz bizning qiziqishimizni qondirishi mumkin bo'lgan bironta ham so'z aytmadni, ishora ham qilmadi. U ko'rinishdan sovuqqon, xayolchan, fikrlarini hech kim bilan bo'lishishni istamas edi. To'g'ri javob izlab, uni topa olmayotganga o'xshardi.

Men ustozni shunchaki qiziqqanimdan emas, jiddiy kuzata boshladim. Garchi aynan nimaligini tasavvur eta olmagan esam-da, ammo maktubning menga bevosita aloqasi borday tuyulardi. Qalbimni mustahkam tutish uchun xonaqoh machitida Xudoning to'qson to'qqiz go'zal ismlarini takrorlab ko'p kechalarni o'tkazdim. Har safar bu ismlar ichida bittasi: Al Jabbor - hech nima uning

ixtiyorsiz sodir bo'lmasligi haqidagi ism
mening diqqatimni o'ziga boshqacha tortardi.
Boshqalar o'z vaqtlarini bahslashib va har xil
bema'ni taxminlar qilib o'tkazar ekanlar, men
bir o'zim qor bosgan bog'da aylanib yurardim.
Nihoyat, hammamiz bizlarni umumiylisga majlisga
chaqirgan mis qo'ng'iroq jarangini eshitdik.
Xonaqohning asosiy xonasiga kirganimda
hamma yig'ilib bo'lgan, aylana hosil qilib
o'tirishar edi. O'rtada ustoz turardi.

U bir yo'talib oldi-da, dedi:

- Bismillohir rohmanir rahim! Sizlar balki men
nima uchun hammangizni majlisga
chaqirganimga hayron bo'layotgandirsiz. Gap
menga olib kelingan maktubda. Uni kim
yuborganining ahamiyati yo'q. U mening
e'tiborimni juda muhim narsaga qaratganining
o'zi etarli.

Bobo Zamon biroz jim qoldi va derazaga qarab
turdi. U azoblangan, rangi oqargan va juda ozib
ketganday ko'rinardi, go'yo keyingi bir necha
kun ichida ko'p yillarga qarib qolganday edi.

Ammo gapira boshlagan zahoti u birdan dadillashdi, ovozi qat'iyatli chiqdi:

- Bag'doddan uncha uzoq bo'lмаган bir shaxarda juda bilimdon olim inson yashaydi. U shoир bo'lmasa hamki, juda yaxshi notiq. Minglab odamlar uni yaxshi ko'rishadi, hurmat qilishadi, lekin uning o'zi hech kimni sevmagan. Bizga noma'lum sababga ko'ra, oramizdan kimdir uning huzuriga borishi va suhbatdoshi bo'lishi mumkin.

Mening yuragim allanechuk siqildi. Keyin sekin, juda sekinlik bilan nafas chiqardim. Bu vaziyatda qoidalardan birini eslamay bo'larmidi? «Yolg'izlik va xilvat bir xil hodisalar emas. Kishi yolg'iz bo'lsa, o'zining to'g'ri yo'ldaligiga o'zini oson ishontiradi. Biz uchun xilvat yaxshi, chunki bu yolg'izlanib qolishni anglatmaydi. Ammo senga ko'zgu bo'la oladigan insonni topish undan-da yaxshiroq. Yodingda bo'lsinki, sen o'zingni va o'z qalbingdagi Xudoni faqat boshqa inson yuragiga qarab, adashmasdan ko'ra olasan».

Ustoz gapida davom etdi:

- Menga orangizdan kimdir bu ruhiy sayohatga borishni istaydimi, degan savolni berishdi. Albatta, men o'zim bunga munosib darvishni tanlashim mumkin edi, lekin faqat burch tufayli bu ishga kirishgan odam uni uddalay olmasligi mumkin. Bu ishni ishq tufayli va ishq uchun bajaradigan odam kerak.

Bir yosh darvish gapirishga ruxsat so'rab dedi:

- Ustoz, bu olim kim o'zi?

- Men uning kimligini faqat yo'lga chiqish uchun xohish bildirgan odamgagina ayta olaman.

Buni eshitgach, hayajonga tushgan bir qancha darvishlar shoshilinch qo'l ko'tarishdi.

Istaganlar soni to'qqizta edi. Men ham ularga qo'shildim, o'nta bo'ldik. Bobo Zamon qo'li bilan ishora qilib, hali gapi tugamaganini bildirdi:

- Siz qaror qabul qilmasingizdan oldin men sizga aytadigan yana boshqa gaplar ham bor.

Bu sayohat juda xatarli va mushkul, borgan

odam qaytib kelishi dargumon.
Mendan boshqa hamma qo'lini tushirdi.
Shuncha vaqt mobaynida Bobo Zamon birinchi
marta mening ko'zlarimga qaradi va
ko'zlarimiz uchrashganida u avvalboshdayoq
men yolg'iz o'zim ko'ngilli bo'lib chiqishimni
bilganini tushundim.

- Shame Tabriziy, - dedi ustoz sekin va go'yo
mening nomim uning og'ziga noxush ta'm
berganday achchiqli ohangda. - Men sening
qaroringni hurmat qilaman, lekin sen bizning
jamiyatimiz a'zosi emassan. Sen mehmongan.
- Tushunmadim, nima farqi bor.

Ustoz uzoq o'ylab, jim qoldi. Keyin
kutilmaganda o'rnidan turdi va yana dedi:

- Hozircha bu gaplarni qo'ya turamiz. Bahor
kelgach, bu masalaga yana qaytamiz.

Mening qalbim isyon ko'tarardi. Axir Bobo
Zamon men ayni shu vazifani bajarish uchun
Bag'dodga kelganimni juda yaxshi bilardku, u
esa menga taqdir qilingan bu imkoniyatdan
meni mahrum qilayapti.

- Nima uchun, ustoz? Men hoziroq yo'lga tushishga tayyor turgan bo'lsam, nima uchun kutish kerak? Menga shaxarni va o'sha ulamoni otini aytsangiz bo'ldi, shu zumdayoq meni bu yerda ko'r maysiz! - qichqirib yubordim men. Lekin ustozning javobi, men bu yerda u bilan yonma-yon yashaganimdan buyon sira kutilmagan tarzda sovuq va qat'iy bo'ldi:

- Muhokamaga o'rin qolmadi. Majlis tamom. Qish uzoq va sovuq keldi. Bog'dagi hamma narsalar muzlagan, mening lablarim ham. Keyingi uch o'y mobaynida men biron so'z aytmadim. Har kuni uzoq sayrga chiqaman, daraxt kurtak yozarmikin, deya izlayman, lekin faqat qorni ko'raman. Bahorni faqat orzuda ko'rish mumkin.

Dilim xira bo'lsa ham, hozirgi kayfiyatimga juda muvofiq keladigan: «Hayotingda nimaiki sodir bo'lmasin, juda katta baxtsizlikka duch kelgan chog'ingda ham ruhingni cho'ktirma. Hatto barcha eshiklar berkilib qolgan bo'lsa hamki, Xudo faqat sen uchun yangi yo'llar

ochadi. Shukur qil! Hamma ishlar yaxshi bo'ladigan vaqtarda shukr qilmoq oson, albatta. Lekin so'fiy berilgani uchun ham, berilmagani uchun ham shukur qiladi», degan qoidaga rioya etdim.

Nihoyat bir kuni tongda ajib kurtakni ko'rib qoldim. U musiqiyday go'zal tarovat bilan qalin qorlar ostidan bosh ko'tarib turardi. Bu ushoqdakkina gullaydigan kichikkina yo'ng'ichqa edi. Yuragim quvonchga to'lib ketdi. Uyga qaytayotib mallasoch xizmatchiga duch keldim va u bilan quvnoq salomlashdim. U meni hamisha indamas va xafaqon yurishimga o'rganib qolgan ekanmi, turgan joyida qotib qoldi.

- Tabassum qil, bolakay! - qichqirdim unga. - Ko'rmayapsanmi, axir bahor keldi?

O'sha kundan boshlab atrofda hamma narsa zudlik bilan o'zgara boshladi. Qor tez eriy boshladi, daraxtlarda kurtaklar bo'rta boshladi, qushlar qaytib kelishdi va havo ham bahorning shirin xush bo'ylari bilan to'ldi.

Bir kuni ertalab biz yana mis qo'ng'iroq jarangini eshitdik. Bu safar men birinchi bo'lib yugurib keldim Hammamiz yana doira yasab o'tirdik va ustoz IShQ yo'lining xavfu xataridan boshqa hamma narsani biladigan islom ulamosi haqida gap ochdi. Yana hech kim o'z ixtiyori bilan bu inson sari borishga xohish bildirmadi.

- Demak, Shams yakkayu yagona ko'ngilli ekan, - e'lon qildi Bobo Zamon baland va shamolniki kabi ingichka ovoz bilan. - Lekin men qaror qabul qilish uchun kuzgacha kutaman.

Men bundan larzaga tushdim. Quloqlarimga ishonmadim. Uzun uch oyni kutish bilan o'tkazdim, ustoz esa yana olti oy kutishni talab qilardi. Men juda tang ahvolga tushdim, isyon ko'tardim, iltijo qildim, lekin u rad etdi.

Ammo bu safar kutish yengilroq bo'lishini tushunardim, chunki bundan bu yog'iga ortga surish bo'lmaydi. Qishdan bahorgacha turib bergach, mendagi otash kuzga qadar ham sovimapdi, deya qat'iy ayta olardim. Bobo

Zamonning bu qarori mening hafsalamni pir qila olmadi. Aksincha, men dadillashdim, qat'iyatim yanada kuchaydi. Qoidalardan yana birida aytilganidek, «Sabr degani nofaollik degani emas. Sabr degani oqibatni ko'ra olish va unga ishonish demakdir. Sabrning ma'nosi nimada? Tikanga qarab turib, atirgulni ko'rmoqlikda; tunda bo'la turib, tongni ko'ra bilmoqlikda. Sabrsizlik esa uzoqni va kelajakni ko'ra bilmaslikdir. Xudoni sevuvchilar aslo sabrni yo'qotmaydilar, zero ularga oyning to'lishi, to'lin oyga aylanishi uchun vaqt kerakligi ma'lum».

Kuz kelgach, mis qo'ng'iroq uchinchi marta jarangladi. Men endi hammasi hal bo'lishiga ishongan holda, shoshmasdan bordim. Ustoz odatdagidan zaifroq va rangparroq kurindi, go'yo quvvati qolmagandek edi. Shunga qaramasdani, u men yana qo'l ko'targanimni ko'rib, yuzini teskari burmadi va qarorini orqaga surmadi. U qat'iyat bilan menga bosh irg'adi:

- Mayli, Shams, yo'lga tayyorlan. Inshoolloh, ertaga tongda sen bizni tark etasan.

Men ustozning qo'lini o'pdim. Yo'lga qancha vaqt ketmasin, ertami-kechmi men suhbatdoshim bilan uchrashurman.

Bobo Zamon yakkayu yolg'iz o'g'lini jangga kuzatayotgan ota kabi mehr va g'amginlik bilan menga kulimsiradi. Keyin zangori uzun to'nining cho'ntagidan muhrlangan maktubni oldi, uni menga uzatib, xonadan chiqib ketdi. Hamma darvishlar uning ortidan ergashdilar. O'zim yolg'iz qolgach, xat muhrini sindirdim. Unda o'z savollarimga javob topdim. Shunga ko'ra men Konyaga borishim va Rumiy bilan uchrashishim kerak edi.

Quvonchdan yuragim qinidan chiqayozdi. Men avval bu ismni eshitmagan ekanman. Rumiy balki buyuk ulamodir, lekin men uchun u katta jumboq edi.

Men «Rumiy» so'zini qayta-qayta, toki bu so'z obakidandon ta'miga, «suv», «non», «sut» kabi odatiy so'zlarga aylanmagunicha, tinimsiz

takrorladim.

Ella

2008 yil, 22 may, Nortgempton.

Oppoq paryostiq og'zidagi bemaza ta'mni va qattiq charchoq hissini arita olmadi. Kech yotish va me'yordan ortiq ichish nimaga olib kelishini Ella bilar edi, albatta. U o'zini o'rindan turishga, pastga tushishga, nonushta tayyorlashga, egizaklari va eri bilan birga nonushta stoli atrofida o'tirishga majbur etdi. Yotoqdagi o'rniga qaytib borish va uslashni qanchalik istayotgan bo'lmasin, bor e'tiborini ularning o'quvchilarni mакtabga olib kelayotgan zo'r hashamatli mashinalar haqidagi suhbatlariga qaratishga urindi.

To'satdan Orli onasining yuziga qarab so'radi:

- Avi endi opam uyga qaytmaydi, deyapti, oyi, to'g'rimi?

Ella uning ovozidagi ayblov ohangini tuydi.

- To'g'ri emas, albatta. Biz opang bilan

janjallashib qoldik, lekin bilasan-ku, biz bir-birimizni yaxshi ko'ramiz.

- Siz Skottga telefon qilib, Janetni o'z holiga qo'yishini so'raganingiz rostmi? - masxaraomuz so'radi Avi bu gaplardan oshkora huzur qilarkan.

Ella ko'zlarini katta ochib, eriga qaradi, Devid bu keraksiz detallarni bolalarga o'zi aytmaganini bildirish uchun qoshlarini yuqori ko'tardi va elkasini qisib qo'ydi.

Ella yillar mobaynida orttirilgan tajribalaridan kelib chiqib, o'z ovoziga har doimgidek qat'iyatli tus bergen holda, bolalarga nasihat qila ketdi:

- Unday emas. Men Skott bilan gaplashdim, lekin undan opangizdan voz kechishini so'raganim yo'q. Men faqat nikohdan o'tishga shoshilmasliklarini so'radim, xolos.

- Bo'lmasa-chi: kim ham senga uylanaman deb turgan ekan? - uning gapini kesdi Avi.

Bu ikki tirranchasi bir-biri bilan qanday cho'qishishlariga qulq solarkan, Ella asablanib

zaharxandali kului, lekin o'sha zahoti jiddiy ko'rinish oldi. Lekin bu uncha o'xshamadi va u bolalarни eshikka kuzatib qaytayotganida ham lablarida bu kulgu zimdan saqlanib qolgan edi. Faqat stol yoniga qaytib kelganidan keyingina u o'zini qo'ydi. Oshxona xuddi kalamushlar armiyasi hujum qilganday holatda edi.

Oxirigacha yeylimagan tuxumlar, tishlab qoldirilgan non bo'laklari, yuvuqsiz idishlar. Buning ustiga Spirit aylantirib kelishini kutganicha ortidan ergashib yuripti. Ikki finjon qahvani va bir stakan multivitaminli ichimlikni ichib olganidan keyin ham Ellaning kuchi uni (itini) faqat bir necha minutgagina bog'ga olib chiqishga kuchi yetdi.

Uyga qaytib kelgach, telefon avtojavob beruvchisining qizil chirog'i yonib turganini ko'rди. Tugmani bosdi va uni behad xursand qilib, Janetning xushohang ovozi xonani to'ldirdi.

- Oyi, uydamasmisiz?.. Shunaqaga o'xshaydi, bo'lmasa, trubkani olardingiz. - Hmm... Men

sizdan juda qattiqranjigan edim va sizni boshqa ko'rgim kelmay qolgandi. Hozir biroz sovidim. Yo'q, baribir, siz noto'g'ri ish qildingiz, men buni yaxshi bilaman. Siz Skottga telefon qilmasligingiz kerak edi. Lekin men nima uchun bunday qilganingizni tushunaman. Lekin qulq soling, endi meni inkubatorda saqlaganday saqlashni bas qiling. Meni tinimsiz himoyalashni bas qiling! Meni qanday bo'l sam shundayimcha bo'lishimga qo'yib bering, xo'pmi?

Ellaning ko'zlariga yosh qalqidi. Janet yangi tug'ilganida qanday bo'lgani esiga tushib ketdi. Qip-qizil jish, ojizgina, serajin, barmoqlari juda ingichka, og'zida nafas oldiradigan trubka - bu dunyoda yashashga sira moslasha olmaydiganday ko'ringan edi u.

Ella murg'akning nafasi to'xtab qolmasa edi, yashab ketarmikin yo yashay olmasmikin, degan tahlikada necha kechalarni uyqusiz o'tkazdi.

- Oyi, yana bir narsani aytay, - Janet bir narsa

esiga tushib qolganday dedi. - Men sizni yaxshi ko'raman.

Ella chuqur xo'rsindi. U Azizning maktubini esladi. Xohishlar daraxti uning iltimosiga javob qilipti-da. Hech bo'lmasa, qisman. Janet telefon qilib buning bir qismini amalga oshirdi. Endi qolganini Ella qilishi kerak edi. U qiziga qo'ng'iroq qilganida u universitet kutubxonasiga boradigan yo'lda ekan.

- Qizalog'im, men hammasini eshitdim. Meni kechir, sening oldingda aybdorman va kechirim so'rayman.

Bir daqiqalik, lekin xatarli sukutdan keyin Janet javob qildi:

- Mayli, qo'yavering, oyи.

- Yo'q, mayli emas. Men sening tuyg'ularingni hurmat qilishim kerak edi.

- Keling, bu haqida boshqa gaplashmaylik, xo'pmi? - iltimos qildi Janet, endi ularning o'rni almashib qolganday - Janet onasiga, onasi esa Janetga aylanib qolganday edi.

- Xo'p, azizam.

Janet xuddi o'zi ham Elladan so'rashga qo'rqayotganday, ovozini pasaytirib shivirladi.

- Siz o'shanda aytgan bir gapingizdan men qattiq o'kinib ketdim. Bu rostmi? Siz rostdan ham baxtsizmisiz?

- Yo'g'-e, albatta, yo'q, - shosha-pisha javob qildi Ella. - Uchta ajoyib farzand ko'rgan bo'lsmam, qanday qilib baxtsiz bo'lishim mumkin?

Lekin bu javob Janetni qoniqtirmadi.

- Men dadam bilan sizni nazarda tutayapman? Ella nima deyarini bilmas edi va to'g'risini aytishga qaror qildi.

- Dadang bilan biz ko'pdan beri birga yashaymiz. Shuncha yil mobaynida avvalgi otashinlik saqlanib qolarmidi.

- Tushunarli, - dedi Ella va taajjubki, Ella qizi uni chindan ham tushunganini his etdi.

Trubkani joyiga qo'ygach, Ella o'zini erkin qo'ydi va ishq haqidagi fikrlarga berildi.

Tebranuvchi kreslosiga o'rashib olib xayolga cho'mdi: nahotki hech nimaga qaramay, unda

ishqni his etish qobiliyati hamon saqlanib qolgan? Ishq bu telba dunyoda ma'no izlaganlar uchun-ku! Allaqachonlar izlamay qo'yganlar uchun u nimaga kerak? Kech kirishini kutmasdan, Ella Azizga xat yozdi.

Qadrli Aziz (agar Sizni shunday atashim mumkin bo'lsa)!

Sizning oilamdagи ro'y bergan krizisni yengib o'tishimga yordam bergan iliq, chin yurakdan yo'llagan nomangiz uchun rahmat. Siz aytganingizday, biz qizim bilan oramizdagi tushunmovchilikni yengib o'tdik.

Siz men haqimda to'g'ri aytgansiz. Men chindan ham hamisha ikki qarama-qarshi holat: aggressivlik va nofaollik orasida azob chekaman. Goho uzim yaxshi qo'rgan odamlarim hayotiga haddan ziyod aralashib ketaman, goho ular oldida o'zimni juda ojiz his etaman.

Taqdirga tan berishga kelganida, men o'zimni

bunga qobil ligimni hech qachon his etmaganman. To'grisini aytsam, menda insonni so'fiy qiladigan hech nima yo'q. Shunga qaramay, men aynan qizimning ishlariga (taqdiriga) aralashmay qo'ygan imdan keyingina u bilan yarashganim nihoyat hayratlanarli hol. Sizga katta rahmat. Men ham Siz uchun duo qilishni istayman, lekin men oxirgi marta Xudoning eshigini qachon qoqqanimni ham eslay olmayman, shundan buyon Uning qayerga ko'chgan bo'lishi mumkinligini ham tasavvur eta olmayman. Men sizning romaningizdagi karvonsaroy ho'jayiniga o'xsharmikanman? Ammo xavotir olmang, men unchalik qahrli emasman. Hozircha unday emasdirman.

Sizga do'stona tuygular ila Nortgempton dan Ella.

Maktub

1243 yil, 19 sentyabrь, Bag'doddan Qaysariga

Bismillohir rohmanir rahim!

Birodarim Said Burxoniddin! Sizga tinch-omonlik va Xudoning marhamati va barakotlari bo'lsin!

Xatingizni olib va Ishq yo'lida avvalgiday sobitligingizni bilib juda hursand bo'ldim. Ayni paytda maktubingiz meni qiyin vaziyatga ham qo'ydi. Rumiyga hamsuhbat izlayotganingiz ma'lum bo'lishi bilanoq, men qanday odamni nazarda tutayotganingizni tushun-gan edim.

Lekin nima qilarni bila olmay qoldim.

Biz bilan bir maskanda Sizning ta'rifingizga juda muvofiq keladigan Shams Tabriziy nomli darbadar darvish istiqomat qilmoqda. Shams bu dunyoda o'ziga yuklatilgan maxsus vazifasi borligiga ishonadi, shu tufayli nurlangan insonga ziyo baxsh etmoqni istaydi.

U Xudodan o'ziga shogird emas, hamsuhbat tilab kelgan. Bir kuni menga uni oddiy odamlar qiziqtirmasligi haqida gapirgan edi. U insoniyatni Haqqa boshlab boradiganlar bilan yaqinlashmoq uchun kelganini aytgan edi.

Sizning xatingizni o'qib, Shamsga Rumiy bilan uchrashish taqdir qilinganini angladim. Shunga qaramay,adolat barqaror bo'l mog'i uchun men barcha darvishlarga bir xil imkon bermog'im kerak edi. Da'vogarlar bir nechto edi, lekin yo'l naqadar xatarli ekani ma'lum bo'lgach, ulardan faqat Shamsning o'zi qoldi. Bu qishda bo'lgan edi. Bahor va kuzda ham bu holat avvalgicha qoldi.

Siz nega bunchauzoq kutganimdan hayron bo'layotgandirsiz. Men bu borada ko'p o'yladim va to'g'risini aytsam, bunga faqat bir tushuntirish bor. Shams mening qalbimga juda yaqin bo'lib qolgan edi. Uni bunday xatarli safarga jo'natishdan jonim ogridi.

Shams oddiy inson emas, buni e'tiborga oling. Darbadar kezish uning uchun uncha qiyin bo'l magan, lekin shaharda qo'nim topib, shaharliklar bilan birga yashaydigan bo'lsa, u, albatta, kimningdir qitiq patiga tegishi tayin. Ayni shuning uchun men uning bizdan ketar vaqtini ortga surib keldim.

Xayrlashuvdan oldin oqshomda biz Shams bilan, barglari ipak qurtlariga ozuqa sifatida beriladigan tut daraxtlari ostida uzoq kezdik. Ulardan to'qilgan juda nafis yengil ipakmato menga Ishq tuygusini eslatadi. Men pillakorlar ipak yirtilmasligi uchun ipak qurtlarini pilla ichidan teshib chiqishlariga yo'l qo'ymasliklarini, natijada ular ichkarida qolib halok bo'lishlarini Shamsga hikoya qildim. Bir gaz shunday mato uchun ko'plab qurtlar halok bo'lishlarini gapirdim.

Kech kira boshlagan edi. Sovuq shamol esa boshladi va meni titroq bosa boshladi.

Qarilik yaqinlashgan sari men tez sovuq yeydigan bo'lib qolganman, lekin bu safar boshqacha holat edi. Bunda gap bizning Shams bilan so'nggi bor bog'da birga sayr qilayotganimizda edi. Biz bir-birimizni boshqa ko'ra olmas edik. Har holda bu dunyoda ko'risha olmaymiz. Nazarimda, u ham buni his etardi, buni men uning nigohidagi anduhdan payqadim.

Bugun tong otar-otmas Shams mening qo'limni o'pgani va ketmoq uchun oq fotiha so'ragani qoshimga keldi. Men uning qora sochlarini kesgani va soqolini qirganini ko'rib hayron bo'ldim, lekin u hech nima tushuntirmadi, men ham so'ramadim. Ketishidan oldin ipak qurtlariga oid o'z tarixidan gapirdi. U Rumi bilan ikkisi Muqaddas Ishq pillasi ichiga yashirishar va faqat pishib yetilganlaridan va ajoyib ipak to'qiydigan bo'lganlaridan keyingina u yerdan chiqishar ekan. Unga qadar esa, ipak hosil bo'lishiuchun qurtlar o'lmos'h'i kerak ekan.

Shundan keyinu Konyaga jo'nab ketdi. Ilohim, Tangri taolo uni o'z panohida asrasin. Men to'g'ri ish qilganimni bilaman va Siz ham to'g'ri qildingiz. Lekin yuragim zilday og'ir va bizning maskanda hech qachon uchramagan bu eng g'ayrioddiy va mard darvishni allaqachon sog'ina boshladim.

Oxir-oqibat, hammamiz ham Xudoning bandalarimiz va hammamiz ham Unga

qayturmiz.

Sizga hamisha Xudo yor bo'lsin!

Bobo Zamon.

Xizmatchi

1243 yil, 29 sentyabr, Bag'dod.

Darvishlik oson ish emas. Menga bu haqida ko'pchilik aytgan. Lekin buning uchun avval qancha chig'iriqlardan o'tish kerakligini aytishmagan. Bu yerga kelganimdan beri molday ishlayman. Kun bo'yi qilgan ishlarimdan keyin shunchalar charchaymanki, o'ringa yotganimda suyak-suyaklarimdan o'tib ketgan og'riqdan uxlay olmayman, oyoqlarim haqida gapirmasa ham bo'ladi. Qiziq, birontasi menga bu yerda qanday munosabatda bo'lishayotganini bilarmikin? Bilgan holda ham, bilmaganga olsa kerak. Darvishlar hatto mening ismimni ham bilishmaydi. «Yangi xizmatchi, - deb chaqirishadi ular meni. Orqavoratdan esa Mallasoch johil, - deb shivirlashadi.

Hammadan yomoni - mening oshxonada oshpaz bilan ishlashim kerakligi. Uning yuragi o'rnida yurak emas, tosh bor. U darvishlarga ovqat pishirib yurish o'rniga, mo'g'ullarning jangari qo'shiniga bosh bo'lishga munosibroq bo'larmidi. Uning kimgadir yaxshi gap aytganini ham eshitmaganman. U jilmayishni ham bilmasa kerak.

Bir kuni men darvishlarning kattasidan, nahotki hamma darvish bo'lishdan oldin oshxonada sinov xizmatini o'tasa, deb so'radim. U sirli ravishda jilmayib ko'ydi-da, keyin «Hamma emas, faqat ba'zilar» dedi.

Unda nima uchun men? Nimaga ustoz boshqalarga qaraganda men ko'proq qiynalishimni istadi? Nahotki mening nafsim boshqalarnikidan kuchlirog'-u, shuning uchun menga bunchalik og'ir sinov berilayotgan bo'lsa?

Har kuni hammadan erta turib, hovuzdan suv tashib kelaman. Keyin o'choq yoqaman va kunjutli lochira non yopaman. Ertalabga

sho'rva pishirish ham mening vazifamga kiradi. Ellikta odamning qornini to'yg'azishning o'zi bo'lmaydi. Doshqozon kerak bunga. Keyin bu ovqatlarni tashib olib borish ham bor.

Kunchiqardan to kunbotarga qadar idish yuvish, artish, sabzavot to'g'rash, hovli supurish, o'tin yorish, tizzalab o'tirgancha eski g'ichillab turgan oshxonan polini yuvish. Yana men sharbat va turli xil ziravorlar tayyorlayman. Sabzi va qovoq tuzlayman. Tuzni suvga tuxum cho'kib ketmaydigan qilib solish kerak. Agar bundan ko'proq yo kamroq solib qo'ysam bormi, oshpazning jazavasi tutib, idishlar chilparchin sinadi, men esa ishni qaytadan boshlashim kerak bo'ladi.

Bu ishlar orasida yana men arab tilidagi duolarni ham o'qishim kerak.

Oshpaz mendan kalimalarni qattiq ovozda, dona-dona qilib aytishni talab qiladi, aks holda men so'zlarni to'g'ri talaffuz etayotganimni payqamay qolar emish. Xullas, men ishlayman, duolar o'qiymen, duolar o'qiymen va

ishlayman. «Oshxona ishlarini qancha yaxshi uddalasang, shuncha erta ulg'ayasan, o'g'lim, - deydi menga u. - Pishir-Kuydir va boshqa yumushlarni o'rganish mobaynida qalbing yumshaydi, nafislashadi».

- Bu sinov qancha davom etadi? - so'radim men bir kuni.

- Ming bir kun, - degan javob bo'ldi. - Hamon Shahrizodaga o'z hikoyalarini to'qishi uchun shuncha kun kerak bo'lган bo'lsa, sen ham shu muddatda bu vazifani uddasidan chiqa olsang kerak.

Bo'limgan gap! Nahotki men o'sha vaysaqi Shahrizodaga o'xshashim kerak bo'lsa? Bundan tashqari, uning bor-yo'q qilgan ishi paryostiqlarga yonboshlab olib, hikoyalar to'qishdangina iborat bo'lган bo'lsa. Shu mashaqqatli ish ekanmi? Agar unga men qilayotgan ishlardan hech bo'lmasa yarmisini qilish buyurilsa, bir haftaga ham chiday olmasdi. Hech kim bu ishlarga uzoq dosh bera olmasa kerak. Men esa dosh berib kelayapman.

Menga endi olti yuz yigirma to'rt kun qoldi. Sinovning dastlabki qirq kunini men yotib ham, tik turib ham bo'lmaydigan juda tor va qorong'u hujrada tiz cho'kib o'tkazganman. Agar tuzukroq ovqat eyishni istab qolsam, agar qorong'u yoki yolg'izlikdan qo'rqsam, yoki Xudo asrasin-u, shahvatim qo'zg'ab qolsa, shiftda osig'liq qo'ng'iroqni chalib, menga ma'naviy yordam berishlarini so'rashim kerak edi. Lekin men bir marta ham bunday qilmadim. Lekin bulardan birontasi mening xayolimga ham kelmadi demayman, albatta. Ammo bularning hammasi hatto qimirlab ham bo'lmas holatda o'tirishning oldida nima bo'lardi?

Uzlat muddati tutaganidan keyin, meni oshxonaga, oshpaz qo'lida azob chekishga jo'natishdi. Azoblanayapman. Lekin to'g'risini aytsam, uni har qancha yomon ko'rmayin, biron marta ham u o'rnatgan tartibni buzmadim - harqalay Shams Tabriziy kelishiga qadar shunday edi. O'sha kuni esa u meni tutib olib,

tol xivichlar bilan rosa savaladi. Keyin, jo'na bu yerdan, degan ma'noda, kavushimni to'g'rilib qo'ydi. Darvishlar xonaqosidan hech qachon hech kimni bunday savalab, sinovga dosh bera olmading, deb baqirib, ko'chaga uloqtirishmagan. Uddasidan chiqa olmaganlarni indamay chiqarib yuboraverishgan.

- Biz seni xohishingga qarshi yurib, darvish qila olmaymiz, - dedi oshpaz. - Eshakning oldiga chelakda suv qo'yib, to o'zi istamagunicha uni ichishga majbur qilib bo'lmaydi. Eshak buni o'zi xoxlashi kerak. Boshqa yo'li yo'q.

Demak, u meni eshak deb hisoblar ekan. To'g'risini aytsam, agar Shams Tabriziy bo'lмаганida, men o'zim ham allaqachon darvishlar dargohidan qochvorgan bo'lardim. Meni qiziqish ushlab qolgan edi. Men bunday insonni hech qachon uchratmagan edim. Hech kimdan qo'rqlaydigan va hech kimga bo'ysunmaydigan odam. Hatto oshpaz ham uni

hurmat qilardi. Agar bu maskanda kimgadir ergashish kerak bo'lsa, men yuvosh qari ustozga emas, faqatgina hech kimdan qo'rqlaydigan va hech kimga bo'ysunmaydigan shu Shamsga ergashgan bo'lardim.

Ha, Shams Tabriziy - haqiqiy qahramon. Uni uchratgach, men yuvosh darvish bo'lmaslikka qaror qildim. Uning yonida ko'proq qolsam, xuddi u kabi jur'atli, shaxdam va bo'ysunmas bo'lar edim. Kuz kelib, Shams bizni butkul tashlab ketayotganini anglaganimdan keyin, men u bilan birga ketishga qaror qildim.

Shu qarorga kelgach, Bobo Zamonni izlashga tushdim va uni chiroq nurida kitob o'qiyotgan holda ko'rdim.

- Xo'sh, xizmatchi, senga nima kerak? - so'radi u g'ashi kelganini yashira olmay, xuddi mening ko'rinishimning o'zidayoq ko'nglini ozdirayotganga o'xshardi.

Shundan keyin men iloji boricha jur'at bilan de-dim:

- Ustoz, men Shams Tabriziy yaqinda bizni

tashlab ketishini eshitdim. Men u bilan birga ketishni istayman. Balki unga hamroh kerakdir?

- U senga shunchalik yoqib qoladi, deb o'ylamagan ekanman, - gumonsirab javob qildi ustoz. - Yoki sen oshxonadan qochib qolish uchun shunday deyapsanmi? Sening sinov muddating hali tugamadi. Seni hozir darvish bo'lding deb bo'lmasa kerak.

- Balki Shams bilan birga sayohat men uchun sinov bo'lar? - o'zimni haddan ziyod surbetlarcha tutayotganimni sezgan holda, o'zimni tuta olmay dedim men.

Ustoz yerga qaragancha, xayolga botdi. Jimlik cho'zilgan sari, hozir u meni surbetligim uchun koyib tashlashi va oshpazga menga tuzukroq qarashni buyurishi ravshanroq bo'la boshladi. Lekin ustoz bunday qilmadi. U menga g'amgin qarab qo'ydi va boshini chayqab dedi:

- O'g'lim, nazarimda, sen bu yerdagi hayot uchun tug'ilmagansan. Aslida ham bu yo'lga kirmoqchi bo'lgan yetti darvishdan faqat bittasi

sobit qoladi. Nazarimda, sen darvishlikka yaramaysan va boshqa yo'ldan borishing kerakka o'xshaydi. Shamsga hamrohlik qilish borasida esa, uning o'zidan so'rashingga to'g'ri keladi.

Shunday degach, Ustoz menga xushmuomalalik, lekin qat'iyat bilan bosh irg'adi va yana kitobini o'qishga tushdi. Haqirligimni sezib, juda xafa bo'lib ketdim, lekin shunga qaramay o'zimni birdan erkin his etdim.

Shams

1243 yil, 30 sentyabr, Bag'dod.

Tongotarga yaqin men otga mingan va yo'lga tushgan edim. Faqatgina bir marta orqaga qarash uchun to'xtadim. Darvishlar takyasi tut daraxti shoxlari orasiga yashiringan qush uyasiga o'xshardi. Bir qancha vaqt Bobo Zamonning horg'in qiyofasi ko'z oldimda gavdalanib turdi. Bilaman, u mendan xavotir

olayotgan edi. Lekin men o'zim xavotir oladigan hech qanday sabab ko'rmas edim. Axir men IShQ bag'riga sho'ng'imoq uchun sayohatga chiqqan edim. Qanday yomon narsa sodir bo'lishi mumkin? Axir IShQ (yo'li)ning o'ninchi qoidasiga ko'ra: «Sharq, G'arb, Janub va Shimol orasida farq yo'q. Qanday maqsadni ko'zlashning ham axamiyati yo'q, asosiysi sayohat tashqariga emas, ichkariga yo'nalgan bo'lishidir. Shunda butun olamni bila olasan». Meni qiyinchiliklar kutib turganini bilardim, albatta, lekin ularga maxsus e'tibor qaratmas edim. Nihoyat, taqdir meni Konyaga olib borayotganidan xursand edim. Men so'fiy edim va atirgulni tikoni bilan, hayotdagi qiyinchiliklarni undagi quvonchlar bilan birga qabul qilishga odatlangan edim. Bu esa «Ona o'z bolasini dunyoga og'riqsiz keltira olmasligini, o'z joni og'rimasidan farzandiga hayot baxsh eta olmasligini biladi. Insonda boshqacha «MEN»ning tug'ilishi uchun ham xuddi shunday mashaqqatlar zarur. Loy ham

so-pol idishga aylanishi uchun olovda kuyishi kerak. Ishq mukammal bo'lishi uchun og'riq, azoblarni boshdan kechirish kerak», degan yana bir qoidadan kelib chiqadi.

Darvishlar takyasidan jo'nab ketishimdan oldingi kun kechqurun, tun qorong'usidan xush havolar va ovozlar kirib kelsin deya xonamning derazalarini ochib qo'ydim.

Lipillab yonayotgan sham yog'dusida uzun sochlarimni kesdim. Keyin soqol-mo'ylovimni oldim va qoshlarimni ham qirdim. Shularni qilib bo'lgach, oynaga qaradim va qiyofam ancha yorishganini va yosharganini ko'rdim.

- Oldingizda turgan safar seni allaqachon o'zgartirib yuboripti, - dedi ustoz men huzuriga xayrlashgani kirganimda. - Vaholanki, safar hali boshlangani ham yo'q.

- Ha, to'g'ri, - dedim men sekingina. - Bu mening Qirq qoidamdan biri: «Ishq izlash insonni o'zgartiradi. Bu yo'lda kishi balog'atga yetmay qolmaydi. Ishq izlashni boshlagan ondanoq u ichkaridan ham, tashqari- dan ham

o'zgara boshlaydi».

Bobo Zamon bilinar-bilinmas jilmayib qo'yida, baxmal qoplangan qutichani olib menga uzatdi.

Uning ichida kumush gardishli ko'zgu, ipak dastro'mol va mushki anbar solingan shisha idish bor edi.

- Safarda bu narsalar sen ga yordam beradi. o'rni kelganida ulardan foydalanasan. Agar qat'iyatingni yo'qotib qo'ysang, oynaga qara, u senga qat'iyatni qaytaradi. Agar tashqi qiyofangga zarar etsa, dastro'molning foydasi tegadi: u senga qalbing sofligini eslatadi.

Mushk anbarga kelganda, u sening ham ichki, ham tashqi jarohatlaringni shifolaydi.

Men bu uchala narsani mehr bilan silab qo'ydim, qutini yopdim va Bobo Zamonga tashakkur aytdim. Boshqa gaplashadigan gap qolmagan edi.

Quyoshning birinchi nurlari yetib kelishi bilanoq qushlar sayray boshlagan va daraxt navdalaridagi shudring donachalari osilib

qolgan mahal men otni egarladim va meni
nima kutayotganidan bexabar, ammo Rabbim
taqdim etgan taqdirimga ishongan holda,
Konya sari yo'l oldim.

Ella

2008 yil, 24 may, Nortgempston.

Begin kunlari ham, bayram kunlari ham
oilaning birgalikda tanovul qiladigan asosiy
vaqtinonushta hisoblanardi. Bunga chin
ko'ngildan ishongan Ella har kuni ertalab,
shanba va yakshanbalarda ham eng avval
oshxonaga kirardi. Nonushta yaxshi bo'lsa,
butun kun yaxshi o'tadi, deb o'ylar edi u.
Ayollar jurnallarida bolalar va ota-onalar
uydan o'z hollaricha, yarim och, yarim to'q
chiqib ketaveradigan oilalardagiga nisbatan
hamisha birgalikda nonushta qiladigan
oilalarda hamjihatlik va uyg'unlik kuchliroq
bo'lishi haqida yozadilar. Bundan tashqari
uning tajribasi boshqa narsani ham ko'rsatar

edi: hamma har xil taomni istaydi, bu esa nonushtaning odamlarni hamjihat qilishi haqidagi tasavvurlarga zid keladi. Biri (Janet) jem surilgan non chaynasa, boshqasi (Avi) asal bilan yanchilgan bodroq chaynasa, uchinchisi (Devid) omlet pishishini kutib o'tirsa, to'rtinchisi hech nima yekishni istamasa, bu qanday hamjihatlik bo'lsin? Shunga qaramay nonushtadan muhimroq hech nima yo'q. Shunga asoslanib Ella har kuni nonushta tayyorlar edi.

Lekin o'sha kuni ertalab Ella oshxonaga kirdi va qahva tayyorlash, apelsinlarni archish va nondan tostlar tayyorlash o'rniliga, eng avval stolga o'tirib, noutbukni yoqdi. Keyin Azizzdan xat kelganini tekshirib ko'rish uchun Internetga kirdi va xat kelganini ko'rib, xursand bo'lib ketdi.

«Azizam Ella!

Qizingiz bilan munosabatingiz tiklanganini bilib, juda xursand bo'ldim. Men esa kecha erta tongda Momostenango qishlog'idan jo'nab

ketdim. Bu erda atigi bir necha kun turgan bo'lsam-da, ketar vaqt kelganida xomushlik, hattoki chinakam dilsiyohlik his etdim. Bu mo'jazgina Gvatemala qishloqchasini yana qo'rishim amrimahol, deb o'ylayman.

Har safar biron joydan ketayotganimda, u yerga o'zimning bir qismimni tashlab ketayotganday bo'laman. Marko Polo kabi sayohatchi bo'lamizmi yoki beshikdan to qabrgacha bir joyda yashaymizmi, hayot faqat tuzilishu o'lishlardan iborat, menimcha. Yorug'dunyoda paydo bo'lar onlarimiz va boshqa dunyoga ketar onlarimiz. Dunyoda yangi insonlar paydo bo'lishlari uchun qariyalar ketmoqlari kerak. Siz bu haqida nima deb o'ylaysiz?

Momostenangodalik vaqtimda men meditasiya qildim va Sizning aurangizni ko'rishga harakat qildim. Tez orada uch rangni ko'rdim - sariq, to'qroq sarg'ish va bosiqroq, metallga yaqinroq tovlanuvchi qizgish ranglar. Balki shu ranglar Siznidir? Ular ayrim holda ham,

birgalikda ham chiroyli.

Gvatemaladagi oxirgi to'xtash joyim Chahul bo'ladi - bu somon suvoqli uylari bor kichkina shaharcha. U yerlik bolalarning ko'zлари huddi hikmat nazari bilan boqayotganday ko'rindi. Barcha oilalarning ayollari gobelen (devorga osib qo'yiladigan suratli gilam) to'qishadi. Men bir kampirdan Nortgemptonda yashaydigan bir ayol uchun bitta gobelen tanlab berishni iltimos qildim.

U biroz o'ylanib turdi-da, katta gofenlar to'plami ichidan bittasini oldi. Qasam ichib aytamanki, u yerda kamida ellik xil gobelen bor edi. Uning tanlab bergen gobelenining rangi sariq, to'qroq sarg'ish va qizgish edi. Agar Xudo yaratgan bu olamda mos kelib qolishlar uchrab turadigan hodisa desak, bu mos kelib qolish nimadan ekani Sizni qiziqtirsa kerak, deb o'ylayman.

Bizning o'zaro maktublar yo'llashimiz ham mos kelib qolish emasmikin, degan savol xayolingizga kelmadimi?

Sizga barcha ezguliklarni tilab

Aziz

*P.S. Aytmoqchi, gobelenni Sizga pochta orqali
jo'nataymi? Yoki bir finjon qahva ichish uchun
uchrashgunimizgacha kutasizmi?»*

Ella ko'zlarini yumdi va o'z aurasini tasavvur etishga harakat qildi. U o'zi o'ylamay qo'ygan ko'p narsalar yodiga tushib ketdi. Eng oldin ko'z oldimda pistoqi-yashil fartuk taqqan va qo'lida o'lchov stakanini ushlab turgan onasi gavdalandi; uning yuzi juda rangpar, niqob taqqan kabi jonsiz edi; keyin devorlarda qog'ozdan yasalgan yaltiroq yurakchalar va uyni xuddi Yangi yil kechasini o'zi bilan bezatishga urinib, ilgakka ilinganday turgan otam ko'rindi. O'smirlik vaqtida onasini otasining o'limida aybdor hisoblagani esiga tushdi.

Balog'atga yetganida, turmushga chiqsam, onamdan farq qilib, erimni baxtli qilaman va hech qachon bu axdimdan qaytmayman deb

o'ziga so'z bergan edi. Turmushi onasini kiga o'xshamasligi uchun hatto erni ham xristianlar orasidan emas, o'z e'tiqodidagi lardan tanladi. Qari onasidan nafratlanmaydigan bo'l gunicha ko'p yillar o'tdi. Oxirgi yillarda oralaridagi munosabat yaxshi tomonga o'zgargan bo'lsa hamki, onasi haqida o'ylaganlarida qalbining tubida nimadir bor edi, shundan yuragi qisilardi.

- Oyi!.. Osmonlardan yerga tushing! Oyijon! Ella orqasidan kelayotgan hingir-hingir kulishlar va pichirlashlarni eshitdi. O'girilib qarab to'rt juft ko'z o'ziga taajjublanib qarab turganini ko'rdi. Orli, Avi, Janet va Devid nonushta qilish uchun pastga tushishgan va endi yoniga kelib unga g'aroyib ajoyibotni ko'rib qolganday qarab turishardi. Aftidan ular uning e'tibor berishini anchagina kutgan ko'rinishadi.

- Hammaga xayrli tong, - dedi jilmaygancha Ella.

- Nima uchun biz kirib kelganimizni

bilmadingiz? - so'radi Orli, ajablanganini yashira olmasdan.

- Sen o'z kompyuterin bilan juda band eding, - dedi Devid xotiniga qaramasdan.

Ella uning ko'z qarashini kuzatdi va noutbuk ekranidagi Aziz Z.Zaxaraning elektron xatiga ko'zi tushdi. Ella bir on ham kutmasdan, hatto dasturni berkitish kerakligi ham esidan chiqib, kompyuter qopqog'ini yopib qo'ydi.

- Men agentlik uchun hali ko'p o'qishim kerak, - tushuntirdi Ella. - Hisobot ustida ishlayotgan edim.

- Noto'g'ri! Siz pochtani o'qiyotgan edingiz, - juda jiddiy ohangda dedi Avi.

Nima uchun bu o'smirlar hamma yoqqa burunlarini suqaverar ekanlar-a? - Ella nima deyish haqida o'ylanib qoldi, lekin uning baxtiga boshqalarni bu bilan ishlari yo'q edi. Ular nonushta axtarib, boshqa tomonga Qarayotgan edilar.

Nihoyat Orli Ellaga qaradi va hammani qiziqtirib turgan savolni berdi:

- Oyijon, sizga nima bo'ldi? Axir nonushta tayyorlamabsiz-ku!

Ella ham stolga o'girilib qaradi va hamma ko'rib turgan narsani ko'rди: qahva ham, omlet ham, maymunjon mevasidan tayyorlangan sharbat ham yo'q edi. Nima bo'ldi o'zi, o'ylardi Ella, qanday qilib nonushta tayyorlashni esidan chiqarib qo'ydi?

Ikkinchi qism

Suv

(*Hodisalar suv kabi oquvchan, o'zgaruvchan va kelajakda nima bo'lishini oldindan aytib bo'lmas*)

Rumiy

1244 yil, 15 oktyabr, Konъya

Qop-qorong'u osmonda yarqiragan to'lin oy xuddi kattakon durga o'xshaydi. Yotgan joyimdan turdim va oy nuri yog'ilib turgan hovliga ochig'liq derazadan tashqariga qaradim. Lekin bu go'zal manzara ham yuragimning dukillab urishi va qo'llarimdagи titroqni bosa olmadi.

- Nima bo'ldi, afandim. Yana o'sha tushni ko'rdingizmi? - shivirlab so'radi xotnim. - Suv keltirib beraymi?

Men uni tinchlantirishga urindim. Uxlasin, baribir, menga yordam bera olmaydi. Tushlar - hayotimizning bir qismi va ular Xudoning irodasi bilan ko'rildi. Bundan tashqari, keyingi qirq kundan buyon men aynan o'sha tushni ko'rishimda qandaydir sabab bo'lishi kerak. Tushning boshlanishi har doim har xil edi, ehtimol, men o'zim uni turli tomondan ko'rayotgandirman. Tanishday ko'ringan, lekin avval sira ko'rmaganim gilamli xonada Qur'on

o'qiyotganimni ko'rardim. Ro'paramda baland bo'yli, ozg'in, gavdasini g'oz tutgan va yuzlari ko'rinmayotgan darvish o'tiradi. U qo'lida beshta shamli qandilni tutib, men o'qishim uchun yoritib turadi.

Sal turib darvishga nimalarni o'qiyotganimni ko'rsatishni istab, boshimni ko'taraman va shundan keyingina yoritayotgan narsa qandil emas, odamning qo'li ekanini ko'rib dahshatga tushaman. U ro'paramda o'ng qo'lini ko'tarib turadi va har bitta barmog'i xuddi olovdek yonadi.

Meni vahima bosardi va suv izlay boshlardim. Olovni o'chirish uchun kiyimlarimni echib darvishning ustiga yopardim. Kiyimlarni olganimda esa, darvish o'z o'rniغا yonib turgan shamni qoldirib, o'zi g'oyib bo'lgan bo'lardi. Keyin men uyning har tomonidan darvishni qidirishga tushaman, har burchakdan uni axtaraman, keyin yorqin-sariq atirgullar ochilib turgan hovliga chopib chiqaman. Darvishni chaqiraman, lekin u hech qayerda ko'rinmaydi.

- Mahbubim, qayt. Qayoqqa g'oyib bo'lding?
Va nihoyat, g'ayrishuuriy kuch meni yetaklab quduq yoniga olib boradi va men chuqurdagi qora suvga qarayman.
Avvaliga hech nima ko'rinnmaydi, lekin keyinroq oy chiqadi va quduq ostidan ikki qora ko'z unutilmas anduh ila menga qarab turganini ko'raman.
- Ular o'ldirishihti uni! - baqiradi yonimda kimdir. Balki bu mening o'zimdirman. Kuchli iztirob og'rig'idan o'zim baqirgan bo'lsam kerak.
Men baqiraveraman, baqiraveraman, toki xotnim meni mahkam quchoqlab, bag'riga bosmaguncha baqiraman:
- Afandim. Yana o'sha tushni ko'rdingizmi? - shivirlab so'raydi har safar xotnim.
Kira uxlab qolganidan keyin hovliga chiqdim. Nazarimda ko'rgan tushim tush emas, ayni hozir bo'lgan hodisa edi va hamon men bilan, meni vahimaga solib turipti. Kecha juda sokin; quduqni ko'rdim-u, badanim jimirlab ketdi,

lekin baribir uning yoniga o'tirdim va tungi shabada daraxt shoxlarini mayin shitirlatishiga qulq tutdim.

Bunday damlarda meni hamisha anduh bosadi. Buning sababini bilmayman: hayotda bajaradigan ishlarim juda ko'p, hamisha o'zim uchun eng qadrli bilgan ishlarim bilan bandman: ilm olish, ezgulikni tanish va Xudoga e'tiqodni o'zlariga singdirishlari uchun ularga yordam berish iqtidori berilgan menga. O'ttiz yetti yoshimda men Xudodan so'raganimdan ortig'ini oldim. Men kalom, fiqh ilmlarini o'rgandim va muqaddas g'ayb ilmlari - payg'ambarlar, avliyolar va olimlar egallagan ilmlar - sirlarini bilishga bag'ishlandim.

Rahmatli otam boshchiligidagi, davrimizning eng yaxshi ustozlaridan ta'lim olib, Xudo mening zimmamga yuklagan majburiyatni anglab, ko'p ishlarimoqdamani.

Zimmamga Xudodan kelgan vahiyalarni Uning xalqi orasida tarqatish vazifasi yuklatilgani va Uning xalqiga to'g'rini noto'g'ridan ajratishni

o'rgatishim tufayli meni Uning O'zi yorlaqagan, deydi odatda keksa ustozim Said Burxoniddin.

Men ko'p yillardan buyon madrasada ta'lif beraman, boshqa olimlar bilan bahs yuritaman, shogirdlarimga o'rgataman, o'zim kalom va hadislarni o'rganaman va har jumada shaharning eng katta masjidida imomlik qilaman. Muridlarim sanog'ini yo'qotib qo'yganimga ham ko'p bo'ldi. Odamlar notiqlik san'atimni sharaflayotganlarini va mening so'zlarim ularga eng zarur vaqtida yordam berib, hayotlarini o'zgartirayotganini eshitish yoqimli edi.

Oila a'zolarim tomonidan sevilgan va yaxshi do'stlar bilan taqdirlanganman. Birinchi xotinimning Qazo qilishi men uchun og'ir zarba bo'lgan va men endi sira uylanmayman, deb o'ylagan edim. Lekin shunga qaramay uylandim va Kira tufayli yana hayotimda muhabbat, quvonch topdim. Hozir ikkala o'g'lim ham katta bo'lib qolishgan, men

ularning bir-birlariga o'xshamasliklaridan hayron bo'laman. Ular misoli bir tuproqqa ekilgan, o'sha bitta quyoshdan bahra olayotgan, yonma-yon o'sayotgan, lekin tamomila boshqa-boshqa urug'lar. Men ular bilan, shuningdek, juda iqtidorli asrandi qizim bilan iftixor qilaman. Xullasi kalom, men baxtli insonman, o'z xususiy hayotimda ham, ijtimoiy hayotimda ham birday baxtliman.

Lekin nima uchun ichimda kun sayin zilday og'irlashib borayotgan bo'shliqni his etayapman? Bu xuddi bir kasallik kabi jonimni kemiryapti va qayoqqa bormay, meni qo'yib yubormayapti. U xuddi ochofat yuvosh kalamushga o'xshaydi.

Shams

1244 yil, oktyabr, Konya.

Hech bir tashqi sababsiz - faqat shu shaharda yashagan va yashayotgan, tanish va notanish aziz-avliyolarga ta'zim qilish uchungina - bu

notanish shahar darvozasi qarshisida to'xtadim. Hayotimda sira ham aziz-avliyolar ruhlaridan oq fotiha tilamasdan yangi joyga kirmaganman.

Bu joy musulmonlarga tegishlimi, xristianlargami yoki yahudiylargami, ahamiyatsiz bo'lgan. Avliyolar oddiy insonlar orasidagi bunday tafovut doirasidan tashqari (yuqori) turishlariga ishonaman. Avliyolar barchaniki.

Alqissa, Konyani birinchi bor uzoqdan ko'rishim bilanoq, har doimgiday ta'zim bajo qildim. Lekin menga javoban har safargidek fotiha berish o'rniga, ular xuddi mozor ustidagi tosh kabi jimjitlik saqladilar. Men ikkinchi marta va bu safar balandroq ovozda ulardan fotiha so'radim. Yana jimjitlik. Shunda tushundim: ular eshitib turishgan edi. Faqat fotiha bergilari kelmayapti.

- Ayting, aybim nimada? - so'radim men shamoldan, qayoqqa esayotgan bo'lsa shu yoqdagilarga savolimni yetkazsin uchun.

Shamol tez orada javob olib keldi:

- O, darvish, bu shaharda sen ikki bir-biriga qarama-qarshi holga duch kelasan. Musaffo ishqqa va ashaddiy nafratga. Biz seni ogoh etmoqdamiz. Shunga qaramay, o'z qaroringdan qaytmasang, tavakkal qil.
- Ogohlantirishingiz sira shart emas edi, - dedim men. - Sof ishqni uchratishning o'zi menga yetardi.

Bu so'zlarimdan keyin Konya avliyolari menga fotihalarini berdilar. Ammo men darhol shaharga kirishni istamadim. Otim o'tlab yurgunicha, eman daraxti ostida o'tirib, uzoqdan shahardagi binolarning tashqi ko'rinishlarini tomosha qildim. Minoralar quyosh nurlari ostida yaraqlab turardi. Ora-sira itlar vovullar, eshaklar hangrab qo'yar, bolalar kulgisi eshitilar, savdogarlar baqir-chaqir qilishardi - oddiy shaharga xos shovqin-suron edi bu. Qiziq, bu yopiq eshiklar va panjaralangan derazalar ortiga qanday quvonch va anduxlar yashiringan ekan? Darbadar

darvish sifatida bu yangi hayot bo'sag'asida o'zimni bir qadar noqulay his etar edim, lekin shunda quyidagi muhim qoidani esladim:
«Yo'lingda uchraydigan to'siqlarga qarshilik qilma. Hayot o'z o'zanida oqishiga qo'yib ber. Hayoting o'zgarib ketsa, bundan diling vayron bo'lmasin. O'tmish kelajakdan yaxshiligini qayoqdan bilasan?»

- Assalomu alaykum, darvish, - degan do'stona ovoz meni xayolot olamidan chiqarib oldi.

O'girilib qarab, uzun mo'ylovli dehqonni ko'rdim. U har daqiqa o'lib qolishi mumkin bo'lgan qovurg'alari sanasa bo'ladigan ozg'in buqaga qo'shilgan aravada ketardi.

- Vaalaykum assalom! Alloh sizdan rozi bo'lzin! - javob berdim men.

- Nima uchun bu yerda yolg'iz o'tiribsiz? Yo'l yurib charchadingizmi? Istanasangiz, birga ketaylik.

Men kulimsiradim:

- Rahmat, men, yaxshisi, buqangizga yuk bo'lmasdan, piyoda ketaman.

- Mening buqamni kamsitdingizmi? - dedi xafalanib dehqon. U qari va holsiz bo'lgani bilan men uchun qadrli.

Dehqonning so'zlaridan hushyor tortdim.

O'rnimdan irg'ib turib, ta'zim qildim. O'zing ham Xudo yaratgan bu olamning kichik bir zarrasi bo'laturib, U yaratgan jonzotlarga, bu inson bo'ladimi yo hayvonmi, baribir, nechuk bunday bepisandlik qilding?

Dehqonning chehrasiga bir lahza ishonchsizlik soya soldi. Uning yuzida bir fursat hech nimaning ifodasi bo'lindi, mening kulayotgan yo kulmayotganimni bila olmay qolgan edi go'yo.

- Umrimda bunaqasi bo'lмаган, - dedi keyin hushiga kelib va menga xushnud jilmaydi.

- Hech kim ho'kizingizdan uzr so'ramaganmi?

- Bu ham. Men o'zimdan hech kim hech qachon uzr so'ramagani haqida o'ylayotgan edim. Odatda men kechirim so'rayman. Hatto boshqalar mengaadolatsizlik qilsalar ham, kechirimni hamisha men so'rayman.

Uning so'zlari meni mahzun qildi.

- Qur'onda barchamiz va har birimiz yagona va eng yaxshi shakl asosida yaratilganimiz aytilgan. Bu qoidalardan biri, - dedim sekingga.

- Qanaqa qoida? - so'radi dehqon.

- «Xudo hamisha sen bilan mashg'ul. Har bir inson Xudoning yaratmishidir va u sekin-asta, lekin og'ishmasdan barkamollahish sari harakatlanadi. Bizlar Xudoning tugallangan yaratiqlari emasmiz, biz to'liq mukammallik ishtiyoyqidagi yaratiqlarmiz. Xudo har birimiz bilan alohida ishlaydi, zero insoniyat - har bir qismning umumiyatda muhim o'rni borligini bilguvchi buyuk me'mor san'atining asaridir».

- Siz ham bu erga xutbani tinglash uchun keldingizmi? - qiziqib so'radi dehqon. - Odam juda ko'p bo'ladiganga o'xshaydi. U juda mashhur.

Mening yuragim qinidan chiqayozdi: gap kim haqida ketayotganini tushundim.

- Ayting-chi, Rumiy ma'ruzalarida o'ziga xos

nima bor?

Dehqon hech nima demasdan osmonga tikildi.
Uning fikrlari qayerlardadir uzoqlarda
uchayotganmidi yoki umuman
uchmayotganmidi, bilib bo'lmaydi.

- Men qishloqdan kelayapman, u yerda hayot
juda og'ir, - dedi u nihoyat. Oldin ocharchilik
bo'ldi, keyin mo'g'ullar. Ular o'z yo'lida
uchragan qishloqni talon-toroj qilishdi va
yondirishdi. Lekin shaharlarda bundan ham
yomon bo'ldi. Ular Arzurumni, Sivesni,
Qaysariyni bosib olishdi, hamma erkaklarni
qirib tashlashdi va ayollarni o'zlari bilan olib
ketishdi. Menku uyim va xotinimni
yo'qotmadim. Lekin halovatimni shunday
yo'qotdimki, bir daqiqa ham tinchlik
bo'lmayapti.

- Bunga Rumiyning qanday aloqasi bor? -
so'radim men.

Dehqon ko'zlarini ho'kizi tomonga qaratdi va
o'sha bir taxlitdagi ovozda dedi:

- Rumiy xutbasini eshitganda, barcha g'am-

qayg'ular tarqab ketadi, - deyapti hamma.

- Siz bilan Konyaga borganim bo'l sin, - dedim men.

- Yo'lda Rumiy haqida gapirib berasiz.

Men otimni aravaga bog'ladim va o'zim dehqonning yoniga o'tirdim va bu qo'shimcha yuk ho'kizga sira bilinmaganini sezib, xursand bo'ldim. U oyoqlarini avvalgiday bir maromda qo'ygancha sekin ketaverdi. Dehqon menga non bilan echki pishlog'idan uzatdi. Biz ovqatlanib, tamaddi qilib ketdik. Shu tariqa men ko'm-ko'k osmonda charaqlab turgan quyosh va shahar avliyolarining diqqat-e'tibori ostida Konyaga kirib keldim.

- Salomat bo'ling, birodarim, - dedim men aravadan tushib va otimni yechib oldim.

- Xudo xoxlasa, namozda ko'rishgunimizcha! - dedi javoban dehqon.

Men bosh irg'adim va xayrlashib qo'limni ko'tarib qo'ydim.

- Inshoollo.

Garchi xutbaga juda borgim kelayotgan esa-da

- axir Rumiy bilan uchrashish otashin orzuyim edi - lekin eng oldin shaharni aylanishga va odamlar mashhur xatib haqida nimalar deyishlarini eshitishga qaror qildim. O'z ko'zlarim bilan ko'rishdan oldin unga boshqalarning - yaxshi va yomonning, yaxshi ko'radigan va yaxshi ko'rmaydiganlarning ko'zlari bilan qaragim keldi.

Tilanchi Hasan

1244 yil, 17 oktyabr, Konya.

Arosat azobini «muqaddas azob» deb atash telbalikdir. Men moxovman. Men o'liklarga ham, tiriklarga ham begonaman. Onalar to'polonchi bolalariga meni ko'rsatib qo'rqitishadi, o'smirlar menga tosh otishadi. Xunarmandlar balo chaqirmasin deb meni haydar solishadi, homiladorlar homilaga zarari etmasin deya mendan yuz burishadi. O'zim ham ulardan nari yurishga harakat qilishimni odamlar bilishmaydi.

Boshlanishida teri o'zgaradi, qalinlashadi va qorayadi. Keyin tizza, elka, qo'llarda va yuz terisida turli kattalikda va achigan tuxumning rangida yamoqqa o'xshash shakllar paydo bo'ladi. Ular achishadi va qichishadi, keyin og'riqlar kamayadi, aniqrog'i, bunga ko'nikish hosil bo'lsa kerak. «Yamoqlar» kattalashib boradi, ularda jirkanch pufaklar paydo bo'ladi. Muayyan vaqtdan keyin qo'llar changakka o'xshab qoladi, yuz tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketadi. Endi yaqin qolgan chog'i, ko'zlarim yumilib qolayapti. Ko'z yoshlarim va so'lagim tinimsiz oqayapti. Ko'limdag'i tirnoqlarim to'kilib bo'lgan. Lekin sochlarim to'kilmagani qiziq. Balki buning uchun o'zimni baxtli hisoblasam ham bo'lar.

Aytishlariga qaraganda, Ovrupoda moxovlarni shaharga kiritishmas ekan. Bu yerda bizlarni shaharga kiritishadi, lekin qo'ng'iroq chalib, odamlarni ogohdantirib yurishimiz kerak. Bizga yana sadaqa so'rashga ruxsat berilgan, bu yaxshi, aks holda ochlikdan o'lish mumkin.

Biz doimo yo sadaqa so'rab, yo duo o'qib yuramiz. Xudo bizga e'tibor berishi dargumon, lekin odamlar nimagadir e'tibor beradi deb hisoblashadi. Shuning uchun bizdan jirkansalar hamki, haqlariga duo qilishimizni so'rashadi. Kasallar, nogironlar va qariyalar uchun duo so'raydilar. Buning uchun ular yaxshi haq to'lashadi va ko'p ovqat berishadi. Ko'cha-ko'ylarda moxovlarga itdan badtar yomon munosabatda bo'lishadi, lekin o'lim va choraszlik xukm surayotgan xonadonlarda bizni xuddi sultonlarni kutganday kutishadi, mehmon qilishadi.

Meni duo o'qib qo'yish uchun chaqirganlarida, boshimni egaman-da, xuddi Xudoga iltijo qilayotganday, bir nechta tushunarsiz arabcha so'zlarni pichirlayman. Bilganim shu - ko'rsatish xolos, shuning uchun Xudo meni eshitmaydi deb o'layman.

Tilanchilikda daromad ko'p emas, lekin men shunga qanoat qilishni ma'qul ko'raman.

Tilanchilik uchun eng yaxshi kun - juma; faqat

Ramazonda emas, chunki Ramazonda shundoq ham butun bir oy betashvish yashash mumkin. Arafa kuni ko'p pul ishlab olish mumkin. Bu kuni, avval qilgan va keyin qilishi mumkin bo'lgan gunohlariga tavba qilish uchun, qatto eng ziqna kishilar ham saxovatli bo'lib ketishadi. Yilda bir marta odamlar tilanchilarga orqa o'girmaydilar. Aksincha ularni o'zlari axtarib yurishadi, qancha baxtsiz bo'lsalar, shuncha yaxshi. Bu kuni shaharliklarning saxovatlari shunchalik oshib-toshib ketadiki, ular nafaqat ko'p sadaqa berishadi, qatto bizlarni deyarli samimiy yaxshi ko'rib ketishadi ham.

Mana bugun ham serdaromad bo'ladigan ko'rindi, chunki Rumiy o'zining navbatdagi xutbasini o'qishga keladi. Masjid ichiga odam to'lib bo'lgan. Ichkariga sig'maganlar hovlida turishihti. Biz va kissavurlarga pul topish uchun juda qulay imkoniyat. Hammasi mana shu yerda.

Men masjidning shundoqqina to'g'risida,

zarang daraxtiga suyanib o'tiribman. Havodan yaqinlashib kelayotgan, uzoqdagi bog'larning xush bo'ylari bilan aralashib ketgan yomg'ir isi kelib turipti. Oldimda idishim turipti. Boshqa birodarlarimdan farqli o'laroq, men hech qachon hech nima so'ramayman. Moxov odam nolimasligi va hayotining og'irligi yoki sog'lig'inining yomonligini doston qilavemasligi kerak. Odamlarga yuzini ko'rsatsa yetarli, hamma so'zlardan yetib ortadi. Shuning uchun men yuzimni ochaman va jim o'tiraveraman. Bir soat o'tar-o'tmas idishda tanga turgan bo'ladi. Hammasi mayda chaqalar. Men esa quyosh, sher va yarim oy tasviri tushirilgan oltin tangaga intizorman. Rahmatli Alovuddin Kaykubod pullarning erkin aylanishiga ruxsat bergandan beri, italiya florinlari u yoqda tursin, hatto Qohira va Bag'dod xalifatlari hukmdorlarining pullari ham bizda boshqa pullar bilan birga aylanadigan bo'ldi. Hokimiyat qabul qildi; shahar tilanchilari ham shunday qilishdi.

Chaqalar bilan birga mening tizzalarimga zarangning bir necha yaproqlari ham tushdi. Zarang o'zining qizil va tillarang yaproqlarini menga xuddi sadaqa tashlayotganday to'kardi. Shunda nogahon men bilan daraxt orasida qandaydir umumiyat borligini ravshan his etdim. Daraxt kuzda yaproqlarini to'ka-to'ka o'lar ekan, kasalining oxirgi bosqichida o'z vujudi a'zolarini birin-sirin yo'qotib borayotgan moxovga o'xshaydi.

Men misoli zarang daraxtiman. Terim, oyoq-qo'llarim, yuzim - hammasi chirib tushayapti. Har kuni vujudimdan bir qismini yo'qotib borayapman. Lekin zarangdan farqli o'lar oq, men bahorda qayta jonlanmayman.

Yo'qotganlarim qayta tiklanmaydi. Odamlar menga qaraganlarida, men ilgari qanday bo'lganimni ko'rishmaydi, yo'qolganini ko'rishadi, xolos. Idishimga tanga tashlayotganlarida xuddi kasalim yuqib qolayotganday, qurqib ko'zlarimga qaramaslikka harakat qilishadi. Men ular uchun

o'g'ri va qotildan ham yomonroqman. Bu jinoyatchilarning qilgan ishlari qanchalik jirkanch bo'lmasin, ularga xuddi yo'q odamday qaramaydilar. Vaqt kelib men buni tushundim: menga qaraganlarida, ular o'limni ko'rardilar. Ular o'limni ko'rishdan, uni juda yaqindan va juda xunuk qiyofada ko'rishdan qo'rqedilar. To'satdan olomon ichida g'ala-g'ovur boshlandi. Kimdir: «U kelayapti! U kelayapti!» deb qichqirayotganini eshitdim. Rumiy sutday oppoq otda yaqinlashib kelardi. U kelishtirib tikilgan, tillarang yaproqlar va javohirlar bilan bejalgan kahrabo rangli chakmon kiyib olgan edi. Uning qaddi tik va ko'rinishi mag'rur edi. U donishmand va ulug'vor edi, ortidan bir tuda muxlislari ergashib kelayotgan edilar. U olimdan ko'ra ko'proq hukmdorga - shamol, olov, suv va tuproqlar hukmdoriga o'xshardi. Hatto oti ham baland edi va xuddi o'ziga noyob insonni olib kelish nasib etganini tushunganday mag'rur edi.

Idishdagi chaqalarimni yig'ishtirib olib,

yuzimni faqat yarmi ochiq qoladigan qilib o'radim-da, masjidga kirdim. Ichkarida odamlar tiqilib turardilar, o'tirish haqida esa gap ham bo'lishi mumkin emas edi. Lekin moxovlik holatining o'zicha bir «yaxshi» tomoni ham bor: men hamisha o'zimga o'tirish uchun joy topa olardim, chunki hech kimning men bilan birga o'tirgisi kelmaydi.

- Og'a-inilarim, - gap boshladi Rumiy juda yaxshi mashq qildirilgan ovoz bilan. - Bepoyon osmon bizning naqadar kichikligimiz va ahamiyatsizligimiz haqidagi o'y-xayollarga olib keladi. Ichingizdan ba'zi birovlar: «Shu ojizligim bilan Xudoning qoshida mening ahamiyatim qancha bo'lishi mumkin?» deb so'rashlari mumkin. Mening bilishimcha, bu savol vaqtি-vaqtি bilan ko'pchilikni bezovta qilib keladi. Bugungi ma'ruzamda men bu savolga bir nechta javoblar bermoqchiman. Men birinchi qatorda Rumiyning ikki o'g'li - rahmatli chiroyli onasiga juda o'xshaydi deyishadigan Sulton Valad va yuz ifodalari

serharakat hamda ajablanarli darajada ayyor ko'zli kichik o'g'li Alovuddin - o'tirganlarini ko'rdim. Ular o'z otalari bilan faxrlanayotganlari shundoqqina bilinib turipti.

- Shuning uchun Qur'onda «Biz bu omonatni osmonlarga, yerga va tog'u toshlarga ko'ndalang qilgan edik, ular uni ko'tarishdan bosh tortdilar va undan qo'rqdilar. Inson esa uni o'z zimmasiga oldi» deyilgan. (33-«Ahzob» surasining 72-oyatida)

Rumiy g'alati gapirardi, xuddi ilmli odamlarga gapirayotganday. Keyin u Xudo haqida gapira boshladi. U Xudoni uzoq osmonlarda emas, balki hammamizning yonimizda, har birimiz bilan birga deb aytdi. Bizni Xudoga yaqinlashtiradigan narsa aynan bizlarning bu dunyoda chekayotgan azobu uqubatlarmiz, dedi Rumiy.

- Mana, qo'llaringiz, ular hamisha ochilib, yopilib (harakatlanib) turadi. Bunday bo'lмаганда, ular qotib qolgan bo'lar edi. Ikkala qo'lingiz mukammal muvozanatda va

mutanosiblikda, xuddi qushning qanotlari kabi. Eng ko'zga ko'rinmas harakatda ham Xudoning ko'rinmas borligi mavjud.

Boshida uning gaplari menga yoqdi.

Yuragimga iliqlik yugurdi. Lekin ko'p o'tmay yuragimda shunday g'azab to'lqini ko'tarildiki, nafas ololmay qoldim. Azobu uqubatlar haqida Rumiy nimani ham bilardi? Aslzoda bo'lib tug'ilgan bo'lsa, katta merosga ega bo'lsa va hayotning orqa tomonini sira ko'rmagan bo'lsa. Uning birinchi xotini vafot etgani ma'lum, lekin haqiqiy musibatni boshdan kechirganiga menda ishonch yo'q edi. U kumush qoshiqlarda ovqat eyish uchun tug'ilgan, izzatli odamlar davrasida o'sib ulg'aygan, eng taniqli ustozlardan ta'llim olgan, hamisha sevimli, ardoqli, erkatoy bo'lgan - azobu uqubatlar haqida gapirishiga yo'l bo'lsin?

Nimaga Xudo bundayadolatsiz? Menga kambag'allik, kasallik, og'riqni berdi; Rumiyga esa boylik, muvaffaqiyat va donishmandlikni. U o'zidagi obro'- e'tibori va shohona viqori

bilan bu dunyoga, hech bo'lmasa, bu shaharga taalluqli emasday edi. Men odamlarni qo'rqiitmaslik uchun yuzimni yashirib yurishimga to'g'ri keladi, u esa xuddi olmosday yaraqlaydi. Qiziq, u mening o'rnimda bo'lib qolsa, qanday bo'lardi? Bir kun kelib o'zining bu buyuk darajasidan tushib ketishi mumkinligini hech xayoliga keltirganmikin? Atagi bir kunga bo'lsa ham jamiyatdan mosuvo bo'lib yashash qanday bo'lishini tasavvur etganmikin? Agar Xudo unga mening hayotim bilan yashashni buyurgan bo'lganida, u buyuk Rumiy bo'la olarmidi? Shunda men ikkalamizning oramizdagi farq unchalik katta emasligini angladim.

Tobora o'sib va chuqurlashib borayotgan norozilik mendagi dastlabki maftunlik hissini haydab chiqardi. Qalbimda ranj-alam bilan o'rnimdan turdim va chiqib ketdim. Odamlar nima uchun ko'pchilik juda orzu qilgan bunday xutbadan chiqib ketayotganimni tushunmay,

qiziqib menga qarashardi.

Shame

1244 yil, 17 oktyabr, Konya.

Dehqon bilan xayrlashganimizdan so'ng eng oldin o'zim va otim uchun boshpana axtarishga tushdim. Karvonsaroyda menga to'rtta xonani ko'rsatishdi, men eng kamtaronasini tanladim. Menga ko'rpa-to'shak, shipillab yonib turadigan eski moychiroq va bosh qo'yarga yostiq o'rniga oftobda kuydirilgan bir g'isht bo'lsa bas edi. Shu bilan birga xonam derazasidan shaharning to tepaliklarga qadar ajoyib manzarasi ko'rinib turardi.

Birinchi navbatda shu ishni tugatgach, bu yerda turli dinlar va tillarning qaror topganiga hayron bo'la-bo'la, ko'chalarni kezishga tushdim.

Yo'limda mashshoq-lo'lilarni, arab sayohatchilarini, xristian ziyyoratchilarini, yahudiy savdogarlarni, buddaviy ruhoniylarni, ovrupo trubadurlarini, eron hunarmandlarini,

xitoy akrobatlarini, ilon o'ynatuvchi hindlarni, zardushtiy sehrgarlarni, yunon faylasuflarini uchratdim. Qullar sotiluvchi bozorda terisi sutga chayqab olinganday oppoq ayollarga va quyoshda qoraygan gavdali bichilgan qullarga ko'zim tushdi.

Bozorda bir soqol olish bilan birga qortiq bilan qon oluvchi sartaroshlarni, yumaloq shishalari bilan bashorat qiluvchilarni va olov yutadigan masxarabozlarni ko'rdim. Ziyoratchilar Quddusdan kelayotgan edilar, daydilar esa, tushunishimcha, sarbadorlar qo'shinidan qochib kelgan askarlar edi, ular Venetsiya, frank, sakson, yunon, fors, turk, kurd, arman, yahudiy va men bilmaydigan allaqanday tillarda gaplashardilar.

Oralaridagi tafovut ko'pligiga qaramay, ularning barchasida allaqanday noyetuklik borligi tasavvuri yuzaga kelardi, nazdimda, Usta ishni yarim yo'lda to'xtatgan-u, har biri chala qolganday edi go'yo.

Shahar Bobilni eslatardi. Hamma yoq

harakatda. Men bu betartib qarakatlarning qoq o'rtasida va atrofimdagi odamlarni kuzatar ekanman, yana bir oltin qoidani esladim: «Mukammal, benuqson va beayb Xudoni sevish juda oson. Ammo qisqa umr kechiruvchi o'z birodaringni barcha nuqson va kamchiliklari bilan sevmoq mushkul. Inson sevishga qobil zot ekani esingizda bo'lsin. Sevgisiz hikmat yo'qdir. Esingizda bo'lsinki, agar biz Xudoning yaratmishlarni seva olmasak, Xudoni ham chinakamiga seva olmaymiz va bila olmaymiz».

Men har xil yoshdagi hunarmandlar o'zlarining tor, qorong'u ustaxonalarida mehnat qilayotgan tor ko'chalarda aylanib yurdim. Va hamma yoqda odamlar Rumiy haqida gapirar edilar. Qiziq, uning o'zi bunchalik mashhurlikni qanday his etar ekan? Bu uning «men»iga ta'sir ko'rsatganmikin? Xayolga botgancha, Rumiy xutba o'qiyotgan masjiddan nari ketdim. Shahar manzarasi sekin-asta o'zgardi. Shimol tomondagi uylar ancha eski, bog'larning

devorlari qisman vayron bo'lgan, bolalar ancha sershovqin va serharakat edilar. Hidlar ham o'zgardi, ancha chuchmallashdi; bu erda sassiq sarimsoqning isi kuchliroq edi. Oxirida men havoda uch xil is: ter isi, atir-upa isi va hirs isi kuchli anqiyotgan ko'chaga kelib qoldim.

Tosh yotqizilgan ko'cha oxirida devorlariga bambukdan tirkak tirab qo'yilgan va tomi o't-o'lalnar bilan yopilgan yarim vayrona uy bor edi. Uy oldida bir nechta ayol gaplashib turishardi. Ular yaqinlashayotganimni ko'rib, qiziqsinib, yo hayron bo'lganday, yoki xursand bo'lganday, menga qarab qolishdi. Men turli rang va ko'rinishdagi atirgullar ochilib yotgan bog'ga e'tibor berdim. Ularga kim qarashi meni qiziqtirib qo'ydi.

Javobini uzoq kutishga to'g'ri kelmadi. Bog'ga yaqinlashgan zahotim uyning eshigi lang ochildi va baland bo'yli, bag'baqalari katta, judayam semiz ayol chiqib keldi. Ko'zlarini qissa, ular atrofdagi yog' qalqalari ichida ko'rinxay ketardi. Ustki labi yuqorisida yupqa

qora mo'ylov borligini payqadim. Qarshimda yarim ayol-yarim erkak turganini payqashim uchun biroz vaqt ketdi.

- Nima kerak? - shubhalanib so'radi u mendan. Uning qiyofasi tez o'zgaruvchan edi; bir qarashda bu - ayolning yuzi bo'lsa, keyingi qarashda erkakning yuziga aylanardi. Men o'zimni tanitdim, keyin uning ismini so'radim, lekin erkak-ayol savolimni chetlab o'tdi.

- Bu sendeklar keladigan joy emas, - xuddi pashsha haydaganday menga qo'l silkitdi bu ayol-erkak.

- Nimaga?

- Bu yer islovotxonaligini ko'rmayapsanmi? Sen shahvatga bo'ysunmaslikka qaror qilgan darvish emasmisan? Odamlar meni gunohga botgan, deb o'ylashadi, men esa xayru sadaqalar qilaman va Ramazon oyida eshiklarni yopaman. Va hozir seni ham gunohdan halos etyapman. Bizdan nari yur. Bu shaharning eng buzuq joyi bo'ladi.

- Buzuqlik insondan tashqarida emas, uning ichida bo'ladi, - e'tiroz bildirdim men. - Qoidada shunday deyilgan.
 - Nima haqida gapirayapsan? - qag'illadi ayol-erkak.
Qirq qoidadan bittasi shu haqida, - tushuntirmoqchi bo'ldim men. - «Asosiy kir insonning ichida bo'ladi. Qolgan barcha kirlarni yuvsat ketadi. Faqat bir kirni toza suv bilan yuvib ketkazib bo'lmaydi, Bu qalblarni kemiruvchi nafrat va o'ta mutaassiblik kiri, yuragingni faqat ishq poklay oladi».
 - Siz darvishlar, hammangizning esingiz joyida emas. Bu yerga har xil mijoz keladi. Lekin darvish qachon kelishi mumkin? Faqat qurbaqaning soqoli chiqqanda! Agar men seni bu erga kiritsam, Xudo hamma yog'imizni yer bilan bitta qiladi va o'zini Xudoga bag'ishlagan kishini yo'ldan ozdiranimiz uchun bizga tavqila'nat yuboradi.
- Men o'zimni to'xtatolmay, kulib yubordim:
- Bu fikrlar qayoqdan kelgan o'zi? Xudo,

sizningcha, osmonda o'tirib olib, o'ziga yoqmagan ishlarni qiluvchi kishilarga qurvaqayu toshlar yog'dirib turadigan serjaxl qabila boshimi?

Islovotxona egasi mo'yloving uchini o'ziga tortdi va menga xo'mrayib qaradi.

- Kirmayman, xavotir olma, - dedim men. - Menga shunchaki atirgullaringiz juda yoqdi.
- Ha, shunaqami. Bu mendagi qizlardan birining ishi. Cho'l Atirgulining.

U qo'li bilan ishratxonada yashovchi ayollar orasida utirgan yosh ayolni ko'rsatdi. Uning terisi sadafrang, bodomqovoq qora ko'zlariga g'am soya solgan ayol edi. U juda chiroyli edi. Men unga qarab, o'zgarish jarayonini boshdan kechirayotganini his etdim.

Shundan keyin hech kim eshitmasligi uchun bekaga sekin shivirladim:

- Bu yaxshi qiz. Va kunlardan bir kun u Xudoni izlab, safarga chiqadi. Uning taqdiriga sizning uyingizni butunlay tashlab ketish bitilgan. Shu kun kelganda siz uni to'xtatib

qolishga harakat qilmang.

U hayratdan qotib qoldi, keyin shang'illab tashladi:

- Sen bu yerda nimalarni aljirayapsan?

Qizlarga qanday muomala qilishni menga o'rgatma! Yaxshilikcha ket bu yerdan. Yo'qsa, hozir Shoqolboshni chaqiraman!

- Bu kim bo'ldi?

- Uni bilmaganing yaxshi, menga ishonaver, - dedi ayol-erkak, so'zlarini tasdig'i o'laroq, menga qo'llarini pesh qilarkan.

Bu notanish ismni eshitayotib titrab ketdim, lekin qo'rqinch tezda o'tib ketdi.

- Xo'p, endi mening ketar vaqtim bo'ldi, - dedim men. - Lekin hali qaytaman, shuning uchun meni yana ko'rganingizda hayron bo'lman. Chunki men, garchi ko'z va qalblari tashqi dunyo uchun yopiq bo'lsa hamki, butun umrini joynamoz ustida bukchayganicha o'tkazadigan darvishlar toifasidan emasman. Ular yuzaki Qur'onne o'qisalar, men nish urib o'sayotgan o'simliklardagi, uchib yurgan

qushlardagi ichki Qur'onni o'qiymen. Odamlar qalbiga yashiringan jonli Qur'onni o'qiymen.

- Odamlarni o'qiymen, deyapsanmi? - xoxolab qo'ydi u. - Bo'lmag'ur narsalarni valdirayapsan!

- Har bir inson misoli ochiq kitob, har birimiz jonli Qur'onmiz. Xudoni izlamoqlik, xoh u fohisha bo'lsin, xoh avliyo, har bir inson qalbida jo bo'lgan. Har bir inson qalbida tug'ilgandan boshlab IShQ yashaydi va u ochilmoqni istaydi. Qirq qoidadan biri ayni shu haqidadir: «Butun koinot insonda - senda jo bo'lgan. Atrofingda nimalarni ko'rayotgan bo'lsang, hatto sen nafratlanadigan, yoqtirmaydigan odamlar ham, - hammasi o'zingda jo bo'lgan. Shuning uchun shaytonni tashqaridan izlama. Iblis o'zimizning ichimizda yashiringan. Agar sen chin o'zligingni bila olsang, o'zingdagi nurli va qorong'u tomonlaringni ko'ra olsang, eng yuksak anglashga erishasan. Har bir inson, xoh u erkak bo'lsin, xoh yo ayol, o'zligini bila olsa, Xudoni ham biladi».

Ko'llarini ko'kragiga qovushtirib olgan ayol-erkak oldinga surildi va menga tahdidli tikildi:
- Fohishalarga ta'lim beruvchi darvish! Ehtiyot bo'l, ahmoqona ta'limoting bilan bu yerdagilarning yuragiga g'ulg'ula solishingga men yo'l qo'yib berar ekanmanmi. Yaxshisi, jo'na bu yerdan! Agar jo'namasang, qasam ichib aytamanki, Shoqolbosh bu uzun tilingni uzib oladi va men uni yamlamay yutaman.

Ella

2008 yil, 28 may, Nortgempston.

Keyingi vaqtarda Ella uyqudan g'amgin uyg'onadigan bo'lib qoldi. U hali o'zi tayyor bo'lмаган holda, hayotining qandaydir bosqichini bosib o'tganday his etardi.

Oshxonada kofe qaynagunicha stol tortmasidan qiladigan ishlari ro'yxatini oldi va qayta ko'rib chiqdi.

Men qirq yoshga to'lmasimdan oldin quyidagi ishlarni qilishim kerak:

O'tkazadigan vaqtimni tartibga solish, iloji boricha rejali bo'lish va vaqtni behuda sarflamaslik kerak. Yangi kundalik daftar sotib olish. (Bajarildi)

Ovqatga minerallar va antioksidantlar qo'shishim kerak. (Bajarildi)

Ajinlar haqida o'ylash. Alfa-gidroksidli kislotalarni sinab ko'rish va yangi «L'Oreal» kremidan foydalanishni boshlash. (Bajarildi)
Uy devorlariga yopishtirilgan gulqog'ozlarni al-mashtirish, yangi o'simliklar va yostiqlar sotib olish. (Bajarildi)

O'z hayotimni, hayotiy qadriyatlarim va qarashlarimni baholash. (Yarim bajarildi)

Tanovul etadigan ovqatlarim ro'yxatidan (ratsionimdan) go'shtni olib tashlash, har hafta uchun sog'lomlashtiruvchi taomnomasi tuzish, o'z vujudimga e'tibor qaratish. (Yarim bajarildi)

Rumiy she'rlarini o'qishni boshlash. (Bajarildi)
Bolalarни brodvey myuzikliga olib borish. (Bajarildi)

Oshpazlik kitobini tuzishni boshlash.
(Bajarilmadi)

Ishqqa yuragimni ochish!!!

Ella o'z ro'yxatidagi o'ninchi bandga tikilgancha, qimirlamay turardi. U bu satrlarni yozganida nimani nazarda tutganini o'zi ham bilmas edi. Nimani o'ylapti u? «Shirin shakkoklik»ni berilib o'qishim oqibati bo'lsa kerak, - shivirladi u go'yo o'ziga-o'zi izoh berganday. Keyingi paytda o'zining sevgi haqida o'qtin-o'qtin o'ylayotganini payqadi.

«Qadrli Aziz!

Bugun mening tug'ilgan kunim! Men o'zimni qandaydir davrga etib kelganday his etmoqdaman. Qirq yosh inson, ayniqsa, ayol hayotining muhim pallasi, deyishadi. Shuningdek, qirq yosh - bu yana o'ttiz yosh demakdir (oltmish yosh esa - yana qirq yosh demak) deyishadi ham, lekin, menimcha, bu yerda bo'rttirib yuborilgan. Ya'ni, biz o'zimizni aldab qo'ymoqchimizmi? Qirq degani bu qirq-

da axir! Menga «nimalardir» kelib qo'shildi - bilim, hikmatlar, albatta, ajinlar va sochlarning oqlari ham.

Avvallari tug'ilgan kunlarimda o'zimni baxtli his etar edim, bugun tongda esa yuragimda og'ir tuygu bilan va o'zining ertalabki qahvasini hali ichmagan odam uchun haddan ziyod murakkablik qiladigan savollar bilan uyg'ondim. Shu paytgacha yashab kelayotgan hayot tarzimni o'zgartirishni istaymanmi yo yo'qmi, o'zim ham bilmayman. Shu boisdan qurqib ketdim. «Ha» ham, «yo'q» ham birday dahshatli natijalarga olib kelsa, nima bo'ladi? Balki shuning o'zi savolimga javobdir?

Sizga ehtirom ila

Ella.

P.S. Xatim uncha quvnoq chiqmagani uchun uzr so'rayman. Nima uchun bugun o'zimni bunday his etayotganimni bilolmayapman.

Sababi yo'qday ko'rindi. (Yoshim qirqqa to'lib bo'lganini hisobga olmaganda, albatta. Bu balki o'rta yoshga xos krizis, deb atalgan narsa

bo'lsa kerak)»

«Qadrlı Ella!

Tavallud kuningiz bilan tabriklayman! Qirq yosh - erkak kishi uchun ham, ayol uchun ham eng go'zal yosh. So'fiylar qirq sonini yuqoriroq pog'onaga ko'tarilishni va ruhan uyg'onishni ifodalovchi majoz, deb hisoblashlarini Siz balki bilarsiz? Aza tutganimizda, u qirq kun davom etadi. Chaqaloq tug'ilsa, uning yangi hayotga ko'nikishi uchun qirq kun kerak bo'ladi. Agar sevib qolgandek bo'lsak, o'z hissiyotimizga iqror bo'lishimiz uchun ham qirq kun kerak. Olamni suv bosishi, suv Avvalgi hayot tarzining yuvib tashlanishi, barcha yovuzliklarni tozalab va odamlarga takroran yangi hayot boshlash imkoniyati berilmog'i uchun butun Olamni qirq kun davomida suv bosgan. Islom falsafasiga ko'ra inson bilan Xudo orasida qirq pog'ona bor. Iso (a.s.) qirq kechayu qirq kunduz cho'lga uzlat etganlar. Muhammad (s.a.v.) ga payg'ambarliklari

*haqidagi vahiy kelganida qirq yoshda
bo'lganlar. Budda qirq kun jo'ka daraxti ostida
meditasiya (zikr) qilgan. Shamsning qirq
qoidasi haqida esa aytmasam ham bo'ladi.
Siz yangi ishingizni qirq yoshingizda oldingiz
va bu yangi hayot boshlanishidan nishona!
Shunday qilib, Siz juda xayrli yoshga kirdingiz.
Muborak bo'lsin! Va yoshingiz ortganidan xafa
bo'lman. Hech qanday ajin va oqargan soch
qirq sonining quvvatiga ta'sir eta olmaydi!
Sizga ezgu tilaklar ila
Aziz.»*

Cho'l atirguli, fohisha

1244 yil, 17 oktyabr, Konya.

Islovoitxonalar ko'p asrlardan buyon bor. Men
kabi ayollar ham. Lekin boshqa narsalar meni
taajjublantiradi. Nima uchun fohishalardan
nafratlanaman, deb yuradigan insonlar fohisha
o'z hayotini o'zgartirmoqchi bo'lsa, bunga jon-
jaxdlari bilan qarshilik qilishadi. Ular xuddi

bizlarning shu ahvolga tushganimizga
achinganlarini aytadilar-u, ayni paytda, hamon
shu ahvolga tushgan ekanmiz, o'sha yerda
qolaverGANIMIZ ma'qul, deyayotganday
bo'lishadi. Nima uchun bunday? Men bir
narsani tushundim: ba'zi odamlar boshqa
odamlarning baxtsizligi hisobiga yashashadi,
bundaylarga yer yuzida bir baxtsizning
kamayishi yoqmaydi. Ular nima desalar va
nima qilsalar qilaversinlar, men esa bir kunmas
bir kun fohishaxonadan ketaman.

Ertalab birdan-bir tilak bilan uyg'ondim -
buyuk Rumiy xutbasini tinglash tilagi. Agar
bekaga buni aytsam va borib kelish uchun
ruxsat surasam, u meni masxara qilib kulishi
turgan gap.

- Qachondan buyon fohisha masjidga
boradigan bo'lipti? - degan bo'lar edi u,
yumaloq yuzi to'q qizargancha kulib.

Shuning uchun men yolg'on ishlatdim:
“Soqolsiz darvish ketganidan keyin”. Beka
hayratdan dovdirab qolganday ko'rindi va men

tushundimki, bundan qulayroq vaqt topilmaydi. Kimdir uni sarosimaga solib qo'ysa, u hamisha odatdagidan xushfe'lroq bo'lib qoladi. Va men unga bozorga borishim va ba'zi mayda-chuyda topshiriqlarni bajarishim zarurligini aytdim. U menga ishondi. To'qqiz yillik og'ir zahmatlarimdan keyin u menga ishondi.

- Faqat bir shart bilan, - dedi u. - Sezam sen bilan birga boradi.

Bu mening ta'bimni xira qilmadi. Sezam yaxshi. Bu yosh bolanikiday aqli bor yirik jussali juda soddadil erkak ishonchli va beg'ubor edi. Uning bunday ayovsiz dunyoda qanday jon saqlab yurgani men uchun g'aroyib sir edi. Hech kim uning o'z ismi nimaligini bilmas edi; balki o'zi ham bilmasa kerak. U kunjutdan tayyorlanadigan sezam degan holvani judayam yaxshi ko'rgani tufayli, biz uni Sezam deb chaqirardik. Fohishalardan birontasi bir yerga borishi kerak bo'lib qolsa, Sezam hamisha soyaday kuzatib borar edi. Sezam men orzu qilishim mumkin bo'lgan eng

yaxshi tansoqchi edi.

Shu tariqa biz bog'lar orasidan o'tgan chang yo'lidan yurib ketdik. Birinchi chorrahaga etganimizda men Sezamdan kutib turishini iltimos qildim, o'zim esa butalar orasiga avval yashirib qo'yilgan to'rvadan erkaklar kiyimini oldim.

Erkakcha kiyim kiyish men o'ylaganimdan qiyinroq ekan. Oldin, bilinib qolmasligi uchun yupqa bo'yinbog' bilan ko'kraklarimni bog'ladim. Keyin qopday keladigan ko'ylak va ishtonni, to'q qizil rangli kamzul kiydim va sallani boshimga o'rnatdim. Nihoyat, arab sayohatchisiga o'xshab ko'rinish uchun yuzimning yarmini bo'yinbog' bilan berkitdim. Sezamning yoniga qaytib kelganimda, u hayratdan titrab ketdi.

- Ketdik, - dedim men, u o'rnidan qimirlamay turganini ko'rib, yuzimni ochdim. - Nahotki meni tanimayotgan bo'lsang, qadrdon?

- Bu senmisan, Cho'l atirguli?! - xuddi ko'rqb ketgan bolalarday, kaftini og'ziga bosib, xitob

qildi Sezam. - Nimaga bunaqa kiyinib olding?

- Sir saqlay olasanmi?

Sezam bosh silkitdi va hayajondan ko'zlari dumaloq bo'lib ketdi.

- Ha, yaxshi, - shivirladim men. - Biz masjidga ke-tayapmiz. Lekin sen buni bekaga aytmasliging kerak.

Sezam titrab ketdi:

- Yo'q, yo'q. Biz bozorga ketayapmiz.

- To'g'ri, qadrdon, keyin bozorga boramiz.

Ammo oldin buyuk Rumiyni tinglaymiz.

Sezam qo'rqb ketgan edi, lekin men boshqacha bo'lishi mumkin emasligini oldindan bilardim.

- Iltimos, bu menga juda ham zarur. Agar gapimga kirsang va bu haqida hech kimga aytmasang, men senga kattakon holva olib beraman.

- Holva, - tilini taqillatib, mammuniyat bilan takrorladi Sezam, go'yo shu so'zning o'ziyoq uning og'zini shirinlik bilan to'ldirganday.

Biz juma kunlari Rumiy xutba o'qiydigan masjid sari yo'l oldik.

Men Nikeya shahri yaqinidagi qishloqchada tug'ilganman. Onam hamisha: «Sen to'g'ri joyda tug'ilgansan, lekin noto'g'ri yulduz ostida tug'ilganmikansan, degan xavotirdaman», - derdi. Yomon vaqtlar edi. Hamisha tahlikali gap-so'zlar yurardi. Eng oldin salibchilar qaytib kelayotganlari haqidagi gaplar yurardi.

Ularning Konstantinopolda (hozirgi Istambulda) qilgan dahshatli ishlari, uylarni talaganlari, butlar, cherkovlar va butxonalarni yo'q qilganlari haqida. Keyin Saljuqiylarning bosqinlari. Saljuqiy qo'shinlar haqidagi shovshuvlar tugар-tugamas, mo'g'ullarning yirtqichliklari haqidagi hikoyalar.

Istilochilarning nomlari o'zgarar edi, xolos, lekin istilochilar tomonidan o'ldirilish qo'rquvi sira yo'qolmas edi.

Ota-onam novvoychilik qilishar va e'tiqodli xristianlardan edilar. Bolalikdan qolgan ilk xotiralarimdan biri yangi yopilgan nonning isi. Ota-onam boy emas edilar. Bolalikdayoqbuni tushunardim. Lekin nochor ham emas edik.

Sadaqa so'rab uyimizga kelganlarning ko'z qarashlari qanday bo'lishini ko'rganman. Har kecha uqlashdan oldin qornim och holda uqlashga yotmayotganim uchun Xudoga shukronalar aytardim. Men u bilan xuddi o'z do'stim bilan gaplashayotganday gaplashardim. Ha, u vaqtlar Xudo chindan ham mening do'stim edi.

Men yetti yoshga to'lganimda onam homilador bo'ldi. Bugun ortga qarab, uning bolalari bir necha tushib qolgan bo'lsa kerak, deb o'ylab qolaman, lekin u vaqtarda men hech nimani tushunmas edim. Men shunchalik sodda edimki, bolalar qayoqdan paydo bo'ladi, deb so'rashsa, Xudo ularni yumshoq shirin xamirdan yopadi, deb javob berardim.

Xudo onam uchun yaratgan kichkintoy juda katta ekanmi, onamning qorni tez orada juda katta va qattiq bo'lib qoldi. Onam zo'rg'a harakatlanardi. Doya xotin bu suvning ko'pligidan degan edi, lekin hech kim buning xatarini ko'rmas edi.

Qorinda bir emas, uchta bola borligi na onamning va na doya xotinning xayoliga kelmagan ekan. Va hammasi o'g'il ekan. Ukalarim onamning qornida yoqalashib qolishipti. Bittasi ikkinchisini kindigi bilan bo'g'ib qo'yipti, ikkinchisi esa xuddi buning uchun qasd olganday yo'lni to'sib qo'yib, u ikkitasining tug'ilishiga yo'l qo'ymay turipti. Onam to'rt kun azob chekdi. Biz ertayu kech, to butkul jim bo'lib qolmaguncha uning qichqiriqlarini eshitib turdik.

Doya xotin onamni qutqara olmadi, lekin ukalarimni qutqarish uchun qo'lidan kelgan hamma ishni qildi. Qaychi bilan qornini qiydi va bolalarni chiqarib oldi. Lekin faqat bittasi tirik qoldi. Ukam shunday tug'ilgan edi. Onamning o'limi uchun otam uni kechira olmadi, hatto uni cho'qintirganlarida ham ko'rgani kelmadi.

Onam o'ldi, otam esa badqovoq, kamgap odamga aylandi, bundan mening hayotim ham o'zgarib ketdi. Otam

novvoychilik ishini eplay olmay qoldi. Sekin-
asta xaridorlarni yo'qota boshladik. Kambag'al
bo'lib qolish va sadaqa so'rab yurishdan qo'rqb
men kulchalarni to'shagimga berkitardim,
nonlar qotib qolar va mog'or bosib, yeb
bo'lmaydigan bo'lib qolardi. Ammo ukam
ayniqsa ko'p azob chekardi. Men hech bo'lmasa
avvallari mehr va erkalashlar nimaligini
ko'rgan edim. Unda esa bulardan asar ham
bo'ljadi. Unga qilayotgan muomalalarini
ko'rish qo'rqinchli edi, lekin men yuragimning
tubida otamning qahri menga emas, ukamga
qaratilayotganidan deyarli xursand edim va
shukur qilardim, Afsuski, ukamni himoya
qilish uchun menda jasorat yetmagan edi. Agar
yetganida edi, hammasi boshqacha bo'lishi va
men islovotxonaga tushmagan bo'lishim
mumkin edi. Afsuski, hech nimani oldindan
ko'rib bo'lmaydi.

Bir yildan keyin otam yana uylandi. Ukam
hayotidagi bor o'zgarish shu bo'ldiki, ilgari
faqat otam unga zug'um qilgan bo'lsa, endi

o'gay onam ham unga qo'shilgan edi. Ukam vaqti-vaqti bilan uydan qochib ketardi. Utobora qo'pol bo'lib borar, atrofiga ham tobora jahldor do'stlar to'planar edi. Bir kuni otam uni chalajon qilib urdi. Shundan keyin ukamda tuzatib bo'lmas o'zgarish yuz berdi. Ko'z qarashlarida ilgari bo'lмаган sovuqlik paydo bo'ldi. Uning bir narsani rejalaشتirayotganiga sira shubham yo'q edi, lekin yuragida qanday rejani saqlab yurganini xayolimga ham keltirmagan edim. Bilganimda, balki fojianing oldini olgan bo'lar edim.

Bu bahorda sodir bo'ldi. Bir kuni ertalab otam va o'gay onamni o'lik holda topishdi. Ular kalamushdori bilan zaharlangan edilar. Bu narsa ma'lum bo'lган zahoti hamma gumonlar ukamga tushdi. So'roq qilishlar boshlandi va u uydan qochib ketdi. Mening oila a'zolarimdan hech kim qolmadi. Hamon onamning isini tuyib turgan uyimda yashashga boshqa chiday olmasdan, xotiralar azob berayotgan novvoyxonada ishlashga kuchim yetmasdan,

endilikda mening yakkayu yolg'iz qarindoshim
bo'lib qolgan qariqiz xolamnikiga
Konstantinopolga ketishga qaror qildim.
O'shanda o'n uch yoshga to'lgan edim.
Konstantinopolga soyabonli yollanma aravada
ketishga qaror qildim, yo'lovchilar orasida men
eng yoshi edim va sayohatda meni hech kim
kuzatib bormayotgan edi. Bir necha soat o'tar-
o'tmas o'g'rilar to'dasi yo'limizni to'sdi. Ular
hamma narsamizni - safar qutilarimiz,
kiyimlarimiz, poyafzallarimiz, belbog'lar va
taqinchoqlarimiz, hattoki aravakashning
yemishigacha olib qo'yishdi. Menda ularga
beradigan hech nima yo'qligi uchun, menga
zarar etkaza olmasligiga ishongan holda, bir
chetda jim turardim. Lekin endi ketmoqchi
bo'lib turishganida ularning boshlig'i birdan
menga o'girilib so'radi:

- Sen iffatingni yo'qotmaganmisan, kichkintoy?
Men qip-qizarib ketib, bunday andishasiz
savolga javob berishdan bosh tortdim. Qizarib
ketib, uning savoliga javob berib bo'lganidandan

o'zim bexabar edim.

- Ketdik!, - qichqirdi qaroqchilar boshlig'i. - Otlarni va qizchani olinglar!

Men yig'lab-siqtadim va qarshilik qildim, lekin yo'lovchilardan hech biri menga yordam bermadi. Qaroqchilar meni o'rmon chakalakzoriga sudrab olib ketishdi, u yerda qishloq borligini ko'rib hayron bo'ldim. U yerda ayollar va bolalar bor edi. Hamma yoqda o'rdaklar, echkilar, cho'chqalar aylanib yurishardi. Bu haqiqiy qishloq edi, faqat aholisi jinoyatchilardan iborat edi.

Men tez orada ularga nima uchun iffatli qiz kerak bo'lib qolganini tushundim. Ularning boshlig'i uzoq vaqtdan beri qandaydir og'ir asab kasalligi bilan og'rigan ekan. Ko'p vaqtdan beri to'shakdan tura olmaydigan bo'lib qolgan va butun badanini qizil dog'lar qoplagan ekan. Shunda kimdir agar iffatli qiz bilan aloqa qilsa, bu kasallik u qizga o'tib, o'zi tuzalishi va musaffolanishi mumkinligiga uni ishontirihti. Hayotimda shunday hodisalar borki, ularni

eslashni istamayman. Masalan, o'rmondag'i hayotni. Hatto hozir ham xotiralarimda bu hayotim uchun joy yo'q. Faqat qarag'aylar haqida o'layman. O'sha vaqtlar men ko'p vaqtimni bir o'zim qarag'aylar ostida o'tirib va qishloq ayollarining gaplariga qulq solib o'tkazar edim, ulardan ko'pchiligi qaroqchilarining xotinlari va qizlari edi. U yerda o'z ixtiyorlari bilan kelgan fohishalar ham bor edi. Ular nima uchun qochib ketmasligini men sira tushunmas edim, o'zim esa faqat shu haqida tinimsiz o'ylardim. O'rmon ichidan ko'pincha aslzodalarning soyabon aravalari ham o'tib turar edi. Toki bu aravalarning aravakashlari jinoyatchilarga katta garov berishlari va bexavotir o'tib ketishlari uchun tovon to'lashlarini fahmlab olmagunimcha, bu sirning tagiga yeta olmay yurdim. Shuni tushunganidan boshlab, rejamni pishita boshladim. Bir kuni katta shaharga ketayotgan aravani to'xtatib, haydovchidan meni olib ketishini so'rab

yolbordim, lekin u, menda pul yo'qligini bila turib, juda katta pul so'radi. Shundan keyin men buning haqini o'zimda bor yagona yo'l bilan to'ladim.

Faqat ancha vaqtdan keyin, Konstantinopolga kelgach, o'rmondagi fohishalar nima uchun qochib ketishga urinmasliklari sababini anglab etdim. Shahar O'rmondan badtar ekan. Shahar yana ham ayovsizroq ekan. Men qari xolamni izlamay qo'ya qoldim. Iffatimni yo'qotganidan keyin bu to'ppa-to'g'ri hayot kechirib kelayotgan qarindoshim meni qabul qilishni istarmidi. Men faqat o'zimga umid bog'lashim mumkin edi. Shahar ko'p o'tmay ruhimni sindirdi va vujudimni bulg'adi. O'zim kutmagan holda butkul boshqa qahru g'azab, zo'rlik, dag'allik va kasalliklar dunyosiga - o'tib qoldim.

Men toki hayz ko'ra olmaydigan darajada zaiflashmagunimcha va boshqa farzand ko'rmaydigan bo'lib qolmagunimcha ketma-ket bir qancha marta bola oldirdim.

Men shunday narsalarni ko'rishimga to'g'ri keldi-ki, ularni aytish uchun so'z topilmaydi. Shahardan ketgach men askarlar, ko'zboylog'ich (sirkchi)lar, lo'lilar bilan bir joydan boshqa joyga ko'chib yurdim. Keyin meni Shoqolbosh deb atashadigan odam topib oldi va Konyadagi islovotxonaga olib keldi. Toki ko'rinishim yaxshi ekan, bekaning o'tmishim bilan ishi yo'q. Unga homilador bo'la olmasligim yoqdi, chunki bu tomondan murakkablik bo'lmaydi. Bepushtligim tufayli u menga Cho'l nomini berdi, keyin «cho'l» ismini biroz bezash uchun Atirgul ismini qo'shib qo'ydi. Menga ham bu ism yoqdi, chunki atirgullarni juda yaxshi ko'raman.

E'tiqod haqida esa shunday o'ylayman: u men ancha ilgari sayr qilib yurgan va iforidan bahra olgan, ammo eshigi men uchun allaqachon yopilgan atirgulli bog'ga o'xshaydi. Lekin men yana Xudo do'stim bo'lishini istayman. Va bog' atrofida aylanib, unga kiradigan eshikni izlayapman.

Men Sezam bilan masjidga yaqin kelganimizda, ko'zlarimga ishonmay qoldim. Turli yoshdagi erkaklar, hatto an'anaga ko'ra, ayollarniki bo'lgan joylarni ham qoldirmasdan hamma joyni egallab olgan edilar. Men endi ketmoqchi bo'lib turgan edim, lekin o'z joyidan turgan va chiqib ketishga shaylangan tilanchini ko'rib qoldim.

Mana shu tariqa men erkaklar to'la masjidga kirdim va buyuk Rumiy xutbasiga qulqoq tutdim. Bu yerda bo'lgan musulmonlar o'z oralarida ayol kishi, ayniqsa, fohisha turganini bilib qolsalar, nima bo'lishi mumkinligi haqidagi fikr xayolimning bir chetidan ham o'tmadi. Men o'zimni unutib Rumiyini tinglardim.

- Xudo azobu uqubatlarni quvonchlar yorqinroq bo'lishi uchun yaratgan, - der edi Rumiy. - Har qanday narsa o'zining qarama-qarshi tomoni vositasida yorqinlashadi.

Xudoning esa qarama-qarshisi yo'q. Shuning uchun u bizdan yashirindir.

Rumiy ma'ruzasini o'qirkan, ovozi tobora balandroq va kuchliroq chiqardi, xuddi tog'lardan oqib tushayotgan, qorlar erigan sari to'lib toshayotgan jilg'a kabi edi.

- Pastdagi yerga qarang va tepadagi osmonga qarang. Erdagi barcha holatlar suv va quruqlikka, tinchlik va urush holatlariga o'xshaydi. Atrofingizda nimaiki sodir bo'lmasin, bu qahru g'azab bo'ladimi yoki mo'minlikmi, yolg'onmi yoki aldashmi, hech birini Xudo bejiz yaratmaydi.

Ma'ruzani tinglar ekanman, men hamma narsa faqat bir maqsadga xizmat qilishini angladim. Onamning qismatiga tushgan homiladorlik, ukamning yolg'iz xo'rланishi, hatto otam va o'gay onamning o'ldirilishi, o'rmondagi dahshatli hayot, men Konstantinopol ko'chalarida ko'rgan razolat - bular barchasi mening hayotim edi. Bu barcha mashaqqatlar ortida qandaydir ancha muhim bo'lgan allanima turar edi. Men buning nimaligini hozircha tushunmas edim, lekin butun qalbim

bilan his etardim. O'sha kuni odam liq to'la masjidda Rumiyni tinglar ekanman, xuddi allaqanday sokinlik buluti menga tushib kelayotganday tuyilardi va o'zimni xuddi non yopayotgan onamni ko'rganday yaxshi his etar va xotirjam edim.

Tilanchi Hasan

1244 yil, 17 oktyabr, Konya.

Jahldan tushishga harakat qila-qila zarang ostida o'tirardim. Azob nimaligi haqida o'zining hech qanday aniq tasavvuri yo'q Rumiyning balandparvoz nutqidan jahlim chiqmasligi mushkul edi. Minoraning soyasi ko'chani qopladi. Goh mudrab, goh o'tgan-ketganni kuzatib o'tirar ekanman, ilgarilar sira ko'rmagan darvish e'tiborimni tortdi. U qora janda kiygan, qo'lida uzun hassa, besoqol, qulog'ida yupqa kumush sirg'a bo'lib, boshqa fuqarolarga o'xshamagani uchun e'tiborni tortmasligi mumkin ham emas edi.

U u yoq-bu yoqqa qaradi va darhol meni payqadi. Lekin odatda moxovni ko'rib qolib, o'sha zahoti teskariga o'giriladigan boshqa odamlardan farq qilib, qo'lini ko'ksiga qo'ydi va eski qadrdonday menga ta'zim qildi. Bu meni shunchalik hayratga soldiki, bu harakat orqamda turgan kimgadir bo'lsa kerak, deb o'ylab o'girilib qaradim. Ammo orqada hech kim yo'q edi. Xijolatga tushgan, dovdiragan holda men ham qo'limni ko'ksimga qo'yib, darvishning ta'zimiga javob qildim.

U shoshmasdan men tomonga yurdi. Men, darvish idishimga bir nechta chaqa tashlar yoki non berar, degan o'yda ko'zlarimni pastga qaratdim. Ammo buning o'rniga u qarshimda tiz cho'kdi.

- Assalomu alaykum, - dedi u.
- Vaalaykum assalom, darvish, - javob berdim men va to'satdan xirillab qolgan ovozimni o'zim tanimay qoldim. Kim bilandir gaplashish uchun imkon bo'lmay qolganiga ko'p bo'lgan edi va men o'z ovozim qandayligini deyarli

unutgan edim.

Darvish o'zini Shams Tabriziy deb tanishtirdi va mening ismimni so'radi.

Men kulib yubordim:

- Menday odamga ism nimaga kerak?
- Har bir insonning o'z ismi bor, - e'tiroz qildi darvish. - Allohning ismlarini sanab tugatib bo'lmaydi. Biz ulardan faqat to'qson to'qqiztasini bilamiz. Hamon Xudoning ismi shuncha ko'p ekan, uning xalifasi bo'lgan odam - qanday qilib ismsiz bo'lsin?
- Bir vaqtlar mening onam va xotinim bor edilar va ular meni Hasan deb chaqirar edilar.
- Demak, ismingiz Hasan, - boshini silkitdi darvish. Keyin meni hayron qilib, kumush ko'zguni uzatdi. - Oling. Buni menga Bag'dodda bir yaxshi odam bergen edi, lekin bu mendan ko'ra sizga kerakroq. Bu sizga Xudo o'z ichingizda ekanini eslatib turadi. Men javob berishga ulgurmasimdan, g'alati shovqin-suron boshlanib qoldi. Avvaliga men masjidda o'g'rini tutib olishgan bo'lsa kerak,

deb o'yladim. Lekin shovqin tobora kuchayib borardi. Yomonroq kori hol bo'lgan ko'rinadi. Hech qanday o'g'rini deb bunchalik shovqin ko'tarilmaydi.

Tez orada hammasi ravshan bo'ldi. Masjidga ayol kishi kiripti va oddiy ayol emas, erkak kiyimini kiyib olgan hammaga taniqli fohisha kiripti. Erkaklar baqira-chaqira uni tashqariga olib chiqishdi:

- Aldoqchini savalang! Fohishani savalang! Quturgan olomon ko'chaga otilib chiqdi. Men erkak kishining kiyimidagi yosh ayolni ko'rdim. Uning yuzi dokaday oqarib ketgan, ko'zlarida dahshat qotib qolgan edi. Va omma ichiga tushib qolib, uning qismiga aylangan odam qanchalik o'zgarib ketishiga hamisha lol qolardim. Hech qachon birov bilan mushtlashmagan oddiy odamlar - hunarmandlar, savdogarlar, dastyorlar - omma ichiga tushib, yirtqich hayvonga aylanib qolishardi. Ommaning hukmi ham odatiy hol edi va u hamisha murdani hamma ko'radigan

joyga osib qo'yish bilan yakun topardi.

- Sho'rlik, - pichirladim men Shams Tabriziyga o'girilar ekanman, lekin u allaqachon yonimda yo'q edi.

Men darvishni xuddi osmonga otilgan yonib turgan kamon o'qi kabi olomon ichiga otilib kirganini kurdim. Buni ko'rib men ham sakrab turdim va ketidan otildim.

Ommaga etib olgach, Shams hassasini misoli tug' kabi ko'tardi va bor kuchi bilan baqirdi:

- To'xtanglar, odamlar! To'xtang!

Dovdirab qolgan odamlar birdan jim bo'lib qolishdi va hayrat bilan darvishga tikilishdi.

- Uyalmaysizlarmi! - hassasini yerga urib baqirdi u yana. - O'ttiz erkak bir ayolga qarshiyay! Shu adolatdanmi?

- U adolatga loyiq emas, - dedi to'rtburchak yuzli gavdali va aftidan g'azabdan ko'ziga hech nima ko'rinmay qolgan bir kishi.

Aftidan bu odam o'zini-o'zi olomonga boshliq qilib saylagan ko'rinadi. Men uni darrov tanidim. Bu shahardagi barcha tilanchilar

yaxshi taniydigan va beayovligi, xasisligi tufayli hammalari qo'rqadigan Beybars ismli qorovul edi.

- Bu ayol erkakcha kiyinib olib, musulmonlarni adashtirib, masjidga kirgan.

- Sen uni masjidga kirgani uchun jazolash kerak, demoqchimisan? Masjidga kirish jinoyatmi? - masxaraomuz so'radi Shams Tabriziy.

Savolni eshitib, hamma jim bo'lib qoldi.

Bunday fikr hech kimning xayoliga kelmagan edi.

- Bu ayol fohisha! - olomon orasidan yana kimdir baqirdi, - muqaddas dargoxda unga joy yo'q!

Olomonni qayta yondirib yuborish uchun shu yetarli bo'ldi.

- Fohisha! Fohisha! - baqirishdi bir necha ovoz baravariga. - Fohishani bir yoqli qilamiz!

Xuddi buyruqqa bo'ysungan kabi qandaydir yigitcha bir sakrab, ayolning boshidagi sallasini olib tashlashga urindi. U sallani

tortgan edi, salla echilib ketdi va ayolning uzun sarg'ish sochlari quyoshda yaraqlab, to'lqinlanib elkalariga tushdi. «Jinoyatchi» ayolning xusnu jamolini ko'rib, hammaning nafasi ichiga tushib ketdi.

Odamlarni hayratga solgan, tuyg'ularning qorishib ketganini tushundi, shekilli, Shams hamon hassasini silkitganicha, olomonga yana ham yaqinroq keldi

- Birodarlar, aniqlab oling! Siz bu ayoldan nafratlanasizmi yoki uni istaysizmi?

Darvish shunday deb ayolning qo'lidan ushlab, o'ziga tortdi. Ayol xuddi yosh qizcha onasining etagi ortiga yashiringan kabi uning orqasiga berkindi.

- Sen katta xato qilayapsan, - dedi baland ovozda to'daboshi. - Sen bu shaharda begonasan va bizning qoidalaramizni bilmaysan. Bizning yo'limizda turma.

Yana kimdir gapga aralashdi:

- Sen qanday darvishsan o'zi? Fohishani himoya qilishdan boshqa qiladigan ishing

yo'qmi?

Shams, go'yo savol o'ylantirib qo'yganday, bir zum jím qoldi. U hech qanday hissiyotga berilmay, sokin turardi.

- Orangizda ayol kishi borligini qanday bildingiz? - to'satdan so'radi u. - Yo siz masjidga namoz o'qish uchun emas, atrofdagilarni tomosha qilish uchun kelasizmi? Agar siz o'zingizni ko'rsatmoqchi bo'lganingizday shunchalik xudojo'y ekansiz, siz bu ayol hatto yalang'och bo'lsa ham qaramagan bo'lar edingiz. Endi ortingizga qaytib boring-da, astoydil ibodat qilishga harakat qiling.

Ko'chaga noqulay jimjitlik cho'kdi. Shamol yerdagi xazonlarni supurardi va menga bir zum ular faqat mening yonimda harakatlanayotganday tuyuldi.

- Boring! Masjidga qayting! - dedi Shams va xuddi pashshalarni haydayotgan kabi hassasini silkitdi.

Hamma ham uning aytganini qilavermadi,

lekin hamma chekindi va ishonqiramay, hayrat ichida nima bo'lishini kutgancha, ikki qadam nari surilishdi. Kimdir, qaytish kerakmikin, deb o'ylaganday, masjidga qarab qo'ydi. Ayni shu daqiqada ayol jasorat qildi va darvishning ortidan chiqdi. Xuddi quyonday chaqqonlik bilan oyoq uchida o'girildi va malla sochlarini silkitgancha, eng yaqindagi muyulishga kirib g'oyib bo'ldi.

Ikki erkak uning ortidan quvmoqqa shaylanishdi, lekin Shams Tabriziy ularning yo'lini to'sdi, ularning oldida hassasini shunday katta kuch bilan silkitdiki, ikkisi ham qoqilib ketishdi va yerga ag'darilib tushishdi.

Yo'lovchilar buni ko'rib, kula boshlashdi, men ham toza kuldim.

Dovdirab qolgan va hayratga tushgan erkaklar o'rinalidan turishdi, lekin bu vaqtda fohishaning izi ham o'chib bo'lgan va darvish ham ishini bitirib ketayotgan edi.

Ichkilikboz Sulaymon

1244 yil, 17 oktyabr, Konya.

Qovoqxonada qattiq uxbab qolibman.

Ko'chadan qulqoni qomatga keltirgudek qattiq ovozlar kela boshlaganida uyg'onib ketdim.

- Nima bo'ldi? - so'radim ko'zimni ochib. -

Mo'g'ullar bostirib kelayaptimi?

Savolimga javoban kulgu eshitildi. O'girilib qarab, qovoqxonaning kunda-shunda mijozlaridan bir nechtasi meni masxaralab ko'rsatayotganlarini ko'rdim. Iflos haromilar!

- Qo'rhma, qari piyonista! - qichqirdi qovoqxona egasi Xristos. - Mo'g'ullarga sening nima keraging bor? Rumiy o'tib ketayotipti o'zining muxlislari qo'shini bilan.

Men deraza yoniga bordim va tashqariga qaradim. Xristos to'g'ri aytgan ekan. Shogirdlar va muxlislar his-hayajon ostida to'lqinlanib «Alloh akbar! Allah akbar!» deya

qichqirganlaricha Rumiyni tantanavor kuzatib o'tayotgan edilar. Rumiy ulardan balandda, oq otida savlat to'kib o'tirardi. Voizdan quvvat va

qat'iyat taralib turardi. Men derazani ochdim va boshimni chiqarib, olomonni kuzata boshladim. Nihoyat olomon shilliqqurt tezligida harakat qilgancha, qovoqxonaga yetib keldi. Ba'zi odamlar qo'l uzatsam etgudek juda yaqin masofaga kelib qolishdi. Shu payt birdan miyamga ajoyib fikr keldi. Birontasini boshidan sallasini tortib olsa nima bo'larkin? Men Xristos orqasini qashiganida foydalanadigan tayoqni oldim va iloji boricha qattiqroq cho'zilib, birontasining sallasini tortib olishga urindim. Maqsadga etay deb qolganimda, bir kishi tasodifan boshini ko'tardi va meni ko'rib qoldi.

- Assalomu alaykum, - salomlashdim u bilan og'zim quloqqa yetguday soxta tabassum bilan.

- Musulmon kishi qovoqxonada! Uyat! - baqirdi u. - May ichish shayton vasvasasiga quloq solish ekanini bilmaysanmi?

Men unga javob berish uchun endi og'iz ochayotgan edim, lekin bir so'z aytishga ham ulgurmadi, boshimga nimadir qattiq urildi.

Kimdir boshimga tosh otganini tushundim. Agar oxirgi onda boshimni tortib olishga ulgurmaganimda, bosh suyagim singan bo'lardi. Tosh ochiq oynadan kirdi va mening orqamda o'tirgan fors savdogari o'tirgan stol ustiga tushdi. Qattiq mast bo'lgani uchun savdogar hech nimani tushunmadi, toshni qo'liga olib, xuddi u osmondan yuborilgan xabarday kuzata boshladi.

- Sulaymon, derazani bekit va stolingga qayt! - qattiq baqirdi Xristos va ovozi xirillab qoldi.
- Nima qilganlarini ko'rdingmi? - so'radim men stolimga qaytayotib. - Kimdir tosh otdi. Meni o'ldirib qo'yishlari mumkin edi!

Xristos bir qoshini ko'tardi.

- Kechirasan-u, lekin sen nimani kutgan eding? Musulmon odamni qovoqxonada ko'rsa, jirkanadigan odamlar borligini bilmasmiding? Sen esa mast holda, lavlagiday qip-qizil burning bilan, yana oynaga bosh suqasan!

- Nima bo'pti? - tutilib dedim men. - Men odam

emasmanmi?

Xristos, qo'y, bunaqa arazchi bo'lma,
deganday, yelkamni qoqib qo'ydi.

- Bilasanmi, men dindan ayni shuning uchun
nafratlanaman. Har qandayidan ham! Dindorlar
Xudoni hamisha o'zlari bilan birga deb
bilihadi va shuning uchun o'zlarini hammadan
afzal hisoblashadi.

Xristos javob bermadi. U dindor edi, lekin shu
bilan birga u mijozlarini tinchlantirishni
biladigan uddaburon xo'jayin ham edi, shuning
uchun menga yana bir idishda qizil may olib
keldi va uni qanday tashnalik bilan
simirayotganimni ko'z uzmay kuzatib turdi.

- Nima uchun bu dunyoda may ichish
taqiqlangan-u, u dunyoda may va'da qilingan,
tushunmayman, - dedim men. - Agar shunaqa
yomon bo'lsa, nima uchun jannatda ichishga
ruxsat beriladi?

- Savollar, savollar... - qo'lllarini tepaga ko'tarib
do'ng'illadi Xristos. - Qachon qarama, savol
berganing-bergan. Sen biron nimani shunchaki

ishonch bilan qabul qila olasanmi o'zi?

- Bo'lmasa-chi? Axir biz odammiz va bizga miya shuning uchun berilganmi, shunday emasmi?

- Sulaymon, seni anchadan beri bilaman. Sen nafaqat ko'pdan beri qovoqxonamga keladigan mijozimsan. Sen mening do'stimsan. Shuning uchun sendan xavotir olaman.

- Mayli, hechqisi yo'q...

- Sen yaxshi odamsan, - gapimni bo'ldi Xristos.

- Lekin tiling bir kun emas, bir kuni seni baloga giriftor qiladi. Men ana shundan xavotirdaman. Konyada har xil odam yashaydi. Va ulardan ba'zilari may ichadigan musulmon haqida yaxshi fikrda bo'lmasliklari sir emas. Sen ehtiyyotkor bo'lishni o'rganishing kerak. Odatingni yashirishni o'rgan va ortiqcha gapirma.

Men kuldim:

- Balki sening gaplaringni Xayyomning she'rlari bilan yakunlarmiz?

Xristos xo'rsindi, mening gapimni eshitgan fors

savdogari esa xushchaqchaqlik bilan xitob qildi:

- To'ppa-to'g'ri! Biz Xayyom she'r larini istaymiz. Boshqa mijozlar ham unga qo'shilishdi va hammalari menga chapak chalishdi. Qizishib ketganimdan stol ustiga sakrab chiqdim va she'r o'qiy boshladim:

*Derlar: jannatda hur, kavsar bo'larmish,
Ariq to'la may, sut, shakar bo'larmish.*

- To'g'ri, - qichqirdi fors. - Shunday deyilgan, shun-day!

*Qadahni to'ldirib, qo'lginamga ber,
Ming nasiyadan bir naqd hushtor bo'larmish.*

Ko'p yillik sharobxo'rligim davrida nimanidir o'rgangan bo'lsam, bu ham bo'lsa, har kimning har xil ichishidir. Bir odamni bilardim, u har kuni bir katta ko'za may ichardi, lekin sira

g'amga botmas edi, ashula aytar, kayf qilar, keyin ertalabgacha uxlardi. Lekin shunaqalarni ham ko'rdimki, juda oz ichgan bo'lsalar ham quturib ketishardi. Sharob o'shaning o'zi, lekin bir odam xursand bo'ldi, boshqasi yovuz, urishqoq bo'lib qoladi, shunday bo'lgach, sharobda nima ayb?

*Shu damga qul bo'lay, soqiy aytsaki:
Bir qadah mayim bor, bo'l menga hamdam.*

Yana qarsaklar chalindi. Hatto Xristos ham ularga qo'shildi. Konyaning yahudiylar mahallasidagi nasroniyning qovoqxonasida turli e'tiqod kishilari qadahlarni ko'tardilar va hatto o'zimiz bir-birimizni sevmasak va kechirmasak-da, hammamizni seuvuvchi va kechiruvchi Xudoga madhiyalar o'qidik.

Ella

2008 yil, 31 may, Nortgempston.

«Xushyor bo'l, falokatni o'tkazib yuborma, - deb o'qigan edi Ella bir saytda. - Ko'ylaklarini sinchiklab tekshir, lab bo'yog'i tegmaganmi va notanish atirning isi kelmayaptimi?»

Buni Ella Rubinshteyn birinchi marta «Ering senga xiyonat qilayotganini qanday aniqlashing mumkin?» nomli saytga kirganida ko'rgan edi. Ella eriga janjal qilishni istamas edi. Har galgiday, kechasi uyga kelmagan eridan qayoqda bo'lganini so'ramadi. Keyingi kunlarda u asosan «Shirin shakkoklik»ni o'qish bilan mashg'ul bo'ldi, bu ish unga indamay yurishi uchun bahona bo'ldi. U iztirobda bo'lgani uchun odatdagidan sekin o'qirdi. Uqiyotganlari unga yoqayotgan edi, lekin har safar Shamsning yangi qoidasi munosabati bilan, o'z hayoti tobora chigallashayotganini ham his etayotgan edi.

Bolalari yonidaligida hammasini odatdagiday qilib ko'rsatar edi, lekin Devid bilan yolg'iz

qolganlarida Ella erining o'ziga qiziqish bilan qarab turganini ko'rardi. Nazarida u qanday xotin o'z erining kechasi qayoqlarda maishat qilib yurganini so'ramasligi mumkinligini tushunishni istayotganday edi. Ella esa o'zini shunga javoban xatti-harakat qilishga majbur qilishi mumkin bo'lgan hech narsani eshitishni istamas edi. Xatti-harakat qilish nima degani o'zi?

Erining xulqi-atvorini qancha kam o'ylasa, eri haqida shuncha kam fikrlar edi - harqalay, unga shunday tuyulardi. Odamlar bilimsizlikni afzal ko'rganlari bejiz emas. Bilmasliging - baxting.

Rubinshteynlarning bir tekisdagi hayot oqimi faqat bir marta buzilgan edi. Bu Rojdestvoda (Iso payg'ambarning tug'ilgan kuniga bag'ishlangan bayram kunida), ularning pochta qutisiga mahalliy mehmonxonadan Devid uchun yo'llangan reklama munosabati bilan bo'lgan edi. Unda mijoz huquqlarini himoyalash xizmatidan muntazam

foydanuvchi sifatida Devidga mehmonxona xizmati yoqqan yo yoqmaganini bilish istalgan edi. Ella xatni barcha aloqa qog'ozlari ustiga qo'yib, stolda qoldirdi, o'sha kuni kechqurun eri xatni qanday olishi va ochishini kuzatib turdi.

- Mijozlarning fikrlarini tahlil etishayotgan ekan. Endi shu etmay turgan edi, - degan edi Devid zo'r berib o'zini jilmayayotganga solarkan. – O'tgan yili o'sha yerda konferensiya o'tkazilgan edi. Ular konferensiyaning barcha qatnashchilarini ham o'z mijozlari ro'yxatiga qo'shib yuborishganga o'xshaydi.

Ella eriga ishondi. Har holda masalaning oilani saqlab qolish va o'z hayotida hech nimani o'zgartirmaslikka oid qismida. Boshqa qismi esa ishonchsiz qoldi. Shu keyingi qismi Ellani mehmonxona telefoni nomerini axtarib topishga va qo'ng'iroq qilib, o'zi shun- doq ham biladigan javobni eshitishga yo'naltirdi: na bu yil va na o'tgan yil mehmonxonada stomatologlar konferensiyasi o'tkazilmagan

edi.

Ella ich-ichidan o'zini koyir edi. Keyingi o'n yil mobaynida uning aqliga aql qo'shilmadi va lekin vazniga vazn qo'shilardi. Ortgan har bir funt barobarida o'zidagi ishqiy hayot intensivligi ham kamaya bordi. Garchi pazandachilik kurslarida o'zidan ko'proq va yaxshiroq ovqat tayyorlaydigan, o'zidan ikki baravar ozg'in ayollar ham qatnashib kelayotgan bo'lishsa hamki, bu kurslar ham bu borada yangi qiyinchiliklar tug'dirdi.

O'tmishiga nazar solarkan, Ella o'zini hamisha intizom doirasida tutib kelganini anglardi.

Hech qachon o'g'il bolalar bilan nasha chekmagan, hech qachon uni barlardan haydab chiqarishmagan; hech qachon janjal-to'polon qilmagan, onasini aldamagan, o'smirligida yigitlar bilan o'pishmagan edi. Atrofidagi barcha qizlar abortlar qildirishganida yoki bola tug'ib, uni allaqayoqlarga topshirib yurishganida, bularning hammasini xuddi televizorda Efiopiyadagi ochlikka taalluqli

dasturni tomosha qilayotganday kuzatdi. Bu ishlar Ellani xafa qilar edi, lekin shu baxtsiz insonlar bilan bir dunyoda yashayotgani haqidagi fikr uning xayoliga aslo kelmas edi. Hatto o'smirlik yoshida ham Ella o'tirishlarga bormas edi. U notanish odamlar bilan oldi-qochdi gaplar qilib, hazillashib yurish o'rniga yaxshi kitob bilan uyda o'tirishni afzal ko'rardi.

- Elladan ibrat olsang bo'lmaydimi? - deyishar edi onalar qizlariga. - Qaragin, u sira ham hech qanday mushkul ahvolga tushmagan.

Onalari Ellani ibrat qilib ko'rsatsalar, bolalari, aksincha, uni befarosat deb hisoblashar edi. Bir kuni birga o'qiydigan sinfdoshi unga:

- Sening aybing nimaligini bilasanmi? Sen haddan ortiq jiddiysan. Sen bilan o'lguday zerikib ketadi odam, - degan edi.

Ella uning gapini diqqat bilan eshitgan va bu haqida o'ylab ko'rishini aytgan edi.

Shundan buyon ko'p yillar o'tgan bo'lsa hamki, uning Hatto soch turmag'i ham o'zgarmagan edi - asal rangidagi uzun va to'g'ri sochlarni yo

elkalariga tushirib yurardi, yoki bir tutam qilib bog'lab qo'yardi. Lablariga biroz rang berishini va qovoqlarini, qizining aytishicha, ko'zlarining ko'kligini bo'rttirish o'rniga yashiradigan qilib yashil qalam bilan biroz bo'yashini hisobga olmaganda, pardozga ham uncha qiziqmas edi.

Umuman olganda, Ella o'zida nimalardir etishmasligini tusmol qilar edi. Goho o'z gapida qattiq turadigan va beandisha bo'lib ketishi mumkin edi (masalan, Janetning nikoh borasidagi rejalariga munosabati- da), goho esa juda passiv va yuvvosh edi (masalan, erining xulqu atvoriga munosabatida). Go'yo ikkita Ella borday edi: biri o'z atrofidagilarni qattiq nazorat qilar edi, ikkinchisi ularga so'zsiz bo'ysunar edi. Va afsuski! Ulardan qay biri qachon amal qilishini aytib bera olmas edi. Lekin bularning hammasini kuzatib yuradigan va o'z vaqtu soatini kutayotgan uchinchi Ella ham bor edi. Ayni mana shu Ella o'zining butkul soqov holatida qolib ketgani, ammo

o'zining deyarli bo'g'ib tashlangan bu «men»i ortida g'azab va isyon to'lqini ko'tarilayotgani haqida gapirar edi. Agar ishlar shu zaylda ketsa, ogohlantirar edi uchinchi Ella, u, albatta, portlaydi. Va boshqa hech nima qilib bo'lmaydigan bo'ladi.

Mayning so'nggi kunlari shular haqida o'ylarkan, Ella qachonlardan buyon qilmay qo'ygan ishini qildi. Duo o'qiy boshladi.

Xudodan o'zini butkul qamrab oladigan Ishq nasib etishini yoki Ishqsizlikdan azob chekmasligi uchun hamma narsaga befarq qilib qo'yishini iltijo qilib so'radi.

-O'tinib so'rayman, qay birini ravo ko'rsang, shunisini qil, faqat tezroq qil, - u biroz o'ylab turdi-da, yana qo'shimcha qildi. - Balki men allaqachon qirqqa to'lqanimni unutgan bo'lsang kerak. Va O'zing ko'rib turibsanki, men bu ishni sira uddalay olmayapman.

Cho'l atirguli, fohisha

1244 yil, 17 oktyabr, Konya.

Tor kucha bo'ylab ortga qarashdan ham qo'rqqancha, bor kuchim bilan chopdim. Bozorga yetganimda o'pkalarim olovdek yonardi. Hushimdan ketayozib, devorga suyandim. Shundagina atrofga qarashga jasorat topdim. Hayrat va quvonch bilan izimdan faqat bitta odam chopib kelayotganini ko'rdim. Bu Sezam edi. Nafasi bo'g'ilgan, jahli chiqqan va nima uchun mening Konya ko'chalari bo'ylab bunday telbalarcha chopganimni so'ray ham olmasdan, holsiz qo'llarini osiltirgancha yonimda to'xtadi.

Hammasi shunchalik tez bo'lgan ediki, men faqat bozorga etib kelganimdan keyingina, bu qanday bo'lganini tushunib etdim. Masjidda dunyodagi hamma narsani unutib, Rumiying hikmatlarga to'la xutbasini eshitib o'tirgan edim. Shunday o'tirgan ekanmanki, yonginamda o'tirgan yosh yigitcha mening yuzimni o'rab turgan matoning uchini tasodifan

bosib olganiga ham e'tibor qilmabman. Men buni sezib ulgurmasimdan sallam yon tomonga og'ib ketib, yuzim va sochlarim ochilib qolgan edi. Darhol matoni tortib, sallamni to'g'rilab, hech kim hech nima payqab qolmaganiga ishonch hosil qilib va'zni eshitishda davom etdim. Lekin shu zahoti birinchi qatordagi bir kishi irjayib qarab turganiga ko'zim tushdi. Yuzi to'rtburchak, qirraburun, og'zi qulog'iga etgudek bo'lib kulib turardi. Bu Beybars edi. Bizning ishratxona mijozlari ichida eng yaramasi shu Beybars edi, qizlardan hech biri u bilan birga bo'lishni istashmas edi. Ba'zi erkaklar fohishalarni yoqtirish bilan bir vaqtda, ularni qattiq xafa qilishni ham yaxshi ko'rishadi. Beybars shundaylardan edi. Hamisha behayo hazillar qilardi. Bir marta qizlardan birini shunday urgan ediki, hatto pulni juda yaxshi ko'radigan bekamiz ham uni haydab solgan va boshqa bu yerning ostonasiga yaqin kelmaslikni buyurgan edi.

Lekin u bir emas, yana ko'p marta kelavergan edi. Bir necha oy shu tarzda qatnagan edi. Lekin keyin qandaydir noma'lum sababga ko'ra, ishratxonamizga kelmay qolgan va biz u haqida boshqa hech nima eshitmagan edik. Hozir esa soqol o'stiripty, eng birinchi qatorda haqiqiy musulmon qiyofasida o'tiripty, faqat ko'zlari avvalgiday jirkanch yiltirar edi. Men darhol yuzimni o'girdim, lekin kechikkan edim. Beybars tanib qoldi. O'z yonida o'tirgan odamga pichirlab nimalardir dedi, keyin ikkisi ham menga qarashdi. Undan keyin meni yana kimgadir ko'rsatishdi va masjiddagi hamma erkaklar birin-ketin o'girilib, menga qaray boshlashdi. Men qip-qizarib ketayotganimni sezdim. Qo'rqqanimdan yuragim tez urardi, lekin o'rnimdan qo'zg'ala olmas edim. Go'yo atrofdagilardan meni yashira oladiganday va baloni daf eta oladiganday ko'zlarimni yumib oldim. Ko'zlarimni ochganimda Beybars o'tirganlarni itar-sitar qilgancha men tomonga kelardi. Men sapchib eshik tomon otildim,

lekin zich o'tirgan erkaklar orasida bo'lganim uchun tez qocha olmasdim. Beybars esa men tomon sakrab yaqinlashardi va shunchalik yaqin kelib qoldiki, hatto nafasini his etdim. Keyin u qo'limni mahkam ushladi va tishlari orasidan gapirib dedi:

- Bu yerda fohisha nima qilayapti? Senda uyat yo'q ekan!
- Iltimos... iltimos, meni qo'yib yubor, - deya g'o'ladiradim men, lekin u eshitmadi ham, menimcha.

Sherigi ham unga qo'shildi. Kuchli, qo'rqinchli, takabbur, o'zining haqligiga qattiq ishongan erkaklar g'azab bilan menga haqoratlar yog'dira ketishdi. Boshqa yon atrofdagilar ham shovqinga o'girilib qaray boshlashdi. Bir necha odam bularni tartibga chaqirishga urinib kurishdi, lekin hech kim ularga qulop solmadi. Meni tashqariga sudrab chiqishayotganlarida hech qanday qarshilik ko'rsatmadim. Ko'chaga chiqqanda atigi bir daqiqa, agar eng yomon narsa boshlansa,

Sezam qochishimga yordam beradi degan umid miltilladi. Lekin masjid ichida va'zchiga hurmat yuzasidan o'zlarini tiyib turgan va meni urmagan odamlar ko'chada o'zlarini bemalol qo'ya olishlarini angladim.

Hayotimda ko'p ishlarni boshdan kechirganman, lekin hech qachon bunchalik nochor ahvolga tushmagan edim. Juda uzoq yillar shubha-gumonlar ostida yurib birinchi marta Xudo sari birinchi qadamni qo'ysam-u, Uning javobi shu bo'ldimi? Meni dargohidan quvib chiqardi!

- U yoqqa bormasligim kerak ekan, - dedim Sezamga va o'z ovozimni o'zim tanimay qoldim. - Ha, ular ham o'zlaricha haqli.

Masjidda ham, Uning boshqa dargohlarida ham fohishaga nima bor?!

- Unday dema!

Buni kim aytganini bilish uchun o'girildim va ko'zlarimga ishonmadim. Bu o'sha besoqol darbadar darvish edi. Sezam uni qayta ko'rib turganidan juda xursand, og'zi qulog'ida

kulardi. Men uning qo'llarini o'pish uchun intildim, lekin u meni to'xtatdi:

- Unday qilma, iltimos.
 - Lekin minnatdorligimni qanday izhor etay? Meni o'limdan saqlab qoldingiz. U befarqlarcha yelkalarini qisdi.
 - Sen mendan hech nima qarzdor emassan, - dedi darvish. - Biz faqatgina Uning oldida hammasi uchun qarzdormiz.
- U menga o'zini Shams Tabriziy deya tanishtirdi, keyin g'alati narsalarni gapirib ketdi:
- Ba'zi insonlar ajoyib aura (ruhiy quvvat rangi) bilan tug'ilishadi, lekin keyinchalik bu rang xiralashadi. Menimcha, sen ham shundaylardansan. Bir vaqtlar sening aurang sariq va pushtirang xolli oq lolagulnikidan ham tiniqroq bo'lgan, lekin birmuncha vaqtdan keyin u o'zgargan. Endi uning rangi och jigarrang bo'lib qolgan. Nahotki oldingi holatingga qaytishni istamasang?
- Men nima deyishni bilmay, unga qarab qoldim.

- Sening aurang avvalgi rangini yo'qotgan, chunki uzoq vaqt mobaynida senga ichkaridan ham, tashqaridan ham iflos fohisha, deb qarab kelishgan.
- Men rostdan ham iflosman, - dedim lablarimni bir-biriga bosib. - Men qanday yo'l bilan tirikchilik qilishimni bilmaysizmi?
- Quloq sol, bir narsani hikoya qilib beray, - dedi Shams.

Bir kuni fohisha daydi itning yonidan o'tib ketayotgan ekan. It bechora jaziramada chanqovdan qattiq azob chekayotgan ekan. Fohisha yaqin oradagi quduqqa borib oyog'idagi kavushini echib, suv solib itning chanqog'ini qondiripti. Keyin o'z yo'lidan ketipti. Ertasi kuni u so'fiyni uchratipti, u buyuk donishmand ekan. U ayolning qo'lini o'pihti. Ayol hayron bo'lipti. So'fiy ayoldagi itga bo'lgan rahmdillik chin qalbdan bo'lganini va bu uning barcha gunohlaridan kuchli ekanini va ularning barchasini o'sha zahoti yuvib yuborganini aytipti.

Men Shamsning nima haqida gapi rayotganini tushunib turardim, lekin negadir unga ishonmas edim.

- Men hatto Konyadagi barcha itlarning qornini to'yg'azsam ham, gunohlarimni yuvish uchun yetarli bo'lmaydi, - dedim men.
- Sen buni bila olmaysan, buni faqat Xudo biladi. Nima, seni masjiddan haydab chiqargan erkaklarni Xudoga o'zingdan ko'ra yaqinroq, deb hisoblaysanmi?
- Agar ular Xudoga yaqin bo'lmasalar, - dedim men ishonqiramay, - buni ularga kim aytadi? Senmi?

Darvish bosh chayqadi:

- Yo'q, bu to'g'ri kelmaydi. Sen o'zing ularga aytishing kerak.
- Ular meni eshitishadi, deb o'ylaysanmi? Ular mendan nafratlanishadi-ku!
- Ular eshitishadi, - dedi qat'iy qilib Shams Tabriziy. - Chunki «men» degan tushuncha bo'lmagani kabi «ular» degan tushuncha ham yo'q. Butun olam, undagi hamma narsalar

o'zaro bog'langan. Biz - yuzta yoki mingta har xil mavjudotlar emasmiz. Biz hammamiz Bir butunmiz.

Men uning o'z fikrini tushuntirib berishini kutib turardim, lekin buning o'rniga dedi:
- Qirq qoidaning bittasi shu. «Agar odamlarning senga munosabatlari o'zgarsin desang, avval o'zingning o'zingga munosabatingni o'zgartir. O'zing o'zingni chin qalbdan sevishni o'rganmaguningcha, seni hech kim seva olmaydi. Lekin bunga erishganidan keyin ham odamlar senga qarshi otadigan barcha tikanlardan minnatdor bo'lishing kerak. Zero, bu sening yaqin orada atirgullar ichiga tushmog'ingdan nishonadur». Darvish biroz vaqt jim qoldi. - Agar o'z qadringni o'zing bilmasang, boshqalar sening qadringni qanday bilsin?

Unga bir og'iz so'z ayta olmadim, lekin men fahmiga yeta olmagan bir narsaga mahkam yopishib olgan edim. Men bilan birga bo'lgan erkaklarni eslab ketdim - ularning hidlarini,

qo'llarini, o'sha vaqt... Qanday baqirishlarini... Yuvoshgina yigitchalarning maxluqqa aylanib ketishlarini va maxluqqa o'xshaganlarning yuvosh bolalarga aylanib qolishlarini ko'rganman. Ayollar bilan birga bo'lganida unga tuflaydigan bir erkakni ham esladim.

- Iflos, - degan edi u mening yuzimga tuflab, - iflos fohisha.

Endi mana bu darvish menga bahor jilg'asiday musaffoligimni uqtirmoqchi bo'layapti. Bu xuddi achchiq hazilga o'xshaydi. Men kulishga harakat qildim, lekin xo'ngrab yig'lab yuborishimga sal qoldi.

- O'tmish - bu girdob. Agar uning hozirni o'z soyasida qoldirishiga yo'l qo'yib bersang, u seni o'z tubiga tortib ketadi, - dedi Shams xuddi mening fikrlarimni o'qiganday. - Vaqt - bor-yo'g'i sarob. Sen hozirgi damda yashashni o'rganishing kerak. Faqat hozirgi on ahamiyatga ega. Shu gaplarni ayta turib u ichki cho'ntagidan ipak ro'mol oldi.

- Buni ol, - dedi u. - Bag'dodda bir yaxshi kishi

buni menga bergen edi, lekin u menden ko'ra senga ko'proq kerak. U senga yuraging tozaligini va qalbingda Xudo borligini eslatib turadi.

Shularni aytgach, darvish hassasini qo'liga oldi va ketish uchun o'rnidan turdi.

- Lekin sen avval fohishaxonadan ketishing zarur.

- Qanday qilib? Qayoqqa boraman.

- Bu muammo emas, - dedi Shams ko'zlari chaqnab. - Men senga ko'rsatgan yo'l bexavotir. Sen buning o'rniga eng birinchi qo'yadigan qadamning haqida o'yla. Eng qiyini shu. Lekin birinchi qadamni qo'ygan zahoting qolgani o'z-o'zidan bo'ladi. Oqimda suzma, oqimning o'zi bo'l.

Men bosh silkitdim. Shamsdan hech nima so'rash kerak emas edi. Bu uning navbatdagi qoidasi ekanini tushungan edim.

Ichkilikboz Sulaymon

1244 yil, 17 oktyabr, Konya.

Hazil-huzul va mayxo'rlik qila-qila
qovoqxonada yarim kechagacha o'tirdim, keyin
oxirgi qadahni ko'tardim va uyimga jo'nadim.

- Men nima deganim esingda tursin, - dedi
xayrlasha turib Xristos, ortimdan qo'l silkitib
qolarkan. - Tilingga ehtiyot bo'l.

Men haqimda qayg'uradigan do'stim borligidan
o'zimni baxtiyor his etib, unga bosh silkitdim.
Lekin qorong'u, bo'm-bo'sh ko'chaga chiqan
zahotim meni charchoq bosdi va yo'lga bir
ko'za may ola chiqmaganimga achindim.

Boshmoqlarimning tosh yo'lga urilishidan
eshitilayotgan ovozlar hamohangligida Rumiy
ortidan ergashgan odamlar haqida xayol
surardim. Ularning ko'zlarida yongan nafratni
eslab dahshatga tushardim. Men dunyoda
yomon ko'radigan faqat bir narsa bor, u ham
bo'lsa riyokorlik edi. Uzoq yillar mobaynida bu
odamlar meni shunchalik haqoratlab keldilarki,
buni eslashning o'zidayoq badanim jimirlab
ketadi.

Men buni eslamaslikka harakat qilib borardim va tor ko'chaga burildim. Shox-butoqlari qalin o'sgan daraxtlar tufayli bu yer yana ham qorong'uroq edi. Boz ustiga oy ham to'satdan bulutlar ortiga berkinib, meni zim-ziyo zulmat ostida qoldirdi. Tasodifan men tomonga kelayotgan ikki qorovulni ko'rib qoldim.

- Assalomu alaykum, - g'o'ldiradim men, vujudimni chulg'ab olayotgan qo'rquvni berkitish uchun me'yordan ortiqroq xushchaqchaqlik bilan.

Qorovullar salomimga javob qaytarishmadi. Buning o'rniga bemahalda qo'chada nima qilib yurganimni so'rashdi.

- Ketayapman, - cho'zilib dedim men.

Biz uzoqlardan faqat itlarning vovullahslari eshitilib turgan sokinlikda birga turardik.

Qorovullardan biri hidlab ko'rdi.

- Undan qo'lansa hid kelyapti, - dedi u nafrat bilan.

- Ha, undan sharob hidi anqiyapti, - tasdiqladi uning gapini ikkinchisi. Men agar biroz hazil

qilsam hech nima bo'lmas deb o'yladim.

- Xavotir olmang. Bu hid majoziy, xolos, chunki musulmonlarga faqat majoziy mayni ichishga ruxsat berilgan, shuning uchun bu hid ham faqat majoziy.

- Bu nima deb valdirayapti? - to'ng'illadi birinchi qorovul.

Shu payt atrofi nafis oq nuri bilan yoritib oy bulut ortidan chiqdi. Endi uning yuzini ko'rdim. Agar sovuq qarashi va yoqimsiz irjayishi bo'limganida, uni xushro'y desa ham bo'lar edi.

- Bemahalda ko'chada nima qilib yuribsan? - savolini takrorladi qorovul. - Qayoqdan kelayapsan va qayoqqa ketayapsan?

Bu yog'iga men chiday olmadim: - O'g'lim, sen mendan haddan ziyod murakkab narsalarni so'rayapsan. Javobini bilganimda edi, bu olamda mavjudligimiz sirlarini ochgan bo'lardim.

- Ustimdan kulyapsanmi, hayvon? - bo'kirdi qorovul va men biron narsani fahmiga yetishga

ulgurmasimdan qamchisi bilan havoni savaladi. Bu shunchaki xo'jako'rsinga qilingan harakat edi, shuning uchun o'zimni tutib tura olmadim va «hmm» deb yubordim. Shunda u qamchisi bilan ko'kragimga tushirdi. Shunday kuchli, dabdurustdan va og'ritib urdiki, natijada men muvozanatni yo'qotdim va oyoqda tura olmay qalqib ketdim.

- Bu senga odobdan saboq bo'ladi, - dedi qorovul qamchisini bir qo'lidan ikkinchisiga olib o'ynatarkan, - ichkilikbozlik musulmon uchun eng katta gunoh ekanini bilmaysanmi? Boshim og'riqdan yorilgudek og'riyotgan va og'zimda o'z qonimning iliq ta'mini tuyib turgan bo'lsam-da, o'g'lim tengi yosh yigit meni ko'chaning qoq o'rtasida savalaganiga ishona olmay turardim.

- Ur, uraqol meni, - baqirishga harakat qildim men. - Agar Xudoning jannati sendaqalar uchun bo'lsa, unda men do'zaxda yonganim yaxshiroq! Qorovulning g'azabi qaynab meni savalay ketdi. Men yuzimni qo'llarim bilan

to'sdim, lekin foydasi bo'lindi. Bir eski ashula esimga tushib qolib, yorilgan lablarim bilan xirgoyi qila boshladim. Ahvolim qanchalar og'irligini bildirmaslik uchun har safar qamchi tushgan sari ovozimni yanada balandlatib ashula aytardim.

*Bir bo'sa tortiq et, ey yor, ishqi otashim,
Labing sharobidan kuygil, aylansin boshim.*

Lekin bu qorovulning g'azabini faqat kuchaytira- yotgan edi. Qancha baland ovozda kuylasam, u meni shuncha qattiqroq urardi. Bir odam ichiga shuncha g'azab jo bo'lishi sira xayolimga kelmagan edi.

- Etadi, Beybars! - ko'rqb ketgan ikkinchi qorovulning ovozini eshitdim men. - To'xta! Savlash qanday to'satdan boshlangan bo'lsa, shunday to'satdan to'xtadi. Men ularning ketidan nimadir aytishni istar edim, lekin og'zim to'la qon bo'lgani uchun biron so'z ayta olmadim. Qornim og'rirdi va nima

bo'layotganimni tushunishga ulgurmayoq qayd qilib yubordim.

- Sen tamom bo'lgan odamsan, - dedi menga Beybars.

- Lekin men qilgan bu ish uchun sen meni emas, o'zingni ayblashing kerak.

Qorovullar menga orqalarini o'girishdi va qorong'u tomonga yurib ketishdi.

Yerda qancha yotganimni bilmayman. Balki ikki daqiqa o'tgandir yo balki kechasi bilan yotgandirman. Vaqtning ma'nosi, umuman, barcha narsalarning ma'nosi qolmagan edi. Meni qorong'uda qoldirib, Oy ham yana bulutlar ortiga berkingan edi. Men hayot bilan o'lim orasida edim va endi menga hammasi baribir edi. Keyin karaxtlik holati o'tib ketdi va qattiq og'riq boshlandi. Og'riq to'lqin kabi chayqalib kelardi, boshim guvillardি, butun vujudim misoli olovda yonardi. Va men yaralangan hayvon kabi uvillab yubordim. Xushimdan ketdim, shekilli. O'zimga kelganimda, ishtonim xo'l va undan siydk hidi

anqirdi. Butun tanam qattiq og'rirdi. Xudodan yo jonimni olishini, yoki may ichishga imkon berishini iltijo qila boshladim va shunda yaqinlashib kelayotgan qadam tovushlarini eshitdim. Yuragim shoshilinch urib ketdi. Bu kim bo'ldi? Ko'chada yurgan bolalardanmi? O'g'rimi? Yo qotilmi? Ammo o'ylab qoldim: Nimadan qo'rqayapman o'zi? Shu holatimdan yomoni bo'lmaydi-ku axir!

Qorong'ulikdan baland bo'yli ozg'in besoqol dar-vish chiqib kela boshladi. Yonimga cho'kib mening o'tirishimga yordam berdi. O'zini Shams Tabriziy ekanini aytdi va mening ismimni so'radi.

- Konyalik Ichkilikboz Sulaymon xizmatingizda, - dedim men, urib sindirilgan tishimni tuflab tashlab. - Tanishganimizdan xursandman.

- Hamma yog'ingiz qon, - dedi Shams yuzimdagi qonni artarkan. - Qon faqat tashqariga emas, ichkariga ham oqayapti. U shunday deb cho'ntagidan kumush suvdon

oldi.

- Yaralaringizga surting. Bag'dodlik bir yaxshi inson menga bergan edi, lekin hozir bu sizga mendan ko'ra ko'proq kerak. Lekin siz ichkaridagi jarohatlaringiz tashqaridagilarga qaraganda chuqurroqligini va ko'proq azob berishini bilishingiz kerak. Yana bu sizga Xudo ichingizda ekanini ham eslatib turadi.

- Rahmat, - g'o'l diradim men darvishning yaxshiligidan ta'sirlanib ketib. - Bu... qorovul... U meni savaladi. U meni shunga loyiqsan dedi. Shu so'zlarni aytar ekanman, ovozimda bolalarga xos yig'loqi mung va kimdir meni tinchlantirishi va ovutishiga bo'lgan kuchli istak borligidan o'zim lol qoldim.

Shame Tabriziy bosh chayqadi:

- Ularning bunday qilishga haqlari yo'q edi. Har bir inson o'z avliyolik yo'lini o'zi tanlaydi. Shunday qoida bor: «Biz hammamiz Uning o'zidan nusxa olib va o'ziga monand qilib yaratilganmiz, ammo shuning bilan birga, hammamiz har turli qilib va bir-birimiz- ga

o'xshamaydigan qilib yaratilganmiz. Ikkita bir xil odam yo'q. Ikkisi bir maromda tepuvchi yurak yo'q. Agar Xudo barcha odamlar bir xil bo'lishini istasa, ularni bir xil qilib yaratgan bo'lar edi. Shuning uchun boshqa insonlarga hurmatsizlik bilan qarash va ularga o'z fikrini majburlab qabul qildirish, Xudoning rejasiga hurmatsizlik bilan munosabatda bo'lishni bildiradi».

- Yoqimli gap, - dedim ovozim shuncha tez qayta tiklanganidan hayratga tushar ekanman. - Nahotki so'fiylarda Xudo borasida hech qanday shubhali masalalar bo'lmasa?

Shams jilmaydi:

- Bor, albatta, lekin shubhalarning borligi yomon emas. Ularning borligi inson tirikligini va o'z haqiqatini izlayotganini anglatadi. U deyarli qiroat bilan xuddi kitob o'qiyotganday gapirardi.

- Boz ustiga inson bir ondayoq e'tiqodli bo'lib qolmaydi. U o'zini e'tiqodli deb o'ylaydi, keyin hayotida uni e'tiqoddan qaytaradigan hodisa

ro'y berib qoladi, keyin yana e'tiqodga qaytadi, keyin uni yana yo'qotadi va h.k. Biz hayotni muayyan darajada tushunib yetmagunimizcha, ikkilanib yuramiz. Boshqachasiga oldinga siljiy olmaymiz. Lekin har bir qadamimiz bizni Haqiqatga yaqinlashtirib boradi.

- Agar Xristos seni eshitsa, tilingga ehtiyot bo'l degan bo'lardi, - dedim men. - U har gapni hammaga ham aytib bo'lavermaydi, deb hisoblaydi.

- Ha, mayli, u ham o'zicha haqli, - kului Shams va o'rnidan turdi. - Turing, men sizning uyingizga kuzatib qo'yaman. Hali jarohatlaringizga qarash kerak, yana uxbab olsangiz ham ortiqcha bo'lmaydi.

U mening turishimga yordam berdi, lekin men yura olmadim. Shundan keyin darvish hech ikkilanmasdan, xuddi hech qanday og'irligi yo'q narsani ko'targanday meni dast ko'tarib, opichlab oldi.

- Sizni ogohlantiray, mendan sassiq is anqiapti, - dedim men uyalgancha g'o'ldirab.

- Hechqisi yo'q, Sulaymon, xijolat bo'lman. Darvish, qonga belanganimni, siylik va quzuq hidi kelayotganini go'yo payqamayotganday, meni chuqur uyquga cho'mgan Konyaning uylari va kulbalari orasidan o'tgan tor ko'chalari bo'ylab ko'tarib ketdi. Faqat itlar bog'larning devorlari ortidan zo'r berib vovullashardi.
- Meni hamisha so'fiylar poeziyasidagi mayga munosabat qiziqtirar edi, - dedim men. - So'fiylar mayni real ma'noda tushunadilarimi yoki majoziy ma'nodami?
- Nima farqi bor, do'stim? - so'radi Shams, uyimga yetganda meni erga qo'yar ekan. - Buni tushuntiradigan o'z qoidasi bor: «Chin e'tiqodli inson mayxonaga kirsa, mayxona uning uchun ibodatxonaga aylanadi, ichkilikboz ibodatxonaga kirsa, ibodatxona mayxonaga aylanadi. Barcha ishlarimizda eng asosiysi qalbdir- So'fiylar inson haqida tashqi ko'rinishiga qarab hukm chiqarmaydilar. So'fiy kimnidir ko'rmoqchi bo'lsa, ko'zlarini yumadi,

lekin uchinchi - ichkarini ko'radigan - ko'zini ochadi».

Bu uzoq kundan va og'ir tundan keyin uyda yolg'iz qolib, sodir bo'lgan hodisalar haqida o'ylab ketdim.

Men og'ir ahvolda edim, ammo qalbimning eng tubidagi baxtiyor sokinlikni his etardim. Bir daqiqa men bu xolatni tutib ololdim va uni boshqa qo'yib yubormaslikka ahd qildim. Men Xudo borligini va U meni yaxshi ko'rishini angladim.

Qizig'i shunda ediki, garchi savalab tashlangan esam-da, og'riq azobini ortiq his etmas edim.

Ella

2008 yil, 3 iyun, Nortgempton.

Plyaj tomondan ochiq deraza orqali kirib kelayotgan ashula ovozlariga, uy yonidan o'tayotgan mashinalar va quyoshda toblanishga ulgurgan talabalar shovqiniga beixtiyor qulq solarkan, betashvish yoshlarni kuzatish bilan

birga Ella beixtiyor keyingi kunlarda sodir bo'lgan hodisalarni ham xayolidan o'tkazardi. Birinchidan, iti oshxonada o'lib qolganini ko'rdi. Garchi bunga tayyor turishi kerakligini o'ziga ko'p marta aytgan esa-da, u nafaqat chinakam qayg'uni boshdan kechirdi - unda o'zining himoyasizligi va yolg'izlanib qolgani tuyg'usi ham paydo bo'ldi. Ikkinchidan, Ella Orlida bulemiya kasalligi borligini va barcha sinfdoshlari buni allaqachon bilishlarini bildi. Ella buning uchun o'zini shunchalar aybdor his etardiki, hatto kichik qiziga yaqin bo'la olganidan va o'zida onalik tuyg'usi borligidan ham shubhalanib qoldi. Aybdorlik hissini-ku u birinchi marta tuyayotgani yo'q edi, ammo o'zining onalik tuyg'usiga shubha unda birinchi marta paydo bo'lishi edi.

Shu vaqt ichida Ella Aziz Z. Zaxara bilan juda ko'p elektron maktublar almashishdi. Ba'zan bir kunda ikki-uchta, ba'zan esa hatto beshta xat bo'lib ketar edi. Ella hamma narsa haqida yozaverar edi va shunisi ajablanarli ediki, u

ham sira kanda qilmay beto'xtov javob qaytarardi. Qayoqdan vaqt topar ekan? U Aziz bilan xat yozishuvlarga juda tez o'rganib qoldi va qulay vaqt keldi deguncha birinchi o'rinda pochtani tekshirardi - eng oldin ertalab turib, keyin nonushtadan keyin, keyin ertalabki sayrdan qaytgach va lanch (ikkinchi nonushtani) tayyorlay turib va hatto internet-kafega birrovga kirganida ham. Hatto televizor ko'rayotganida ham, pazandalik klubidagi mashg'ulotlar vaqtida ham, telefonda gaplashaturib ham yoki egizaklari suhbatiga qulq solib turib ham, hamisha noutbukini tizzasida olib o'tirar edi. Azizdan yangi xat kelmagan vaqlarda Ella eskilarini qayta o'qir, navbatdagi yangi xatni ko'rgan zahoti esa har safar quvonchini yashira olmas va chehrasida uyatchan tabassum paydo bo'lar edi.

Bir tekis, osuda kechayotgan hayot o'tmishda qolganini tushunishi uchun Ellaga uncha ko'p vaqt kerak bo'lindi. Uning hayotida sir paydo bo'lgan edi. Va bu unga yoqardi.

Aziz oz bilan qanoatlanadiganlardan emas edi. Qalb qonunlariga bo'ysunmaydigan, kungaboqar quyoshga ochilgani va intilgani kabi, ishq uchun ochilmaydigan va unga bo'ysunmaydiganlarni tirik odamlar hisobiga qo'shmas edi. (Tirik bo'limganlar hisobiga o'zi ham kirishi mumkinligi Ellaning xayoliga kelmas edi.) Aziz ob-havo haqida yoki yaqinda ko'rgan filmi haqida yozmas edi. U ancha muhim narsalar haqida: hayot, o'lim va albatta, ishq haqida yozardi. Ella o'z tuyg'ularini, ayniqsa, begonalarga oshkor namoyon etadiganlardan emas edi, lekin juda yig'ilib ketgan va og'riqli tuyg'ularini nihoyat to'kib solishi uchun unga aynan begona kerak bo'lgandir ham.

Garchi ularning yozishmalarida yoqtirishga o'xshash nimadir bor bo'lsa hamki, Ellaning nazarida, bu butkul beg'ubor narsa edi. Virtual ishva bo'lsa nima qilipti? Shu yozishmalar bahonasida Ella turmushga chiqqach, but-kul yo'qotilgan qadru qimmatidan ozginasi bo'lsa

ham qaytishini umid qilardi. Aziz, ayol kishi o'zining o'ziga hurmatini yo'qotmagan holda, sevish mumkin bo'lgan erkakka o'xshar edi. Balki u ham o'rta yoshli amerika ayolida o'zini qiziqtiradigan nimanidir topgandir. Kibermaydon aybdorlik hissini tuymasdan (bu Ellaga ma'qul edi, zero u busiz ham aybdorlik hissini haddan ziyod ko'p tuyub kelgan edi) ishva qilish va hech qanday xavf-xatarsiz sarguzasht boshdan kechirish (hech qanday sarguzasht boshdan kechirmagan Ella buni juda istar edi) imkonini berar edi. Bu taqiqlangan va lekin bexatar meva edi.

Balki, eri bor, uch bolaning onasi bo'lmish ayolning noma'lum kishiga yozayotgan yashirin xatlarini shakkoklik deb hisoblash mumkindir ham. Ammo bu munosabatlarning platoncha (faqat xayoliy) tabiatga ega ekanini hisobga olinsa, deya xulosa qilardi Ella, bu shirin shakkoklik edi.

Ella

2008 yil, 5 iyun, Nortgempton.

Qadrli Aziz!

Xatlaringizdan birida kishi o'z hayotini oqilona nazorat qila olishi g'oyasi ummonda suzib yurgan baliqning shu ummonni nazorat qilishga urinishi kabi bo'l magur (absurd) g'oya, deb yozgan edingiz. Men Sizning «Kutganimiz amalga oshmagan hollarda o'zlikni bilish haqidagi fikr umidlarning puchga chiqishi va ixlosning qaytishi oqibati bo'ladi» degan jumlangiz haqida ko'p o'yladim. Lekin tan olishim kerak: menga hayotni nazorat qilish yoqadi. Har holda, meni yaxshi bilgan odamlar men haqimda shunday deyishadi. So'nggi vaqt larga qadar men juda qattiqqo'l ona bo'lib kelganman. Mening qoidalarim ko'p (va ular agar ishonsangiz, so'fiylarning qoidalariday uncha yoqimli emas), ularda hech kimga yon bosish yo'q. Bir kuni katta qizim meni bolalar hayotini

kavlashtirishda va har bir fikrlaridan va istaklaridan gunoh axtarishimda aybladi. Esingizdami, bir ashula bor edi. Men uni yoqtirmas edim. «Nima bo'ladi, nima bo'ladi?» - bu mening yo'lim emas, chunki men oqim bo'ylab suza olmayman. Bilaman, Siz dindorsiz, men esa - yo'q. Garchi bizning oiladagilar hammamiz shanba kunlari bayram qilsak hamki, men hatto o'zimning oxirgi marta qachon ibodat qilganimni ham eslay olmayman. Yo'q, esladim. Ikki kun oldin oshxonada ibodat qilgan edim. Ammo bu hisobga kirmaydi, chunki u ibodatdan ko'ra shikoyatga ko'proq o'xshardi.

Ancha ilgari, kollejda o'qiyotganimda, sharq dinlariga juda qiziqib qolgandim va buddizm, dzen-buddizm haqida qo'p o'qigandim. Hatto g'aroyibotlar shaydosi bo'lgan bir dugonam bilan hindlarning ashramida (diniy-mistik ta'lim maktabida) bir oy yashash rejasini ham tuzgan edik, lekin bu qiziqish uzoqqa bormagan edi. Bu qanchalik qiziqarli

ko'rinmasin, lekin hozirgi hayot nuqtai nazaridan qaraganda uni qabul qilib bo'lmaydi. Shundan buyon men bu boradagi fikrimni o'zgartirmadim.

Mening dinga bo'lgan bu munosabatim Sizni xafa qilmaydi, deb umid qilaman. Buni Sizga befarq bo'lмаган insonning shunchaki ochiq fikri deb qarang.

*Sizga samimiyat bilan
Ella.*

Azizam Ella!

Xatingiz menga Amsterdamdaligimda, Malaviga ketay deb turganimda yetib keldi. Menga OITS avjiga chiqqan va bolalarning asosiy qismi yetimlar bo'lib qolgan qishloq aholisi fotosuratlarini olish topshirig'ini berishdi. Agar biron hodisa xalal bermasa, to'rt qundan keyin qaytaman. Ko'ramiz.

Men bu holni nazorat qila olarmidim? Aslo! Ammo ertagayoq boglanish bo'lishi uchun o'sha yerdan turib Internetga kirish yo'lini

axtaraman. So'fiylar beshinchi elementni (unsurni, ya'ni borliq asosida yotuvchi to'rt unsurdan - suv, havo, olov va tuproqdan keyingi unsurni) bo'shliq deb ataydilar. Bu biz oddiy odamlar uchun tushunarsiz va nazorat qilib bo'lmaydigan muqaddas unsur, lekin biz uni hamisha anglay olamiz. Agar «nofaollik» deganda insонning hayotda mutlaqo hech nima qilmasligi va hayotga jiddiy intilmasligi nazarda tutilsa, men bunday «nofaol»lik g'oyasiga ishonmayman. Lekin men beshinchi unsurga bo'lgan e'tiqodga isho-naman. Menimcha, biz hammamiz ham Xudo bilan shartlashib olganmiz. Har holda, men uchun shunday bo'lgan.

So'fiylikka qadam qo'yganimda Xudoga kuchim yetganicha hamma ezguliklarni qilishga va'da bergenman. Men hayotda o'zim tushuna olmaydigan narsalar borligini qabul qilaman. Menga narsalarning faqat ayrim qismlari, bo'laklari ko'rindi, xolos, lekin BUTUN reja mening tafakkurim doirasiga sig'maydi. Siz

meni dindor deb hisoblayapsiz. Lekin unday emas.

Men spiritualistman, bu esa boshqa narsa.

Dindorlik bilan ruhoniylik (spiritualizm) orasida katta farq bor. Bizning davrimizda ular orasidagi jarlik mislsiz chuqurlashib ketgan.

Atrofimdag'i jarayonlarni kuzatar ekanman, hamisha qiyin holatda bo'laman. Biz, bir tomon dan, individuumning (ayrim olingan shaxsning) Xudodan, hokimiyatdan, jamiyatdan erkin ekaniga va narsalar ustidan hukm yurita olishiga ishonamiz, ammo ishonchimiz ortgan sari tobora o'z ichimizda berkinib (cheklanib) borayapmiz, dunyo esa tobora moddiylashib borayapti.

Ikkinci tomon dan esa, butun insoniyatda ruhiylik jihatি tobora ortmoqda. Biz uzoq vaqtlar mobaynida tafakkurga (AQLGA) tayanib yashab keldik, endi esa uning ChEGARASI borligini anglashimizga to'g'ri keladigan davr kelganga o'xshaydi. Bizning

*davrimizda xuddi O'rta asrlarda bo'lgani kabi,
ruhiy portlash sodir bo'layotgani kuzatilayapti.
G'arbda tobora ko'pchilik odamlar o'zlarining
serg'alva hayotlarida ruhiyatlari uchun ichki
maydon ajratishga harakat qilmoqdalar.
Garchi ularning niyatlari ezgulik esa-da, lekin
amalga oshirish vositalari ko'pincha to'g'ri
emas. Ruhiyat eski ovqatga qo'shish mumkin
bo'lgan yangi ziravor kabi emas. Ya'ni u
tubdan yangilanishsiz, o'z hayotimizga
shunchaki qo'shib qo'yishimiz mumkin bo'lgan
narsa emas.*

*Men Sizning pazandachilikni yaxshi
ko'rishingizni bilaman. Siz Shamsning, butun
olam buyuk bir narsa pishirilayotgan kattakon
doshqozondir, degan gapidan xabardormisiz?
Unda nima pishirilayotgani bizga hozircha
noma'lum. Lekin biz nimaiki qilsak, his etsak
va o'ylasak, hammasi shu qaynatma tarkibiga
kiradi. Va biz o'zimizdan bu qozonga nima
solayotganimizni so'rashimiz kerak
Xafagarchiligimizni, qahru g'azablarimizni,*

*jahlimizni qo'shmayapmizmi? Yoki bu qozonga
Ishqimizni (mehru muhabbatimizni) va
mutanosiblik, uyg'unliklarimizni qo'sha
olayapmizmikin?*

*Sizga kelganda-chi, azizam Ella, insoniyat
pishirayotgan bu taomga Siz nima
qo'shayapman deb o'ylaysiz?*

*Men o'zim, Siz haqingizda o'ylagan vaqtimda,
chuqur tabassumimni qo'shayapman.*

*Sizga mehru muhabbat ila,
Aziz.*

Uchinchi qism

ShAMOL

(...harakatdagi, bir joydan boshqasina ko'chib turadigan narsalar shubha ostida bo'ladilar)

Fanat

1244 yil, 19 oktyabr, Konya.

Ochiq derazadan eshitilayotgan itlarning zo'r berib vovullashi menga sira uyqu bermadi.

Ular uyga kirmoqchi bo'layotgan o'g'ri yoki ko'chadan o'tayotgan iflos ichkilikbozni payqadimikin, degan xayolda to'shakdan turib o'tirdim. Odam o'z o'rnida bemalol u xlabel olmaydigan bo'lib qolipti endi. Hamma yoqda yoqalashuvlar va buzuqliklar. Ilgari bunday emas edi. Atigi bir necha yil avval bu shahar yashash uchun eng xavfsiz edi. Xulqiy buzilishning boyu kambag'alga, yoshu qariga birday yuqumli bo'lgan va to'satdan paydo bo'lib, hamma yoqqa tarqaladigan jirkanch yuqumli kasallikdan farqi yo'q.

Shahrimiz bugun shunday holatda. Agar madrasada o'z o'rnim bo'lmasaganida edi, onda-

sonda bo'lsa ham uydan chiqib turishga jur'at topa olmagan bo'larmidim. Rabbimga shukurlar bo'lsinki, shahar jamoasi manfaatlarini o'z manfaatlaridan ustun ko'radigan va ertayu kech Konyada tartib saqlanishiga xizmat qiladigan odamlar bor. Jiyanim Beybars shulardan biri. Biz u bilan faxrlanamiz. Shunday kechki payt jinoyatchi, razil va ichkilikboz kishilar yuradigan vaqt, Beybars o'zining qorovul-o'rtoqlari bilan bizni himoya qilib yuripti.

Akam bevaqt vafot etgach, men uning o'g'liga vasiy bo'lgandim. Yosh va qat'iyatli Beybars qorovullik qila boshlaganiga yarim yil ham bo'ldi. Beybars bu ishga mening mudarrisligim tufayli erishdi, degan g'iybatlar ham bo'ldi. Bo'lmag'ur gap! Beybars o'zi juda kuchli va umuman, unda bu ish uchun kerakli hamma narsa bor. Undan juda yaxshi askar chiqishi mumkin edi. U Quddusga borishni va salibchilarga qarshi jang qilishni istagan edi, lekin biz xotnim bilan Beybars endi ulg'ayib

qoldi va oilali bo'ladigan vaqtি keldi, degan qarorga keldik.

- O'g'lim, sen bizga shu yerda keraksan, - dedim men. - Bu yerda ham jang qilishing kerak bo'lgan odamlar bor.

To'g'risi ham shu. Ayni o'sha kuni ertalab men xotinimga biz juda og'ir vaqlarda yashayotganimizni aytgandim. Har kuni biron yangi fofia haqida eshitib turardik.

Mo'g'ullar shiddat bilan bostirib kelishi, salibchilarining g'alaba qilishlari, shahar va qishloqlar birin-ketin g'ayridinlar tajovuzi qurbaniga aylanishi, barchasiga soxta musulmonlar, ya'ni so'zda bor-u, amalda yo'q musulmonlar aybdor. Odamlar Xudo bilan bog'lanishni yo'qotgan zahoti yo'ldan toyadilar. Mo'g'ullar gunohlarimiz uchun bizga jazo sifatida yuborilgan. Gap mo'g'ullarda emas, buning o'rniga zilzila, ocharchilik yoki to'fon bo'lishi ham mumkin edi.

Biz sababni bilgunimizcha va tavba qilmagunimizcha, yana qancha baxtsizliklarni

boshdan kechirishimiz kerak ekan? Bir kun osmondan yomg'ir o'rniga tosh yog'ishini o'ylasam, ko'rqb ketaman. Kun kelib va bu kun uzoq emasga ham o'xshaydi - hammamiz Od va Samud qavmlari singari er yuzidan supurib tashlanishi mumkin.

Boz ustiga so'fiylar. Ulardan ham yaxshilik kutib bo'lmaydi. Mo'min musulmonning aqli bovar qilmaydigan narsalar haqida gapirib,

o'zlarini musulmon deb atashga qanday jur'at qilishar ekan? O'zlarining ahmoqona qarashlarini bayon eta turib, yana

Payg'ambarimiz (s.a.v.) nomlarini tilga

olganlarini eshitganimda tomirlarimda qonim qaynaydi. Ularning aytishlaricha, Payg'ambar

Muhammad (s.a.v.) uchun e'tiqodsizlarga

qarshi jang qilish kishining o'z nafsiga qarshi jang qilishiga nisbatan kichik jihod emish.

Inson dunyoga kelganidan buyon jang olib

borishi kerak bo'lgan yakkayu yagona dushman nafs, deb hisoblashadi so'fiylar. Bu gap chiroyli eshitiladi, ammo qizig'i shundaki, islom

dushmanlariga qarshi jang olib borishda bu qanday yordam berar ekan?

So'fiylar bundan ham badtarini aytishadi - shariat - yo'ldagi bir bosqich, xolos, deyishadi ular. Qiziq, bu qanday bosqich ekan? Bu ham yetmaganday, yana ma'rifatli insonni dastlabki bosqichdagi qoidalar bilan cheklab qo'yish mumkin emas, deb da'vo ham qilishadi. Ularga o'zlari yuqori bosqichga erishgan deb hisoblash yoqadi, shuning uchun o'zlarini shariat qonunlariga bo'ysunmasliklari mumkin deb hisoblashadi. Ular may ichishadi, raqs tushishadi, she'r yozishadi, rasm chizishadi va ular uchun bu ishlar ShARIAT hukmlarini bajarishdan muhimroq emish. Shuningdek, ularning fikricha, islomda yuqori va quyi nufuzlarga ajratish yo'q bo'lgani uchun har bir inson Xudoni faqat o'zi anglamog'i kerak. Bir qarashda bu beg'araz gapga o'xshaydi, lekin buning ortida dinda nufuzlarga bo'ysunish bo'lmasligi kerak, degan narsa yashiringan! So'fiylarga qulqoq solsangiz, Qur'onda juda ko'p

noaniq majozlar, sirli ishoralar bor deyishadi ham. Ularning fikricha, muqaddas kitobdag'i har bir so'z oyat va butun matnning son qimmatiga mutanosib ekan; ular Xudoning payg'omini oddiy va tushunarli o'qishni qiyinlashtiradigan ishlarni qiladilar.

Ba'zi so'fiylar hatto insonni «gapiruvchi Qur'on» deb ham atashadi. Axir bu shakkoklik bo'lmay, nima? Yana darbadar yuruvchi darvishlar ham bor - ular ham behalovat musulmonlar. Qalandarlar, Haydariylar, kamiylar - turli-tuman nomlari bor. Ular hammadan ham yomon. Bir joyda o'tira olmaydigan odamdan nimani kutish mumkin? Kishida biron bir jamoaga tegishlilik hissi bo'lmasa, u xuddi shamolda uchgan quruq yaproq kabi har qanday yo'nalishda «uchishi» oson-ku! Va u shaksiz shaytonning makriga uchraydi.

Faylasuflar ham so'fiylardan tuzukroq emas. Ular o'zlarining cheklangan tafakkurlari bilan cheksiz olamni bilish mumkin deb o'ylashadi.

Men so'fiylar bilan faylasuflar o'zaro kelishuvda ekanliklarini ko'rsatadigan bir hikoyani bilaman.

Bir kuni faylasuf bilan darvish uchrashishihti va ular bir-birlariga juda o'xshar ekanlar. Ular kun bo'yi gaplashishihti, gaplari bir-birlariga aynan muvofiq ekan. Nihoyat, xayrlashganlaridan keyin, faylasuf suhbat haqida: «U men bilgan narsalarni tushunadi», degan ekan.

So'fiy esa: «Men tushungan narsalarni u biladi», degan ekan.

Demak, so'fiy tushunaman, deb o'ylaydi, faylasuf esa bilaman, deb o'ylaydi. Men esa ular hech nimani tushunishmaydi va biliшmaydi, deb o'ylayman.

Naxotki oddiy, cheklangan bandalar o'zlari uchun mumkin bo'lganidan ortig'ini bila olmasliklarini va tushuna olmasliklarini anglashlari qiyin bo'lsa? Bandasi faqatgina Xudoning borligini anglay oladi, xolos. Bo'ldi. Bizning vazifamiz Xudoning ta'limotini talqin

etish emas, unga bo'ysunishdir. Beybars uyg'a qaytganida, u bilan shular haqida gaplashamiz. Shunga odatlanganmiz. Har kuni kechasi qorovullikdan keyin xotnim tayyorlab olib kirgan sho'rvasini ichadi va biz dunyoda nimalar bo'layotgani haqida gaplashamiz. Uning ishtaha bilan ovqat yeyishi menga yoqadi. U kuchli bo'lishi kerak. Shijoatli yosh yigitga bizning xudobexabarlar shahrimizda qiladigan ish ko'p.

Shams

1244 yil, 30 oktyabr, Konъya.

Rumiy bilan uchrashuv arafasidagi uyqusiz tunda karvonsaroy mehmonxonasi dagi o'z xonamning ayvonchasida o'tiribman. Xudo yaratgan koinotning buyukligini his etib, qalbim zavqqa to'lgan. Qayoqqa qaramang, hammayoqda Uni ko'rasiz va Uni topasiz. Shu bugun o'zim uchratgan kishilarni esladim - tilanchini, fohishani, ichkilikbozni. Hayot

mushkulotlari va Undan begonalashuv tufayli azob chekayotgan oddiy insonlarni. O'zlarining fil suyagidan yasalgan qasrlarida yashovchi faylasuflar bu odamlarga e'tibor bermaydilar. Qiziq, Rumiy ham shundaylardan emasmikin? Agar shunday bo'lsa, men uni bu bebaxtlar bilan bog'layman.

Shahar asta-sekin uyquga cho'mdi. Hatto tunda uxlamaydigan hayvonlar ham tun sokinligini buzishga jur'at eta olmaydigan vaqt boshlandi. Bunday damlarda meni mislsiz qayg'u chulg'ab oladi va shahar sukunatiga quloq solaman.

Yopiq eshiklar ortida nimalar bo'layotganini va agar bu yo'lni emas, boshqa yo'lni tanlaganimda nimalar bo'lishi mumkinligini bilish menga qiziqarli. Lekin menda tanlash bo'lмаган. Yo'lning o'zi meni tanlagan.

Men bir rivoyatni eslayman. «Bir darbadar darvish begonalarni yoqtirmaydigan shaharga kelib qolipti. «Ket, - deb qichqirishihti unga. Seni bu erda hech kim tanimaydi!» Darvish esa ularga xotirjam javob beripti: «To'g'ri, lekin

men o'zimni taniyman va ishontirib aytamanki,
agar buning aksi bo'lsa yomon bo'lardi».

Hamon men o'zimni bilibman, demak,
hammasi yaxshi bo'ladi. O'zini bilgan Xudoni
biladi.

Oy nuri meni yoritdi. Yengilgina yomg'ir
yog'di, u misoli ipak ro'molning tegishi kabi
mayin edi. Buning uchun Xudoga shukrona
aytdim va barcha ishlarimda o'zimni uning
azmu irodasiga topshirdim. Yana hayotning
mo'rtligi va qisqaligi haqida o'ylab ketdim va
yana bir qoidani esladim: «Hayot bizga
omonatga berilgan. Va bu dunyo faqat
taqlidlar, haqiqiy voqelikni qayta tiklashga
urinishlardan iboratdir. O'yinchoqni haqiqiy
deb qabul qilish faqat yosh bola uchun tabiiy.
Shunga qaramay, kattalar ham yo o'yinga
berilib ketishadi, yo qadriga yetmay uni
sindirishadi, keyin esa tashlab ham
yuborishadi. Hayotda haddan oshishlarga yo'l
qo'ymaslik kerak, chunki bu ichki muvozanatni
buzadi».

So'fiylar haddan oshishlarga qarshi turishadi.
So'fiylar o'z fikrlarida va xatti-harakatlarida
hamisha vazmin.

Erta tongda katta masjidga boraman va
Rumiyning xutbasini tinglayman. U buyuk
xotib bo'lsa kerak, harholda shahar ahli shu
fikrda. Garchi va'zxonning san'ati
tinglovchilariga bog'liq bo'lsa-da, Rumiy
nutqida yulib tashlanishi kerak bo'lgan begona
o'tlar ham ko'p bo'lsa kerak. O'ziga nima kerak
bo'lsa yoki yoqsa, shuni tanlab olish tinglovchi
ixtiyorida. Agar chamanzorda chiroyli gullar
ochilib turgan bo'lsa, tikanli o'simlik- larga kim
ham e'tibor berardi. Lekin aynan shulardan
shifobaxsh dorilar tayyorlanishi haqiqatdir.
Ishq chamanzorida ham ahvol shunday
emasmi? Agar ishqda faqat go'zallik ko'rilsa-
yu, mushkulotlarga ko'z yumilsa, bu chin ishq
bo'larmidi? Yaxshidan lazzatlanish, yomonni
chetlab o'tish oson. Lekin buning aksi bo'lishi
ham mumkin. Haqiqiy muammo - yaxshini
ham, yomonni ham seva olishda va bu yaxshi

bilan birga yomonni ham qabullash uchun emas, balki ishqni butunligicha qabul qilish uchun kerak.

Yana bir kun o'tdi, men o'z do'stim bilan tashishimga juda yaqin qoldi. Uxlay olmayapman.

O, Rumi!

Meni ko'rganingda taniy olarmikinsan?

Meni tanigin!

Rumi

1244 yil, 31 oktyabr, Konъya.

Shams Tabriziyni uchratgan kunimga shukronalar bo'lsin! Bu Aqrab oyining so'nggi kuni bo'lib, kuz o'tib ketayotganini bildiruvchi salqinlik tushgan va shamol odatdagidan kuchliroq esa boshlagan edi.

Masjidda, odatdagidek, ko'p odam to'plangan. Ko'pchilik oldida xutba o'qiganimda, odamlarning yuzlariga uncha e'tibor bermaslikka harakat qilaman. Qarshimdagi

tinglovchilarni turli qiyofalarda gavdalangan omma deb emas, yaxlit bitta odam deb tasavvur etaman. Har hafta meni tinglash uchun yuzlab odamlar keladi, lekin men faqat bitta odam bilan so'zlashaman - qalbi so'zlarimga aks sado berayotgan va meni hammadan yaxshi biladigan bitta odam bilan. Masjiddan qaytishda meni otim kutib turadi. Uning yollari taralgan, tilla va kumush qo'ng'iroqchalar qo'shib o'rilgan. Ot yurganda ularning jiringlashi menga yoqadi. Lekin atrofimda odamlar ko'pligidan juda sekin yurishga to'g'ri keladi. Otim somon tomli kulbalarni ortda qoldirib, bir maromda qadam tashlayapti. Arz qiluvchilarning chaqiriqlari bolalarning baqir-chaqirlari va tilanchilarning nolayu fig'onlari bilan aralashib ketgan. Ularning ko'pchiligi duotalablar, boshqalari esa shunchaki birga yurishni istovchilar. Lekin menga juda katta umid bilan kelganlar ham bor. Ular meni shifo baxsh eta oladi yoki yomon nazarlardan xalos etadi, deb o'ylashadi.

Ularni ko'rish menga azob beradi. Axir men payg'ambar emasman va donishmand ham emasman, nahot tushunishmasa? Mo"jiza ko'rsatishga kuchim etmasligini nega tushunishmaydi?

Muyulishga yetgach va «Shirinliklar savdosi» mehmonxonasisiga yaqin kelib qolganimizda menga ko'zlarini tikkancha, omma orasini yorib, men tomon kelayotgan darbadar darvishga ko'zim tushdi. Uning harakatlari chaqqon va aniq edi, nazarimda, undan o'ziga bo'lgan ishonch yog'ilib turardi. Sochlari yo'q. Soqoli yo'q. Qoshi yo'q. Ammo garchi chehrasi ochiq esa-da, yuzidan hech nimani o'qib bo'lmas edi.

Uning tashqi ko'rinishi meni qiziqtirib qo'ydi. Uzoq yillar mobaynida men Konъyada Xudo izlab yurgan turli darvishlardan ko'pini ko'rganman. Ba'zilari badanlariga rasm chizgan, ko'pchiligi quloqlari, burunlariga sirg'a taqqan bo'ladi; ular badanlariga «g'alati» yozuvlar yozishni yoqtirishardi. Ba'zilari soch

o'stirishardi, ba'zilari esa taqir qilib qirishardi. Ba'zilari hatto tillari va ko'kraklarini teshgan bo'lishadi. Bu darvishni ko'rganimda uning tashqi ko'rinishidan hayron bo'lmadim. Meni uning tim qora ko'zlari hayratga soldi. U butun borlig'imga singib kirayotgan nigohini mendan uzmagan holda, yo'l o'rtasiga turib oldi va nafaqat bizning yurishimizni, balki vaqtning o'zini ham to'xtatishni istaganday, qo'llarini baland ko'tardi. Meni kimdir bir turtganday bo'ldi. Minib turgan otim bezovtalandi va goh boshini ko'tarib, goh tushirib kishnay boshladi. Men uni tinchlantirishga harakat qildim, lekin ot o'zimning ham asablanayotganimni his qilayotganday edi.

Darvish sakrab irg'ishlayotgan ot yoniga keldi va qulog'iga nimalarnidir sekin pichirladi. Ot og'ir nafas ola boshladi, lekin darvish bir qo'l siltagan edi, o'sha zahoti tinchlandi. Olomon hayajonda to'lqinlandi va men kimdir «Afsun!» deganini eshitdim.

Darvish hech kimga e'tibor bermasdan,

qiziqsinib meni kuzatar edi.

- Ey, Mashriqu Mag'ribga taniqli buyuk olim, men ta'rifingizni ko'p eshitaman, shuning uchun bugun qoshingizga keldim, agar ruxsat etsangiz sizdan so'raydigan bir savolim bor edi.

- So'rang, - dedim men sekingina.

- Ammo siz avval otdan tushsangiz va men turganday yerda tursangiz yaxshi bo'lardi.

Darvishning bu gapi meni shunchalar taajjublantirdiki, hatto bir necha daqiqa unga biron so'z ham ayta olmadim. Yon atrofdagi odamlar esa orqaga tislanganday bo'lishdi.

Hech kim menga bunday iltimos bilan murojaat qilishga jur'at eta olmagan edi.

Yuzim qizarib ketdi va zo'riqishdan ichimda hamma narsa tarang tortildi, ammo o'zimni tutib olishga va otdan tushishga kuchim yetdi. Bu vaqt ichida darvish orqasini o'girdi va nari keta boshladи.

- Hoy, iltimos, shoshmang! - chaqirdim men uning orqasidan yetib olarkanman. - Men savolingizni eshitishni istayman.

Darvish to'xtadi va menga burilib, ilk bora tabassum qildi.

- Yaxshi. Unda ayting, kim ustun deb o'ylaysiz, Muhammad payg'ambarmi yoki so'fiy Bistomiymi?

- Bu ne savol bo'ldi! - xitob qildim men. - Qanday qilib Payg'ambar (s.a.v.)ni allaqanday so'fiy bilan solishtirish mumkin?

Yaqinimizga qiziquivchilar zichroq to'plandi, lekin darvish ularni umuman parvoyiga ilmadi. U mening qiyofamni yanada e'tiborliroq o'rgana turib, boyagi savolini takrorladi:

- Iltimos, yaxshiroq o'ylab ko'ring. Axir nima uchun Muhammad (s.a.v.) «Yuragimni zang bosib, egamning oldida har kuni yetmish karra tavba qilaman», deydi-yu, Boyazid esa: «Men o'zimdagi har nechuk qusurlardan xalos topdim. Jismimda Xudodan bo'lak hech narsa qolmadi», - deb bong uradi?

Mening yuragim hapqirib ketdi. Bu notanish kimsa dag'allikka dag'al edi-yu, ammo anoyilardan emas edi. Aftidan, u ham men

bosh qotirgan masalada, ya'ni haqiqatning mustaqilligiyu, bilimlarning nisbiyligi xususida bosh qotirgan ko'rindi.

- Siz nima demoqchi ekaningizni tushundim, - dedim men, - ovozimdagи titroqni yashirmsdan. - Nima uchunligini men sizga aytaman, zero garchi Bistomiyning so'zlarida iftixor bor esa-da, ularda beqiyos buyuklik yo'q.

- Davom eting.

- Gap shundaki, Xudoning mehru muhabbat - bepoyon ummon va har bir inson undan iloji boricha ko'p suv olishga intiladi. Ammo kun nihoyasida olingan suv idishning sig'imiga bog'liqligi ma'lum bo'ladi. Kimdir suvni doshqozonga soladi, kimdir chelakka, kimdir esa piyolasiga.

Bularni gapirayotganimda darvishning yuzida sodir bo'layotgan o'zgarishlar mendan pinhon qolmadi: avval sezilar-sezilmas istehzo, undan mening haqligimni tan olish, suhbatdoshi so'zlarida o'z fikrlarini tanish ifodasi bo'lgan

mayin tabassumga o'tishga qadar.

- Bistomiyning idishi nisbatan uncha katta bo'lмаган va bu uning chanqovi qonishi uchun yetarli bo'lган,

- davom etdim men. - U o'zicha baxtli bo'lган.

Va uning o'z muqaddasligini anglagani juda soz, lekin shunda ham u bilan Xudo orasida u bosib o'tilmagan katta maso-fa bor. Xudo saylagan Payg'ambar (s.a.v.)ning idishlari esa beqiyos katta hajmli bo'lган. Shuning uchun ham Xudo u zotdan: «Biz sening qalbingni ochmadikmi?» deb so'ragan. Ul zotning qalblari kengaytirilgan, idishlari katta bo'lган, chanqovlari tobora ortib boravergan. Va «Biz Seni bilishimiz kerak bo'lganchalik bila olmaymiz» deb bejiz aytmaganlar. Garchi ul zot U haqida hech kim bilmaganlarni bilgan bo'lsalar ham.

Darvishning yuzi tabassumdan yorishib ketdi. U bosh irg'itdi va menga tashakkur bildirdi. Keyin chuqr minnatdorlik belgisi o'larоq qo'lini ko'ksiga qo'ydi va birmuncha vaqt shu

holatda turdi. Ko'zlarimiz yana uchrashganda, men uning ko'zlaridagi mehrni payqadim. Men olis atrofga qaradim. Shahar, yilning odatdagi shu fasliga muvofiq ravishda kumushdur rangida edi. Oyoqlarimiz ostida qurigan yaproqlar aylanardi. Darvish menga qiziqsinib qarab turardi, botayotgan kuyosh nurida bir daqiqagina uning asalrang aurasi ko'rini ketganday bo'lди menga.

U menga odob bilan ta'zim qildi. Men ham unga ta'zim qildim. Biz bir-birimiz bilan yuzma-yuz qancha turib qolganimizni bilmayman. Osmon binafsharang tusga kirdi. Oxiri bizni kuzatib turgan olomon bezovtalana boshladi. Hamshaharlarim mening kimgadir ta'zim qilganimni shu choqqacha ko'rishmagan edi, qayoqdagi oddiy darbadar darvishga ta'zim qilganim esa eng yaqin do'stlarimdan tortib xiylagina ko'pchilikning jig'iga tegdi chog'i. Darvish muhitdagi taranglashuvni payqadi chog'i.

- Sizni muxlislarining bilan birga qoldirib,

ketar vaqtim bo'lgan ko'rindi, - dedi u ipakdek mayin ovozda va deyarli shivirlab.

- Shoshmang, - iltimos qildim men. - Iltimos, ketmang. Qoling!

Uning yuzidan lip etib xayolchanlik ifodasi o'tdi, lablari nimanidir aytishni istaganday juftlandi, lekin ayta olmadi yoki aytishi mumkin emas edi, shekilli. Va men shu daqiqa qaerdandir uning menga bermoqchi bo'lgan savolini ilg'adim: «Buyuk xotib, Siz- dan so'rasak-chi? Sizning idishingiz sig'imi qanchalik katta?»

Boshqa aytildigan gap qolmagan edi. So'zga o'rin yo'q edi. Men darvish sari bir qadam yurdim, keyin unga shunchalik yaqin keldimki, hatto tim qora ko'zlaridagi tillarang tomchilarni ham ko'rdim. Meni to'satdan g'alati tuyg'u chulg'ab oldi: nazarimda, bu onlarni birinchi marta boshdan kechirmayotgan edim. Bu nafaqat birinchi, balki hatto o'ninchi marta ham emas edi. Men xotiramni titkilay boshladim. Yuzi yopiq, baland bo'yli, ozg'in, barmoqlari

yonadigan kishi. Va nihoyat angladim.
Ro'paramda turgan darvish, o'sha men o'z
tushlarimda ko'rgan odamning o'zi edi.
Va men o'zimga kerakli odamni topganimni
tushundim. Lekin baxtdan quvonish o'rniliga
qo'rquvdan titra ketdim.

Ella

2008 yil, 8 iyun, Nortgempston.

Ellani o'zining Aziz bilan yozishuvlarida
hamon hayron qolarli narsa - bu avvalo
yozishuvlarning o'zi, degan xulosaga keldi.
Ular barcha jihatlarda bir-birlaridan katta farq
qilar edilar va maktublarning buncha tez
almashinushi g'alati edi.

Aziz uning uchun har bo'lagi birma-bir to'ldirib
boriladigan «pazl» kabi edi.

Navbatdagi har bir maktub yaxlit manzarada
o'z o'rnini egallab borardi. U manzarani hali
to'liq ko'rmagan, lekin nima uchunligini bilmay
turib ham, o'zi xat yozishayotgan bu noma'lum

insonda bir qancha muhim narsalarni kashf etgan edi. Azizning blogidan unga Azizning kasbi fotograf ekani, dunyoning eng olis chekkalariga borib kelishni o'z uyi yonidagi bog'ga sayrga chiqib kelishday tabiiy, deb hisoblaydigan otashin sayohatchi ekani ma'lum bo'ldi.

Tabiatan tinib-tinchimas ko'chmanchi bu inson qayerga - Sibirgami, Shanxaygami, Kalkuttagami, Kasablankagami - bormasin, hammasi unga o'z uyidek edi. Orqasida ryukzagi va qo'lida fleytasi (naysimon muzika asbobi) bilan sayohat qilarkan, Ella xaritada zo'rg'a topadigan yerlarda ham o'ziga do'stlar topardi. Na qattiqxo'l chegarachilar, na viza berishni istamaydigan hukumatlar, na ekzotik (uzoq mamlakatlardagi) parazitlar, na yeb bo'lmas taomlar, na o'g'rilar - hech nima - Azizni dunyoning barcha tomonlariga sayohatga borish yo'lini to'sa olmas edi. Ella Azizni boshqarib bo'lmas sharsharaga o'xshatdi. Ella o'z uyidan bir qadam tashqariga

chiqishga ham qo'rqlas, u hammayoqni portlata oladigan tabiat egasi edi. Agar Ella yangi ish boshlashga shoshmaydigan va o'zida jur'at topa olmaydigan odam bo'lsa, u, aksincha, oldin ishni qilib, keyin pushaymon bo'lishi mumkin edi, agar pushaymon bo'lsa, albatta. Garchi Azizda g'oyaviylik va otashinlik kuchli esa-da, u chinakamiga tirik, hayotiy inson edi. Ella o'zini liberal-demokrat deb, garchi senagoga bormasa-da, yahudiy diniga mansub deb, go'sht yemaydigan parhezkor deb hisoblar edi. O'z ichki dunyosini, hayotining barcha muhim pallalarini, xuddi o'z xonardonini qanday tartiblashtirgan bo'lsa shunday yaxshilab va botartib qilib, tushunchalarga ajratib chiqqan edi. Qolaversa, uningcha hozirgi davrda ham, oldingi davrlarda ham dunyodagi, dindagi asosiy muammo bir dinni boshqasidan afzal o'ringa qo'yilishida edi. U fanatizmdan nafratlanardi, lekin yuragining tubida islom fanatlarini boshqalarning barchasidan yomonroq hisoblardi.

Azizning esa ma'naviyati yuksakligi aniq va dindorligi ham ravshan edi. U 1979 yili islomni qabul qilgan bo'lib, buni «Karim Abdulla Jabbordan keyin va Ket Stivensdan oldin» qilganini hazil aralash tan olar edi. (Karim Abdulla Jabbor, tug'ilgandagi ismi

- Ferdinand Lyuis Alsindor, 1947 yil tug'ilgan - taniqli amerika basketbolisti.) Basketbol tarixida eng yaxshi o'yinchilardan biri bo'lgan, deb hisoblana- di. (Ket Stivens - tug'ilgandagi ismi Stiven Demetr Giorgiu, 1978 yil tug'ilgan. Islomni qabul qilgach, ismi Yusuf Islom, deb o'zgartirilgan ingliz shoiri va ashulachisi.) Lekin bu uning turli mamlakatlardagi har xil dinlarga sig'inuvchi odamlar bilan munosabatda bo'lishiga va ularning hammalarini «Illoh huzuridagi o'z yoru birodarlari» deya e'lon qilishiga halal bermas edi.

Insonparvarlik qarashlari yorqin, qat'iy pasifist (urushga qarshi turuvchi) Aziz dinlar orasidagi farq, mohiyatan faqat «lingvistik (ya'ni

tillarning turliligi bilan bog'liq) muammo» deb biladi. Til haqiqatni yoritishdan ko'ra ko'proq berkitadi va natijada odamlar bir-birlarini tushuna olmaydilar, deb hisoblaydi.

Tushunmovchiliklar bilan yo'g'rilgan bu dunyoda hech bir suhbatdoshga qat'iy ishonib bo'lmaydi, chunki eng kuchli ishonch ostida ham tushunmovchiliklar to'lib yotgan bo'lishi mumkin.

Aziz va Ella vaqtning turli mintaqalarida yashashadi. Va bu lug'aviy ma'noda ham, majoziy ma'noda ham shunday edi. Ella uchun vaqt avvalo keljakni bildirardi. Uning hayotida kelgusi vaqtlarga - kela-si yilga, kelasi oyga, ertaga, hattoki keyingi soatga oid rejalar muhim o'rinni egallaydi. Masalan, magazinga yoki ustaxonaga borish kabilarni Ella oldindan belgilab qo'yadi va hamisha sumkasida ustaxonalarning ish soatlari va sotib olinishi kerak bo'lgan narsalarning ro'yxatlarini bo'ladi.

Aziz uchun esa vaqt faqat HOZIR ko'rinishida

mavjud, qolgan hammasi sarob. Shuning uchun u ishq «ertaga oid reja» bilan yoki «kechagi kun xotirasi» bilan sira bog'liq emas, degan qat'iy fikrda edi. Ishq faqat shu yerda va faqat hozir bor bo'lishi mumkin. Dastlabki elektron xatlaridan biri yakunida u: «Men so'fiyman, HOZIRning farzandiman» deb yozgan edi. “O’z fikrlarida juda qo’p vaqtini o’tmishga va undan ham ko’pini kelajakka bag’ishlaydigan, ammo hech qachon HOZIRda yashamaydigan ayol uchun bu so’zlar g’alati tuyulardi», - deb javob bergen edi unga o’shanda Ella.

Alovuddin

1244 yil, 16 dekabrь, Konъya.

O'rtoqlarim bilan kiyik oviga ketgandik, shuning uchun darvish otamning yo'lini to'sib chiqqanida men shaharda emas edim. Ertasi kuni qaytgan edim. Shu vaqt ichida otamning Shams Tabriziy bilan uchrashuvlari tillarda

doston bo'lipti. Bu darvish kim o'zi, nima uchun Rumiydek alloma unga shunchalik jiddiy munosabatda bo'ldi va unga hatto ta'zim ham qildi, deya odamlar hayron edilar.

Bolaligimdan boshqa odamlarning otamga tiz cho'kkanlarini ko'rishga o'rganganman, lekin otamning shoh yoki buyuk vazirdan boshqa kimgadir tiz bukib ta'zim qilishini tasavvur ham qilmagan edim. Shuning uchun sira yolg'on gapirmaydigan va hech nimani bo'rttirib gapirmaydigan o'gay onam butun voqeani boshidan oxirigacha ro'y rost hikoya qilib bermagunicha, bu gaplarga ishonmadim. Xullas, gap-so'zlar rost ekan. Shams Tabriziy degan darbadar darvish chindan ham tumonat odamlar orasida otamga savol bergen ekan va eng ajablanarlisi, u endi bizning uyimizda dam olayotgan edi.

Tomdan tarasha tushganday, hayotimizga kirib kelgan bu begona odam kim o'zi? Men uni o'z ko'zlarim bilan ko'rmoqchi bo'ldim va Kiradan so'radim:

- Qani o'sha kishi?
- O'zingni bos, - pichirladi xavotir bilan Kira. - Otang darvish bilan kutubxonada o'tirishipti. Bizga ularning ovozlari eshitilardi-yu, lekin so'zlarini ilg'ab bo'lmas edi. Kutubxona eshigini ochmoqchi bo'lib intildim, lekin Kira meni to'xtatdi:
 - Menimsa, sabr qilishingga to'g'ri keladi. Ular hech kim bezovta qilmasligini iltimos qilganlar.

Otam bilan darvish kun bo'yi kutubxonadan chiqishmadi. Ertasi kuni ham shunday bo'ldi. Ular nima haqida bunchalik uzoq gaplashayotgan bo'lishlari mumkin? Otamdek inson bilan bu oddiy darvish orasida qanday yaqinlik bo'lishi mumkin?

Bir hafta, ikki hafta o'tdi. Har kuni ertalab Kira nonushta tayyorlar va patnisda kutubxona eshigi yoniga qo'yib ketar edi. Ularga har qancha tansiq taom taklif qilinmasin, ertalab bir burda non va kechqurun bir piyola echki sutidan boshqasini rad etishardi.

Shu vaqt mobaynida mening ko'nglimga qandaydir noxush xayollar kelar edi. Ertayu kech kutubxonaga bir qarash uchun yo'l qidirardim. Ular eshikni birdan ochib qolishsa, mening yashirincha gaplariga qulq solib turganimni bilib qolishsa, nima bo'lishi mumkinligini o'ylab ham o'tirmasdan, butun vaqtimni o'sha yerda, nimalar ni gaplashayotganlarini bilishga urinib o'tkazdim. Lekin aniq gaplar o'rniqa faqat g'o'ng'illagan ovozlar kelardi. Ichkarini ko'ra olmas edim ham. Pardalar tortib qo'yilgani uchun u yer g'ira-shira ko'rinardi, xolos.

Bir kuni Kira meni kutubxona oldida shu alfozda ko'rib qoldi, lekin hech nima demadi. Lekin bu safar u uyda nimalar bo'layotganini mendan ham ko'ra ko'proq bilgisi kelayotgani aniq edi. Ayollar odatda o'z tabiatlaridagi qiziquvchanlikni uzoq tiyib tura olmaydilar. Akam Sultan Valad mening eshik oldida gap poylab turganimni ko'rib qolgach, butkul boshqacha munosabatda bo'ldi. Qattiq

xo'mraydi va menga ko'zlaridan o't chaqnatib qaradi.

- Odamlar ortidan, ayniqsa, o'z otamiz ortidan poylashga qanday hadding sig'di, - ta'na qildi u. Men yelka qisdim.

- Aka, to'g'risini ayting, nahotki siz otamizning butun vaqtlarini qayoqdag'i begona odam bilan o'tkazayotganlaridan bezovtalanmayotgan bo'lsangiz? O'z oilalarini butkul unutganlariga bir oydan oshdi. Bu sizni xafa qilmayaptimi?

- Otamiz bizni unutmaydilar, - javob qildi akam.

- Ular Shams Tabriziydek do'st topdilar. Sen esa, yosh boladay hiqillaguncha, otam uchun xursand bo'lsang yaxshi bo'lar edi. Agar sen uni chindan yaxshi ko'rsang, albatta.

Faqat akam shunday gaplarni ayta oladi. Lekin men uning g'aroyib fe'liga o'rganib qolganman va undan xafa bo'lmadim. Sultan Valad hamisha itoatkor bola bo'lgan, oilamiz, qo'ni-qo'shnilarimiz va tabiiyki, otamiz uchun ham suyukli.

Otam va darvish kutubxonamizga bekilib olganlaridan keyin qirq kun o'tgach, g'alati g'ayrioddiy hodisa yuz berdi. Men keyingi vaqtda odatlanganimday, eshik ortida gap poylab turardim. Birdan sukunat cho'kdi va men kutilmaganda bu sukunatda darvishning ovozini aniq eshitdim:

- Biz bu yerda suhbatlashayotganimizga qirq kun bo'ldi. Har kuni Ishqning qirq qoidasidan birini muhokama qildik. Va endi kutubxonani tark etsak yaxshi bo'lardi, deb o'ylayman. Ikkimizning bu yerga bekinib olganimiz sening yaqinlaringni xafa qilayotgan bo'lishi kerak.
- Xavotir olmang, - e'tiroz qildi otam. - Xotnim va o'g'illarim mening bekilishim sababini tushunadigan kap-katta odamlar.
- Xotiningiz haqida men hech nima bilmayman, lekin o'g'illaringiz xuddi tun bilan kun kabi bir-birlaridan juda farq qilishadi. Katta o'g'lingiz sizga itoatli, lekin kichigining tuyg'ulari boshqacha, deb qo'rqaman. Uning qalbini alam va hasad qoraytirgan.

Jahldan qonim boshimga urildi. Meni hatto bir marta ham ko'rmay turib, men haqimda bunday deyishga qanday haddi sig'di?

- U meni bilmaydi, deb o'ylaydi, lekin men uni bilaman, - davom etdi biroz sukutdan keyin darvish. - U meni eshik tirqishidan kuzatayotganida, men ham uni kuzatdim. Orqam muzdek bo'lib jimirlab ketdi va sochlarim tik turdi. Hech nima o'ylab o'tirmay, eshikni siltab ochdim va kutubxonaga kirib keldim. Otamning ko'zlari hayratdan dum-dumaloq bo'lib ketdi, lekin tez orada hayratning o'rnini g'azab egalladi.

- Alovuddin, sen jinni bo'ldingmi? Bizni bezovta qilishga qanday jur'at etding?

- Siz avval undan nima uchun men haqimda bunday deganini nega so'ramaysiz? - xitob qildim men.

Otam bir so'z ham aytmadı. U mening bu yerdaligim yelkasiga og'ir yuk bo'lib tushganday, menga qarab turar va og'ir nafas olardi.

- Ota, iltimos. Kira sizni ko'rishni istaydi. Shogirdlaringiz ham. Nimaga siz qandaydir iflos darvishni deb sizni yaxshi ko'radigan olamlardan yuz o'girayapsiz? Shu so'zlarni aytdim-u, o'sha zahoti aytganimga pushaymon bo'ldim, lekin juda kech bo'lgan edi. Otam menga qarab turar va uning ko'zlarida mendan ko'ngli qolgani ko'rinish turardi. Men hech qachon uni bu alfozda ko'rmagan edim.
- Alovuddin, marhamat qilginda, hoziroq kutubxonadan chiq, - dedi otam. - Biron tinch joyga borginda, qilgan ishing haqida o'ylab ko'r. O'z qalbingga nazar solmaguningcha va xatoingni tushunmaguningcha, menga gapirma.
- Lekin, ota...
- Chiq! - takrorladi otam va menga orqasini o'girib oldi.
Yuragim qattiq siqildi, oyoqlarimda zo'rg'a turgancha kutubxonadan chiqdim.
O'sha ondan boshlab men hayotimiz o'zgarganini va endi hech qachon avvalgiday

bo'lmasligini tushundim. Onam vafotidan sakkiz yil o'tgach, ikkinchi marta yaqin insonim meni tashlagan edi.

Rumiy

1244 yil, 18 dekabrъ, Конъя.

«Botin Alloh - aqlimdan pardani ko'targil, toki men Haqiqatni bilgayman».

(Botin Alloh - Xudoning ko'rinas (sezilmash, no-moddiy, shakllanmagan, nonamoyon) borlig'i.

Shame Tabriziy menga Muhammad (s.a.v.) va so'fiy Bistomiy haqidagi savolni bergenida, menga birdan yer yuzida faqat ikkalamiz qolganday tuyulib ketdi. Ikkimizning ham qarshimizda Haqiqat sari yo'lning yetti bosqichi - Xudo bilan bog'lanishga erishmoqlikda har bir inson «men»i yengib o'tishi kerak bo'lgan yetti maqom, yetti taraqqiyot bosqichi namoyon bo'ldi.

1. Birinchi bosqich Buzilgan Yolg'on Men -

inson joni faqat dunyoviy istaklarni qondirish yo'llarini axtaradigan eng tuban va eng keng yoyilgan bosqich. Ko'pchilik odamlar o'zlarining shu «men»larini deb azob-uqubatlar chekar va uni qanoatlantirishga urinar ekanlar, shu bosqichdan nariga o'ta olmay to'xtab qoladilar va hamisha o'z omadsizliklari, baxtsizliklarida faqat boshqalarni aybdor hisoblaydilar (Nafsi Ammora). Inson qachon o'zining bu «men»ining tubanligini tushunsa, o'zining bu holati ustida ishlay boshlaydi va muayyan ma'noda bu bosqichdagi fe'liga qarshi bo'lган ikkinchi bosqich (ikkinchi maqom)ga o'tadi.

2. Bu bosqichdagi inson birovlarini ayblash o'rniغا o'zini ayblashga o'tadi. Shunda uning xudbinona meni (EGOsi) o'zini ayblovchi Menlik bosqichiga o'tadi va u ichki poklanish maqomiga ko'tariladi (Nafsi lavvoma).

3. Uchinchi bosqichda inson joni (ruhiy quvvati, ma'naviyati) birmuncha kuchayadi va uning xudbin meni yo'q bo'lib, o'rnini

Mayinlashgan Men oladi. Shunda inson Ma'rifat Vodiysiga etib kelgan bo'ladi. Bu bosqichda unda (shu bosqich uchun zaruriy] sabr, qat'iyat, zakovat va royishlik zaxirasi to'plangan bo'ladi. Olam uning uchun ilhomga to'lib toshadi. Bu bosqichga yetganda ko'pchilik yanada ilgarilab borish istagini yoki jasoratini yo'qotib, shu pog'onada to'xtashga moyil bo'ladilar. Shuning uchun bu bosqich, garchi juda chiroyli ko'rinsa-da, olg'a intiluvchi inson uchun qopqonga aylanishi mumkin (Nafsi mutmaina).

4. Yo'lda davom etuvchilar esa Tinchlangan Men (Nafsi rizoiya) maqomiga yetadilar. Saxovat, shukronalik va hayotning o'zlariga bog'liq bo'lмаган barcha qiyinchiliklarga rozilik nazari bilan qarash - shu bosqichga yetgan insonning asosiy xususiyatlaridir. Bu Birlik Vodiysidir. Bu maqomdagilar Xudo ularga nimaiki ravo ko'rsa, shunga rozi bo'lib va ilhomlanib yashaydilar.

5. Bu maqomga yetganlar dunyoviy quvonch

va qiyinchiliklarga befarq bo'lib qoladilar. Ularning «Men»i Qanoatlangan Men bo'ladi (yoki «Nafsi mulhama», ya'ni ilhomlangan nafs ham deyiladi).

6. Keyingi maqom - Yordam berishga hamisha tayyor turadigan Men (Nafsi mardiya). Bu maqom egalari odamlar uchun nur manbaiga aylanadilar, qaqiqiy Ustozlar sifatida boshqalarga ilm, ma'rifat baxsh etib, o'z (ruhiy) quvvatlarini hammaga taratadilar. Ular qayerga bormasinlar, o'sha yerda odamlar hayotini tubdan o'zgartiradilar. Nimaiki ish qilmasinlar, Qanday kasb bilan mashg'ul bo'lmasinlar, baribir, atrofdagilarga xizmat ko'rsatish vositasida Xudoga xizmat qiladilar.

7. Nihoyat, inson yettinchi bosqichga etganida, uning Shaxsi Men (Asl Men)ga aylanadi, o'zi esa, so'fizm nazariyasiga ko'ra, komillikka erishadi, ya'ni INSONI KOMIL bo'ladi. Ammo bu maqom haqida hech nima ma'lum emas. Bunga erishgan ozchilik insonlar bu borada hech nima

gapirmaydilar.

Xudoga olib boradigan yo'l bosqichlarini ta'riflab berish oson, lekin bu yo'lni bosib o'tish qiyin. Birinchi bosqichdan yettinchi bosqichga qadar bosib o'tilishi kerak bo'lgan yo'l boshidan oxirigacha sermashaqqat va chigal. Hamisha orqaga qaytish xavfi bor, hatto eng yuqori bosqichdan eng quyisiga tushib ketish ham mumkin. Yo'lda tuzoqlar ko'p, juda ozchilik kishilar komillik bosqichiga erishganlari beziz emas.

Shams menga o'z savolini bergenida, uni Payg'ambar ta'limoti bilan so'fiyning fikrlarini solishtirish qiziqtirgan emas, bu tushunarli. U Xudoni bilmoq uchun men o'z shaxsimni qanday rivojlantirayotganimni bilishni istagan.
- Sizning ishlaringiz qanday, buyuk va'zgo'y? - so'ramoqchi bo'lgan Shams Tabriziy. - Yetti bosqichdan qaysi biridasiz? Nima deb o'ylaysin, olg'a yurishga, bu- tun yo'lni oxirigacha bosib o'tishga kuchingiz etadimi?

Ayting-chi, sizning idishingiz qanchalik katta?

Kira

1244 yil, 18 dekabrъ, Konъya.

Taqdirga to'nkashning foydasi yo'q. Lekin men, Rumiy bilan Shams kutubxonaga berkinib olib, ertayu kech suhbatlashishayotgan ilohiyotshunoslik, tarix va falsafaga oid masalalarda ojizligimdan afsusdaman. Vaqtivaqt bilan ayol bo'lib tug'ilganim uchun isyon ko'targim keladi. Qiz bolani odatda ovqat pishirish, uy-joyni batartib saqlash, kir yuvish, bola parvarishlari kabi ishlarga o'rgatishadi. Ba'zi qizlarni esa sevish san'atiga ham o'rgatishadi. Vassalom. Hech kim uni kitob o'qishga yo'llamaydi.

Turmushimning birinchi yili men Rumiy kutubxonasiga kirishning barcha imkoniyatlaridan foydalanganman. U yerda Rumiy juda yaxshi ko'rgan kitoblar orasida o'tirar, ularning changi va mog'or isidan nafas

olar, ularda nima sir yashiringanini tushuna olmas edim. Ko'pi rahmatli otasi Bahouddin Valaddan meros bo'lib qolgan bu kitoblar Rumiyning jonu dili ekanini bilardim. Eng yaxshi ko'rgan kitobi «Maorif» edi, albatta.

- Menga bular evaziga bir g'aram tillo taklif qilsalar ham, hech kimga aslo bermagan bo'lardim, - der edi Rumiy. - Har biri - ajdodlarimizdan qolgan beba ho meros. Menga ular otamdan meros qolgan va men ularni o'z o'g'illarimga qoldiraman.

Men kitoblar uning uchun qanchalar katta qimmatga egaligini yaxshi tushunib etdim. Turmushga chiqqanimning birinchi yili edi, bir kuni kutubxonani changdan tozalashga jazm qildim. Tokchalardagi hamma kitoblarni oldim va jildlarini gulobga botirilgan duxoba latta bilan artib chiqa boshladim. Bizning tomonlarda Kebikek nomli bir kichkina jin kitoblarning buzilishidan huzurlanadi, deb hisoblashadi. Uni haydash uchun har bitta kitob ichiga: «Qimirlama, Kebikek, bu kitobdan nari

ket!» deb yozib chiqish kerak deyishardi. Erimning kitoblaridan nafaqat Kebikek, balki men o'zim ham nari ketishim kerakligini u vaqtda qayoqdan bilibman?

O'sha kuni men kutubxonaning barcha kitoblaridan mahrum bo'lgandim. O'shanda ish orasida G'azzoliyning «Ihyo ulumid-din» kitobini o'qiyotgan edim, orqadan erimning ovozi eshitilganidan keyingina, kutubxonada juda uzoq qolib ketganimni tushundim.

- Kira, sen bu yerda nima qilayapsan?

Bu Rumiy edimi, har holda bu odam Rumiyning ovozi edi, lekin ovoz o'zgarib qolgan, tashqi ko'rinishi ham erimnikidan ancha jiddiy edi. Sakkiz yillik nikohimiz mobaynida u faqat bir marta, o'shanda menga ovozini ko'targan edi.

- Changlarni artayapman, - shivirladim men.

- Tushundim, - dedi Rumiy, - lekin, iltimos, hech qachon kitoblarimga tegma. Yaxshisi, sen bu xonaga boshqa umuman kirmasang, sendan minnatdor bo'lardim.

Shundan buyon men hatto uyda yolg'iz qolganlarimda ham kutubxonadan uzoqroq yurardim. Kitoblar dunyosi hech qachon meniki bo'l maganini va bo'l masligini tushungan, qabul qilgan edim.

Lekin uyimizda Shams Tabriziy paydo bo'lgach va ular erim bilan kutubxonaga kirib berkinib olishgach, ichimda norozilik qaynayotganini sezdim. Men borligini avvallari payqamay yurgan eski yaram ochilib, qonay boshlagan edi.

Kimyo

1244 yil, 20 dekabrь, Konya.

Ota-onam o'qimagan, omi odamlar edilar. Men ularning og'ir mehnatlarini va erta qariganlarini ko'rganman. Rumiy meni asrab olganida o'n ikki yoshda edim. Ungacha men Taurus tog'lari etagi vodiysida kichkina uyda yashardim, men singlim bilan o'lgan aka-ukalarimiz va opasingillarimiz arvochlari bilan bir xonada

istiqomat qilardik. Oilamizda faqat men arvochlarni ko'rар edim. Har safar bu haqida aytganimda singlim qo'rqar, onam esa yig'lar edi. Men ulardan qo'rqish kerakmasligini, ular baxtiyor yurganlarini tushuntirishga qancha urinmay, ular menga ishonishmas edi. Oilamizdagilar meni tushunishmas edi.

Bir kuni qishlogimiz yonidan darbadar daydi o'tib qoldi. U juda holdan toyganini ko'rib, otam uyimizga yotib qolishga taklif qildi. Kechqurun hammamiz echki pishlog'i qovurilayotgan o'choq yonida o'tirganimizda, darbadar olis yurtlarda ko'rganlari haqida g'aroyib qikoyalar aytdi. Ko'zlarimni yumib uni tinglar ekanman, go'yo Arabiston sahrolarida sayohat qilib yurardim. Shimoliy Afrikadagi beduinlarning chaylalarini va O'rtayer dengizi deb atalgan ulkan ko'm-ko'k dengizni ko'rdim. Qирг'oq bo'y lab yurar ekanman, buramasimon chig'anoq uchradi, uni olib cho'ntagimga soldim. Men qирг'oq bo'y lab yana sayr

qilmoqchi edim, lekin chidab bo'lmas qo'lansa is meni keskin to'xtatdi.

Ko'zimni ochganimda, yerda yotgan edim, oilamizdagilar hammasi qo'rqb ketishgan, atrofimda turar edilar. Onam bir qo'lini boshim ostiga qo'ygan, ikkinchisida, burnim ostiga tutish uchun yarimta piyoz ushlab turardi.

- Hushiga keldi! - qichqirdi singlim xursandligidan va chapak chalib yubordi.

- Xudoga shukur, - dedi onam xo'rsinib va yo'lovchiga o'girildi. - U bolaligidan g'ayb olamni ko'radi. Hozir ham shunday bo'ldi.

Ertalab turib, yo'lovchi mehmondo'stligimiz uchun bizga tashakkur bildirdi va xayrlashdi.

Lekin ketishdan oldin otamga dedi:

- Qizingiz Kimyo oddiy bola emas. U juda xosiyatli, dekin agar bu qobiliyati e'tiborsiz qolib ketsa, achinarli bo'ladi. Siz uni mакtabга yuborishingiz kerak.

- Qiz bolani o'qitishning nima keragi bor? – xitob qildi onam, - Kim eshitgan buni! U erga tekkunicha men bilan qolib, gilam to'qiyydi. U

yana mohir gilam to'quvchi.

Lekin yo'lovchi bo'sh kelmadi:

- Kun kelib, u buyuk olma bo'lishi mumkin.

Xudo unga ko'pgina qobiliyatlar ato etipti.

Sizningcha, Xudo sizlardan kamroq biladimi buni? - so'radi u. - Agar yaqin orada maktab bo'lmasa, uni ta'lim olish uchun biron olimnikiga yuborishingiz ham mumkin.

Onam bosh chayqadi. Lekin otam u bilan bir fikrda emasligini payqadim. Uning ilmga bo'lgan muhabbatini bilganim uchun yo'lovchiga:

- Biz olimlarni tanimaymiz. Ularni qayerdan izlab topsak bo'ladi? - degan savoliga hayron bo'lmadim.

Shunda yo'lovchi hayotimni o'zgartirgan insonning nomini aytdi.

- Men Konyada bir ajoyib olim inson borligini bilaman, - dedi u. - Ismi Jaloliddin Rumiy.

Kimyoga o'xshagan iqtidorli qizni jon deb o'qitadi. Uni o'shangan olib boring, pushaymon bo'lmafsiz.

U ketganidan keyin, onam qo'llarini osmonga ko'tarib dedi:

- Men homiladorman. Yaqinda oilamizda yana bitta xo'randa tug'iladi, menga yordamchi kerak bo'ladi. Qiz bolaga kitob o'qishning nima keragi bor? U faqat uy- ro'zg'or ishlarini qilishni va bola boqishni o'rganishi kerak. Onam o'zining meni uyda olib qolish istagini sal boshqacharoq ifodalasa yaxshi bo'lardi. Agar u meni sog'inib qolishini, shuning uchun meni boshqa oilaga qisqa muddatga bo'lsa ham yuborishni istamasligini aytsa edi, men qolgan bo'lardim. Lekin u bunday demadi. Nima bo'lganida ham, otam yo'lovchining gapi asosli ekaniga shubha qilmadi, men ham ikki kundan keyin uning tarafiga o'tdim.

Tez orada biz otam bilan Konyaga yo'l oldik. Biz Rumiyni u ta'lim berayotgan Madrasa eshigi oldida kutib turishimizga to'g'ri keldi. U kelganda esa tortinganimdan, hatto yuziga qarashga ham jur'at eta olmadim. Buning o'rniga qo'llariga qaradim. Rumiyning qo'llari

uzun, nozik, barmoqlari harakatchan, olimning qo'llaridan ko'ra ko'proq hunarmandning qo'llariga o'xshardi. Otam meni sekin u tomoniga itardi.

- Mening qizim iqtidorli. O'zim o'qimagan, omi odamman, xotinim ham hech qachon o'qimagan, lekin aytishlaricha, siz bu yerda eng o'qimishli odam ekansiz. Balki siz qizimni o'qitishni istarsiz?

Rumiya qaramay turib ham, uning hayron bo'l maganini tushundim. U bunday iltimoslarga ko'nikib qolgan bo'lsa kerak. Rumiy otam bilan gaplashgunlaricha, men Madrasa hovlisi yaqiniga keldim va u yerda bir nechta o'g'il bolalar yurganini ko'rdim. Bitta ham qiz bola yo'q edi.

Orqaga qaytayotganimda nariroqda turgan yosh ayolga e'tibor berdim. Men unga qo'l silkitgan edim, u avval sarosimalikka tushib, qotib qoldi, lekin birozdan keyin o'zini tutib oldi va u ham qo'lini silkitdi.

- Qizgina, nahotki meni ko'rayotgan bo'lsang? -

so'radi u.

Men boshimni silkitdim, ayol tabassum qilib,
chapak chalib yubordi:

- Qanday ajoyib! Axir meni hech kim hech
qachon ko'ra olmagan edi.

Biz birgalashib, Rumiy va otam turgan joyga
bordik. Ayol to'g'ri aytgan ekan - erkaklar uni
payqashmadi.

- Kimyo, beri kel, - chaqirdi meni Rumiy. -
Otangning aytishlaricha, sen o'qishni istar
ekansan. Ayt-chi, kitoblarda seni hammadan
ko'p qiziqtiradigan narsa nima?

Men go'yo falaj bo'lib qolganday edim, lom-
mim ham deya olmadim.

- Beri kel, bolam, - dedi hafsalasi pir bo'lgan
otam.

Otam mendan faxrlanishlarini istagani uchun
to'g'ri javob bergim kelardi, lekin nima
deyishni bila olmasdim va faqat chuqur
xo'rsinib qo'ydim.

Agar o'sha yosh ayol bo'lmanida, biz otam
bilan ikki qo'limizni burnimizga tiqib

qishlog'imizga qaytib ketishimiz mumkin edi. U meni qo'limdan tutdi va: «To'g'risini aytaver. Hammasi yaxshi bo'ladi, men va'da beraman» dedi.

Men o'zimni xotirjamroq his etdim, Rumiya o'girilib qarab dedim:

- Ustoz, siz bilan Qur'onne o'rganish men uchun katta sharaf. Men qiyinchilikdan qo'rqlayman. Rumiyning yuzi yorishib ketdi.

- Juda soz, - dedi u va qandaydir noxush narsa esiga tushib qolganday jim bo'lib qoldi. - Lekin sen qiz bolasan. Juda qunt bilan o'qigan taqdiringda ham, baribir turmushga chiqasan va farzand ko'rasan. O'qiganlaring befoyda ketadi.

Men nima deb javob berishni bilmasdim, hatto o'zimni aybdordek his etardim. Otam ham xafa bo'lib ketdi va boshini quyi soldi. Yosh ayol yana menga yordamga keldi:

- Sen unga xotiningiz hamisha qiz farzand ko'rishni istagan va agar meni qiz qilib asrab olsangiz, xursand bo'ladi, deb ayt.

Men shuni aytganimda, Rumiy kulib yubordi:

- Tushunarli, sizlar menikiga boribsizlar va xotnim bilan gaplashibsizlar. Lekin, rosti shuki, Kira mening ustozlik ishimga hech aralashmaydi.

Yosh ayol astagina g'amgin bosh chayqadi va qulog'imga pichirladi:

- Sen unga ikkinchi xotini Kira bilan emas, ikki o'g'lining onasi Gavhar bilan gaplashganining ayt.

- Men Gavhar bilan gaplashdim, - dedim ismini aniq talaffuz qilib. - O'g'illaringizning onasi bilan

Rumiyning rangi oqarib ketdi.

- Qizaloq, Gavhar vafot etgan, - dedi u sovuq ohangda. - Mening marxum xotnim haqida sen nima bilasan? Bu ishing yaxshi emas.

Shunda otam gapimizga aralashdi:

- Ustoz, u sira yomon xayol qilmaydi, ishoning. Kimyo hazillashadigan qiz emas. U hamisha kattalarni izzat qiladi.

Men to'g'risini aytish kerakligini tushundim:

- Sizning marxum xotiningiz shu yerda. U qo'limdan ushlab turipti va menga dalda berayapti. Uning ko'zlari och jigarrang, yoqimli sepkillari bor, uzun sariq ko'yak kiygan...

Yosh ayol oyog'idagi shippakni ko'rsatayotganini ko'rib, jim bo'lib qoldim.

- U men sizga oyog'iga kiygan shippak haqida gapirishim kerakligini aytayapti. Shippak to'q qovoqrang ipakdan tikilgan va mayda qizil gul bilan bezalgan. Juda chiroyli.

- Bu shippaklarni men unga Damashqdan olib kelgan edim, - dedi Rumiy va ko'zlariga yosh qalqidi. - U bu shippagini yaxshi ko'rardi.

Shunday degach, ustoz jim bo'lib qoldi va soqolini taray boshladи. Yuz ifodasi jiddiy va voqelikdan chetlashgan edi. Yana gapira boshlaganida esa ovozi mu-loyimlashgan va g'amginlikdan asar ham qolmagan edi.

- Nima uchun qizingizda xislat bor, deganlarini endi tushundim, - dedi Rumiy otamga. - Yuringlar menikiga. Dasturxon ustida kelajak

haqida suhbatlashamiz. U ajoyib o'quvchim bo'ladi. U ko'pchilik o'g'il bolalardan yaxshi bo'ladi.

Keyin Rumiy menga qarab:

- Sen bu haqida Gavharga aytasanmi? - dedi.
- Ustoz, bunga hojat yo'q. U hozir eshitib turipti. Lekin u endi ketishim kerak deyapti. Yana u sizni hamisha mehr bilan kuzatib yurishini aytayapti.

Rumiy yoqimli tabassum qildi. Otam ham jilmaydi. Hammamiz birgalikda yengil tortdik. Shu damda men Rumiy bilan uchrashuvimiz uzoqqa boruvchi oqibatlarga olib borishini tushundim. Onam bilam munosabatlarimiz bunchalik yaqin bo'lмаган edi, buning о'rнiga Xudo menga ikki ota - o'z otamni va qabul qilib olgan otamni bergen edi.

Shu tariqa sakkiz yil oldin men - tortinchoq, ilmga chanqoq qizaloq - Rumiylar uyiga kelib qolganman.

Kira yaxshi va mehrli, hatto o'z onamdan ham mehribon bo'ldi, Rumiyning ikki o'g'li ham

meni yaxshi qabul qilishdi, ayniqsa, katta o'g'illari, u keyinchalik mening akamday bo'lib qoldi.

Yo'lovchi haqli bo'lib chiqdi: otam va singlimni qanchalik sog'inmay, bir daqiqa bo'lsa ham Konyaga kelganimdan, Rumiylarnikida yashab qolganimdan afsuslanmadim. Bu uyda men juda ko'p baxtli kunlarni boshdan kechirdim.

Keyin Shams Tabriziy paydo bo'ldi. Uning kelishi bu yerdagi hamma narsani o'zgartirib yubordi.

Ella

2008 yil, 9 iyun, Nortgempton.

Avvallari bir o'zi uyda qolishdan qo'rqedigan Ella, keyingi vaqtarda o'zi yolg'iz qolishni yoqtirib qolganiga e'tibor berdi. U «Shirin shakkoklik» uchun taqriz yozishga kirishib ketdi va buning uchun Misheldan yana bir hafta muddat so'radi. U taqrizni ertaroq yozib

tugatishi ham mumkin edi, lekin shoshgisi kelmayotgan edi. Bu ish unga o'zini, o'z oilaviy masalalarini, afsuski, eri bilan o'zi orasidagi eski qarama-qarshiliklarni tushunib olishiga yordam bergen edi.

Bu hafta Ella birinchi marta pazandachilik darsini qoldirdi. O'zi hech kim bilan gaplashgisi kelmayotgan edi, oxirgi daqiqalarda tobi yo'qligini aytib bormadi. Aziz bilan yozishmalarini hammadan sir tutardi. Adabiyot agentidagilar uning kitob muallifi bilan virtual iliq munosabatlarini bilishmas edi, farzandlari bilan eri ham bilmas edilar. Ammo Ellani hammadan ko'p hayron qoldirayotgan narsa, bu o'zgarish o'zini sira bezovta qilmayotgani edi. U bunday o'zgarish bo'lishini sabr bilan kutib yurganday edi go'yo. Lekin elektron yozishmalar endi yetarli bo'lmay qolgan edi unga. U Azizga telefon qildi. Vaqtda besh soat farq borligiga qaramay, ular har kuni telefonda gaplashishardi. Aziz uning ovozi muloyim va zaifligini aytdi.

Kulganida esa, kulgisi jur'atsiz va uzilib chiqarkan, go'yoki kulsam bo'larmikan yo yo'qmi deyayotganday. Bu boshqalarning e'tiboriga ahamiyat bermaslikni bilmaydigan ayolning kulgusi ekan.

«Sen shunchaki tabiiy bo'l, - derdi unga Aziz. - Shunga harakat qil!»

Lekin notinch oilaviy hayotida tabiiy bo'lish uncha oson emas edi. Avi matematikadan xususiy darslarga qatnay boshladi, Orli esa o'zidagi taomlanish muammosi tufayli ruhshunos qabuliga ro'yxatda turdi. Bugun u omletining yarmini edi, bu uning bir oy mobaynida bir qadar to'g'ri ovqatlangani edi. Garchi u omletda qancha kaloriya borligini so'ragan bo'lsa-da, harqalay Ella uning shu yeganiga ko'ngli aynab, qusmaganining o'zini ham mo'jizaga yo'ydi. Bu orada Janet o'zining Skott bilan aloqalari uzilganini e'lon qildi.

Ikkisiga ham shaxsiy hayot uchun maydon kerakligi haqidagi fikrdan boshqa tushuntirish bermadi. Ellaning xayoliga bu «shaxsiy hayot»

deganlari yangi muhabbatni anglatishi mumkinligi fikri keldi, zero na Janet, na Skott bu ma'noda vaqtlarini bekor o'tkazmayotgan edilar.

Ellani hammadan ko'p hayron qilgan narsa, odamlar orasidagi munosabatlarning qanday katta jadallik bilan tug'ilishi va parchalanishi edi, lekin u hech kimni ayblamaslikka harakat qilardi. O'zining Aziz bilan yozishmalarida qo'lga kiritgan narsasi hech bo'limganda shu edi: agar xotirjamlik saqlasa, bolalar o'zlari unga o'zlari aytadilar. U bolalarining ishiga aralashmay qo'yganidan boshlab, ularning o'zlari kelib hammasini aytadigan bo'lishdi. Ella ularga yordam berishga va yupatishga shoshilishdan voz kechishi bilanoq, hammasi o'z-o'zidan va yaxshiroq yo'lga tusha boshladi. U faqat hodisalar qanday kechayotganini kuzatib borar, kun ketidan kunlar ortiqcha zo'riqishlarsiz, birin-ketin o'tib borardi. Ella o'z ixtiyorida bo'limgan ishlarga aralashmay qo'yganidan beri, ichida go'yo yana bir inson

paydo bo'lgandi - bu (ichki odam) ancha dono, bosiq va zukkoroq edi.

- Bu o'sha beshinchi unsur, - shivirlar edi u goho o'ziga-o'zi.

Hech qancha vaqt o'tmay, eri xotinida sodir bo'lgan o'zgarishga e'tibor berdi. Endi u bilan sal uzoqroq birga qolishni istayotgani boisi shu emasmikin? Uyga ham erta qaytadigan bo'lib qoldi, Ella endi u ayollar e'tiborini tashqaridan izlamay qo'yganmikin, degan shubhaga bordi.

- Azizam, senga biron kori hol bo'lmadimi? - so'rardi undan goho Devid.

- Menda hammasi joyida, - javob berardi kulim- sirab Ella.

U o'zining sokin (ichki) maskaniga ketganidan buyon, u xuddi uzoq yillar uxlab o'tkazilganday bo'lib ko'rinyotgan o'z nikohidagi tashqi odatlarini tashlaganday edi.

Endi Devid bilan risoladagidek hayot manzarasini chizishni bas qilganidan beri, Ella ular birgalikda yo'l qo'ygan barcha xatolarni, birga kechirgan hayotlaridagi barcha eski

qusurlarni ravshan ko'rgan edi. Ella endi tabiiy edi. Va Devidning ham o'z-o'zidan shunday bo'lib qolganini his etdi.

Endi nonushta va tushlik vaqtlarida ular katta odamlar o'z odatiy ishlarini tinchgina qilganlari kabi, xuddi kirim va chiqimlarini umumlashtirgan kabi muhokama qilar edilar. Keyin xuddi boshqa gaplashadigan gaplari yo'qligini bilganday, jim bo'lib qolishar edi. Gohida Ella eri o'ziga undan qandaydir biron so'z kutayotganday, e'tibor bilan qarab turganini ko'rib qolardi. Agar Ella undan ishqiy sarguzashtlari haqida so'rab qolsa, u jon deb tavba-tazarru qilishi mumkinligini bilib turardi. Lekin Ella o'zi buni istashidan shubhalanardi. Avvallari oila qayig'ini muvozanatdan chiqarib yubormaslik uchun eridan hech nima so'ramas edi. Endi esa, eri kechalari uyga qaytmaganlarida nimalar bilan shug'ullanishini bilmaydiganga solmaydigan bo'ldi. U hamma narsani bilishini va buning unga mutlaqo qizig'i yo'qligini aniq sezdirib turardi. Erini esa ayni

shu narsa qo'rqitar edi. Ella uni tushunardi, chunki qalbi tubida o'zi ham shundan qo'rqardi. Agar Devid atigi bir oy oldin u tomonga bir qadam ko'ygan bo'lsa edi, u eridan minnatdor bo'lgan bo'lardi. Oilani mustahkamlash yo'lida qo'yadigan har qanday qadaminи minnatdorlik bilan qabul qilgan bo'lardi. Lekin bir oy oldin bu shunday edi. Endi esa avvalgi hayoti unga haqiqiy hayot bo'lib ko'rinnmas edi. Uch bolaning onasi qanday qilib shu ko'yga tushdi? Boz ustiga, Janet aytganiday, hamon baxtsiz ekan, nima uchun o'zini hamma baxtsizlar tutganlariday tutmadi? Nima uchun vannaxonaga kirib yig'lab yurmadi, oshxonadagi rakovinaga engashib ho'ngramadi, tashqariga chiqib ketib yolg'iz aylanib yurmadi, devorga idishlarni otib sindirmadi? Hech nima qilmadi.

Ellaga g'alati sokinlik cho'kkан edi. U to'kis ta'minlangan hayotini katta tezlik bilan tark eta boshlagan edi, lekin ayni paytda ilgari o'zida sira bo'lмаган barqarorlik borligini his etardi.

Ertalablari oynaga uzoq tikilar, o'z yuzidagi o'zgarishlarni kurmoqchi bo'lardi.

Yoshardimikin? Yoqimliroq bo'ldimikin?
Lekin hech qanday farqni ko'rmas edi. Va
baribir u endi avvalgiday emas edi.

Kira

1245 yil, 5 may, Konya.

Butun qish bo'yi shoxlari yerga egilgan katta daraxtlar bugun yam-yashil yaproq yozdi, Shams Tabriziy esa hamon biznikida yashayapti. Shu vaqt ichida, kuzatishimcha, erim boshqa odamga aylandi, kun sayin mendan va butun oiladan tobora uzoqlashib bordi. Avvaliga men ular tez orada bir-birlarining jonlariga tegsalar kerak, deb o'ylagan edim, lekin bundan darak ham yo'q edi. Hatto badtar yaqinlashganday edilar. Ular yo jim o'tirishar, yo tinimsiz gaplashar, goho kulishar edilar va bu kulgu menga og'ir botar edi: chunki ular bir-birlaridan sira zerikmagan

edilar. Shams bilan suhbatlardan keyin erimning hech kim bilan ishi bo'lmas va xuddi allanimadan kayf qilgan kabi o'z xayolot olamiga kirib ketardi.

Rumiy bilan Shamsni uchinchi odamga joy qoldirmaydigan bir nima birlashtirib turardi. Ular bir vaqtda bir-birlariga bosh silkitar, tabassum qilar, qovoq solar, bir-birlariga uzoq qarab qolardilar. Hatto kayfiyatları ham bir-birlariga bog'liq edi- Ba'zan hech nima yemay, gaplashmay sukut saqlab o'tirishardi; ba'zan esa nimadandir telbalarcha kulishardi. Men Rumiyni taniy olmay qolgandim. Sakkiz yildan buyon menga er bo'lib kelayotgan, bolalarini o'z tuqqan bolalarimday katta qilib kelayotgan kishim menga begona bo'lib qolgan edi. Faqat yonimda uqlab yotganidagina, u bilan yaqinligimni his etaman. Keyingi paytlarda ko'p tunlarni uyqusiz, uning nafasiga quloq solib va tanasining iliqligini his etib o'tkazdim. Yuragining bir tekis urishi meni tinchlantiradi va Rumiyning hamon erim ekanini eslatib

turadi.

Men hamisha o'zimga-o'zim bu abadiy davom eta olmaydi-ku, deyman. Bir kunmas bir kun Shams ketadigan vaqt keladi. Axir u darbadar darvish-ku! Va Rumiy men bilan qoladi. U Konyaga va o'z shogirdlariga tegishli. Men hech nima qilmasligim kerak, faqat kutishim kerak. Ammo chidash qiyin bo'layapti, kundan-kun tobora qiyinlashib borayapti. Juda qiynalgan vaqtimda o'tgan kunlarni - hech qanday kelishmovchiliklarga qaramasdan Rumiy yonimda bo'lgan paytlarni - eslayman. - Kira - nasroniy. Hatto islomga kirgan bo'lsa ham, hech qachon bizday bo'lmaydi, - bizning nikohimiz haqida eshitgach shivirlashar edi odamlar. - Shunday taniqli islom ulamosi g'ayridinga uylanmasligi kerak edi.

Lekin Rumiy bu g'iybatlarga e'tibor bermas edi. Nikohdan avval ham, keyin ham. Va men undan hamisha minnatdor edim.

Onado'li aholisi turli din va irqlarga taalluqli. Shunga qaramay biz hammamiz bir xil taom

yeymiz, bir xil kuylaymiz; bid'atlarimiz ham, kechasi ko'radigan tushlarimiz ham biday. Nima uchun biz birga bo'la olmas ekanmiz? Men musulmoncha ismli nasoro bolalarni va nasoro ayollar emizgan musulmon bolalarni ko'rganman. Bizning dunyomizning o'zi shunday. Hamon nasorolik bilan islam orasida chegara bo'lsa, bu ikkala tomon ilohiyotshunoslari hisoblaganlaridan ancha qayishqoq bo'lishi kerak emasmi. Odamlar, meni katta olimning xotini bo'lganim uchun barcha ulamolar haqida yaxshi fikrda bo'lishim kerak, deb o'ylashadi. Ammo, to'g'risini aytsam, unday emas. Shak-shubhasiz, ulamolar ko'p narsalarni biladilar, lekin gap e'tiqod haqida ketganida ularning ilmlari juda zo'rmi? Boz ustiga, ular aytishga ham odam qiynaladigan so'zlarni ishlatib gapirishadi. Musulmon ulamolari Uchlikka bo'lgan nasorolik e'tiqodni inkor etishadi, nasorolar esa faqat Qur'oni eng buyuk deb hisoblanishiga qarshi chiqishadi. Ular xuddi bir-birlarini

eshitmaydiganday gapirishadi. Ammo mendan so'rasangiz, bu buyuklardan ko'ra, oddiy nasoro bilan oddiy musulmon orasida umumiyat ko'proq.

Nasorolikni qabul qilishda musulmon uchun eng qiyini - Uchlikni tan olish deyishadi.

Musulmonlikni qabul qilishda esa nasoro uchun eng qiyini - Uchlikdan voz kechish.

Qur'onda Iso (a.s.) o'zini Xudo o'ziga Kitob bergen va O'z payg'ambari qilgan Xudoning quli deydi. Men bunga qiyinchiliksiz ishonganman. Lekin Bibi Maryamni inkor etish qiyinroq kechadi. Inchunin, Iso Xristos onasining mehrli ko'zlariga otashin termulgim kelaverishini hech kimga, hatto Rumiya ham aytmayman. O'z nigohi bilan u meni hamisha yupatadi.

To'g'risini aytsam, Shams Tabriziyning biznikida joylashib olishidan shunchalar xijolat tortdim va xafa bo'ldimki, Bibi Maryamning yupatishiga har qachongidan ham zor bo'ldim. Men Unga duo bilan murojaat qilishga

shunchalar tashna bo'ldimki, hatto isitmam ko'tarilar darajaga yetdi. Gohida esa o'z yangi e'tiqodimga xiyonat qilayotganidan uyalib ketardim.

Hech kim bularni taxmin ham qila olmas edi. Hatto, mening deyarli barcha ishlarim va fikrlarimni biladigan Sofiya ham. U meni tushunmagan bo'lardi. Afsuski, bular haqida erimga ayta olmas edim, lekin bu haqida unga qanday aytishni ham bilmas edim. U shundoq ham mendan juda uzoqlashib ketdi, badtar bo'lishidan qo'rqaman. Rumiy mening butun borlig'im edi. Endi esa begonalashib ketdi. Hech qachon bir inson bilan bir uyda yashab, bir to'shakda uxlab va lekin uning o'zing bilan birga emasligini his etib yashash mumkin, deb o'ylamagan edim.

Shams Tabriziy

1245 yil, 12 iyun, Konya.

Turgan-bitgani tomoshaxonaning o'zi! Agar

musulmonlar o'z gunohlarini yuvish uchun butun Ramazon oyi Xudoga bag'ishlab ro'za tutsalar ham va har Iydi Ramazon qo'y yoki echki qurbanlik qilsalar ham, agar butun umr Makka ziyorati orzusini qilsalar va kuniga besh mahal joynamoz yoysalar hamki, qalblarida IShQ tuyg'usi bo'lmasa - bularning barchasida ne ma'no bor? IShQdan ayro e'tiqod - quruq so'zlardangina iborat; so'zlarda asl hissiyot bo'lmagani uchun ular juda zaif va nohayotiy, noaniq va puchdir.

Nahotki Xudoni Makka yoki Madinaga borganda topish mumkin deb o'ylasalar? Yoki uni machitda topish mumkin deb o'ylasalar? Xudoni qandaydir bir «yopiq» makonda ekanini tasavvur qilish mumkinmi?!

Hamon Xudo O'ZI «Na Osmonlarim va na Yerim Meni o'ziga sig'dira olmagay, lekin Men menga ishongan qulimning qalbiga sig'aman» degan bo'lsa, Uni biron bir «yopiq» makonda joylashganini qanday tasavvur etish mumkin. O'zining o'tkinchi (cheklangan) tafakkurini

Buyuk Xudoni bilish uchun yetarli, deb o'ylaydigan ahmoqqa chinaman. Xudo bilan savdolashish va uning oldidagi QARZlarini uzish mumkin, deb o'ylaydigan johilga achinaman. Nahotki, bu odamlar Xudoni bizning gunohu savoblarimizni tarozuning ikki pallasida o'lchaydigan attorga o'xshatsalar? Yoki nahotki Uni bizning gunohu savoblarimizni xuddi o'zining kirim va chiqim daftariga yozib borib, savdo qiladigan savdogar (sudxo'r)ga o'xshatsalar? O'zlarining Xudo bilan Birliklarini shunday tasavvur etadilarmi? Yo'q! Mening Xudoyim - Buyuk! U Tirik Xudo! Menga o'lgan Xudoning nima keragi bor? Nima uchun men hamisha qo'rquv va vahimalar, taqiq va pandu nasihatlar ichida qotib, qolipda yashashim kerak? U (mening Xudoyim) cheksiz mehr-muruvvatlidir. Uning ismi al-Vaduddir. Zero, U Sevguchidir. Men Unga o'zim qilayotgan har bitta ishimda, xuddi nafas olayotganday yengil va tabiiy hamdu sano aytaman. Zero, Uning ismi al-

Hamid, Maqtalguchi (hamdu sanolar aytilguchi)dir.

Hamon o'z qalbim tubida Xudo hamma narsani O'zi ko'rib va eshitib turganini bilsam, nima uchun fisqu fasod, g'iybatlar bilan mashg'ul bo'lishim kerak. Axir Uning ismi al-Basir, hamma narsalarni Ko'rvuvchi-ku!

Al-Jamol, al-Qayyum, al-Rahmon, al-Rahim.

Qurg'oqchilik bo'ladimi yo dunyoni suv bosadimi, ochlik yo tashnalikdan o'lay deb qolamanmi, to tizzalarim bukilib, vujudim o'zimga bo'ysunmay qolgunicha, yuragim urishdan to'xtagunicha Uning ishqida kuylayman va Uning uchun raqs tushaman.

Uning eng SOF borlig'i, bo'm-bo'sh qismiga, Uning buyuk koinotidagi eng mayda zarralari ichidagi bir zarrachaga aylanmagunimcha, o'z tuban nafsimni (nafsi ammoramni) tinimsiz chilparchin qilishda davom etaman. Men minnatdorlik, quvonch va qat'iyat ila Uning buyukligi va barcha himmatlarini sharaflayman. U menga bergen va

bermaganlarning barchasi uchun Unga minnatdorlik izhor etaman, zero menga nima yaxshiroqligini O'zi bilguchidir.

Ro'yxatimdagi yana bir qoida yodimga tushib, baxt va umid to'lqini meni qamrab olganini his etdim. «Xudo yaratgan „avjudotlar ichida MEN UNGA O'Z RUHIMNI PUFLADIM deb aytilgan Inson alohida o'rin egalladi.

Bizlarning har birimiz, beistisno, Xudoning bu yerdagi elchisi bo'lish uchun yaralganmiz. Sen hech bo'lmasa bir marta o'zingdan o'z xatti-harakatlaringda Xudoning yaratmishiga o'xshaymanmi deb so'raganmisan? Sen uzingdagi Xudoni kashf etishing va shu kashfiyot ila yashamog'ing kerakligini eslaysanmi?»

Xudo bilan birlashib, fano bo'lish va o'z nafsig'a qarshi kurash olib borish o'rniga din mutaassiblari (fanatlar) qo'rquv qo'zg'otib, boshqa odamlar bilan jang qiladilar. Dunyoga qo'rquv to'la ko'z bilan qaragan odamlar voqelikdan yana ham badtar vahimaga

tushishlari ajablanarli emas. Biron joyda yer qimirlasa, qurg'oqchilik bo'lsa yoki boshqa koru hol ro'y bersa, ular buni Muqaddas G'azab ifodasi sifatida qabul qiladilar - go'yo Xudo «Mening shafqatim Mening g'azabimdan kuchliroq» demaganday. Fanatlar har xil narsalarni bahona qilib hammaga jahl bilan, g'ijinib qarab xuddi Buyuk Rabbimiz ularning tarafini olishini va o'zlaridagi arzimas qasos o'tini quvvatlashini kutadilar. Ularning hayotlarida faqat achchiq alamlar va nafratlar uchun, yana ularga hamisha va hammayoqda xuddi qora bulutlar kabi hamrohlik qiladigan, ularning o'tmish va kelajaklariga soya solib turadigan cheksiz norizoliklar uchun o'rinni bor, xolos. Insonda o'rmonni ko'rib, daraxtlarni ko'ra olmaydigan hollar bo'ladi. Ba'zi qoidalarni butunning nurida ko'rmoq joiz. Butun esa o'z mohiyatida yashirin.

Fanatlar Qur'onning mohiyatini izlashni istamay va uni butunligicha qabul qila olmay, ayrim oyatlarni odamlarning vahimaga tushgan

ongiga mos kelamagan muqaddas ko'rsatma sifatida ajratib oladilar. Ular hamma vaqt Qiyomat kuni barcha insonlar soch tolasidan ingichka va pichoq tig'idan keskir Sirot ko'prigidan o'tkazilishlarini eslatadilar. Ko'prikan o'ta olmagan gunohkorlar do'zaxga tushishlari va oxiratga qadar o'sha yerda azob chekishlarini aytadilar. Begunohlar esa ko'prikan o'tib ketishlarini, mevazor bog'lari, shirin suvlari va go'zal farishtalari bor jannatga tushishlarini aytadilar. Fanatlarning tasavvurlariga shu manzara muhrlangan.

Ularning dunyoviy hayot qarshisidagi qo'rquvlari, qilgan ishlarining jazosi haqidagi qo'rquvlari shu qadar kattaki, o'zlarini oqlashga bo'lgan urinishlari yo'lida Xudoni ham eslaridan chiqaradilar! Naxotki ular qirq qoidaning ushbu qoidasini bilmaydilar?

«Do'zax HOZIRda va ShU YERDAdir. Jannat ham shunday. Do'zaxdan qo'rqish va jannatni orzu qilish kerak emas, zero do'zax ham, jannat ham hamisha inson qalbida. Qachon ishq bizga

nuzul etsa, demak, biz jannatdamiz. Qachon nafratlansak, hasad qilsak yoki jang qilsak, demak, biz do'zax o'tida yonayotirmiz».

Yigirma beshinchi qoidada shunday deyilgan. Inson vijdoni uning gunohlarini ko'rsatganidagi azoblar do'zaxdan qo'rqinchliroq emasmi? O'zidan so'rang. U sizga do'zax nimaligini aytadi. Insonda ahyonda Xudo bilan to'liq muvofiqlikda yashayotganini bilganidagi baxt tuyg'usidan go'zalroq jannat bormi? O'zidan so'rang. U sizga jannat nimaligini ayta oladi. Hamon hozirgi ondayoq Xudoning hayotimizda bor yo yo'qligini to'liq bila olsak, o'limdan keyingi olam, tasavvurdagi kelajak haqida bezovtalikning nima keragi bor? Do'zax haqida o'yga tolishlar va jannat ta'malari so'fiylarga xos emas, shuning uchun ular Xudoni sof holda va bezovtaliklarsiz, dog'i hasratlarsiz haqiqiy (beminnat) ishq bilan sevadilar.

Ishq sababdir. Ishq maqsaddir.

Va Xudoga muhabbatning kuchli bo'lsa, uning

barcha yaratmishlarini ham ular U tufayli yaralganliklarini va U tufayli yashayotganlarini bilganing uchun sevsang, boshqa hech nimaning ahamiyati qolmaydi. Bunda hech qanday «men»ga o'rin qolmaydi. Butun vujuding bilan sening butun borlig'ing bo'lgan HECh NIMAg'a yo'nalsan.

Ertasi kuni biz Rumiy bilan shular haqida o'ylar ekanmiz, u ko'zini yumdi va birdan shu satrlarni ayt-di:

*Vah, menga Mashriq nadir, Magrib nadir,
Balki ko'klarga ucharmen, bari bir.
Unda bo'lmas ersa gar Sendan nishon,
Hech erur menga bu umri jovidon.*

Rumiy o'zini shoir deb hisoblamaydi. Lekin u haqiqiy shoir. Zo'r shoir! U endi o'zini shoir sifatida kashf etmoqda.

Ha, Rumiy haqli. U na Mashriqqa va na Mag'ribga tegishli. U Ishq Saltanatiga tegishli.

U Sevgilisi (Rahmon)ga tegishli.

Olov

(*Zararli narsalar vayron qiladi va yo'q qiladi*)

Ichkilikboz Sulaymon

1246 yil, fevral, Konъya.

Odatda, men mast bo'lsam, xayolparast bo'lib qolaman, buyuk Rumiyning karvonsaroyga kirib kelayotganini ko'rib, o'zimni chimchilab ko'rdim. Lekin ro'yo yo'q bo'lmasdi.

- Hoy, Xristos, menga nima ichirding? - qichqirdim men. - Keyingi finjondagi qanday may edi? Agar menga nima ko'rinyotganini aytsam, aslo ishonmaysan.
- Jim bo'l, ahmoq, - shivirladi orqamda o'tirgan kimdir.

Men bu kim ekanini bilish uchun orqaga qaradim, qarasam, hamma, jumladan, Xristos ham, eshikdan ko'z uzmay qarab turishardi. Hamma jim qotgan, hatto karvonsaroyning shu yerdagi iti ham vovullamay, yerga qapishib qolipti. Eron gilamlari bilan savdo qiladigan savdogar ham o'zi ashula deb o'ylaydigan ahmoqona kuylarini aytishdan to'xtagan. Ayni payt u o'tirgan o'rindig'idan sakrab turdi va odatda mast odamlar o'zlarini hushyor ko'rsatish uchun qilganlariday, yuziga jiddiy ifoda berish uchun boshini baland ko'tardi. Jimlikni Xristos buzdi.

- Xush kelibsiz, Mavlono, - dedi u iloji boricha hammadan ortiq iltifot ko'rsatishga urinib. Tashrifingiz men uchun sharaf. Xizmat? shen chindan ham Rumiyni ko'rayotganimni anglaganimdan keyin ham ikki marta ko'zimni qisdim.

- Rahmat, - javob qildi Rumiy keng, lekin kuchsizroq jilmayib. - Men may xarid qilmoqchi edim.

Bechora Xristosning hatto chakagi osilib qoldi. O'ziga kelgach, Rumiyni mening yonimdag'i tasodifan bo'sh qolgan kursiga o'tirishga taklif qildi.

- Assalomu alaykum, - salomlashdi men bilan Rumiy o'tirgan zahoti.

Men ham u bilan salomlashdim va bir-ikki og'iz shirin so'z qo'shganday ham bo'ldim, lekin Rumiy ularni unchalik to'g'ri ilg'agani noma'lum. Sirtdan qaraganda sokin, qimmatbaho liboslarida Rumiy, mayxonaning doimiy mijozlaridan keskin ajralib turardi.

Men Rumiy tomonga cho'zildim, past ovozda shivirlab so'radim:

- Gapim qo'pol ko'rinsa, kechiring, lekin sizdaiyin inson bu yerda nima qilib yuripti?

- So'fiylik sinovini topshirayapman, - javob qildi Rumiy, xuddi bizlar yaqin do'st bo'lib qolganday menga ko'z qisib. - Mendagi shon-sharafdan asar ham qolmasin uchun Shams meni shu yoqlarga yubordi.

-Shu yaxshimi?

Rumiy kulib yubordi.

- Bu qanday qarashga bog'liq. Ba'zan o'zligingni qutqarish uchun barcha avvalgi bog'lanishlarni yo'q qilish kerak. Agar o'z oilamizga, jamiyatdagi o'rnimizga, hatto o'z yo'limiz (maktabimiz) yoki machitimizga o'ta bog'lanib qolishimiz Xudo bilan bevosita bog'lanishimizga xalal bersa, bu bog'lanishlardan voz kechish kerak bo'ladi. Men Rumiyni to'g'ri tushunganimga unchalik ishonchim yo'q edi, lekin U bergen tushuntirish menga oqilona bo'lib tuyuldi. Men so'fiylarni har doim biroz devonasifat, har hil telbaliklarga qodir, lekin yorqin va qiziqarli insonlar deb hisoblar edim.

Endi Rumiy men tomonga cho'zildi va u ham shivirlab so'radi:

- Siz ham qo'polligim uchun kechiring-u, lekin yuzingizdagi chandiq qanday paydo bo'lgan?

- Buning qiziq joyi yo'q. Kechasi uyimga ketayotganimga mirshablarga duch kelib qoldim, ular meni o'larli qilib do'pposlashdi.

- Nima uchun? - astoydil qayg'urib so'radi Rumiy.
- Chunki may ichgan edim, - dedim, ayni shu payt Xristos Rumiy oldiga qo'yib ketgan ko'zalarni ko'rsatib.

Rumiy bosh chayqadi. Avvaliga u shunday bo'lishi mumkinligiga uncha ishonqiramadi, keyin menga do'stona jilmayib qo'ydi. Bu bilan suhbatimiz tugamadi. Biz non bilan echki sutidan tayyorlangan pishloq chaynab o'tirgancha, e'tiqod, do'stlik haqida va boshqa, men ancha ilgarilar unutib yuborgan, hozir esa men xursand bo'lib to'kib solgan boshqa masalalarni muhokama qilib o'tirdik.

Quyosh botar-botmas Rumiy uyiga ketishga chog'landi. Qovoqxonadagilarning hammasi u bilan xayrplashish uchun o'rinalidan turishdi.

G'aroyib tomosha!

- Lekin siz bizga nima uchun may ichish taqiqlanganini aytmasdan keta olmaysiz, - dedim men.

Xristos ardoqli mehmonni xafa qilib

qo'yishimdan xavotir olib, qovog'ini uygancha shoshildi:

- Jim bo'l, Sulaymon. Nima uchun so'rayapsan?

- To'g'risida, - Rumiydan ko'z uzmasdan gapimda turib oldim men. - Mana siz bizni ko'rdingiz. Biz yomon odamlar ekanmizmi? Vaholanki, bizni hamma yomonotliq qiladi. Agar biz tinch yursak va hech kimga xalal bermasak, mayxo'rlik qilishimizning nimasi yomon, menga shuni ayting?

Burchakdagi oyna ochiq bo'lishiga qaramay bu katta xona qorong'u va nam edi. Hamma Rumiy nima deyishini kutib turardi. Men hamma uning javobini qiziqib kutayotganini ko'rib turardim. Rumiy xayolchan, xomush va tamomila hushyor edi. Va u shunday dedi:

*Gar mayxo'r qalbida bo'lsa ezgulik,
May kayfi yashirmas, yashira olmas.
Lek bo'lsa gar unda zarra yovuzlik,
Qancha ichsa hamki, mayla yuvilmas.
Shuning-chun, ey do'stlar, ichmaslik kerak...*

Biz hammamiz mamnun holda, uzoq vaqt uning so'zlaridagi ma'noni tushunishga urinib jum qoldik.

- Do'stlarim, mayni unchalik bezarar deb bo'lmaydi, - dedi Rumiy, lekin endi boshqacharoq, ishonchliroq va qat'iyoq qilib. - U insondagi jamiki eng yomon narsalarni yuzaga olib chiqadi. Biz undan uzoqroq turishimiz kerakligiga shubha qilmayman. O'zimizdagi illatlar uchun mayni ayblamaslik kerak. Kishi o'zidagi takabburlik va boshqa illatlarga qarshi kurashishi kerak. Mana shu muhimroq. Oxir-oqibat kim ichishni istasa, ichaveradi, istamasa, ichmaydi. Biz o'z mas'uliyatimizni o'zgalarga yuklamasligimiz kerak. Din hech kimni hech nimaga majbur etmaydi.

Ba'zilar uni ma'qullab boshlarini irg'itishdi. Men esa donishmandlikni qadah bilan sharaflash kerak, degan ishonch bilan may solingan finjonimni ko'tardim.

- Siz yaxshi insonsiz, sizda ulkan yurak bor, -

dedim men. - Sizning yurish-turishingiz haqida kim nima deyayotganining ahamiyati yo'q, u odamlarning qanday vaysaqiligini hammadan yaxshi men bilaman, lekin hamon bu yerga biz bilan tengma-teng suhbatlashgani kelibsiz, demak, siz juda zo'r va'zxonsiz.

Rumiy menga do'stona qarab qo'ydi. Keyin labiga ham tekkizmagan ikki ko'zachadagi mayni oldi, kechki nimqorong'ulik qa'rida ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Alovuddin

1246 yil, fevral, Konъya.

Keyingi uch haftani ertayu kech otamdan faqat bir narsani - Kimyonи menga nikohlab berishini surashni o'ylab o'tkazdim, lekin buni aytgani o'zimda sira jasorat topmadim. U bilan soatlab xayolan suhbatlashdim, o'ylab qo'ygan jumlalarimni unga takror-takror aytib, durustroq tushuntirish yo'llarini izladim. U bildirishi mumkin bo'lgan barcha e'tirozlar

uchun menda javoblar bor edi. Agar meni Kimyo bilan aka-singilsizlar desa, men u bilan tug'ishgan aka-singil emasligimizni eslataman. Otam Kimyoni juda yaxshi ko'rishini bilganim uchun, agar biz nikoxlansak, u biznikidan qayoqqadir chiqib ketmasligini, doimo biz bilan birga yashashi yaxshiligini aytmoqchi edim. Hammasini o'ylab qo'ygan, faqat otam bilan yolg'iz qola olmayotgandim.

Ammo bir kuni kechqurun unga to'qnash kelib qoldim, lekin bu qulay fursat emas ekan. Oshnalarim bilan uchrashmoqchi bo'lib endi uydan chiqay deb turganimda, ko'chadan ikki ko'za may ko'tarib, otam kirib kelayotgan ekan. Men turgan joyimda qotib qoldim:

- Ota, qo'lingizdagi nima?
- Ha, bumi! - javob berdi u sira xijolat bo'lmasdan. - Bu may, o'g'lim.
- Nima?! - baqirdim men. - Buyuk Mavlono shunchalar o'zgarib ketiptilar! Endi may ichar ekanlarmi?
- O'zingni bos, - degan ovoz keldi orqa

tomondan.

Bu Shams edi. U mendan ko'z uzmay qarab turardi.

- Odam o'z otasi bilan shunday gaplashadimi? Undan qovoqxonaga borib kelishni men iltimos qilgan edim

- Men bu gapdan negadir hayron qolmadim? - dedim men, pichingimni yashira olmay.

Shams xafa bo'lsa hamki, bildirmadi chog'i. Alovuddin, biz buni muhokama etishimiz mumkin, dedi u pinagini buzmay. — Faqat ko'zlarining jahl to'sib qo'ymasa bo'lgani. Keyin boshini yoniga egib, menga qalbimni jilovlash borasida maslahat berdi.

- Qoidalardan birida shunday deyilgan, - dedi u e'tiqoding mustahkam bo'lishini istasang, qalbingni yumshat. E'tiqoding bamisoli qoyatosh, sen esa pardan-da yumshoq bo'lmos'hing kerak. Biz duch keladigan ko'plab hodisalar - xastalik, baxtsizlik, judolik, qo'rqinch kabilar - bizni o'z

muhokamalarimizda xudbinlik va keskinlikni kamaytirishga, odamlarga nisbatan hamdardroq va mehribonroq bo'lishga o'rgatadi. Ba'zilar bu darslardan saboq olib yumshaydilar, boshqalar esa, aksincha, avvalgidan ham qattiqroq bo'la boradilar. Haqqa yaqinlashmoqning yagona yo'li - o'z qalbingni ochmoqlikdir, toki u barcha insonlarni qamrab olsin va unda yana IShQ uchun joy bo'lsin.

- Siz jim tursangiz yaxshiroq bo'lar edi, - dedim uning nutqiga javoban. - Mast darvish gapining menga aloqasi yo'q.
- Alovuddin, uyat! — gapga aralashdi otam. Men rostdan uyalib ketdim, lekin kechikkan edim. Keyingi paytlar otam meni ko'p jig'ibiyron qilganlarini esladim-u, yana badtar tutoqib ketdim.
- Sen mendan rostdan ham nafratlanishingga shubha qilmayman, - dedi Shams. - Lekin sen bir on bo'lsa ham otangni yaxshi ko'rmay qolmaysan-ku! Nahotki uni ranjitayotganiningni ko'rmayotgan bo'lsang?

- Siz esa bilarning hammamizni halok qilayotganingizni nahotki ko'rmayotgan bo'lsangiz?

Evoh, shundan keyin otam lablarini mahkam qisib va o'ng qo'lini baland ko'tarib menga tashlandi. Hozir u meni uradi, deb o'yladim. Lekin unday qilmadi, men esa es-xushimni yo'qotdim.

- Sen meni sharmanda qilding, - dedi otam men tomonga qaramay.

Ko'zlarimdan yosh chiqib ketdi. Yuzimni boshqa yoqqa burdim va kutilmaganda Kimyo bilan yuzma-yuz bo'lib qoldim. U burchak ortida qancha turdi va nimalarni ko'rди ekan? Ko'zlarida qo'rquv bor edi. U hammasini eshitganmikin?

Otam uylanmoqchi bo'lib turgan qizim oldida meni bunday yerga urishidan orlanib ketdim. Tomog'imga nimadir tiqildi, og'zim taxir bo'lib ketdi. Atrofimda hamma narsa gir aylanar, hammayoq vayron bo'layotganday ko'rinardi. Uyda boshqa qolgim kelmay, to'nimni oldim-u,

Shamsni itara solib, o'zimni tashqariga otdim -
Kimyodan ham nari, qolgan hammadan ham
nari, uzoq-uzoqlarga otildim.

Shams

1246 yil, iyun, Konya.

Bu miyasi yo'q shahar ahli samo raqsini shakkoklik deyapti. Ularga qulqoq solsangiz, Xudo har bir narsani o'z musiqasi bilan yaratishga yaratgan, lekin yaratgach, O'zi bu musiqani eshitishni taqiqlagan bo'lib chiqadi. Nahotki ular tabiatdagi har bir narsa kuylab turganini tushunishmasa? Axir koinotdagi har bir narsaning o'z muayyan maqomi bor: yurakning urishida, qushlar qanotlarining silkinishlarida, tunda shamolning derazaga urilishida, temirchi dastgohida metalldai chiqqan ovozida, bular hammasi hali tug'ilmagan bolani ona qornidaligidayoq qurshab turadi... Buyuk musiqanining yaralishida dunyodagi barcha narsalar bor

ehtiroslari va o'z ixtiyorlari bilan qatnashadi. Aylanuvchi darvishlar raqsi - bu cheksiz zanjirning bir bo'g'imi. Bu Ummon suvining bir tomchisida butun ummon gavdalangani kabi go'yo.

Tomoshadan bir necha soat oldin biz Rumiy bilan muroqaba qilish uchun hech kim yo'q xonaga kirdik. Tomoshada qatnashadigan olti darvish ham biz bilan birga edi. Hammamiz tahorat olib, duo qildik. Keyin tayyorlab qo'yilgan kiyimlarimizni kiydik. Biz qanday kiyimlar kiyishimizni ancha oldin kelishib olgan, eng oddiy matolarni tanlagan edik. Mis rangidagi qalpoqlar qabr toshlari rangini, uzun oq yubkalar kafan rangini, qora yoping'ichlar qabr rangini majozi edi. Bizning raqsimiz so'fiylarning «men» haqidagi tasavvurlarini ifodalar edi.

Sahnaga chiqishdan oldin Rumiy dedi:

- *Biluvchi yo'q endi va u faqat tuyg'ularni qoldirib ketdi,*

Faqat olti yo'nalishni tushunmoq bizga qoldi.

Shu tarzda biz tayyor bo'ldik. Eng oldin nay chalindi. Keyin Rumiy samo azonchisi rolini ijro etish uchun sahnaga chiqdi. Keyin birin-ketin darvishlar ham boshlarini kamtarona egib chiqishdi. Eng oxiri shayx chiqishi kerak edi. Men qat'iy ravishda bu rolni o'ynashdan bosh tortdim, Rumiy esa shu rolni o'ynashimni qattiq so'rayverdi.

Keyin Hofiz Qur'onidan yerdagi belgilar haqida oyatlar o'qildi.

Undan keyin nay va rubob ovozlari ostida tavof ohangi yangradi.

*Tingla naydin, chun hikoyat aylagay,
Ayriliqlardin shikoyat aylagay.*

*Men qamish erdim, kesib keltirdilar
Nolishimdin el hama o'rtandilar.*

Oldin birinchi darvish o'zini Xudoga topshirib, aylana boshladi, libosining etaklari ohista shitirlardi. Tez orada biz hammamiz aylana boshladik, nafaqat biz o'zimiz, balki

tomoshabinlar ham Bir Butunlik holatiga yetmagunimizcha aylandik. Osmonlardan nimaniki qabul qilsak, yerga, Xudodan olganlarimizni odamlarga uzata boshladik. Bizlar Oshiqni Ma'shuq bilan birlashtiruvchi zanjir bo'ldik. Musiqa to'xtaganidan keyin hammamiz bir vaqtda koinotning asosiy quvvatlari bo'l mish olov, shamol, tuproq va suvga, shuningdek, beshinchи unsur bo'l mish bo'shliqqa ta'zim qildik.

Tomoshadan keyin Kayxusrav bilan mening oramda bo'lib o'tgan hodisadan afsuslanmayman. Lekin har holda Rumiyni qiyin ahvolga solib qo'yganimdan noqulaylik his etayapman. Dunyoviy qudrat egalaridan tegadigan imtiyozlar va rahnamoliklarga o'rgangan Rumiy hech qachon hukmdordan bunchalik uzoqlashmagan edi. Ammo endi u hech bo'lmasa, oddiy odamlar qanday yashashlarini - hukmdor tabaqa bilan ko'pchilik xalq orasidagi devorning naqadar balandligini

his eta oladi.

Shuning bilan birga, anglashimcha, mening Konyada bo'lish muddatim ham qisqarib bormoqda.

Ishq va do'stlik har safar kutilmagan o'zgarishlarning sababchisi bo'ladi. Agar biz ishqni tuygunimizga qadar qanday bo'lgan bo'lsak, shundayligimizcha qoladigan bo'lsak, demak, bu ishq etarlicha kuchli emas ekan.

Poeziya, musiqa va raqs sirlariga oshno bo'lish miyning shaxsida sodir bo'lgan o'zgarishlarga xotima bo'ldi. U ilgari she'riyatni inkor etgan, o'quvchilariga dars berayotganida yoki hamshaharlaru xutbasini tinglaganlarida o'z ovozidan zavqlanib yurgan olim va va'zxon edi. Endi esa, garchi o'zi buni hali haqiqiy anglab yetmagan bo'lsa hamki, shoirga aylandi. Menga kelsak, men ham o'zgardim va hamon o'zgarayapman. Men borliqdan Hech nimaga o'tish yo'lidan man. Bir davrdan boshqasiga, hayotdan o'limga.

Bizning do'stligimiz Xudoning lutfi, marhamati

bo'ldi. Biz birga mutloq to'liq hayot baxtidan zavqlandik, gullab-yashnadik, quvonchga to'lrik, pishib etildik.

Bobo Zamonning bir vaqtlar aytgan gaplari esimda: dunyoni o'z ipagi bilan qoyil qoldirish uchun ipak kurti o'lishi kerak. Tomoshabinlar ketishgach, Rumiy bilan to'liq sokinlikda o'tirar ekanmiz, bizning rumiy bilan birga o'tkazayotgan vaqtimiz o'z nihoyasiga yetganini angladim. Biz birga bo'la oldik va birga-likda borliq naqadar go'zal bo'lishi mumkinligini o'z boshimizdan kechirdik; biz ikki ko'zgu bir-birini aks ettirgandagi cheksizlik nimaligini angladik. Ammo «Qalbi og'rimaganda Ishq bo'lmaydi», degan qadimgi maqoldan ham qochib qutulib bo'lmaydi.

Ella

2008 yil, 29 iyunъ, Nortgempton.

Azizning: «Har qanday kutilmagan hodisa faqat inson o'z ichidan tayyor bo'lgandagina

sodir bo'ladi», degan fikri Ellaga bahs uchun o'rin qoldirmaydigan fikr bo'lib tuyulgan edi. Lekin hozir u bu hodisaga sira tayyor emas edi: Aziz Ella bilan ko'rishish uchun Bostonga kelipti.

Yakshanba kuni kechqurun Rubinshteynlar oilasi kechki ovqat tanovuli uchun stol atrofiga o'tirganlarida Ella o'z telefoniga SMS kelganiga e'tibor berdi. Pazandachilik klubidagi tanishlardan birontasi bo'lsa kerak, deb o'ylab, darrov o'qimadi, buning o'rniga stolga o'zining maxsus tayyorlagan taomi: qovurilgan kartoshka, piyoz va jigarrang guruch bilan ichiga asal solib pishirilgan o'rdakni tortdi. O'rdakni stolga qo'yganida, hammalari hayratdan bir silkinishdi. Hatto yaqinda Skottni yangi dugonasi bilan ko'rib qolgani uchun ruhiy tushkunlik holatida yurgan Janet ham.

Kechki ovqat cho'zilib ketdi. Yuviqsiz idishlarni idish yuvgich mashinaga solganidan va shokoladli muzqaymoqni tortganidan

keyingina, Ellaning miyasiga xatni o'qish vaqtini kelgani haqidagi fikr keldi.

Salom, Ella.

Men hozir «Smitson» jurnali topshirigi bilan Bostondaman. Hozirgina uchib keldim. Sen bilan uchrashishni istayman. «Oniks»da bo'laman. Kutaman.

Aziz.

Ella telefonii qo'ydi, o'zini noqulay his etib, stol yoniga o'tirdi.

- Xabar keldimi? - so'radi Devid likopdan bosh ko'tarib.

- Ha, Misheldan, - osongina yolg'on to'qidi Ella. Devid azob chekayotgan ko'rinish olib, yuzini o'girdi, keyin sochiqni yaxshilab taxlay boshladi.

- Tushunarli, - dedi u.

Ella erining unga ishonmaganini bilib turardi, lekin o'zining sira shubhalanmayotgani va vijdoni ham qiyalmayotgani qiziq edi. U hech tutilmasdan, xotirjam ovozda dedi:

- Mishel agentlikda ertaga ertalab kelgusi yil katalogi borasida majlis bo'lishini xabar qildi. U majlisda men ham bo'lishimni xoxlayapti.
- Albatta, albatta, - dedi Devid, Ella uning yana ishonmaganini tushundi.
- Men seni ertaga ertalab olib borib qo'yishi mumkin, - dedi Devid. - Faqat bir nechta mijozimni boshqa vaqtga ko'chirsam bo'lgani. Ella o'takasi yorilib eriga qaradi. U nima qilmoqchi? Nahotki, bolalarning ko'z oldida janjal chiqarmoqchi?
- Yomon bo'lmas edi, - javob qildi Ella, o'zini tabassum qilishga majburlab. - Lekin unda ertalab soat yettigacha uydan chiqishimizga to'g'ri keladi. Mishel men bilan majlisga qadar gaplashib olmoqchi ekan.

Unda bo'lmas ekan, - xitob qildi otasining bunday vaqtli uyqudan turishni yoqtirmasligini yaxshi bilgan Orli. — Dadam aslo bunday erta turmaydi!

Ella va Devid bir-birlaridan ko'z uzmay qarab turishardi.

- To'g'ri aytding, - dedi nihoyat, qizining gapini ma'qullab Devid.

Garchi o'zining qizarib ketganini sezib turgan bo'lsa ham, Ella yengil nafas oldi. Lekin shu bilan birga u o'ziga qat'iyat va quvvat quyilganini his etardi.

- Aytmoqchi, hozir erta-ku! Bugun borib tursam ham bo'ladi.

Ertalab Bostonga yetib borish va Aziz bilan nonushta qilish haqidagi xayoldan Ellaning yuragi tez urib ketdi. Lekin ertagacha ham kuta olmas, uni hoziroq ko'rgisi kelardi.

Bostongacha ikki soatlik yo'l, lekin bu uni to'xtata olmas edi. U uni deb Amsterdamdan keldi, bu erda esa atigi ikki soat - nima degan gap.

- Soat o'nda Bostonda bo'laman va ertaga ertaroq turib, majlisdan oldin Mishel bilan gaplashgani agentlikka kiraman.

Devid gapira boshlashi uchun abadiy vaqt kerakday chuyulib ketdi. Ella uning qo'zlarini - o'z xotinini boshqa erkakka ketishining oldini

olish imkoniyati yo'q bo'lgan arning ko'zlarini zimdan kuzatib turar edi. Bostondagi uyimizda yotib qolaman, - dedi Ella chaqchaqlik bilan bolalarga qarab, aslida esa eriga murojaat qilmoqda edi. Uchrashayotgan kishisi bilan o'zi orasida jismoniy bog'lanish bo'lmasligini unga bildirmoqchi edi.

Devid qo'lida vino finjoni bilan stoldan turdi va Ellaga jilmaydi.

- Mayli, azizam, - dedi u. - Ertaroq borib turish yaxshi bo'ladi, deb o'ylasang, boraqol.
- Ana xolos, oyijon, men bo'lsam bugun matematikadan menga yordam berasiz, deb o'ylovdim, - nolidi Avi.
- Esimda, bolajon, kel, shu ishni ertaga ko'chiraylik.
- Oyimni o'z holiga qo'y, - dedi masxaraomuz Orli. - Bir umr uning etagiga osilib yashamaysan-ku!

Avining qovoq-tumshug'i osilib ketdi, lekin hech nima demadi. Orli onasining tarafini olib gapirdi. Janetga esa baribir edi. Ella telefonini

ola solib, yotoqxonasiga yugurdi. Eshikni yopar-yopmas, karavotiga yotib olib, Azizga xabar yoza boshladi.

«Kelganingga ishona olmayapman. Ikki soatda «Oniks» da bo'laman».

Ella deyarli sarosimada xabari jo'nab ketishini kuzatib turdi. Nima qilayapti o'zi? Lekin o'ylashga vaqt yo'q edi. Bugungi kecha haqida afsus chekish uchun hali vaqtি bo'ladi. Hozir esa shoshilish kerak. Yigirma daqiqqa ichida u dush qabul qildi, sochlarini quritdi, tishlarini yuvdi, ko'ylak tanladi, birinchi, ikkinchi, uchinchi ko'ylaklarni kiyib ko'rди, sochini turmakladi, ozroq pardoz qildi, o'n sakkiz yoshga to'lganida Rut buvisi sovg'a qilgan kichkina ziraklarini taqdi, yana ko'ylak almashtirdi. Keyin chuqur xo'rsinib qo'yib, atir sepdi. Yashasin Kelvin Klyayn! Bu shisha shu kunni kutib necha vaqt vannaxonada turganini Xudo biladi. Devidga atir hidi hech qachon yoqmagan. U ayoldan vanil yoki allaqanday o'simlik isi emas, ayol isi kelishi kerak, derdi.

Lekin Ella yevropaliklar bu borada boshqacha fikrda bo'lishsa kerak, deb o'yladi.

Tayyorgarlikni tugatgach, Ella o'zini ko'zguda diqqat bilan kuzatdi. Nima uchun U kelishini oldinroq xabar qilmadi? Buni bilsa edi, go'zallik saloniga, sartaroshxonaga borardi, balki soch turmagini o'zgartirardi. U Azizga yoqmasa, nima bo'ladi? Oralarida hech nima bo'lmasa va u Bostonga kelganiga afsus cheksa-chi?

Lekin shu on Ellaga o'zining sog'lom fikrlashi qaytdi. Nima uchun u o'z tashqi qiyofasini o'zgartirishi kerak? Oralarida biron narsa paydo bo'ladimi yo yo'qmi, buning nima farqi bor? Bu odam bilan munosabatlar bo'lishi mumkin emas. Ellaning oilasi bor. O'z hayoti bor. Uning butun hayoti shu yerda o'tgan, kelajagi ham shu yerda. O'zining ahmoqona fikrlaridan jahli chiqib, ularni go'yo o'chirib tashladi, biroz yengil tortdi.

Soat chorak kam sakkizda Ella bolalarni o'pib, ularga xayrli tun tiladi va uydan chiqdi. Devid

hech qayerda ko'rinmadi.

O'z mashinasiga yaqinlashganida, boshida bironta xam fikr yo'q edi, lekin yuragi dukillab urardi.

BO'ShLIQ

(Yo'q deb hisoblanadigan bor narsalar...)

Sulton Valad

1246 yil, iyulb, Konъya.

Otam zo'rg'a nafas olib, yiqilay-yiqilay degan ahvolda o'z xonasiga kirib keldi. Uning avvalgi ko'rinishi yo'qolgan, go'yo faqat soyasi qolgan edi. Yuzlari kichrayib ketgan, ko'zlarining osti salqigan, qorayib ketgan, kechasi bilan uxmlamagan ko'rinaldi. Lekin meni eng qattiq larzaga solgan narsa bu soqolining oppoq oqarib ketgani edi.

- O'g'lim, menga yordam ber, - dedi u qandaydir begona ovoz bilan.

Men uning yoniga otildim, qo'lting'idan oldim:

- Nima qilay, otajon, ayting.

U bir muddat jim qoldi, go'yo yuz bergan voqeani bor og'irligi bilan ko'tarishga kuchi yetmayotganga o'xshardi.

- Shams yo'q. U meni tashlab ketdi.

Bir on men erkinlik hissini tuydim. Biron so'z aytmadim. Otamga juda achinib ketgan bo'lsam ham, miyamga bu yaxshi bo'ldi, shekilli, degan fikr keldi. Nahotki hayotimiz yana avvalgiday tinch va sokin bo'lsa? Keyingi vaqtarda shu Shamsning dastidan otamning dushmanlari ko'payib ketdi. Men hamma narsa o'z avvalgi iziga tushishini, hayot Shams Tabriziy kelmagan vaqtidagiday bo'lishini juda istardim. Alovuddin ham balki haqli edi. Axir Shamssiz bizga yaxshi bo'lмаганмиди?

- U men uchun qanchalar ahamiyatli ekanini esingdan chiqarma, - dedi otam xuddi fikrimni o'qiganday. - U va men - bir butunmiz. Oyning

yorug' va qorong'u tomonlari bo'lganiday, meni Shamsdan ajratib bo'lmaydi.

Uyalib ketib, boshimni silkitdim. Yuragim achidi. Otamga ortiq hech nima demasligim kerak. Men odamning ko'zida bunchalar ko'p azob jo bo'lishini hech qachon ko'rмагan edim. Tilim birdan g'alati, og'ir bo'lib qoldi. Bir og'iz so'z ayta olmadim.

- Shamsni top... agar topilishni o'zi istasa, albatta. Biznikiga olib kel. Unga mening yuragim qattiq og'riyotganini ayt. Uning yo'qligi meni o'ldirayotganini ayt. Oxirgi gapini u shivirlab aytdi.

Men unga Shamsni olib kelishga va'da berdim. Otam qo'llarimni ushlab olib, shunday minnatdorlik bilan qisdiki, ko'zimni undan olib qochishga to'g'ri keldi. Otam ko'zlarimda qat'iyatsizlik borligini kurib qolishini istamas edim.

Shamsni topish umidida bir hafta Konya ko'chalarini tit-pit qilib chiqdim. Bu vaqtga kelib shaharda hamma uning yo'qolganini bilib

bo'lgan edi, bu haqida turli gap-so'zlar yurardi. Men Shamsni juda yaxshi ko'radigan moxov bilan uchrashdim. U meni darvish yordam bergen juda ko'p baxtsiz odamlar bilan tanishtirdi. Shamsni shuncha odam yaxshi ko'rishini bilmagan ekanman, ular men ko'rmay, e'tibor bermay kelgan odamlar edi. Bir kun kechqurun uyga juda charchab qaytdim. Nima qilsam, yana qayoqqa borsam ekan? Kira menga atirgul yog'I solingan bir likop shovla olib keldi. O'zi yonimda ovqatlanishimni kuzatib o'tirdi. U kulimsirab o'tirardi, lekin yuzlarida azob borligini ko'rib turardim. Keyingi yil ichida u qanchalik qarib qolganini ko'rmaslik mumkin emasdi.

- Shamsni uyimizga qaytarish uchun izlayotgan emishsan. U qayerdaligini bilasanmi? - so'radi Kira.

- U Damashqqa ketgan, degan gaplar bor. Boshqalar esa Isfaxonda, Qohirada deyishayapti, hatto o'z vatani Tabrizda, deyayotganlar qam bor. Otamning shogirdlari

uni boshqa shaharlardan ham izlashayapti.
Kirani yuzlarida xafalik ifodasi paydo bo'ldi,u
xuddi o'ziga-o'zi gapirayotganday shivirladi:
- Mavlono she'rlar yozayaptilar. Go'zal she'rlar,
Shamsning hajri ularni shoir qildi.
Keyin xuddi eron gilamini tomosha
qilayotganday, ko'zlarini pastga tushirib, bir
necha bor xo'rsindi, she'r o'qiy boshladi:

*Ey, yuzimni dahr aro misli qamar qilgan
o'zing,*
*Band-bandim so'ylatib, ahli nazar qilgan
ko'zing.*
*Ey, shamolingdan daraxtim raqs aylab,
o'ynagan,*
*Noming aytsam, og'zimi shahdu shakar qilgan
so'zing.*

Men Kiraning o'z xayollari og'ushida ekanini
tushunib turardim. Uning yuziga bir qarashning
o'zidayoq eri chekayotgan azoblardan qattiq
azobda ekani aniq ko'rinib turardi. U erining

birgina tabassumi uchun hamma narsaga tayyor edi. Shunga qaramay, nihoyat Shamsdan qutilganidan o'zini yengil his etar, hatto xursand ham edi.

- Agar men uni topsam, nima bo'ladi? - deb yubordim beixtiyor va bundan o'zim hayron bo'ldim.

- Nima ham qillardik. Qanday yashagan bo'lsak, shunday yashayveramiz, - javob qildi Kira, uning ko'zlarida umid nurlari porlardi. Men Kira nima istayotganini aniq tushunib turardim. Shams Tabriziyini izlamasligim kerak edi-Damashqqa bormasligim kerak edi. Shahardan chiqib biron mehmonxonada yashash, bir-ikki hafta o'zimni Shamsni tinimsiz izlaganday ko'rsatib qaytishim mumkin edi. Otam gapimga balki ishonishi mumkin edi, hammasi shu bilan barham topardi. Bu balki nafaqat Kira uchun va Shamsni hech qachon yaxshi ko'rмаган Aloviddin uchun, shuningdek, otamning shogirdlari va izdoshlari uchun, hatto o'zim uchun xam eng yaxshi yo'l bo'lar edi.

- Kira, men nima qilishim kerak?
Otamni deb islomni qabul qilgan, menga va
ukamga juda yaxshi ona bo'lgan, o'z erini
bexad sevgan va o'ziga bag'ishlanmagan she'rni
yod olgan bu ayol menga diqqat bilan qarab
qo'ydi va hech nima demadi.
Javobni o'zim topishim kerak edi.

Rumiy

1246 yil, avgust, Konya.

Shams yo'q, quyoshsiz dunyoda quvonch ham
yo'q. U sovuq va qayg'uli, qalbim bo'm-bo'sh.
Kechalari uxmlamayman, kunduzi uyda
bemaqsad sandiroqlab yurganim-yurgan. Go'yo
shu yerdaman-u, lekin shu yerda emasman -
tiriklar orasidagi o'lik. Hamma meni
asablantiradi. Nima uchun hamma xuddi hech
nima bo'lmaganday, bemalol yashayapti-ya?
Shams Tabriziy bo'lmasa, hayot o'zgarmasligi
mumkinday go'yo.

Har kuni erta tongdan to kechgacha

kutubxonamda Shamsni eslayman. Masalan, bir kuni menga o'zining odatdagi sal xirildoq ovozi bilan «Sen bir kunmas bir kun ishq kuychisi bo'lasan» degan edi.

Kim bilsin, kim bilsin... Lekin bu so'zlar qalbimdagi zulmatni engishimga yordam berayotganga o'xshayapti. Balki Shams shuni istagandir. U mening shoir bo'lishimni istagan bo'lsa kerak!

Hayot ezgulikka yo'nalgan. Nimaiki sodir bo'lmasin kattami yo kichik - biz yengib o'tadigan barcha qiyinchiliklar, mohiyatan, Xudoning, biz komil bo'lmosg'imiz uchun tuzgan, muqaddas rejasiga kiradi. Kurash - bu inson bo'lishni istagan kishining ichki ishi.

Shuning uchun Qur'onda «...Bu yon esa mo'minlarning qutulish yo'lidir» deya alomat-belgilar qo'yilgan. Xudoning chizgisida tasodif yoki to'g'ri kelib qolish degan narsalar yo'q. Va Shams Tabriziy deyarli ikki yil oldin aqrab oyining o'sha kunida mening yo'limdan chiqib qolgani ham tasodif emas edi.

- Meni sening oldingga shamol uchirib kelmadi, - degan edi Shams.

Keyin menga o'z rivoyatlaridan birini aytgan edi:

- Bir so'fiy bo'lgan ekan, unga hatto Iso nafaslik yuksak ilmi nasib etgan ekan. Garchi faqat bitta shogirdi bo'lgan esa-da, shuning o'ziga ham rozi ekan. Lekin shogirdi boshqacharoq ekan. Ustoziga boshqalar ham qoyil qolishlarini istab, ko'proq shogirdlar olishini undan hadeb so'rayveripti.

- Yaxshi, - rozi bo'lipti nihoyat ustozি. - Shuni istasang, mayli, yana shogirdlar bo'lsa bo'la qolsin.

O'sha kuniyoq ular bozorga borishipti. Bir joyda qush shaklidagi shamlar sotuvga qo'yilganini ko'rishipty. Ustoz shamlarga sekingina puflagan ekan, ularga jon kirib, shamolda uchib ketishipty. Qoyil qolgan tumonat shahar ahli ustoz yoniga to'planibdi. Tez orada shogirdlar shunchalik ko'payib ketiptiki, ustozning birinchi shogirdi bilan

uchrashishi uchun sira vaqtি qolmaydigan bo'lipti.

- Oh, ustoz, men nohaq ekanman. Avvallari ancha yaxshi yashagan ekanmiz, - debdi xafa bo'lib shogird. - Biron chora ko'ring. Iltimos, ularni haydang.
 - Yaxshi. Sen shuni istasang, hayday qolaman. Ertasi kuni ma'ruza o'qiyotib, ustoz shamol ko'taripti. Shogirdlar qo'rqb ketishipti va birin-keti unga orqalarini o'girib keta boshlashipti. Faqat avvalgi shogird qolipti.
 - Xo'sh, sen nima uchun boshqalar bilan ketmading? - so'rapti ustoz.
 - Men sening huzuringga birinchi shamoling uchun kelmagan edim, - javob beripti shogird, - va bu shamoling uchun seni tashlab ham ketmayman.
- Shams nimaiki qilgan bo'lsa, mening foydam uchun qildi, menga yaxshi bo'lsin uchun qildi. Shahar ahli buni tushunmadi. Shams g'iybatlar shamolini ataylab qo'zg'atdi, odamlarning jig'iga tegdi, Konya aholisi uchun shakkoklik

bo'lib ko'rindigan gaplarni aytdi. U hatto o'zini yaxshi ko'radigan odamlarni ham qo'rqitib, jig'iga tegdi. Shams men o'zimning oldingi bilimlarimni unutmog'im uchun kitoblarimni suvga otdi. Garchi hamma uning shayxlar va olimlarni yomonlab gapirganlarini eshitgan bo'lalar ham, aslida o'zi muqaddas matnlarni qanchalar chuqur tafsirlay olishini juda kamchilik biladi. Shamsning alkimyo, nujum, ilohiyotshunoslik, falsafa va mantiqdan ilmi chuqur edi, lekin o'z ilmlarini johil odamlardan uzoqda, yashirin saqlardi. U faqih edi, lekin o'zini faqirday tutardi.

U fohishaga uyimiz eshigini ochdi, bizni u bilan birga yashashga va birga tanovullar qilishga majbur qildi. U meni qovoqxonaga yubordi va u yerda ichkilikbozlar bilan suhbatlashishimga maslahat berdi. U meni, moxov bo'lish qismati nimaligini bilishim Uchun, o'zim xutba o'qib kelgan machit darvozasi ro'parasida tilanchilik qilishga majbur etdi. U meni oldin o'z muxlislarim va

izdoshlarimdan, keyin aslzodalardan ajratib oldi va oddiy odamlarga yaqinlashtirdi. Faqat u tufayli men odatda sira tanimay yonlaridan o'tib ketadigan odamlar bilan tanishdim. Shams odamlarni Xudodan ajratadigan barcha butlarni yo'qotish kerak deb hisoblardi. Uning uchun shon-sharaf, boylik, hatto diniy aqidalarda ham butga aylanuvchi jihatlar bor edi. Shams odatlangan hayot tarzimdagi meni bog'laydigan barcha aloqalarim iskanjasini ancha bo'shashtirdi. Ongimdag'i cheklanish yo bid'atni ko'rib qolgan zahoti, vaqtni zoe ketkazmay, raqibni darhol gumdon qilardi. Men uni deb, meni eng ishonchli muxlislarimdan ham ajratib yuboradigan, barcha sinov va tekshiruvlardan, barcha daraja va bosqichlardan o'tdim. Muxlislarim juda ko'p edi, endi esa menga hech kim kerakmas. Shams ketma-ket zarba beraverib, butun obro'-e'tiborimni chilparchin qildi. U tufayli men telbalikning qadr-qimmatini angladim va yolg'izlik, nochorlik, g'iybat, tarkidunyochilik,

nihoyat, qayg'u va umidsizlik ta'mini totdim.

*Kirim foydasidan kech, nari qoch undan!
Aslo Haqdan kechma zaqqum ichsang ham!
Haq izlashdan tolma, xatardan qochma!
Shonni unutgin-u, vijdondan kechma!*

Zero, Xudo har kuni, har daqiqa bizdan «Seni dunyoga yuborayotib, nimaga kelishganimiz esingdami? Mening yashirin xazinamni kashf etishday vazifangni anglab yetdingmi?» deya so'rab turadi. Odatda biz bu savollarga javob berishga tayyor bo'lmaymiz. Va bu bizni qo'rqitadi. Lekin Xudo sabr qilguvchi (Sobir)dir. U takror va takror bu savollarini bizga beraveradi.

Agar qalbimdagi bu azoblar sinovning bir qismi bo'lsa, u holda bular nihoyasi mening yagona tilagim - Shamsni topishdir.

Kitoblarim, masjiddagi xizmatlarim, oilam, farovon hayotim, nomim va shonim - hamma-hamma-sini uni bir bora ko'rish uchun berishga

tayyorman.

Tunov kuni Kira, o'zim istamagan holda, shoirga aylanayotganimni aytdi. Ilgarilari she'riyatni qadrlamaganimni bo'ynimga olaman, lekin uning bu gapi hozir meni hayron qilmadi. Boshqa vaqt bo'lganida, balki e'tiroz bildirgan bo'lardim, endi esa - yo'q.

G'ayriixtiyoriy ravishda tilimdan she'riy misralar otlib chiqayapti, uni eshitgan har qanday odam meni chindan ham shoirga aylanayapti, deb o'ylaydi. Lekin, to'g'risini aytsam: bu she'rlar meniki emas. Men faqat kimdir tilimga joylayotgan so'zlarni uzatish vositasi bo'layapman, xolos. Men she'rlarni qog'ozga tushirayotgan qalam kabiman yoki bastalangan kuyga ovoz bergen nay kabiman, o'z vazifamni bajarayapman, xolos.

O, Tabrizning mo'jizaviy quyoshi!

Qayerdasan?

Shams

1247 yil, aprelb, Damashq.

Damashqda bahor. Sulton Valad meni izlab topganida Konyadan ketganimga o'n oy bo'lgan edi. Frantsisk ismli xristian-tarkidunyochi bilan tiniq moviy osmon ostida shaxmat o'ynab o'tirgan edik. Fransisk mo'minlikka erishgan, ichki muvozanati mustahkam inson. Islomda ichki sokinlik mo'minlikdan kelib chiqishi nazarda tutilgani uchun, mening nazdimda, Fransisk o'zini musulmon deb hamma yoqqa jar soladigan ba'zi birovlardan ortiqroq musulmon edi. Qirqinchi qoida bu borada shunday deydi: «Mo'min degani zaiflik yoki itoatkorlik degani emas. U fatalizm yoki beixtiyor bo'ysunuvchanlikka ham olib kelmaydi. Aksincha. Mo'minlikda inson ichki dunyosida o'sib unadigan haqiqiy kuch mavjud bo'ladi. Tabiatning muqaddas mohiyati oldida mo'minlikni kasb etgan odam, hatto butun olam alg'ov-dalg'ov bo'lib ketganda ham, vazmin, sokinlikda va isyon ko'tarmay

yashaydi».

Men farzin bilan yurish qilib, Fransiskning qiroliga taxdid qildim, u esa shartta filning o'rnini almashtirdi. Men yutqazsam kerak deb o'ylab, boshimni ko'targan edim, ko'zim Sulton Valadning ko'zi bilan to'qnashdi.

- Seni ko'rganimdan xursandman, - dedim men. Demak, harna, meni qidirib topishga qaror qilbsan-da.

Sulton Valad istehzoli jilmaydi, keyin jiddiylashdi: uning ichida kechgan kurashni men bilganimdan hayron edi u. Lekin vijdoni toza bo'lgani uchun to'g'risini tan oldi.

- Bir muncha muddat sizni izlash o'rniga xdmma yoqda sandiroqlab yurdim. Lekin keyin otamning oldiga sizziz bora olmasligimni tushundim. Keyin Damashqqa keldim va izladim. Sizni topish uncha oson bo'lindi.

- Sen yaxshi insonsan va yaxshi o'g'ilsan,- dedim men. - Yaqin orada sen otangga juda yaxshi suhbatdosh bo'lishing mumkin.

Sulton Valad xayolchan bosh chayqadi:

- Unga faqat siz keraksiz. Ketdik Konyaga. Siz otamga keraksiz.

Buni eshitgach, miyamdan turli fikrlar o'tdi, lekin ulardan birontasi aniq emas edi. Nafsim odamlar meni sira ko'rishni istamaydigan joyga qaytish haqidagi bu taklifga qo'rquv bildirayotgan edi.

«Unga qulq solma. Sen o'z burchingni ado etib bo'lding. Konyaga qaytishing kerak emas. Bobo Zamon aytgan gapni esla. Bu juda xatarli. Agar Konyaga qaytsang, u yerdan boshqa keta olmaysan».

Men dunyo kezishni, turli odamlar bilan uchrashishni, turli shaharlarni ko'rishni yaxshi ko'raman. Menga Damashq yoqardi, kelgusi qishgacha shu yerda qolishni istardim. Yangi joylar odatda odamda yolg'izlik hissini uyg'otadi, hijron azobiga soladi. Lekin Xudo men bilan birga ekani uchun, men o'zimni yolg'iz his etmas edim.

Lekin har holda... Har holda yuragim Konyada qolganini his etar edim. Rumiyni shunchalik

sog'inar edimki, hatto ismini aytish ham yuragimga og'riq berardi. Hamon yonimda Rumiy yo'q ekan, qaysi shaharda yashashimning nima farqi bor?

Men farzinni yurdim, bu men uchun xavfli ekanini tushungan Frantsisk ko'zlarini katta ochdi. Ammo shaxmatdan farqli o'laroq, hayotda shunday yo'llar bo'ladi- ki, ularda yutib chiqmoq uchun emas, shunday qilish kerakligi uchun yurasiz.

- Iltimos, men bilan yuring, - xayolimni bo'lib yalinardi Sulton Valad. - Sizni g'iybat qilgan va sizga yomon munosabatda bo'lgan odamlar o'z qilmishlariga pushaymon bo'lishgan. Va'da beraman, endi hammasi yaxshi bo'ladi.

Men unga: «Ey, bolakay, va'da berish sening ishing emas, boshqalarning ham ishi emas, kishi o'zi ustidan chiqa olmaydigan va'dalarni berishi mumkin emas» degim keldi.

Lekin buning o'rniga bosh silkitdim:

- Damashqda kun botishini yana bir bor ko'rgim kelayapti. Konyaga esa ertaga ertalab

ketamiz.

- Rostmi? Rahmat! - xitob qildi Sulton Valad. - Bu otam uchun nima ekanini bir tasavvur etsangiz edi!

Keyin men qachon o'yinni davom ettirishimni sabr bilan kutib o'tirgan Frantsiskka o'girildim. O'ziga e'tibor qaratganimni kurgan zahoti uning lablariga tabassum yoyilib ketdi.

- Qara, do'stim! - dedi u g'olibona. - Shoh va mot.

Kimyo

1247 yil, may, Konya.

Qochoq Shams Tabriziy hayotimga qaytib keldi. Lekin u juda o'zgarib ketipti va endi mendan nari yurayapti. Konyaga qaytish unga yoqmagan ko'rindi. Shunga qaramay, u yoshargan va chiroyliroq ko'rindi, uzun sochlari ko'ziga tushib turipti, Damashq quyoshida toblanipti. Lekin yana allanima borday ko'rindi. Nima? Qanday tushunish

mumkin? Ko'zlari dadil chaqnayapti, lekin qarashlari men odatda ko'rib yurganimday emas. Va Shamsning qarashlari hamma narsa haqida hammasini biladigan, lekin hech kim va hech nima bilan kurashishni boshqa istamaydigan odamning qarashlariga o'xshab qolgani haqidagi fikr miyamdan chiqmay qoldi.

Rumiyda sodir bo'lgan o'zgarish bundan ham jid- diyroq edi. Men, Shams qaytib kelsa, bas - ustozning azoblari o'tib ketadi, deb o'ylagan edim, bunday bo'lmedi. Rumiy Shamsni shahar devori tashqarisida gullar bilan kutib oldi. Lekin birinchi quvonchli kunlar o'tib ketdi, Rumiy yana o'z qobig'iga o'ralib oldi, yana notanish bezovtalik qaytib keldi. Men buning sababini bilaman, deb o'layman. U bir marta Shamsni yo'qotdi, endi yana yo'qotish mumkinligidan qo'rqayapti. Uni mendan boshqa kim tushunardi, chunki men ham uni yo'qotishdan qo'rqayotgan edim.

Mening o'z hissiyotlarim bilan bo'lishadigan

yagona insonim Rumiyning marhuma xotini Gavhar edi. Uni inson deb bo'lmaydiku-ya, lekin men uni arvoх degim ham kelmaydi. Rumiyarnikiga kelgan birinchi kunimdan buyon u hamisha men bilan birga. Avvallari u bilan hamma narsalar haqida gaplashar edik, endi esa faqat Shams haqida gaplashamiz.

- Rumiy juda qiynalayapti, men unga yordam berishni istayman, - dedim bugun Gavharga o'z tashvishlarim bilan bo'lishib.

- Balki, bu qo'lingdan kelar. Ertalab uning miyasiga bir fikr keldi, hali buni hech kimga aytgani yo'q, - gapimga jumboqli qilib javob berdi Gavhar.

- Qanday fikr ekan?

- Rumiy, agar Shams uylansa, shaharliklar unga nisbatan ancha xayrixohroq bo'lishlari mumkin, deb hisoblayapti. G'iybatlar kamayardi, Shams Konyadan boshqa qochib ketmasligi ham mumkin bo'lardi.

Mening yuragim qinidan chiqay dedi. Shams uylanadi! Kimga?

Gavhar menga ohista qarab ko'ydi va dedi:

- Rumiy seni Shamsga tegishga rozi
bo'larmikansan, deb o'ylayapti.

Men qattiq xayajonga tushdim. Va gap turmushga chiqishim haqidagi fikr hozircha miyamga kelmaganida emas edi. Men o'n beshga to'lganman, demak, turmushga chiqadigan yoshdaman, lekin, bilamanki, qizlar turmushga chiqqanlaridan keyin hayotlari o'zgaradi va o'zlari ham o'zgarishadi.

Atrofdagilar ularga boshqacha munosabatda bo'lishadi, hatto bolalar ham turmushga chiqqan ayol bilan qiz bolaning farqiga borishadi.

Gavhar mehr bilan jilmaydi va qo'limni ushladi. Meni Shams bilan birga bo'lishim emas, faqat erga tegish fikrining o'zi bezovta qilayotganini u yaxshi tushunardi, albatta.

Ertasi kuni tushga yaqin Rumiyni axtarib topdim, u Ibn Rushdning «Taxofut-Taxofut» nomli kitobini o'qib o'tirgan ekan.

- Ha, Kimyo, - dedi u mehribonik bilan, -

mendan nima istaysan?

- Esingizdami, otam meni Konyaga olib kelganlarida, siz qiz bola yaxshi o'quvchi bo'la olmaydi, chunki u turmushga chiqib ketadi va bolalarni parvarish qilishi kerak bo'ladi, degan edingiz.
- Albatta, esimda, - javob berdi Rumiya va ko'zlarida qiziqish alomati paydo bo'ldi.
- O'sha kuni men o'zimga hech qachon turmush qurmayman va doimo o'quvchi bo'lib qolaman, deb va'da bergen edim. - Shunday degach, jim bo'lib qoldim, chunki aytmoqchi bo'lgan gapimni aytishdan qo'rqayotgandim.
- Balki turmushga chiqsam ham, sizning uyingizda qolishim mumkindir? Shu uyda yashaydigan odamga turmushga chiqsam, demoqchi edim.
- Sen Alovuddinga turmushga chiqishni istaysanmi? - so'radi Rumiya.
- Alovuddinga? - so'radim men, nima uchun bu suhbatga Alovuddin aralashib qolganini tushunmay. Nima uchun u Alovuddin haqida

gap ketayapti deb o'yladi? Alovuddin o'z tug'ishgan akamday-ku!

Chamasi, Rumiy hayron bo'lganimni payqadi.

- Yaqinda Alovuddin seni unga nikohlab berishimni mendan so'ragan edi.

Men gung bo'lib qoldim. Yaxshiki, turmushga chiqish masalasida qiz bola ortiqcha gapirmasligi kerak degan qoida bor. Lekin men ko'proq bilishim kerak edi.

- Siz unga nima deb javob berdingiz, ustoz?

- Men oldin sendan so'rashim kerakligini aytdim.

- Ustoz... - Men jim bo'lib qoldim, chunki ovozim chiqmay qoldi. - Men oldingizga Shams Tabriziyga tur-mushga chiqishni istashimni aytgani kelgan edim.

Rumiy ishonqiramay menga qaradi.

- Ishonching qat'iymi?

- Bu har tomonlama yaxshi bo'lardi, - qiynalib dedim men. - Shams oilamiz a'zosiga aylanardi, yana U yerdan qochib ketishiga ham to'g'ri kelmasdi.

- Sen shuning uchun unga turmushga chiqmoqchimisan? U Konyada qolsin uchunmi?
- Yo'q, - javob berdim men. - Ya'ni, ha, lekin faqat shu uchun emas... Shams - mening taqdirim ekaniga ishonaman.

Aslida bu Shams Tabriziyni sevishimni bo'yninga olganim edi.

To'y haqida birinchi bo'lib Kira bildi. U to'satdan paydo bo'lgan bu yangilikni hayrat bilan, mutlaqo sukut saqlab eshitdi va faqat taajjubda jilmayib qo'ydi. Keyin menga savollar yog'dirdi:

- Shuni istayotganing aniqmi? Yoki shunchaki Rumiya yordam bering kelganidan shunday deyapsanmi? Axir hali juda yoshsan!

Yoshingga yaqinroq odamga tegsang, yaxshiroq bo'lishi haqida o'ylab ko'rdingmi?

- Shams ishqda har qanday chegara yo'qoladi deydi.

Kira og'ir xo'rsindi.

- Oh, qizaloq, hammasi shunchalik oson bo'lsa

koshki edi, - dedi u o'zining oqargan soch tolalarini ro'moli ostiga olarkan. - Shams - darbadar darvish bo'lsa, u hech qanday qonunga bo'ysunmasa. Bunday erkaklarga oilaviy hayot to'g'ri kelmaydi, ular yaxshi er bo'la olishmaydi.

- Hechqisi yo'q, u o'zgaradi, - dedim men qat'iyat bilan. - Men unga shuncha ko'p muhabbat va baxt berayki, albatta, o'zgaradi. U yaxshi er va yaxshi ota bo'lishni o'rganadi. Vassalom. U menga diqqat bilan qaradi va boshqa e'tiroz bildirmadi.

O'sha tun men juda yaxshi uxladim. O'zimga ishonchim qat'iy edi va g'alaba kayfini surardim. Axir ayollarning azaldan soddadillik bilan asrlar bo'yi, o'z muhabbatim bilan sevgan insonimni o'zgartira olaman, deb yo'l qo'yib keladigan eng oddiy va eng og'riqli xatoni takrorlayotganimni qayoqdan bilibman?..

Kira

1247 yil, may, Konya.

Ishqday nozik mavzu ustida gap ketganda e'tiroz bildirish juda qiyin. Bu xuddi shamolni to'xtatishga urinishday ish. Garchi shamol vayrongarchilik olib kelishini bilib tursang hamki, to'xtatolmaysan. Shuning uchun Kimyoni ko'p ham savolga tutmadim, lekin buni Kimyo meni ishontirgani uchun emas, balki uning ko'zlarida ishq borligi uchun qildim. So'rab-surishtirishdan ne foyda? Kuchim etmaydigan boshqa hodisalar ni ham qabul qilgan kabi bu to'yni ham qabul qilishga to'g'ri keldi.

Ramazon oyi tayyorgarlik ishlari bilan tez o'tib ketdi. Bo'ladigan to'y oqibatlari haqida o'ylashga bir daqiqa ham bo'sh vaqt bo'lindi. Iyd bayrami yakshanbaga to'g'ri keldi, to'rt kundan keyin esa Kimyoni Shamsga uzatdik. Kecha nikoh arafasida mening kayfiyatimni butkul o'zgartiradigan bir hodisa bo'ldi. Oshxonada mehmonlarga non yopish uchun

xamir qorayotgan edim. O'zimdan o'zim xamirdan kichik zuvala uzib olib, shakl yasay boshladim. Bibi Maryamning, Iloh Onasining shakli hosil bo'ldi. Pichoqda uzun ko'ylak qirqdim va yuziga sokinlik, mehribonlik ifodasini berdim. Bu mashg'ulotga qattiq berilib ketganimdan, orqada kimdir kelib, qarab turganini sezmabman.

- Nima qilayapsan, Kira?

Yuragim qinidan chiqib ketay dedi. O'girilib, eshik oldida meni qiziqsinib kuzatayotgan Shamsni ko'rdim. Eng oldin qo'limdagi shaklni berkitmoqchi bo'ldim, lekin juda kech bo'lган edi. Shams yaqinroq keldi va men yasagan narsaga qaradi.

- Bu Bibi Maryammi? - so'radi u, men javob bergach, o'zining nurlanib turgan yuzini menga burdi. 1 U zal chiqipti. Sen uni qo'msab turasanmi?

- Men musulmonlikni qabul qilganimga ko'p bo'l-gan. Va men musulmonman, - dedim shasht bilan.

Lekin Shame xuddi meni eshitmaganday gapida da- vom etdi:

- Islomda Maryam kabi ayollar nima uchun yo'q, deb o'ylasang kerak? Albatta, Bibi Oysha, Bibi Fotimalar borliklarini bilasan, lekin ular sening nazdingda sen o'ylaganday o'rinda emas, boshqacharoq.

Men o'zimni noqulay his etardim va nima deyishni ham bilmasdim.

- Ruxsat etsang, bir rivoyat aytaman.

Turli shaharlardan kelib qolgan to'rt kishi

- turk, arab, fors va yunon ittifoqo bozor yonida- gi chorrahada uchrashib qoladilar. Bir olivyjanob kishi ularga bir dirham sadaqa qilib o'tib keta- di. Dirham o'rtada, chunki unda har birining haqqi bor. Bu pulga biror egulik sotib olmoqchi bo'ladi- lar. Shunda fors - angur, turk - uzum, yunon - istafil, arab - eynabemoqchilagini aytadi. Orada janjal ko'tariladi.

To'rtalalari ham ayni bir narsa - uz- umni xohlayotgan bo'lalar-da, bir-birining tilini tushunmaganlari uchun yoqa bo'g'ishib

ketadilar. Shu ora-da tasodifan yonlaridan so'fiy o'tib qolipti. So'fiy ularning pullariga uzum sotib olipti. Keyin uni idishga solib ezipti va ularga uzumning faqat sharba- tini ichishni, qolgan narsalarni esa chiqarib tashlash- ni tavsiya etipti. Bu bilan u asosiysi mevaning tashqi shakli emas, ta'mi ekanini uqtiripti. Rivoyat bugungi kun uchun ham aktual. To'rt kishi tushunmay turgan bitta so'zni, to'rttovining tilini tushunadigan boshqa bir inson oralaridagi nizoni hal qiladi. Bugungi hayotda ham odamlar (millatlar, turli din vakillari) bir-birlarini tushunmoqlari uchun faqatgina zohiran til bilmak etarli emas, bal-ki botin tilini ham bilmak, anglamak kerak. Ayniqsa, bugungi globallashuv va global krizislar davrida bu juda zarur).

- Xristianlar, yahudiylar, musulmonlar odatda mevaning tashqi shakli borasida bahs yuritadilar, so'fiy uchun esa mohiyat muhim, - dedi Shame quvnoq tabassum bilan.
- Men... men buni to'g'ri deb o'ylamayman, -

dedim tutilib.

- Nima uchun? Dinlar misoli daryolar. Hammasi bir ummonga qarab oqadi. Xudo Onasi insonlarga yupanch, hamdardlik, beminnat muhabbat baxsh etadi. U hammamizga va har birimizga tegishli. Musulmon bo'lgach, sen baribir uni yaxshi ko'rishda davom etishing mumkin va hatto qizingni Maryam deb atashing mumkin.

- Mening qizim yo'q.

- Bo'ladi.

- Qayoqdan bilasiz?

- Bilamanda.

Buni eshitgach, hayajonim kuchaydi, lekin keyin ha-yajon o'rniga sokin xotirjamlik keldi. Sokinlik va allaqanday uyg'unlik hislari ta'sirida birgalikda Bibi Maryam shakliga qarab turdik. Yuragimdagi muz eridi, Shams uyimizga kelganidan buyon birinchi marta men unda Rumiy hamisha ko'radigan insonni - katta qalbli insonni ko'rdim.

Shunga qaramay, uning Kimyoga yaxshi er

bo'lishiga shubham tarqalmadi.

Ella

2008 yil, 29 iyun, Boston.

Boston oteligacha yaqin, juda yaqin qoldi. Bu vaqt ichida qattiq asabiylashganidan Ellaning fikrlari tamoman chalkashib ketdi.

Mehmonxonaning kutish joyiga kirganida, yaponiyalik turistlar yurganini ko'rди - devorlardagi rasmlarni go'yo diqqat bilan kuzatayotganday, aslida esa - atrofdagi odamlarning ko'ziga tashlanmaslik uchun - u yoqdan-bu yoqqa yura boshladи. Lekin qiziquvchanligi uni tezgina engdi. Ko'zlarini devordan olgan zahoti, u o'zini kuzatib turganini ko'rди.

U, barcha tugmalari taqilgan xaki (mosh) rangidagi ko'ylak va velvet shim kiygan edi. U ikki kun soqol olmagan ko'rindi, lekin bu unga yarashgan edi. Qizg'ish-qo'ng'ir jingalak sochlari yashil ko'zlari ustiga tushib turar, bu

esa unga o'ziga ishonganlik bilan birga, ajablanarlisi, sho'xchan tus berib turardi. Qotmadan kelgan va ozg'in, engil va navdadek egiluvchan bu odam buyurtma berib tiktiriladigan qimmatbaho kiyimlardagi Devidning butkul aksi edi. Ella uning nutqida o'zini maftun etgan shotlandcha talaffuz borligini sezdi, boz ustiga kulgusi samimiyligi edi. U quvonchi va hayajonini yashirmas edi. Shunda Ellaning ko'nglidan, «u bilan birga o'tirib, bir finjondan qahva ichsa, buning nimasi yomon?» degan xayol o'tdi. Keyinroq esa bu bir finjon qanday qilib bir qancha finjonga aylanib ketganini, nima uchun u barmoqlarini o'pa boshlaganini va nima uchun o'zi uni to'xtatmaganini ham eslay olmadi. Biroz vaqtdan keyin esa hech nimaning ahamiyati yo'q bo'lib qoldi. U gapirar, Ella esa uning lablari atrofidagi chuqurchalardan kuz uzmay, agar men uni o'psam qanday bo'larkin, degan xayolda unga qulog solib o'tirardi. Soat o'n bir yarim bo'ldi. U faqat yozgan elektron

xatlarida o'zi haqida ma'lumot bergan, yozgan romanidan boshqa hech nimani bilmaydigan erkak bilan otelda o'tirar edi.

- Demak, jurnal topshirig'i bilan bu yerga keldingmi? - so'radi Ella.

- Aslida seni deb keldim, - dedi Aziz. -

Xatingni oldim-u, seni juda ko'rgim keldi. Ella hali qaytish uchun vaqt borligini tushunib turardi. Ma'lum muddatgacha oralaridagi munosabatni faqat do'stona-virtual xatlar, telefondagi gaplashishlardangina iborat qilib ko'rsatib turish mumkin edi. Birozgina noz-karashma qilgan bo'lsa nima bo'lipti? Ha, buni to'xtatish mumkin edi. Toki Aziz: «Ella, mening nomerimga chiqishga qarshi emasmisan?» deb so'ramagunicha bu mumkin edi.

Agar bu o'yin bo'lgan bo'lsa, ular ikkisi ham bu o'yinni shunga qadar o'ynashdi. Lekin bu savoldan keyin hammasi o'z o'rnini topdi, go'yo bu savol har ikkisi ham bilib turgan, lekin tan olmaslikka urinayotgan haqiqatni ochib

qo'ygan edi. Ellaning hushi boshidan uchdi, sarosimaga tushdi, lekin rozi bo'ldi. U hayotda hech qachon bunchalik tez qaror qabul qilmagan edi; lekin bu taqdirdan ekanini anglab turardi.

Olti yuz sakkizinchı nomer qora, qızıl va novvotranglarda chiroyli bezalgan edi. Xona keng va iliq edi. Ella oxirgi marta qachon otelda bo'lganini eslashga urindi. Eri va bolalari bilan ancha ilgari Montrealga borgani esiga tushib ketdi. Undan keyin esa yozni Rodosda, o'z uylarida o'tkazadigan bo'lishgan edi, har kuni sochiqlarni almashtiradigan, kimdir begona odam ovqat pishiradigan joylarda yurishga hojat qolmagan edi. Otel nomerida Ella o'zini begona yurda bo'lib qolganday his etardi.

Balki, chindan ham shunday bo'lsa kerak. Seni hech kim bilmaydigan va sen ham hech kimni bilmaydigan joydagina bo'lishi mumkin bo'lgan erkinlikdan zavqlanish hissini u aynan shu yerda tuymayaptimi, axir.

Ella xonaga kirgan zahoti asabiylashmay qo'ydi. Endi hech nimaning ahamiyati ham qolmagan edi, zero xona markazida qirollarnikiday hajmlı karavot turardi. Karavot yonida Ella o'zini noqulay sezar va aybdorlik hissini tuyardi. U hozir o'ziga-o'zi berishi ham keraksiz bo'lgan, hech qanday natija bermaydigan savollarni berishga qarshi kurash olib borardi. Ular shuncha tez qovushadilarmi? Shunday bo'lishi kerakmi o'zi? Agar shunday bo'lsa, erining ko'zlariga qanday qaraydi? Devid o'zining sanoqsiz yurishlaridan keyin uning yuziga qaramagan. Aziz uning qomati haqida qanday xayollarga borarkan? Unga men yoqmasam-chi? Endi bolalar haqida o'ylashim mumkinmikin? Nima bo'lsa ham, ular hozir nima qilishayotgan ekan, uxlashayotganmikin? Yo televizor ko'rishayotganmikin? Agar ular uning hozir qiladigan ishini bilsalar, kechirarmikinlar?

Uning holatini tushungan Aziz Ellaning qo'ltig'idan oldi va karavotdan uzoq, burchakda

turgan kresloga o'tqazib qo'ydi.

- Tinchlan, - shivirladi u. - Hozir boshingda ovozlar haddan tashqari ko'p. Ovozlar guvullayapti.

- Afsuski, biz ancha ilgari bir-birimizni uchratmagan ekanmiz, - o'z ovozini eshitdi Ella.

- Hech nima haddan ziyod erta yoki haddan ziyod kech bo'lmaydi, - e'tiroz bildirdi Aziz. - Barcha hodisalar o'z vaqtida sodir bo'ladi.

- Sen rostdan bunga ishonasanmi?

Aziz jilmaydi va peshonasidagi sochlarini nari qilish uchun boshini silkitdi. Keyin jomadon ochib, Gvatemalada sotib olgan ro'molni, ichida feruzarang marjoy va aylanuvchi kumushrang darvishlar tasviri tushirilgan qizil rangli dumaloq marjonlari bor kichkina qutichani oldi.

Ella Azizga marjонни bo'yniga taqib qo'yishi uchun izn berdi. Uning barmoqlari tekkan joydagi terisi bilan ularning iliqligini sezdi.

- Sen meni seva olasanmi?

- Men allaqachon seni sevaman, - dedi jilmayib Aziz.
- Lekin sen meni sira bilmaysan-ku!
- Seni sevish uchun men seni bilishim kerak ham emas.

Ella xo'rsindi:

- Bu telbalik.

Aziz qo'llarini uzatdi va Ellaning sochlaridagi to'g'nog'ichlarni sug'urib oldi, keyin mehr bilan uni etaklab borib, karavotga o'tqazdi, sochlarini ohista silay boshladi. Shu alfozda u tinmay nimalarnidir pichirlar edi. Ella birdan tushundi: u duo o'qiyotgan edi. Ella hech qachon bundan yuksak ruhiyatni his etmagan edi. Ularning harakatlarida sezgiga tegishli hech nima yo'q edi, shunga qaramay u o'z hayotida bundan ehtirosliroq tuyg'uni boshidan kechirmagan edi.

Kaftlari, qo'llari, elkalari, butun vujudi qandaydir noma'lum quvvatga to'lib borardi. Ella o'zini xuddi to'lqinlanib turgan qorong'u suvda suzib yurgandek his etardi va undan

faqatgina ikki narsa talab qilinardi: taslim bo'lish va tabassum qilish. Oldin Ella uning vujudi atrofida, keyin o'z vujudi atrofida allanechuk jonli jarayon borligini his etdi, go'yo ikkisi ham cho'milayotgan edilar. Ella ko'zlarini yumib oldi va to'lqinlanib turgan suvda, biron narsani tutib turishga ham harakat qilmasdan suzib ketdi. Oldinda sharshara kelishi tayin, lekin u to'xtamoqchi emas. Hayot quvonchi neligini his etgan Ella telbalarcha shod edi. Va u ayni shu erkakni seva olishini, juda qattiq seva olishini angladi. Shuni anglarkan, Azizni quchoqladi va uni o'ziga tortdi. Lekin Aziz ko'zlarini ochdi, uning burnidan o'pib qo'ydi va nari surildi.

- Sen meni xohlamayapsanmi? - o'z ovozi qanchalar zaif chiqqanidan hayron bo'lgancha so'radi Ella.

- Men sening keyinchalik o'zingni o'zing jazolab yuradigan hech nima qilishni istamayman.

Ella bu gapdan keyin, bir tomondan, yig'lagisi

keldi, ikkinchi tomondan - u juda mammun bo'ldi. Yuragini allaqanday nurli tuyg'u to'ldirgan edi. U xijolatda edi, lekin nimagaligini tushunmasa ham, o'z xijolatidan lazzatlanardi.

Soat tungi bir yarimlarda Ella Bostondagi o'z uyining eshigini ochdi. U oilaviy karavotda yotishni istamay, divanga o'rin solib yotdi. Buni u eri bu joyda boshqa ayollar bilan yotgani uchun emas, shunday qilish to'g'ri bo'ladi deb qildi: bu uy oteldagi nomer kabi Ellaniki emas edi, Ella bu erda mehmon edi, xolos. Uning haqiqiy «men»i uni qayerdadir boshqa yoqda kutardi.

Shams

1247 yil, may, Konya

*Ey, hulqi hush kelinchak, yig'lamagin, yor-yor,
Ota-onangdan seni olib ketar, yor, yor,
Tongda qushlar sayrashi o'zga endi, yor-yor,
O'zga hayotning kuyi jo'r bo'ladi, yor-yor.*

To'y kuni kechqurun sekin hovliga chiqdim va kimlarningdir xitoblari, kulgulari, gaplari orasida uydan tashqariga eshitilib turgan Onado'lining qadimiy yor-yorini tinglab, biroz muddat o'tirdim. Ayollar o'zlariga ajratilgan tomonda kuylashardi. Men ashula so'zlarini qiziqib eshitdim. Nima uchun ayollar to'y kuni hamisha qayg'uli ashula aytishadi? So'fiylar to'yni o'limga qiyoslashadi va o'limni esa Xudoning vasliga yetish kuni sifatida bayram qilishadi. Ayollar ham to'yni o'lim bilan bog'lashadi, lekin buning sababi butunlay boshqacha. Garchi ular uchun to'y baxtli hodisa esa-da, baribir, xafa bo'lishadi. To'y marosimida qizlik davri bilan vidolashayotgan, tez orada ayol va ona bo'ladigan shaxsning nolasi kuylanadi.

Mehmonlar ketishgach, uyga qaytdim va yolg'izlikda muroqaba qildim. Keyin meni kutayotgan Kimyoning xonasiga kirdim. U to'shakda, zarli naqshlar bilan bejab tikilgan oq libosda o'tirardi. Sochlari mayda o'rilgan, har

o'ramiga marjoy taqilgan. Yuzi ko'rinnadi, chunki yuziga qizil ro'mol yopilgan edi. Oyna yonida yonib turgan shamdan boshqa chiroq yo'q. Devordagi oyna ustiga duxoba mato tushirib qo'yilgan, chunki yosh ayol tunda o'z aksini ko'rishi yomon belgi hisoblanar ekan. To'shak yoniga anor va pichoq qo'yilgan, biz uni serfarzand bo'lish niyatida eyishimiz kerak ekan.

Kira meni bu yerning barcha urf-odatlaridan xabardor qilgan, hatto kelinning boshiga yopilgan to'rni olishdan oldin kelinga tilla tangalardan terilgan marjon taqishim kerakligini aytgan edi. Lekin umrimda tilla tangalarim bo'lмаган, бирордан насиага олинган «маржон»ни esa taqishni xohlamadim. Shuning uchun Kimyoning yuzini ochib, unga faqat toshbaqanusxa taroq sovg'a qildim va lablaridan bo'sa oldim. U tabassum qildi. Bir on jur'atsizlikka taslim bo'ldim, go'yo yosh bola bo'lib qolganday edim.

- Go'zalsan, - dedim men.

Kimyoning yuzi qizarib ketdi. Keyin bor kuchi bilan o'zini aslidan farqli o'laroq, xotirjamroq va tajribaliroq ko'rsatishga urinib, qaddini rostladi.

- Endi men xotiningizman.

U yerga to'shalgan, sepining bir qismini tashkil etgan, o'zi katta diqqat-e'tibor bilan to'qigan gilamini menga ko'rsatdi. Ajoyib rang-barang jilolar. Ko'rgan zahotim, undagi har bir tugun men haqimda so'zlayotganini his etdim. Kimyo unda o'z orzusini to'qigan edi.

Uni yana bir marta o'pib qo'ydim. Uning iliq lablaridan vujudimni larzaga soladigan istak taralardi. Kimyodan yasmin va boshqa giyohlarning isi kelardi. Yoniga yotib Shu ifordan nafas oldim. Shu topda men faqat uning ichiga kirib g'oyib bo'lishni va o'zimni butkul unutishni istardim. U esa menga yomg'irdan oldin atirgul g'unchasi qanday ochilsa, shunday ochilayotgan edi.

Men undan o'zimni tez tortib oldim:

- Kechir, Kimyo, men bunday qila olmayman.

U nafas olishdan to'xtab, jim qotdi. Uning ko'zlaridagi uzilgan ilinj ifodasini ko'tara olmay, o'rnimdan turib ketdim:

- Men ketishim kerak.
- Siz hozir keta olmaysiz, - dedi Kimyo hazin ovozda. - Agar hozir ketsangiz odamlar nima deydi? Ular nikoh buzildi deyishadi. Va bunda meni aybdor qilishadi.
- Nima uchun? - so'radim men, garchi javobini bilib turgan bo'lsam ham. Kimyo nigohini chetga olib, tushunarsiz bir nimalar dedi, lekin keyin o'zini qo'lga olib, har bir so'zini dona-dona qilib dedi:
- Ular meni qiz emas ekan, deb o'ylashadi. Va men bu nomusni bir umr ko'tarib yurishim kerak bo'ladi.

Xudo yaratgan uyg'unlik bilan sira umumiyyati yo'q bu insoniyadolatsizlikdan tomirlarimda qonim qaynab ketdi.

- Bema'nilik. Odamlar o'zlarining ishlarini qilishsin, - e'tiroz bildirdim men, garchi Kimyoning haqligini yaxshi tushunib turgan

bo'lsam ham.

Men anor yonida turgan pichoqni tezgina oldim. komyoning yuzida vahima paydo bo'ldi, lekin keyin qayg'uli ahvolni tushungandek bo'lib, o'ziga keldi. Men tezgina chap qo'limni kesdim, yaradan choyshabga qon tomchiladi, oqib to'q qizil dog'ga aylandi.

- Choyshabni ularga ber. Shu bilan og'zilarini yoparsan, noming qanday toza bo'lgan bo'lsa, shunday tozaligicha qoladi.

- Iltimos, shoshmang. Ketmang, - yolborardi Kimyo.- Axir men xotiningizman-ku!

Shu dam men unga uylanib qanchalar katta xato qilganimni his etdim. Tunda xonadan va hovlidan ham chiqib ketar ekanman, boshimda yorilguday og'riq turgan edi. Mening vaziyatimdagi erkak uylanmasligi kerak. Men oilaviy majburiyatlar uchun yaralgan emasman. Menga endi bu har qachongidan ham ravshan edi. Va endi buning badali ham behad katta bo'ladi.

Menda nafaqat bu uydan, bu shahardan, bu

nikohdan, balki o'z vujudimdan ham qochishga behad kuchli istak tug'ilgan edi. Lekin ertalab Rumiy bilan ko'rishishim haqidagi fikr meni to'xtatdi. Men uni yana tashlab keta olmasdim. Men tuzoqqa tushibman.

Alovuddin

1247 yil, may, Konya.

Men biron marta ham bu to'yga qarshi e'tiroz bildirmadim. Lekin Kimyo Shamsning xotiniga aylanadigan kuni shunday og'riq bilan uyg'ondimki, bunaqasi sira bo'l magan. Nafasim xuddi suvda cho'kib ketayotgan odamning nafasiday qisilib, havo qattiq yetishmayotgan bir alfozda to'shakda o'tirib qoldim. Nihoyat, birozdan keyin, odatdagiday nafas olaboshladim-u, endi otamga o'g'il bo'la olmasligimni angladim.

Onam-ku yo'q edi - endi otam yo'q bo'ldi. Akam ham. Kimyo ham yo'q bo'ldi. Yorug'dunyoda bir o'zim qoldim. Bir kechada

o'g'ilning otasiga bo'lgan hurmatidan saqlanib qolgan bir tutami ham yo'q bo'ldi-qoldi. Kimyo uning tug'ishgan qiziday edi. U Kimyoni yaxshi ko'radi deb o'ylardim. Lekin endi u faqat Shams Tabriziyni yaxshi ko'rishi ma'lum bo'ldi. Qanday qilib u Kimyoni shu odamga berdi-ya? Shamsdan yaxshi er chiqmasligi hammaga ma'lum-ku! Bu haqida o'ylagan sarim, Shamsni Kimyoga uylantirish shunchaki bu odamning xavfsizligini ta'minlash uchun bo'lganini tushunayapman, shuni deb otam Kimyoning baxtini — mening ham baxtimni qurban qildi.

Bugungi muhim hodisaga tayyorlanish jarayonini kuzatar ekanman, kun bo'yi o'zimdan bu fikrlarni haydashga harakat qildim. Mana uy yaraqlatib tozalab chiqildi, yovuz kuchlarni haydash uchun kelin-kuyov yotoqxonasiga atirgul suvi purkaldi. Asosiy yovuz kuch-chi? Shamsni qachon haydashar ekan?

Kechga yaqin bu tantanani kuzatishga boshqa

toqatim qolmadi. Menga azob berayotgan bu ishlarda boshqa qatnashmaslik uchun uydan chiqayotganimda akam to'xtatdi.

- To'xta, Alovuddin! Qayoqqa ketayapsan? - dedi u baland, jarangdor ovozda.

- Hozircha Irshodnikiga, - dedim orqamga ham qaramasdan.

- Jinnimisan? To'y nima bo'ladi? Otam bilsa, qattiqxafa bo'ladi! Yuragi eziladi!

Men ichimda g'azab to'lqinlari qanday ko'tarilayotganini his etardim.

- Uning o'zi birovlarning yuragini ezsa maylimi?

- Kimni aytayapsan?

- Tushunmayapsizmi? Otamiz Shamsning ko'nglini olish uchun va u yana ketib qolmasligi uchun bu to'yni qilayapti. Kimyoni unga kumush idishga solib, ikki qo'llab hadya etayapti.

Akamning qattiq jahli chiqdi, lablarini mahkam qimtib oldi.

- Nima demoqchililingni tushundim, lekin sen

nohaqsan. Seningcha, Kimyoni majburlab uzatishayaptimi, lekin uning o'zi Shamsga tegishni istadi-ku!

-Go'yo unda o'z ixtiyori bordek, - e'tiroz etdim men.

- Yo Xudoyim-ey! Tushunsang-chi! - xitob qildi akam

xuddi Xudodan madad so'rayotganday ikki qo'lini osmonga ko'tarib. - U Shamsni yaxshi ko'radi.

- Bo'lishi mumkin emas.

Ovozim bo'g'ilib qoldi.

- Uka, - dedi keyin Sulton Valad, - hissiyotlaring ongingni xiralashtirishiga yo'l qo'yma. Sen rashk qilayapsan. Lekin hatto rashk ham foyda berishi va oliy maqsadga xizmat qilishi mumkin. Xatto ishonchsizlik ham ishonchga aylanishi mumkin. Qoidalardan biri shunday. O'ttiz beshinchi qoida shunday deydi: «Bu dunyoda yakdillik ham, to'g'rilik ham olg'a yurishimizga yordam bermaydi, qarama-qarshiliklar yordam beradi. Har

birimizda butun koinot qarama-qarshiliklari mavjud. Shunga ko'ra har bir e'diqodli odamning ichida e'tiqodsiz odami ham bor. E'tiqodsiz odam ham o'z ichida e'tiqodli odam borligini ertami-kechmi topadi. Insoni komil, ya'ni mukammal inson bo'lish yo'lida e'tiqod asta-sekinlik bilan sodir bo'ladigan jarayon va u o'z qarama-qarshisini - e'tiqodsizlikni taqozo etadi».

Bu gaplar mening sabr kosamni toshirib yuborgan so'nggi tomchi bo'ldi.

- Sizlarning so'fiyona gaplaringiz jonimga tegib ketdi! Sizga qulq solishim shartmi? O'zi hammasiga siz aybdorsiz! Shamsni Damashqda qoldirib kelsangiz yaxshi bo'lardi va hech nima bo'lmas edi. Nimaga uni qaytarib keldingiz? Agar biron yomon ish sodir bo'lsa va bu bo'ladi ham, aybdori siz bo'lasiz.

Akam qo'rqb, tilini tishlab qoldi, o'shanda men hayotimda birinchi marta akam mendan ham, mening qo'limdan kelishi mumkin bo'lgan ishdan ham qo'rqayotganini tushundim.

Irshodni uyiga yo'l olayotib, tanishlarni ham, notanishlarni ham uchratib qolmaslik uchun ataylab tor va aylanma, sassiq ko'chalarni tanladim, chunki ko'zlarimdagi yoshni to'xtata olmas edim. Boshimda faqat bir fikr aylanardi: Shams bilan Kimyoning bir to'shakda... Men haddimdan oshayotganimni bilardim. Kimsidir hal qiluvchi qadam qo'yishi kerak edi.

Kimyo

1247 yil, dekabr, Konya.

Hamma odamlarning ko'zida biz er-xotin edik. To'yimizdan keyin yetti oy o'tdi. Bu vaqt ichida Shams men bilan biron marta ham erdek yashamadi. Men odamlardan haqiqiy ahvolni yashirishga urinardim, lekin ular to'g'risini bilishadi deb o'ylardim. Nazarimda, bu sharmandali holat peshanamga yozib qo'yilganday ko'rini turardi, unga qarab hamma tushunib olayotganday tuyulaverardi... Shams mening xonamga kirmas edi

demayman. Kirardi, albatta. Lekin har safar kechqurun kirmoqchi bo'lsa, oldindan mendan ruxsat so'rardi. Va har safar men unga:

- Ha, albatta. Axir erimsiz-ku! - deb javob qilardim.

Keyin kun bo'yi duolar o'qib, nafasimni ichimga yutib, qachon nikohimiz haqiqiy hodisa bo'lishini kutardim. Lekin u eshigimni faqat birga gaplashib o'tirish uchun taqillatardi. U men bilan birga kitob o'qishni yaxshi ko'rardi. Biz u bilan bir nechta kitobni - «Layli va Majnun», «Farhod va Shirin», «Yusuf fia Zulayho», «Atirgul va bulbul»ni o'qidik. Ularning hammasida ham, boshlariga ne savdolar tushsa ham, sevishganlar o'z sevgilaridan kechmaydilar. Bu kitoblar meni g'ussaga soladi. Bu balki men o'zim hech qachon bunday muhabbat ta'mini totib ko'ra olmasligimni bilganim uchundir.

Kitob o'qimagan vaqtlarimizda Shams islom so'fiy darvishlarining qirq asosiy qoidasi haqida hikoyalar qiladi. Bir marta qaysidir

qoidani tushuntira turib, boshini tizzamga qo'ydi. Keyin sekin ko'zlarini yumdi va jim bo'lib qoldi. Uxlab qoldi, men uning uzun sochlarini siladim, peshonasidan o'pdim. U ko'zini ochgunicha bir umr o'tgandek bo'ldi. Keyin u meni o'ziga tortdi va ohista o'pib qo'ydi. Bu eng baxtli onlar edi.

O'tgan yetti oy mobaynida men ham bir necha marta uning xonasiga bordim. Va har safar uni ogohlantirmasdan borganimda, qo'rqqanimdan yuragim siqiladi, chunki u meni qanday qarshi olishini bilmayman. Shamsning kayfiyatini oldindan bilib bo'lmaydi. Ba'zan u shunday mehribon va muloyim bo'lardiki, men barcha kechmishtalarim uchun uni kechirishga tayyor bo'lardim, ba'zan esa juda injiq bo'lib qolardi. Bir marta uni yolg'iz qolishiga qo'ymayotganimni aytib, eshigini qattiq yopib oldi. Shu tarzda men undan ranjimaslikka odatlandim, shu bilan birga, men ham u muroqaba (meditasiya) qilayotganida unga xalal bermaydigan bo'ldim. Bir necha oy

mobaynida men o'zimni nafaqat boshqalar ko'zi uchun, o'zim uchun ham juda mammundek ko'rsatib yurdim. O'zimni Shams qiyofasida hamfikr, ustoz, suhbatdosh, hatto o'z o'g'limni ko'rishga majbur etdim, ammo faqatgina erni ko'ra olmas edim. O'zim yoki uning kayfiyatidan kelib chiqib men unga har xil qiyofalar berardim.

Ma'lum vaqtga qadar bu meni qanoatlantirib keldi. Ortig'ini kutmasdan, faqat suhbatlashishni kutadigan bo'ldim. Uning fikrmulohazalarimni qadrlashi va rag'batlantirishi meni behad shodlantirardi. Men undan ko'p yangi narsalar o'rgandim, keyinroq esa o'zim ham uni nimalarnidir o'rgatishim mumkinligini, masalan, u tushunchaga ega bo'lмаган oilaviy hayotga o'rgatishim mumkinligini angladim. Shuningdek, hech kim uning kulgisini menchalik keltira olmas edi. Lekin bu menga yetarli emas edi. Qancha urinmay, u meni sevmaydi, degan fikrdan qutula olmas edim. To'g'ri, men unga

yoqardim, u meni qadrlardi. Lekin bular sevgi emas edi. Bu fikr esa menga azob berardi, jismu jonimga tinchlik bermay, ich-ichimdan kemirardi. Men do'stlardan ham, qo'shnillardan ham nari yurardim. O'z xonamda yolg'iz qolishni va marhumlar bilan gaplashishni afzal ko'radigan bo'ldim. Zero, tiriklardan farqlanib, marhumlar hech qachon hech kimni ayblashmaydi.

Tiriklardan esa faqat Cho'l atirguli mening eng yaqin dugonamga aylandi.

Ikkimiz ham odamlardan uzoq bo'lishni istaganimiz uchun o'zaro tez yaqinlashib oldik. U ham so'fiy bo'ldi. Cho'l atirguli ishratxonadan qochib kelib, xilvatda yangi hayot boshlagan. Bir kuni men unga jasurligi va qat'iyatliligiga havas qilishimni aytdim. U bosh chayqab dedi:

- Men yangi hayot boshlaganim yo'q.

Shunchaki, qilgan ishim - o'lmay turib o'ldim, xolos.

Bugun Cho'l atirgulining oldiga butkul boshqa,

odatdagidan tashqari sabab bilan bordim. Men u bilan o'zimni qo'lga olib va juda xotirjam gaplashmoqchi edim, lekin uyiga kirgan zahotim o'kirib yig'lay boshladim.

- Kimyo, nima bo'ldi, ishlaring yaxshimi?
- Unchalik emas, - iqror bo'ldim men. - Menga yordamingiz kerak.
- Ha, albatta. Ayt, nima qilishim kerak?
- Shams tufayli... U menga yaqinlashmayapti. Ya'ni... - g'o'l diradim men. - Men unga yoqishni istayman. Menga O'rgating. Cho'l atirguli og'ir xo'rsindi.
- Kimyo, men qasam ichganman, - dedi u deyarli achchiqlanib,- Men Xudoga musaffoligimni saqlashga va erkaklarga yoqish to'g'risida o'ylamaslikka qasam ichganman.
- Lekin siz qasamingizni buzmaysiz-ku, faqat menga ozgina yordam berasiz, xolos, - yalindim men. - Men Shamsni baxtli qilishni istayman.
- Shams ma'rifatli inson, - xuddi birov eshitib qolishidan xavfsiraganday pichirlab dedi Cho'l

atirguli. - Sen to'g'ri ish qilmayapsan, menimcha.

- Lekin u erkak-ku! - e'tiroz bildirdim men. - Axir hamma erkaklar Odam Atoning o'g'illari emasmi? Ma'rifatlimi yoki ma'rifatsizmi, hammasida ham jism va qon bor-ku! Shamsda ham, to'g'rimi?

- Ha, to'g'ri, lekin...

Cho'l atirguli shoshib tasbehini oldi va xayolchan boshini egib, uni o'gira boshladi.

- Iltimos, - gapimdan qaytmay turib oldim men. - Men faqat sizga ishonib ayta olaman. Yetti oy o'tdi. Har kuni ertalab yuragimda og'ir yuk bilan uyg'onaman, har kuni kechqurun ko'zlarimda yosh bilan uxlayman. Boshqa chiday olmayman. Men erim bilan yaqinlashishim kerak!

Cho'l atirguli javob bermadi. Men ro'molimni yechdim, uni boshidan ushlab o'zimga qaratdim.

- To'g'risini ayting. Men xunukmanmi?
- Yo'q, albatta, Kimyo. Sen chiroyli ayolsan.

- Shunday bo'lsa menga yordam bering. Menga erkak yuragiga qanday kirishni o'rgating.
- Azizam, bilsang edi, erkak yuragiga kirish ayolni yo'lidan ozdiradi, uni o'zini unutishga olib keladi.
- Baribir, - javob berdim men. - Men orqaga qayta olmayman.

Cho'l atirguli

1247 yil, dekabr, Konya.

Kimyo yig'lab, mendan yordam berishimni so'radi. Yuzlari bujmayib, nafaslari qisilib qoldi, oxiri, mayli, yordam beraman dedim unga. Ichimda bu ish befoydaligini va yalinishlariga qulq solmasligim kerakligini tushunib turardim. Bu fojiaga olib kelishini negadir oldindan bila olmadim. Aybdorlik hissidan azob chekar ekanman, nahotki shunchalar soddalik qildim, bu ishning dahshatli oqibatini ko'ra olmadim, deb hamon o'zimdan takror-takror so'rayman.

O'sha kuni u mendan yordam so'rab kelganda men qarshilik qila olmadim.

- Iltimos, yordam bering, o'rgating, - yolborardi u shivirlab.

Qizaloqqa achinganimdan yuragim yum-yum yig'lar- di, «Balki bezarardir», deb o'ylagandim o'shanda. Nima bo'lardi, axir u o'z eri bilan qovushmoqchi. Begona erkak bilan emas-ku! Sababi: faqat sevgi. Bu qanday yomon oqibatga olib kelishi mumkin? Unda kuchli ehtiros bor, lekin bu gunoh emas. Bu toza ehtiros!

Qalbim ich-ichidan bu tuzoq, deb turardi, ammo Xudoning rejasi shunday ekanki, men buning zararli oqibatini ko'ra olmadim.

Shuning uchun ayol latofati borasida qo'llaridagi xinadan boshqasini bilmaydigan bu qishloq qizi Kimyoga yordam berishga qaror qildim.

Men unga pardoz-andoz qilishni o'rgatdim, u uquvli shogird chiqdi. Unga xushbo'y suvda cho'milish, terisiga xushbo'y moylar surib

ishqalash, yuziga asal va sutli niqoblar qilish kerakligi qaqida gapishtimga to'g'ri keldi. Men unga erkak ehtirosini qo'zg'atadigan turli moylar haqida aytdim. Tishni oqartirish, tirnoqlarini xina bilan bo'yash, o'sma va surmalar qo'yish, yanoqlar va lablarni bo'yash, sochlarni turmaklash kabilarni o'rgatdim. Keyin u bilan bozor aylanib, ipak liboslar sotib oldik...

Keyin raqs tushishni va Xudo ato etgan go'zal vujudini eriga ko'z-ko'z qilishni o'rgatish navbati keldi. Ikki hafta o'tib, Kimyo o'z erini asir eta oladigan darajaga yetdi.

O'sha kuni xuddi cho'pon qurbanlikka qo'zichoqni qanday tayyorlasa, men ham Kimyoni Shames Tabriziy uchun shunday tayyorladim. Xushbo'y suvda cho'miltirdim, sochlariiga moy surtdim, chiroyli ko'ylagini kiydirdim. Pardoz qildirdim. Oxirida Kimyo ko'z uzib bo'lmas darajada chiroyli bo'lib ketdi. Bu ishlarni tugatganimizda Kimyo endi tajribasiz yosh qizaloqqa o'xshamas, u vujudini

to'ldirib toshirayotgan ehtiroslarda yonayotgan ayol edi. U sevgilisi tomon qadam tashlay oladigan va kerak bo'lsa buning uchun qimmat badal to'lashga ham tayyor ayolga aylandi.

Men o'z go'zalimni tomosha qilib turar ekanman, Qur'ondagি Yusuf va Zulayho haqidagi oyatlar yodimga tushdi.

Xuddi Kimyo kabi Zulayho ham o'z ehtirosiga ehtiros bilan javob bermagan erkakka ko'ngil qo'ygan edi. Butun shahar ahli g'iybat qilavergach, Zulayho ularni mehmonga chaqirgan. Har birining qo'liga pichoq berib, Yusufga: «Bu yoqqa kel», deb buyurgan. Uni ko'rgan mehmonlar hayratdan qo'llarini kesib, «Xudoyim, o'zing asra bizni! Bu inson bo'lishi mumkin emas! Bu farishta!» deyishgan.

Shundan keyin hech kim Zulayhoni Yusufni sevgani uchun ayblamaydigan bo'lgan.

- Ko'rinishim qanday? - hayajon bilan so'radi Kimyo xonamdan chiqishidan oldin.

- Ajoyib, - javob berdim men. - Endi ering seni ertaga va indinga ham erkalaydi.

Kimyo qizarib ketdi. Men esa kulib yubordim va u ham o'sha zahoti menga qo'shilib kului, uning kulgusi meni xuddi quyosh nurlariday ilitdi.

Men o'zim aytgan gapimga ishonardim, unda Shamsni o'ziga jalb etish qobiliyati borligiga shubha qilmagandim. Shunga qaramay, ko'zlarimiz uchrashganda, uning ko'zida ikkilanish soyasi borligini payqadi , mening ko'nglim g'ash bo'lib qoldi. Yomon alomatni his etdim.

Lekin Kimyoni to'xtatolmadim. To'xtatishim kerak edi. Axir ko'rib turgan edim-ku! Uni to'xtatmaganim uchun umrimning oxirigacha o'zimni kechirmayman.

Kimyo

1247 il, dekabr, Konya.

Bu asov, jasur, zukko Shams ishq haqida juda ko'p narsa biladi. Lekin bir nimani bilmasligi aniq: rad etilgan sevgi azobini.

Cho'l atirguli meni pardoz-andozlar qilib, kiyintirib qo'yan kuni juda to'lqinlanib ketdim va esu hushim joyida emas edi. O'zimda shunday o'zgarish bo'lishi mumkinligi xayolimga ham kelmagan edi. Vujudimga tegib turgan nafis ipak mato, atir isi, tilimdagi gulob ta'mi va boshqalar hammasi, bir tomondan, meni asablantirar, ikkinchi tomondan, menga kutilmagan jasorat ham baxsh etgan edi. Uyga qaytib, birinchi galda o'zimni ko'zguga soldim. Suluvgina edim.

Uyda hamma uqlashini kutib, keyin katta ro'molni yelkamga tashlab, oyoq uchida Shamsning xonasiga ravona bo'ldim.

- Kimyo, men seni kutmagan edim, - dedi u eshikni ocharkan.

- Men sizni ko'rishim kerak edi. - Shunday dedim-u, taklifini kutmasdanoq ostonadan o'tdim. - Iltimos, eshikni yopib qo'ying.

Shams hayron bo'lganini yashirmay, iltimosimga bo'ysundi.

Ikkimiz uning xonasida yolg'iz edik, menga

diqqatimni to'plab olishim uchun vaqt kerak edi. Men unga orqa o'girdim, chuqur xo'rsindim-da, ro'molni tashlab, ko'ylagimni echo boshladim. O'sha zahoti orqamda erimning og'ir nigohini his etdim. Xonaga sovuq jimjitlik cho'kdi. Nafasim tiqilib qoldi, turli yomon xayollar miyamda gir aylanardi, lekin men Shams qarshisida xuddi jannatdagi xur kabi turaverdim.

Yoqimsiz sukut xukm surardi, faqat tashqarida esayotgan shamolning uvillashini eshitib turardik.

- Bu nima qiliq? - sovuq ohangda so'radi Shams.

Men birdan ovozdan qoldim, shunga qaramay o'zimni majburlab dedim:

- Sizni istayman.

Shams atrofimda yarim aylanib, qarshimda to'xtadi va meni ko'zlariga qarashga majbur etdi. Tizzalarim bukilay-bukilay deb turardi, lekin men bunga so'z bermaslikka harakat qillardim. Aksincha, uning tomoniga bir qadam

qo'ydim va Cho'l atirguli o'rgatganday, unga taqaldim, qulqlariga nafis sevgi so'zlarini shivirladim.

Shams xuddi cho'g' tekkanday sakrab o'zini nari oldi.

- Sen o'zingcha meni istayapman, deb o'ylaysan, aslida o'zingning kmsitilgan «men»ingni yupatmoqchisan.

Men Cho'l atirguli aytganday qilib, qo'llarim bilan uning bo'ynidan quchoqladim va qattiq o'pdim... Atigi bir daqiqa har ikkimizni ham ehtirosli istak o'z girdobiga tortayotganini his etdim, lekin Shams yulqinib qo'limdan chiqib ketdi.

- Kimyo, sen mening hafsalamni pir qilding, - dedi u. - Endi esa, iltimos, xonamdan chiq.

Shams meni qattiq xafa qiladigan bu so'zlarni yuzida hech qanday ifodasiz - na g'azab va na jahlsiz aytdi. Va men ularning qaysi biridan - aytgan so'zlarining ma'nosidanmi yoki yuzida hech qanday hissiyot yo'qlidanmi - ko'proq xafa bo'lishim kerakligini

ham bilolmay qoldim.

Hayotimda bundan ortiq xo'rlikka duch kelmagan edim. Men yerda yotgan ko'ylagimni olishga egildim, lekin qo'llarim qaltiraganidan sirpanchiq ko'ylagim ushlab ololmasdim.

Shuning uchun ro'molning o'ziga o'ralib oldim. Yig'lagancha, og'ir nafas olib, yarim yalang'och xonasidan chiqdim, undan ham, uning muhabbatidan ham qochib ketdim, tushundimki, bu muhabbat faqat mening tasavvurimda ekan. Shundan buyon Shamsni biron marta ham ko'rmadim. O'sha kundan boshlab o'z xonamdan tashqariga boshqa chiqmadim. Ertayu kech to'shakdan turishga majolim yetmay, yotib qoldim. Bir hafta o'tdi, yana bir hafta o'tdi va men kunlarni ham boshqa sanamay qo'ydim. Menda butkul mador qolmadi.

O'limning isi borligi haqida hech o'ylamagan ekanman. Bu is tuzlangan zanjabil yoki qarag'ayning ignalari kabi, lekin ancha o'tkir va achchiq, biroq badbo'y emas. Men o'limni

xonamga kirib kelganida, u meni qalin va nam tumanga chulg'ab olayotganida his etdim. Meni bezgak tutdi, hushimni yo'qota boshladim va hatto alahladim ham. Meni juda ko'p do'stlar va qo'shnilar ko'rgani kelish-di... Kira yonimdan nari ketmadi. Uning rangi siniqqan, ko'zlar ichiga cho'kkан edi. Gavhar ham yonimda, ikkinchi tomonimda, yuzlarida kulgichlar paydo bo'ladigan o'zining yoqimli tabassumi bilan kulimsirab turardi.

- La'nat! bid'atchi! - derdi Sofiya. - Bechora qizning yuragini chilparchin qildi. Hammasi o'sha tufayli bo'ldi.

Men unga e'tiroz bildirmoqchi bo'ldim, lekin ovozim chiqmadi.

- Nimaga unday deysan? - e'tiroz bildirdi Kira.- Hammasi Xudoning qo'lida. Odamning irodasi Xudonikiga teng kelarmidi?

Lekin Kiraga hech kim qulq solmas, men o'zim-ku, Hech kimni ishontiradigan holatda emas edim. Lekin nimaiki deya olganimda ham, natija bir xil bo'lib chiqishini tez ilg'ab

olgandim. Shamsni yomon ko'rgan odamlar
mening kasalimda undan nafratlanish uchun
yana bir sabab topishdi, lekin men uni hech
nimaga qaramay sevardim.

Mana, nihoyat, men barcha ranglar bir rangga,
hamma ovozlar bir guvillashga aylanadigan
holatga tushdim, Odamlarni tanimaydigan va
so'zlarni ajratmaydigan holga.

Shams meni ko'rgani keldimi, kelmadimi,
bilmayman. Kelmagan bo'lsa kerak. Kelganida
ham xotinlar uni yonimga yo'latmagan
bo'lishardi. Balki kelgandir ham, to'shagim
yonida o'tirib, qo'limdan tutib yoki soatlab nay
chalib yoki duo o'qib o'tirgandir. Shunga
ishongim keladi.

Nima bo'lsa ham, endi buning ahamiyati yo'q.
Mening undan jahlim chiqmadi va xafa ham
bo'lmadim. Bu menga Xudoning marhamati va
yupanchi bo'ldi. Shamsning oldiga pardoz-
andoz qilib, ipak ko'ylaklar kiyib kirib, kasal
bo'lib qolganimdan keyin o'n kun o'tgach, men
yo'qlik daryosiga sho'ng'idim va o'z yuragimga

to'liq muvofiqlashgan holda suzib ketdim.
Bu oqim meni hayotdan o'lim sari oqizib ketdi.

Ella

2008 yil, 3 iyul, Boston.

Boston hech qachon hozirgidek jonli va chiroyli bo'lмаган, о'ларди Ella. Nahotki, ko'zlarim ko'r bo'lган-у, shu paytgacha bu chiroyni ko'rмаган bo'lsam?

Aziz Bostonga besh kunga kelgan edi. Va Ella har kuni Aziz bilan uchrashish uchun

Nortgemptondan Bostonga kelardi. «Kichik Italiya»да oddiygina nonushta qilishardi, nafis san'at muzeyida bo'lishdi, Boston-Kommon va Uoterfrant bog'larida sayr qilib yurishdi, akvariumda kitlarni kuzatishdi, Garvard-skverdagi kichkina kafeda qahva ichishdi. Shu bilan birga ular tinmay ko'p narsalarni, masalan, turli mamlakatlarning taomlarini, meditasiya uslublarini, aboregenlar san'atini, gotik asarlarni, tabiatdagi qushlarni o'rganishni,

bog'dorchilikni, pomidor yetishtirishni, tushlar ta'birini muhokama qilishar, tinimsiz bir-birlarining gaplarini bo'lishardi. Ella qachon bunchalik ko'p gapirganini eslay olmaydi ham. Ko'chada bir-birlariga tegmasdan yurishga harakat qilishardi, lekin doim noqulay ahvolga tushib qolaverishardi. Ella, qo'l ushlashib olsak yaxshi bo'larmidi, deb o'ylab qo'yardi. Nihoyat, birdan Ellada o'zi hech qachon kutmagan jasorat paydo bo'ldi. U restoranlarda va ko'chalarda Azizni qo'ltiqlab olar, hatto uni o'par edi. U boshqalar uni ko'rishiga nafaqat befarq edi, hattoki ko'rishlarini ISTAR edi ham.

Aziz Amsterdamga qaytib ketadigan kuni ertalab nomeriga kirishdi. U yerda tez orada boshlanadigan hijrondan darak berib, jomadon xomush turardi.

- Men senga bir nimani aytishim kerak, - dedi Ella. - Nazarimda, buni aytish uchun juda uzoq taraddud ko'rdim.

Aziz bir qoshini ko'tardi.

- Men ham senga bir nimani aytishim kerak, - dedi ovozida bezovta ohang bilan u.
- Unda sen birinchi aytaqol.
- Yo'q, sen birinchi aytaver.

Nim tabassumini saqlagancha Ella fikrlarini to'plab olish uchun ko'zlarini yerga oldi.

- Hali sen Bostonga kelmasiningdan oldin bir kuni biz Devid bilan uzoq gaplashgan edik. U sen haqingda so'ragan edi. Chunki u mendan beruxsat pochtamni o'qigan ekan. Undan qattiq jahlim chiqdi, lekin haqiqatni Undan yashirmadim. Ya'ni sen bilan mening oramizdagi bor Haqiqatni.

Ella o'zining endi aytadigan gapiga Aziz qanday qarashini bilmay, qurquvda ko'zlarini yerdan oldi.

- Qisqasi, men erimga boshqa insonni sevishimni aytdim.

Ko'chadan barcha ovozlarni bosib ketadigan o't o'chiruvchilar mashinasining chinqirig'i eshitilardi. Ella xatar borligini his etdi, lekin yarim yo'lida to'xtamadi.

- Aytadigan gapim uncha sog'lom ko'rinmasligi mumkin. Men bu haqida juda ko'p o'ylaganman. Lekin men sen bilan Amsterdamga ketishni istayman.

Aziz deraza yoniga bordi va ko'chada nimalar bo'layotganini bilmoqchi bo'lib qaradi.

Yaqinroqdagi bir uydan osmonga qalin qora tutun buriqsayotgan edi. Aziz jimgina shu uyda yashovchilarni duo qildi, keyin shoshilmay nimalarnidir gapirdi, uning gaplari Ellada xuddi butun shaharga qaratilgandek tasavvur uyg'otdi.

- Men seni jon deb Amsterdamga olib ketgan bo'lardim, lekin senga baxtli kelajak va'da qila olmayman.

- Nima demoqchisan? - dedi qo'rqa-pisa Ella. U kelib yoniga o'tirdi, qo'llarini o'z qo'llariga oldi, parishon holda ularni silab turib dedi:

- Sen menga birinchi marta xat yozganingda, bu hayotimdagi eng yomon davr edi.

- Hayotimda boshqa ayol bor, demoqchimisan?..

- Yo'q, sevgilim, yo'q, - Aziz istehzoli kului, lekin tez orada yuzi yana jiddiy lashdi. - Aslo bunday emas. Men senga o'z hayotimning uch davri haqida gapirganim esingdami? «So'fiy» so'zining birinchi uch harfi. Lekin sen bir marta ham to'rtinchi davr haqida so'ramagansan, men senga bu haqida aytishni juda istagan bo'lsam ham, negadir sira mavridi kelmagan edi. Lekin «i» harfi bilan ham uchrashuv bo'lgan edi. Nima bo'lgani haqida biliшni istayganmi?

- Ha, - dedi Ella, eshitishi mumkin bo'lgan narsadan qo'rqqani holda. - Ha, istayman. Aziz Ellaga iyul oyining kunduzida, otelda, Amsterdamga uchadigan reysga bir necha soat vaqt qolganda, o'zining 1977 yil qanday qilib yangi ism olib, so'fiy bo'lgani, shu bilan birga, o'zining aytishicha, yangi taqdir ham qabul qilgani haqida gapirib berdi.

Shundan buyon u kasbiga ko'ra fotograf va qalb amriga ko'ra darbadar darvish sifatida dunyo kezib yurgan ekan. U oltita qit'ada chin

do'stlar orttirihti, u ularga xuddi o'z oila a'zosiday yaqin ekan. Aziz garchi boshqa oila qurmagan esa-da, Sharqiy Evropada ikki yetimning otasi bo'lipti. Shams Tabriziyni hamisha xotirasida saqlash uchun bo'yniga quyosh shakli bor marjon taqib yurar, so'fiy darvishlar an'analariga ko'ra sayohatlar qilar, ma'ruzalar o'qir va targ'ibotlar qilar ekan. Ikki yil oldin esa unga kasal ekani ma'lum bo'lipti.

Kasallik qo'lting'i ostidagi shishni sezishdan boshlanipti, afsuski, u buni kech payqapti. Qabariq melanoma, ya'ni rakning o'limga olib keluvchi shakli ekan. Shifokorlar tekshirib, metastaz ichki organlarga ham tarqab ketganini aytishihti.

O'shanda Aziz ellik ikki yoshda bo'lган. Unga ko'pi bilan ellik besh yoshga qadar yashashi mumkinligini aytishgan.

Ellaning lablari bir nima deyishga chog'langan kabi qimirladi, lekin tili kalimaga kelmadi, og'zi xuddi cho'lda qaqrab qolganday quruq

edi. Yuzlaridan ikki tomchi yosh dumaladi, lekin u tezgina artib tashladi.

Aziz har bir so'zini dona-dona aytib, gapida davom etdi. Shundan keyin hayotida yangi va muayyan ma'noda mahsuldor davr boshlangan ekan. Yerda hali u ko'rishni istagan ko'pgina yerlar bor ekan, u birinchi navbatda o'sha yerlarga borish yo'llarini izlab topipti.

Amsterdamda butun dunyoda filiallari bor bo'lgan so'fiylik jamoasiga asos solipti.

Indoneziya, Misr so'fiylari bilan birga konsertlarda havaskor sifatida nay chalipti va hatto Kordova, Ispaniyadagi yahudiy va musulmon mistiklari guruhi bilan birga albomlar chiqarip. Keyin Marokkoga qaytipti va yo'lining boshida uchratgan birinchi so'fiylar takkasini ziyorat qilipti. Ustoz Sammid allaqachonlar vafot etgan ekan, Aziz uning qabrini ziyorat qilipti, duolar o'qipti va meditasiya qilipti.

- Shundan keyin o'zim hamisha yozishni istagan, lekin dangasalik qilibmi yoki jur'at qila

olmaganim uchunmi, hamisha orqaga surib kelgan romanni yozish uchun faol hayotdan chekindim. - Aziz Ellaga ko'z qisib qo'ydi.

- Men buni juda ham istagan edim. Asarni «Shirin shakkoklik» deb atadim va hech qanday ijobiy natija kutmagan va har qanday natijaga tayyor holda uni amerika agentligiga yubordim. Birmuncha vaqtdan keyin esa Bostondagi sirli bir ayoldan g'alati elektron xat oldim.

Ella jilmayishdan o'zini tiya olmadi. Bu tavozeli hamdardlik tabassumi edi, u og'riqli va mehrli edi.

Aziz o'sha daqiqalardan buyon avvalgidek bo'la olmaganini aytdi. Eng to'g'ri kelmaydigan vaqtda, u o'limga tayyorlanayotgan odamdan sevuvchi odamga aylandi. Shunga qadar muhim va o'zgarmas bo'lib tuyulgan narsalar birdan qo'zg'olib, charxpalakday aylanib ketdi. Ruh, hayot, o'lim, e'tiqod va ishq - shulardan barchasining ma'nolarini u qaytadan anglab chiqdi. Uning aslo o'lgesi kelmas edi.

O'z hayotining final bosqichini u «So'fiy» so'zidagi «i» harfi bilan atadi. U bu bosqichni eng qiyin bosqich ekaniga iqror bo'ldi, chunki u o'zini barcha ichki konfliktlarni boshdan kechirib bo'lgan deb o'ylagan, o'zini ruhan etuk va maqsadiga erishgan inson deb hisoblagandi.

- So'fiylar o'lishdan oldin o'lishni o'rganadilar. Va men qadam-baqadam barcha bosqichlardan o'tib kelgandim. Keyin esa, hammasini aniqlab bo'ldim, deb o'ylay boshlaganimda, yo'q yerdan bir ayol paydo bo'ldi. u menga yozadi, men unga javob yozaman. Har bitta elektron xatidan keyin, nafasimni ichimga yutib, uning xatini kutaman. So'zlar qimmati har qachongidan baland bo'lib ketdi. Hamma narsa butkul bo'm-bo'sh ekranga aylandi, men unda harflar paydo bo'lishini intizor kutaman. Keyin birdan bu ayolni yaxshiroq bilgim kelayotganini anglayman. U bilan ko'proq vaqt birga bo'lgim keladi. Menga bu hayot kamlik qilayapti. Men endi o'limdan qo'rqayotganimni va mendagi qaysidir qism shu vaqtgacha men hurmat qilib

kelgan va men bosh egib kelgan Xudoga qarshi isyon ko'tarmoqchi bo'layotganini anglayman.

- Lekin hali vaqtimiz bor... - dedi Ella qayta tilga kirib.

- Shifokorlar o'n olti oy deyishgan, - garchi o'zini beparvo tutishga harakat qilayotgan esa-da, qat'iy qilib dedi Aziz. - Ular xato qilishlari mumkin. To'g'ri aytgan bo'lishlari ham mumkin. Bilmayman. Quloq sol, Ella, men senga faqat HOZIRni taklif eta olaman. Menda bori shu, xolos. Aslida hammada ham shunday, hamma ham kecha ham emas, kelajak ham emas, faqat hozir bor. Biz shunchaki tasavvur etishni yoqtiramiz...

Ella yerga qaradi va xuddi to'g'ri o'tirishga kuchi yetmayotganday bukchayib qoldi.

Ojizlikka qarshilik ko'rsatmoqchi bo'ldi, lekin kuchi etmadi, yig'lab yubordi.

- Iltimos, yig'lama. Sen men bilan Amsterdamga uchib ketishingni dunyodagi hamma narsadan ko'proq istayman. Men senga: «Yur, dunyo kezaylik. Olis mamlakatlarin

ko'raylik, har xil odamlar bilan tanishaylik va
birgalikda Rabbimiz yaratmishlaridan
zavqlanaylik» degim keladi.

- Bu menga yoqadi, - tabassum qildi Ella va
xuddi yig'lamasin deb qo'liga qo'g'irchoq
berilgan bolaga o'xshab ketdi.

Azizning qovog'i solindi, oyna tomonga
o'girilib oldi.

- Men esa qo'rqaman. Men hatto senga
teginishga ham qo'rqaman, boshqa narsalarni
esa qo'yaverasan. Men o'z kelajagim yo'q
bo'laturib, qanday qilib sendan men bilan birga
bo'lishingni, oilangni tashlappingni so'ray
olaman?

Ella yelkalarini qisdi, lekin baribir dedi:

- Tushkun bo'lishning nima keragi bor? Axir
sen xastalikka qarshi kurasha olasan-ku! Sen
men uchun shunday qilishing kerak. Biz uchun.

- Nima uchun kurashishimiz kerak ekan? -
e'tiroz qildi Aziz. - Biz hamisha kurash haqida
gapiramiz - Inflyasiyaga, OITSga, rakka,
korrupsiyaga, terrorizmga, hatto ortiqcha

kilogrammlarga qarshi kurash haqida...

- Men so'fiy emasman, - dedi betoqatlik bilan qandaydir xirillagan begona ovozda Ella. Xayolidan o'zini-o'zi o'ldirib, hayotdan ko'z yumgan otasi, undan keyingi judolik azoblari, agar vaziyat boshqacha bo'lganda hayot qanday bo'lishi mumkinligi haqidagi achchiq va nadomatli o'ylar g'izillab o'tdi.

- Sen so'fiy emasligingni bilaman, - istehzoli kuldi Aziz. - Bo'lishing kerak ham emas.

Rumiy bo'lsang bas. Sendan faqat shuni so'rayman.

- Nimani nazarda tutayapsan?

- Yaqinda mendan, sen o'zingni Shams deb hisoblaysanmi, deb so'rigan eding. Esingdami? Sen meni unga o'xshaysan, degan eding. Buni eshitishdan qanchalar baxtiyor bo'lsam hamki, lekin men Shams emasman. O'ylashimcha, u ancha buyuk bo'lgan. Lekin sen Rumiy bo'la olasan. Agar ishq seni ishg'ol etishiga va seni o'zgartirishiga imkon bersang - avval o'z borliging bilan, keyin esa yo'qliging bilan...

- Men shoir emasman, - dedi Ella.
- Rumiy ham shoir emas edi. Lekin keyin bo'ldi.
- Tushunmayapsan. Xudo haqi, men oddiy uy bekasiman, uch farzandning onasi! - xitob qildi Ella va qiynalib tin oldi.
- Asliyatimiz qanday bo'lsa, biz shundaymiz, - shivirladi Aziz. - Va biz hammamiz o'zgaramiz. Bu bir sayohat. Sen shu sayohatni amalga oshira olasan. Agar jasoratli bo'lsang va men ham jasoratli bo'lsam, biz nihoyat Konyaga bora olardik. Men o'sha yerda o'lishni istayman.

Ella xo'rsindi:

- Bas qil.

Aziz Ellaga uzoq qarab qoldi, keyin yerga qaradi. Yuzida boshqa ifoda paydo bo'ldi, ovozida esa begonalik bor edi, bu ovoz xuddi shamol uchirgan yaproq kabi uzoqdan kelayotganday edi.

- Shuningdek, Ella, - shoshmasdan dedi u, - sen uyga qaytishing mumkin. Bolalaring oldiga -

uyingga bor. O'zing hal qil, sevgilim. Sen qaysi birini tanlasang ham, bu mening tuyg'ularimga ta'sir qilmaydi. Men seni hamma vaqt yaxshi ko'raveraman.

Ichkilikboz Sulaymon

1248 yil, mart, Konya.

Ichkilik ichmaydiganlar ichuvchilar boshqa qiladigan ishlari yo'qligidan, dangasalikdan ichishadi, deb hisoblashadi. Ular hech nimani tushunishmaydi! Qancha ko'p ichsangiz, shuncha og'irlashasiz, o'zingizni harakatlanishga majburlay olmaydigan bo'lib qolasiz. Biz butun dunyo yukini o'z yelkalarimizda ko'taramiz.

Qattiq holdan toygan va hamma narsadan norozilik tuygan holda boshimni stolga qo'yib, mudrab qolibman. O'shanda ancha noxush bir tush ko'ribman. Qandaydir notanish ko'chalarda kattakon qora buqa meni g'azab bilan quvlayotganmish. Undan qochib, bozorga

kiribman, bozordagi do'konlar, peshtaxtalar oshib, savdo qilayotganlarga urinib-surinib, hammaning jahlini chiqarib chopayotgan mishman. Chopayotib qandaydir o'tish joyiga duch keldim, o'zimni o'shangan urdim, lekin u boshi berk ko'cha ekan. U yerda mamontning tuxumi bor ekan, juda katta, uydek keladi. Tuxum birdan maydalana boshladi, ichidan bir xunuk ho'l qush chiqipti. Men boshi berk ko'chadan chiqib ketmoqchi bo'libman, lekin shutob osmonda qushning onasi paydo bo'lipti, go'yo jo'jasining isqirtligiga meni aybdor sanab, qarab turganmish. Keyin u osmondan pastlay boshlapti va menga o'tkir tumshug'ini taqapti... Shundan keyin uyg'onib ketdim.

Ko'zimni ochib, stol oldida uqlab qolganimni tushundim. Og'zim xuddi zanglagan mixning ta'miga o'xshagan mazadan taxir bo'lib ketipti, chanqab, o'lay deb qolibman-u, lekin qimirlagim kelmas edi. Boshimni ko'tarmagan holda qovoqxonadagi shovqinga quloq

tutgancha, yana yo'qlikka cho'kib ketdim. Shu orada orqamda kimilardir bahslashayotganini eshitdim; shovqin xuddi asalari inidan chiqadigan ovozlarga o'xshab goh yaqinlashar, goh uzoqlashardi. Nihoyat bu qo'shni stolda bahslashib o'tirgan odamlarning ovozlari ekanini ilg'adim. Endi ularning yuziga qaramoqchi bo'lib turgandim, qulog'imga «qatl etish» degan ovoz eshitilib qoldi.

Avvaliga buni mast odamning alahlashi bo'lsa kerak, deb o'yladim. Qovoqxonada nimalarni eshitmaysan kishi, keyin esa, o'rganib ketilganidan keyin hamma narsani ham jiddiy qabul qilavermaslik kerakligini tushunasiz.

Lekin qo'shni stoldagilar ovozlaridagi allanima meni hushyor tortib, tuzukroq qulqoq solishga majbur etdi. Ular hazillashmayotganlarini va gap Shams Tabriziyni o'ldirish haqida ketayotganini tushungach, chakagim uzilay deb osilib qoldi.

Ular chiqib ketgan zahoti o'zimni uxlayotganga solishdan to'xtab, stoldan irg'ib turdim.

- Xristos, bu yoqqa kel! Kelsang-chi tezroq! - baqirdim men.

- Senga yana nima kerak? - so'radi chopib kelgan Xristos. - Nimaga baqirasan?

Men esa hech nima deya olmadim. Hatto unga ham ayta olmadim. Qovoqxonada o'tirganlarning hammasi menga shubhali ko'rinardi. Bu Shamsga qarshi uyushtirilayotgan suiqasd bo'lsa-chi? Yo'q, og'izni qulflab, ko'zni kattaroq ochish kerak.

- Shunchaki, o'zim! Qornim ochdi, - dedim. - Menga sho'rvangdan olib kel. Sarimsoqdan ko'proq sol. Hushimga kelib olay!

Mening kayfiyatimdagi tez o'zgarishlarga odatlanib qolgan Xristos menga hayron qarab qo'ydi, ortiqcha savol bermadi. Birpasdan keyin yaxshi qaynagan va xushbo'y tovuq sho'rva olib keldi. Va men uni shoshib icha boshladim. Biroz o'zimga kelib olgach, Shame Tabriziyni izlab topish uchun ko'chaga otildim. Eng oldin Rumiylarnikiga bordim. Shams u yerda yo'q ekan. Keyin machit, madrasa,

choyxona, novvoyxona, hammomga bordim...
Hunarmandlar ko'chasinging barcha
burchaklariga qirib chiqdim. Hatto mabodo
tishi og'rib qolgan bo'lsa, kirmadimikin deb
lo'lining chaylasiga ham bosh suqdim.
Hammayoqni izladim va vaqt o'tgan sayin
qo'rquvim ortib bordi. Vahimaga tushib
qoldim. Kech qoldimmikan? O'ldirib
bo'lishganmikin?
Bir necha soat shu zaylda yurib, endi qayoqqa
borishni bilmay karvonsaroy tomonga
burildim, yuragim alg'ov-dalg'ov bo'lib yotardi.
Shunda birdan, xuddi mo'jiza ro'y berganday,
eshikdan ikki qadam narida Shamsga duch
keldim.

- Assalomu alaykum, Sulaymon. Sen juda band
ko'rinasan? - kulimsirab so'radi Shams.
- Xudoga shukur! Tirik ekansan! - xitob qildim
men va uni quchoqlab oldim.

Shams qo'llarimdan bo'shab olgach, menga
hayron qarab qoldi:

- Tirikman, albatta! Yo arvohni ko'rdim deb

o'yladingmi?

Men jilmayib qo'ydim. Boshim og'riyotgan edi, boshqa vaqt bo'lganda-ku, tezroq chanqovbosdi qilish va tashvishdan nari bo'lish uchun ikki ko'za ichgan bo'lardim.

- Do'stim, nima bo'ldi? Tuzukmisan? - xavotirlanib so'radi Shams.

Men zo'rg'a yutinib oldim. Men suiqasd haqida aytsam, u ishonmasa-chi? Balki kayfi oshganidan shunday tushungan, deb o'ylar? Bu to'g'ri bo'lishi ham mumkin. Hozir o'zim ham o'zimga ishonmas edim.

- Seni o'ldirmoqchi bo'lishayapti, - dedim men.
- Bu odamlar kimligini bilmayman, chunki ularning yuzlarini ko'rmadim. Uxlayotgandim, bilasan-ku... Lekin bu tush emas edi. Ya'ni tush ham ko'rayotgan edim, lekin bu tush emas edi. Men mast emas edim. Atigi ikki finjon, nima degan gap...

Shams qo'lini elkamga qo'ydi:

- Xotirjam bo'l, do'stim. Men tushunaman.
- Tushunasan?

- Ha. Endi joyingga qaytib borgin-da, men haqimda boshqa tashvish qilma.
- Yo'q, yo'q! Hech qayoqqa bormayman. Sen ham bormaysan, - qarshilik qildim men. - Bu jiddiy odamlar edi. Sen ehtiyot bo'lishing zarur. Rumiylarnikiga borma. Seni eng oldin o'sha yerdan izlashadi.

Shams mening holatimga e'tibor bermay, jum turardi.

- Menga quloq sol, dervish, mening uyim kichkina, lekin agar istasang menikida qancha turging kelsa, shuncha turishing mumkin.
- Meni o'ylaganing uchun katta rahmat, - dedi Shams.
- Lekin hammamiz ham Xudoning dargohidamiz. Qoidalardan birida aytilishicha: «Dunyo hamma narsalarning hamma narsalarga bog'liqligi qonuniga bo'ysunadi. Ezgulikning har bir tomchisi, yomonlikning har bir bo'lagi - hamma-hammasi o'zaro bog'langan. Suiqasdlardan, aldanishlardan, ayyorliklardan ko'rmaslik kerak. Kimdir senga

qopqon qo'yayotgan bo'lsa, bilginki, u Xudoning irodasi bilan shunday qilayapti. Eng zo'r qopqonni Uning O'zi qo'yadi. Xudoning izmisiz daraxtning yaprog'i ham qilt etmaydi. Xudoga to'liq ishon. Nimaiki sodir bo'lmasin, uning iznisiz bo'lmaydi».

Shams shu so'zlarni aytib menga ko'zini qisib qo'ydi va xayrlashib, menga qo'l silkitdi. Men uning loy ko'chadan yurib, Rumiylarning uyi tomon qadam tashlab tez ketayotganini kuzatib qoldim. Mening ogohlantirishimga e'tibor bermadi ham.

Qotil

1248 yil, mart, Konya.

Kaltafahmlar! Ovsarlar! Ularga men bilan birga bormanglar, deb aytgandim-a. Men doim bir o'zim ishlayman, buyurtmachilar ishimga aralashishini juda yomon ko'raman. Lekin ular darvishning g'ayritabiiy quvvati borligini menga pesh qilib, o'lganini o'z ko'zimiz bilan

ko'rishimiz kerak, deb turib olishdi.

- Mayli, - dedim oxiri. - Lekin darvishingizning ishini tugatmagunimcha, narida turasiz.

Ular «xo'p» deyishdi. Endi ular uchta bo'lishdi. Ikkitasini men oldin ham ko'rgan edim, keyingi uchrashganimizda esa yana bittasi ularga qo'shilipti - u ham o'shalarday yosh va asabiy yigit ekan. Uchalasi ham yuzlarini qora ro'mol bilan berkitib olishgandi. Menga baribir emasday go'yo!

Yarim kechadan keyin Rumiylarnikiga keldim. Tosh devordan sakrab o'tib, hovliga tushdim. Butalar orasiga yashirindim. Buyurtma bergenlar Shams Tabriziy har kuni tahorat olishdan oldin hovlida muroqaba (meditasiya) qilish odati borligini aytishgan edi. Men faqat kutib turishim kerak edi.

Havo odatdagidan sovuqroq, shamol ham bo'layotgan edi. Qo'limda ushlab turgan qilichim og'ir va sovuq, sopidagi ikki koratga sotib olgan marjon bezagi qo'limga qattiq botardi. Har ehtimolga qarshi deb xanjar va

pichoq ham olganman.

Oy och havorang parda ichida. Uzoqlardan tungi hayvonlarning qichqiriqlari va uvillashlari eshitiladi. Shamol esib dimog'imga atirgulning shirin isini ufurdi. Ne ajabki, men bundan o'zimni yomon his etdim. Bu yerga kelishimdan oldin ham kayfiyatim yaxshi emas edi, endi esa judayam yomon bo'lib ketdim. Shirin, xushbo'y atirgulning orqasida turar ekanman, qotillik haqida unutishga va uzoq yerlarga qochib ketishga bo'lgan xohishimni sira bostira olmasdim.

Lekin bergen va'damga sodiq qoldim. Shu alfozda qancha vaqt o'tganini bilmayman. Qovoqlarim og'irlashgan, nuqlu esnoq keladi. Shamol kuchaydi, qandaydir noma'lum sababga ko'ra men o'ldirgan barcha odamlar haqidagi qorong'u va og'riqli xotiralar yopirilib kela boshladи. Hech qachon bunday tuyg'uni boshdan kechirmagandim. Hech qachon o'tmishni eslaganimda bunaqa asabiylashmas edim. To'g'ri, menda o'qtin-o'qtin xayollarga

beriladigan kunlar bo'lib turardi, lekin asabiylashish...

O'zimga dalda berish uchun xushtak chala boshladim, lekin bu yordam bermadi. Orqa eshikka qarab pichirladim: «Chiqaqol, Shams. Meni uzoq kutishga majbur qilma. Hovliga chiq».

Lekin biron ovoz yo'q. Biron harakat yo'q. Hech nima yo'q-ku.

To'satdan maydalab yomg'ir tomchilay boshladi. Men turgan joydan devor ortidagi yerlar yaxshi ko'rinish turardi. Tez orada kuchli yomg'ir yog'a boshladi, ko'chalarda suv daryo bo'ldi, men suyaklarimgacha ho'l bo'ldim.

- La'nat bo'l sin! - dedim chidamsizlik bilan. - La'nat bo'l sin! La'nati!

Men endi qatl ni boshqa kunga ko'chirmoqchi bo'lib turgan edim hamki, shu on tomlar va yo'llarga qattiq urilayotgan yomg'ir tomchilarini bosib ketadigan keskin ovoz eshitilib qoldi. Kimdir hovliga chiqdi.

Bu Shams edi. U qo'lida moychiroq

ko'targancha, men tomonga yurib kelardi, u men yashiringan butalardan bir necha qadam narida to'xtadi.

- Go'zal kecha, - dedi u.

Men sarosimaga tushdim, o'zimni zo'rg'a bosib, xo'rsindim. Nahotki yolg'iz bo'lsa? Kim bilandir gaplashayaptimi? Yo o'ziga-o'zi gapiroayaptimi? Yoki men uni hovlida kutayotganimni bildimikin? Lekin qanday qilib meni bilishi mumkin? Bu fikrlardan boshim yorilay derdi.

Keyin miyamga yana bir dahshat fikr kelib qoldi: kuchli shamol va yomg'irga qaramasdan qo'lidagi chiroq qanday qilib yonib turipti?! Shuni o'ylagan zahotim etim jimirlab ketdi.

Shame haqida tarqalgan har xil gap-so'zlarni esladim. Odamlar uni sehr-jodu qiladi; shunchaki o'z kiyimidagi bir nechta ipni bog'lab, odamni hangraydigan eshakka yoki ko'rshapalakka aylantirib qo'yishi mumkin, deyishardi. To'g'risi, men hech qachon bu bema'ni gaplarga ishonmaganman va

ishonishni istagan ham emasman, lekin Shamsning qo'lidagi o'chmaydi chiroqni ko'rib, boshimdan oyog'imgacha titroq turdi.

- Bir vaqtlar Tabrizda ustozim bor edi, - dedi Shams chiroqni yerga qo'yar ekan. U menga «hamma narsaning vaqtu soati bor», deb o'rgatgan edi. Bu oxirgi qoidalardan biri. Bu qanday qoidalalar bo'ldi? Bu qanday jumboq? Men bu jumboqni tez echishim kerak, yo yashiringan joyimdan shartta chiqishim, yoki u menga orqasini o'girishini kutib turishim, lekin bu keyingisi bo'lishi amrimahol. Agar u mening shundoqqina yonida ekanimni bilsa, berkinishdan ma'no yo'q. Agar bilmasa, qanday chiqishni aniq hisobga olish kerak.

Shu on hovli devori ortiga yashiringan uch kishining soyalarini ilg'adim. Ular men nima uchun darvishni o'ldirmayotganimni tushuna olmayotgan bo'lsalar kerak.

- O'ttiz yettinchi sonli qoida, - gapida davom etardi Shams. - «Xudo vaqtni juda aniq hisoblaydi. Uning tartiboti shunchalar aniqki,

yer yuzidagi barcha hodisalar aynan o'z vaqtu soatida sodir bo'ladi. Bir daqiqa oldin ham, bir daqiqa keyin ham emas. Soat hamma uchun birday yuradi. Har bir insonning sevgisi va o'limi uchun aniq vaqt ajratilgan».

Shundagina u aynan men bilan gaplashayotgani menga yetib bordi. U shu yerda turganimni biladi. U buni men hovliga kirmasimdan oldinoq bilgan. Yuragim baland ovozda urib ketdi va atrofimda havo qolmaganday bo'ldi. Endi berkinishda ma'no yo'q edi. Gavdamni tiklab, butalar orasidan chiqdim. Yomg'ir qanday birdan boshlangan bo'lsa, shunday birdan to'xtadi va suqunat cho'kdi. Biz - qotil va qurban - yuzma-yuz turardik, vaziyatning daxshatiga qaramasdan, hammayoq tinch va tabiiy edi.

Men qilichimni sug'urdim va qulochkashlab urdim, lekin darvish kutilmaganda qilichni oson qaytardi. Yana urishga chog'landim, lekin qandaydir shovqin eshitildi, qayoqdandir to'qmoq va nayzalar bilan qurollangan oltita

erkak paydo bo'ldi va darvishga hujum qila ketishdi.

Hammasi aralash-quralash, yerga dumalashdi, keyin yana o'rinalidan turib, hammasi har qayoqqa urila boshladi. Men buni hayrat va g'azab bilan kuzatib turdim. Hech qachon menga birovini o'ldirishga pul to'lab, o'zлari o'ldirayotganlarining guvohi bo'lmagandim. Bu uch yosh yigitning surbetligidan shunchalar jahlim chiqdiki, hatto ularni yaxshilab do'pposlab, darvishni qutqarishga ham tayyor edim.

Lekin shu vaqt xujum qilayotganlardan biri jon holatda baqira boshladi:

- Yordamga! Shoqol Bosh, tez! U bizni o'ldiradi!

Men yashin tezligida qilichimni otib, xanjarni qinidan chiqardim va urishayotganlar tomonga otildim. Yetti kishi darvishni yerga bosib turishardi, men xanjarni uning yuragiga urdim. Faqat birgina xirillash otilib chiqdi, darvish hatto silkinmadi ham.

Hammamiz birgalikda ajablanarli darajadagi yengil jasadni ko'tardik, olib borib quduqqa tashladik va shalplash eshitilishini kutib turdik.

Lekin hech nima eshitilmadi...

- Bu nimasi? - chiday olmay dedi qotillardan biri. - U quduqda emasmi?

- Quduqda, quduqda, - uni yupatishga urindi boshqa qotil. - U bu yoqqa chiqa olmaydi-ku! Hamma qo'rqib ketdi. Men ham.

- Balki u quduq devoridagi biron ilgakka ilinib Qolgandir? - taxmin qildi uchinchisi.

Bu haqiqatga biroz yaqinroq edi. Bo'lgan hodisaga iron bir tushuntirish bo'lishi kerak-ku, axir, garchi quduq devorida hech qachon hech qanday ilgak bo'lmasligini bilsak ham, baribir, xursand, bir-birimizni quchoqlab qo'ydik.

Bir-birimizning ko'zlarimizga qaramaslikka harakat qilib, qancha vaqt o'sha yerda turganimizni bilmayman. Sovuq shamol hovlida jigarrang yaproqlarni uchirib yurardi. Baland osmondagি to'q ko'k zulmat

chiqayotgan quyoshga o'z o'rnini
bo'shatayotgan chog' edi. Biz hovlida uzoq
qolgan bo'ljak kerak, har holda orqa eshik
ochilib, bo'sag'ada odam ko'rinxmagunicha
turdik. Men uni darhol tanidim. Bu Mavlono
edi.

- Bu kim?! - qichqirdi u, ovozida bezovtalik
bor edi. - Shu erdamisan, Shams?
Darvishning ismini eshitgan zahotimiz,
yettovimiz tum-taraqay qochdik. Olti kishi
devor oshib g'oyib bo'ldi, men esa butalar
orasidan xanjarimni axtarardim. Men bir on
ham to'xtamaslik kerakligini bilardim, lekin bir
qayrilib qaramaslikdan o'zimni tiya olmadim.
Rumiy hovliga chiqayotganini, keyin chapga,
quduq tomonga burilganini ko'rdim. U
ko'tarilib, quduqqa qaray boshladi va to ko'zlari
qorong'ulikka o'rgangunicha bir necha daqiqa
kutib turdi. Keyin u yerdan sakrab tushdi,
tizzalab o'tirib qoldi, ko'kraklariga mushtlab
ketdi va quloqni teshgudek chinqirdi:
- Ular uni o'ldirishi! Ular mening Shamsimni

o'ldirishipti!

Men devor osha sakradim, dervishning qoniga belangan xanjarni ham unutib shunday chopdimki, umrimda bunchalik chopmaganman.

Ella

2008 yil, avgust, Nortgempston.

Avgustning muattar va quyoshli kuni. Boshqa kunlariga o'xshash kun. Ella erta uyg'onib, eri va bolalari uchun nonushta tayyorladi, har birini boradigan joylariga - kimnidir ishiga, kimnidir shaxmat va tennis klubiga - o'z vaqtida yetib borishlarini nazorat ostiga oldi, keyin oshxonaga qaytib, oshpazlik kitobini ochdi va oilaning kunduzgi ovqatlari nimalar bo'lishini tanlashga kirishdi.

Ismaloqli va qo'ziqorinli pyure-sho'rva.

Gorchisa mayonezi bilan tortiladigan chig'anoqlar.

Ustiga estragonli sariq yog' quyilgan qovrilgan

grebeshoklar.

Klyukvali sabzavot salati.

Guruchli va qirg'ichda maydalangan pishloqli tsukini.

Rovochli va vanil kremlı ochiq pirog.

Yarim kun Ella to'g'rash, bug'lash, qovurish ishlari bilan mashg'ul bo'ldi. Hammasini tayyorlab bo'lgach, eng yaxshi idishlarni oldi. Likoplar va salfetkalarni qo'yib chiqdi, stolga gul qo'ydi. Keyin krutonlarni qovurdi, salatga Avi yaxshi ko'rganiday yog'liq qaymoqdan ko'proq qo'shdi. Shamlar ham yoqib ko'ymoqchi edi, lekin keyin aynidi. Shundoq yaxshi deb o'yladi.

Shu ishlardan keyin Ella avvalroq tayyorlab qo'ygan jomadonini oldi va uydan chiqdi.

Yo'lda Shams qoidalaridan birini shivirlardi. O'zingdan bir narsani so'rashning aslo kechi yo'q: «Hayotimni o'zgartirishga tayyormanmi? O'zimni o'zgartirishga tayyormanmi? Hayotning hatto bir kuni oldingisiga o'xshasa, buning aslo yaxshi tomoni yo'q. Inson har on,

har nafas yangilanishi kerak. Yangi hayot boshlashning faqat bir usuli bor: o'limdan oldin o'lish».

Aloviddin

1248 yil, aprel, Konъya.

Shams halok bo'lgandan uch hafta keyingina men o'zimda jasorat topib otam bilan gaplashgani bordim. Yolg'iz o'zi kutubxonasida haykaldek qimirlamay qotib o'tirardi. Faqat yuzida soyalar harakatlanardi. Ota, siz bilan gaplashishimga izn berasizmi? U xuddi xayolot ummonidan suzib chiqayotganday, ohista ko'zlarini yuqori ko'tardi, lekin hech nima demadi.

- Ota, siz meni Shamsni qatl etishda qatnashgan, deb o'ylayotganingizni bilaman, lekin ijozatingiz bilan sizni ishontirib...

Otam birdan gapimni bo'lib, barmog'ini baland ko'tardi.

- O'g'lim, sen bilan meni bog'laydigan so'zlar

endi quruq ma'nosiz bo'lib qoldi. Men seni eshitishni istamayman, mening ham senga aytar so'zim yo'q, - dedi u.

- Iltimos, unday demang. Tushuntirishimga izn bering, - iltijo qildim men titroq ovozda. - Xudo haqi, men bunday qilmadim. Men bu ishni qilgan odamlarni bilaman, lekin men qilmaganman.

- O'g'lim, - yana gapimni bo'ldi otam, ovozidagi qayg'u o'rnini sovuq xotirjamlik olgan edi, go'yo u dahshatli haqiqatni biladiganday edi. - Sen men qilmadim, deyapsan, lekin yenging hoshiyasidagi qon qayoqdan paydo bo'ldi?

Titrab ketdim va beixtiyor kiyimimga qaradim. Nahotki rost bo'lsa? Nahotki qon tekkan bo'lsa? Men hoshiyaga, keyin ikkala yengimga, qo'lllarim va tirnoqlarimga qaradim. Hech qanday qon yo'q edi. Boshimni ko'tarib otamning ko'zlariga ko'zim tushgach, bildimki, bu qopqon edi. Otam meni ustalik bilan qo'lga tushirdi.

Ehtiyyotsizlik qilib, hoshiyaga qarab o'zimni fosh qilib qo'ydim.

- To'g'ri, o'sha kuni men qovoqxonaga borganman. Shamsning har kuni kechqurun muroqaba qilish odati borligini qotilga men aytganman. Keyin men Shams qotil bilan yomg'irda suhbatlashayotganda devordan oshib o'tganlar bilan birga edim. Men ularga devorning qaysi joyidan o'tish qulayligini ko'rsatdim. Hammamiz qotilga ishonish mumkin emas degan qarorga keldik. Bor gap shu. Lekin uni o'ldirishda men qatnashmadim. Shamsga birinchi bo'lib Beybars hujum qildi, keyin unga Irshod qo'shildi, keyin qolganlar ham qo'shilishdi. Ular hech nima qila olmay, vahimaga tushganlaridan keyin Shoqol Bosh ishni nihoyasiga etkazdi.

Keyin men bularning hammasini shuncha ko'p esladimki, endi aslida nima bo'ldi va nimasi o'z tasavvurim mahsuli ekanini ham bilmay qoldim. Bir necha bor Shams qo'limizdan chiqib, qorong'ulik qa'rige singib ketdi, bu

shunchalik aniq ediki, men hatto bunga deyarli ishongan edim.

Garchi Shams hozir yo'q bo'lsa-da, hamma yoqda uning izlari bor. Raqs-u Samo, she'riyat, musiqa - men ularni u bilan birga yo'qoladi deb o'ylagan barcha narsalar hayotimizda o'rinn egallab bo'lgan ekan. Otam shoirga aylandi.

Shams haq gapni aytgan ekan. Ko'zalardan biri sindirilsa, ikkinchisi avvalgicha qolmas ekan.

Otam hamisha mehribon. U nafaqat musulmonlarga, balki barcha din vakillariga - xristianlarga, yahudiylarga va hatto majusiyilar (butparastlar)ga ham hurmat bilan qaraydi.

Hayotiga Shams kirib kelganidan keyin esa mehr doirasi shu daraja kengaydiki, hatto jamiyatning eng quyqa qatlami bo'lgan fohishalar, ichkilikbozlar, gadoylar, jinoyatchilarni ham qamrab oldi.

U hatto Shamsning qotillarini ham sevishi mumkindir.

Faqat bir odamni sevishga o'zini majbur qila

olmaydi - o'z o'g'lini.

Sulton Valad

1248 yil, sentyabr, Konъya.

Kambag'al-nochorlar, ichkilikbozlar, fohishalar, yetim-yesirlar, o'g'rilar... U oltin va kumushlarni ularga va jinoyatchilarga ularshib berdi. O'sha dahshatli kundan buyon otam juda o'zgardi. Dard-alam uni aqldan ozdiripti, deb o'ylayapti hamma. Undan, nima qilayapsiz, deb so'raganlarga arablarning podshohi Imr-ul-Qays tarixini gapirib berardi. Aytishicha, u juda boy va chiroyli bo'lgan, bir kuni bularning hammasidan voz kechib, darvishlik kiyimini kiyib, umrining oxirigacha darbadar dunyo kezgan. (Imru al-Qays asosan arab she'riy metrikasi asoschisi sifatida keng tanilgan.)
- Inson o'z sevgilisini yo'qotganida shunday bo'ladi, - der edi otam. - Shohlik uning uchun changga aylangan, darvishlik mohiyati esa yuzaga chiqqan. Shams yo'q, endi men ham

yo'qman. Men endi ustoz ham emasman, imom ham emasman. Men bo'm-bo'shman, bo'shliqman. Bu mening FANOyim, BAQOyim ham shu. (Tasavvufda fano - o'lmay turib o'lish; baqo - fanoga erishgan inson vujudan o'lgach erishiladigan abadiyat, Xudo bilan birlik holati.)

Bir kuni uyimiz eshigini, ayyorligi aftidan shundoq ko'rinib turgan, bir mallasoch savdogar taqillatdi. U bir vaqtlar Bag'dodda Shams Tabriziy bilan tanishganini aytdi. Keyin ovozini pasaytirib Shamsni Hindistonda ko'rganini, u, qaytib kelish uchun qulay fursat kutib, hind ashramlari (ibodatgohlari)dan birida yashirinib, muroqaba qilib yurganini aytib, qasam ichdi.

Bundan otamning esi batamom og'ib qoldi. U savdogardan bu xushxabar uchun nima istashini so'radi, u uyatsiz esa o'zining yosh bolalik vaqtida darvish bo'lishni istaganini, lekin hayoti boshqa yo'ldan ketgach, endi Rumiydek buyuk zotdan o'z ustidagi duxoba

to'nini esdalik uchun olish istagi borligini aytdi. Otam buni eshitib, darhol duxoba to'nini echib, savdogarga uzatdi.

- Ota, nima uchun qimmatbaho to'ningizni bu lo'ttibozga yechib berdingiz, axir har bir so'zining yolg'onligi shundoq ko'rinish turgan edi-ku? - so'radim men mallasoch savdogar ketgan zahoti.

Shunda otam menga shunday javob qildi:

- Seningcha, bu to'n uning yolg'oni uchun juda qimmatmi? Yo'q, o'g'lim, men to'nni shu yolg'on uchun berdim, agar rost aytsa, jonimni bergen bo'lardim.

Rumiy

1260 yil, 31 oktyabr, Konъya.

Vaqt chopqillab o'tib borarkan, og'riqli holat o'rniga hasrat keldi, hasrat sukut bilan o'rin almashdi, sukut esa yolg'izlik bilan birga qop-qorong'u cheksiz va chuqur ummon. Bugun Shams bilan uchrashgan kunimizga o'n olti yil

bo'ldi. Har yili shu sanada yolg'iz o'zim qolishga harakat qilaman, har safargi yolg'izlik avvalgisidan og'irroq bo'lib bormoqda. Qirqunni qirq qoida haqida fikrlab o'tkazdim. Hammasini esimda saqlayman, miyamda hamisha Shams Tabriziy haqidagi xayollar. Kutishga boshqa majol qolmadi. Qalb nuri so'ndi, butkul qorong'ulikda qolganim yaxshiroq, deb o'yladim. Lekin atrofda hammayoq zulmat va ko'zlar dunyo uchun yumilganda qalb uchinchi ko'zi ochildi. Shunda odatdagi ko'zlar ichki ko'z bilan ziddiyatda ekanini tushunar ekan kishi. Odatdagi ko'zimiz ishq ko'ziday aniq va o'tkir ko'ra olmaydi. Hasratdan keyingi davr boshlandi, boshqa inson paydo bo'ladi. Bunda hammayoqdan sevgan insoningni izlaysan, hech qayoqdan topa olmayotganday bo'lasan.

Uni suv tomchisida ham ko'rasan, baland to'lqinlarda ham ko'rasan, musaffo tonggi saboda ham ko'rasan; qum ustidagi majoziy chizgilarda, quyosh nurida yaltiragan kichik

toshlarda, yangi tug'ilgan chaqaloqning jilmayishida va vujudingda erkin aylanuvchi qonda ham ko'rasan. Hamonki u hamma yoqda ekan, Shamsni endi IShQ, deyish mumkinmi? Har kun, har on hijron va xomushlik og'ushida ohista aylanar ekanman, Shamsdan sira ajralmayman. Shams qalbimga hamishalikka ko'chib o'tgan. Men shu erda Shamsning ovozini asrayman. Bir vaqtlar ustoz va mudarris bo'lgan mendan asar ham qolmagan. Ishq barcha odat va mashg'ulotlarimni yutib yuborgan.

Menga eng qiyin vaqtda ikki inson dalda bo'ldi - to'ng'ich o'g'lim va usta zargar, avliyo inson Salohiddin. O'zining kichkinagina ustaxonasida tillani bolg'a bilan ura-ura, mukammal shaklga solayotganini ko'rib, ovozini eshitib turarkanman, ne ajabki, aylanuvchi darvishlar raqsini eslayman. Salohiddinning o'z bolg'asi bilan taqillatish maromi Shams aytgan muqaddas marom bilan bir xil ekanini his etaman...

Shu orada to'ng'ich o'g'lim Salohiddinning qizi Fotimaga uylandi. Hamisha porlab turadigan va qizikquvchan bu qiz menga Kimyonи eslataldi. Men uni Qur'on o'qishga o'rgatdim. Sekin-asta uni yaxshi ko'rib qoldim va u mening o'ng ko'zimday bo'lib qoldi, singlisi Qadriya esa chap ko'zim bo'ldi. Bir vaqtlar Kimyoginam qizlar ham o'g'il bolalar kabi yaxshi shogird bo'lishlari mumkinligini ko'rsatib, menga muhim narsani o'rgatgan edi. Men qizlar uchun darvishlar raqsini o'rgatadigan maktab ochdim va so'fiy opasingillarga shu an'anani davom ettirishlarini maslahat berdim.

«Masnaviy»larni aytib turib yozdirayotganimga ham to'rt yil bo'ldi. Uning birinchi misrasi erta tongda, quyoshning ilk nurlarini kuzatib turganimda kelgan edi. Shundan buyon she'riy misralar tilimdan o'zidan-o'zi yog'iladi. Men ularni yozmayman. Dastlab Salohiddin yozib bordi. O'g'lim ulardan nusxa ko'chirdi. Ular tufayli she'rлar

saqlanib qoldi, chunki, to'g'risini aytsam, agar mendan ularni yoddan qayta aytishni so'rasalar, men ayta olmagan bo'lardim. Nasriymi yoki nazmiymi, so'zlar to'plami menga kutilmaganda keladi, keyin esa kutilmaganda yana to'xtaydi, ular go'yo osmonda uchib o'tayotgan qushlar kabitdir.

Men poema ijod qilayotganimda, nima haqida bo'lishi mumkinligi haqida tushuncham ham bo'lmaydi. Uning hajmi ham katta yoki qisqagina bo'lishi mumkin. Lekin menda hech qanday reja bo'lmas edi. Uni tugatganidan keyin yana xomush bo'lib qolaman. Jimgina yuraveraman. Va endi taxalluslarimdan biri «Xomush» bo'ldi. Ikkinchি taxallusim - Shams Tabriziy.

Vaqt biz nazorat etishga va anglab etishga ulgura olmaydigan darajada tez o'tmoqda. 1258 yil Bag'dod mo'g'ullarga taslim bo'ldi.

Mustahkam istehkomlari va go'zalligi mag'rur, o'zini dunyoning markazi deb e'lon qilgan bu shahar yengildi. O'sha yili Salohiddin vafot

etdi. Men o'z darvishlarim bilan birga ko'chalarda childirma va nay sadolari ostida yurib, juda yaxshi marosim o'tkazdik. Biz uni quvnoq kuy, raqlar bilan kuzatdik, zero avliyolar u dunyoga shunday ketishlari joiz. 1260 yilga kelib mo'g'ullarning shashti pasaydi. Mamluklar ularni yengishdi. Kechagi g'oliblar bugun mag'lub. Barcha g'oliblar o'z g'alabalarini abadiy deb o'ylashadi. Barcha mag'lublar esa o'z mag'lubiyatlari abadiy bo'lishidan qo'rqlik shadidi. Har ikki tomon ham bir sababga ko'ra nohaq. Xudodan boshqa hamma narsa o'zgaradi.

Salohiddinning vafotidan keyin anchagina voyaga yetgan va ruhiyat yo'lidan dadil odimlay boshlagan shogirdim Xusomiddin Chalabiy she'rlarimni qog'ozga tushiradigan bo'ldi. Masnaviyni u qog'ozga tushirdi. U kamtar inson. Agar undan, kimsan, deb so'rasangiz, bir on ham ikkilanmasdan «Men Shams Tabriziyning kamtarin izdoshiman», deb javob beradi.

Hammamiz ham qirq, ellik, oltmis yilliklarni bosib o'tdik, har o'n yillik o'tgach, o'zimizni mukammalroq, to'liqroq his eta bordik. Garchi bu yo'l nihoyasiz esa-da, yuraverish kerak. Koinot hamisha va charchamay harakatlanadi, Yer va Oy doim aylanadi, ularni Kim harakatlanishga majbur etadi? Bu sir. Biz darvishlar shuni tushunganimiz uchun, hatto boshqalar biz nima qilayotganimizni va nima uchun qilayotganimizni tushunmasalar ham, hamisha raqsu samo qilamiz. Biz hech nimaga qaramasdan - og'riqlarimiz va qayg'ularimizga, quvonch va lazzatlarimizga, tezlik va sekinlikka qaramasdan, yakka yoki ko'pchilik bo'lib raqs tushaveramiz, zero suv oqimi shunday. Buyuk uyg'unlik bizga nima ishora qilsa, shunday raqsga tushamiz. Hamma yoq o'zgarishda, ammo doira o'zgarmaydi. O'ttiz to'qqizinchi qoida: «Qismlar o'zgarsa ham, butun o'zgarmaydi. Bir yaramas inson dunyodan o'tsa, boshqa yaramasi dunyoga keladi. Bir yaxshi inson dunyonи tark etsa,

o'rniga boshqa yaxshisi keladi. Shuning uchun nafaqat hech nima o'zgarmasdan qolmaydi, balki hech nima chinakamiga o'zgarmaydi ham. Bir so'fiy vafot etsa, qayerdadir boshqa yerda boshqa so'fiy dunyoga keladi». Bizning dinimiz – ishq dini. Bizlar yurak zanjirlari bilan o'zaro bog'langanmiz. Zanjirning bir bo'lagi uzilsa, uning o'rniga boshqa joyda yana bir bo'lak keladi. Shams Tabriziy vafot etganidan keyin boshqa joyda, boshqa yoshda, boshqa «Shams» paydo bo'ladi. Ismlar o'zgaradi, odamlar kelib va ketib turishadi, lekin mohiyat o'shandayicha qoladi.

Ella

2009 yil, 7 sentyabr, Konъya.

Uni noodatiy ovozlar birdan uyg'otib yuborganida, uning karavoti yoniga qo'yilgan kresloda uxlayotgan edi. Ella ko'zlarini ochib, quloq soldi. Qorong'uda kimdir notanish so'zlarni aytardi. U ko'chada odamlarni

namozga chaqirishayotganini (azon aytilayotganini) darrov ilg'amagan edi. Yangi kun boshlanmoqda edi. Lekin u bu kun nimagadir barham berishini his etardi. Azonni birinchi marta eshitgan har qanday odamdan so'rasangiz, u ham ayni shu gapni aytadi. Bu chaqiriq ham go'zal, ham sirli. Lekin unda odamda qandaydir qo'rquv uyg'otadigan allanima ham bor. Ishqqa o'xshash nimadir.

Ella shu ovozdan titrab, uyg'onib ketdi. Qorong'uda bir necha bor ko'zlarini tez-tez qisib, nihoyat, bu ovoz tashqaridan kelayotganini angladi. Ella o'zining Massachusettsda emasligini darrov anglay olmagan edi. U eri va uch farzandi bilan yashab kelgan kenggina uy boshqa hayotida - uzoq va tumanli o'tmishida - qolgan edi, u go'yo umuman bo'lmaganday, haqiqiy hayoti emas, balki ertakday bo'lib qolgan edi.

Ha, bu yer Massachusetts emas. U hozir zaminning boshqa qismida, Turkiyada, Konya

shahrining shifoxonasida edi. Va hozir u bir tekis nafas olishini eshitib turgan erkak uning yigirma yillik eri emas, balki o'tgan yilning serquyosh yozida uni deb eridan qochib ketgan sevgilisi edi.

«Nahotki kelajagi yo'q erkakni deb eringni tashlab ketsang? - deb unga bir xil savol berishardi hamma dugonalari va qo'ni-qo'shnilar. - Bolalar nima bo'ladi? Ular seni kechirisharmikin?»

Ella stol ustidagi kechki chiroqni yoqdi, uning iliq va sarg'ish yorug'ida o'zi uxlab qolgan bir necha soat ichida hech qanday o'zgarish bo'lgan-bo'lmanini bilish uchun atrofga nazar soldi. U o'zi ko'rgan shifoxonalar palatalari ichida eng kichkinasi edi; aslida u shifoxona palatalarini uncha ko'p ko'rmanган ham edi.

Karavot xonaning deyarli hammasini egallagan edi. Karavotdan tashqari xonada yog'och shkaf, kichkina kvadrat shaklidagi stolcha, stul, bush vaza, turli dorilar solingan patnis, yonida esa shu sayohatga chiqishlaridan oldin Aziz

o'qiyotgan «Men va Rumiy» degan Shamsning kitobi ham bor edi.

Ular to'rt kun oldin Konyaga kelishgan edi va birinchi kunlarini oddiy turistlardan hech farq qilmay o'tkazishgan edi: yodgorliklar, muzeylar, arxeologiya qazilmalarini ko'rishdi, milliy taomlarni tatib ko'rishdi va hammasini fotosuratga tushirishdi. Kechagi kunga qadar hammasi yaxshi edi. Restoranda ovqatlanayotgan vaqtlarida birdan Aziz yiqildi, uni o'sha yerdagi eng yaqin shifoxonaga olib borishga to'g'ri keldi. Shundan buyon Ella undan nari ketmas va nimani kutayotganini o'zi bilmagani holda, garchi umid bo'lmasa ham, o'zi juda kech tuhfa etgan sevgilisini o'zidan tortib olayotgan Xudo bilan qattiq bahslashabahslasha kutardi.

- Sevgilim, uxlayapsanmi? - shivirlab so'radi Ella. U Azizni bezovta qilishni istamasdi, lekin u Ellaga hushyor holda kerak edi.

Javob bo'ljadi, faqat nafas maromi o'zgardi.

- Uxlamayapsanmi? - qattiqroq shivirlab yana

so'radi Ella.

- Uxlamayapman, - sekin javob berdi Aziz. -
Sen nimaga uxlamayapsan?

- Ertalabki ibodat... - dedi sekin Ella, go'yo bu
bilan hamma narsani tushuntirish mumkinday:
uning sog'lig'i yomonlashganini ham, o'zining
uni yo'qotishdan qo'rqayotganini ham, o'zining
telbalarcha sevgisini ham.

Aziz karavotda Elladan ko'z uzmay o'tirib oldi.
Lampaning yengil yorug'ida oq yostiqlar
fonida uning chiroyli yuzi oppoq oqarib
turardi, shunga qaramay, unda quvvat, hatto
abadiylik namoyon edi.

- Ertalabki ibodat boshqacha, - shivirladi Aziz.

- Musulmonlar har kuni ado etadigan besh vaqt
namoz orasida tonggi namoz eng asosiyligi va
eng samimiyligini bilasanmi?

- Nima uchun?

- Chunki, menimcha, odamning uyqusi
bo'linadi, bu esa unga yoqmaydi. Biz uxlashni
afzal ko'ramiz. Shuning uchun ertalabki
namozda boshqa namozlarda bo'lмаган

«Uxlashdan ibodat afzal» degan satr bor. «Lekin, baribir, ikkalamizga ham biroz uxlagan yaxshiroqmidi, - o'yladi Ella. - Agar biz birga u xlabel olsak edi». U yengilgina, osuda uyquni - o'zidagi og'riqni bosadigan ko'p yillik butkul dong qotiradigan uyquni orzu qilayotgan edi. Birmuncha vaqtdan keyin azon tugadi. Oxirgi sas to'xtagach, dunyoga chidab bo'lmas jimjitlik cho'kdi. Ular bir yil birga bo'lishgan edi. Bir yillik ishq. Bu vaqtning katta qismida Aziz sayohat uchun yetarlicha kuch-quvvatga ega bo'lgan edi, lekin keyingi ikki hafta ahvoli yomonlashdi.

Ella uning yana uyquga ketayotganini kuzatib turdi, uning sokin va juda qadrli chehrasiga termuldi. Uni qo'rquv qamrab oldi. Og'ir xo'rsinib, palatadan chiqdi. Devorlari yashilga bo'yalgan yo'laklardan yurib, qari va yosh, erkak va ayol har turli odamlar tuzalayotgan va vafot etayotgan palatalar, bo'limlardan o'tib, yo'lak bo'ylab yurib ketdi. Ella o'ziga qiziqsinib qarayotganlarni e'tibor bermaslikka harakat

qilardi, lekin oqish sochlari va moviy ko'zlari uning begonaligini ko'rsatib turardi. U hech qachon o'zini bunchalik yot his etmagan edi. Bir necha daqiqadan keyin Ella shifoxona bog'ida fontan yonida o'tirardi. Bu yerda farishtaning kichik haykalchasi bor edi va suv ostida bir nechta kumush tanga - kimlarningdir orzu-istiklari nishonasi bo'lib - yiltirab yotardi. Ella cho'ntaklarini kavladi, lekin allanimalar yozilgan qog'ozchalardan boshqa hech nima topmadi. U yoq-bu yoqqa qarab, yaqin orada bir necha tekis qora toshchalarga ko'zi tushdi. Ulardan birini oldi va ko'zlarini yumib, orzusini, garchi ushalmasligini bilsa hamki, ovoz chiqarmay aytib, toshni fontanga otdi. Toshcha fontan devoriga urildi, chetga, to'ppa-to'g'ri farishtaning tizzasiga borib tushdi.

«Aziz shu yerda bo'lganida edi, - xayol qildi Ella, - bu bir nimaning belgisi ekanini bilgan bo'lar edi».

Yarim soatlardan keyin palataga qaytib, u yerda shifokor va hamshira borligini ko'rди.

Aziz boshi bilan choyshabga o'rab qo'yilgan...

U ketdi...

Azizni o'zining sevimli insoni Rumiy kabi
Konyaga dafn etishdi.

U biron bir ikir-chikirni unutmaslikka harakat
qilib, dafn marosimini o'tkazishga e'tibor
qaratdi. Eski qabristonda katta magnoliya
daraxti ostida qabr uchun joy topdi. Keyin dafn
marosimida nay chalishga rozilik bergen so'fiy
mashshoqlarni izlab topdi, Azizning barcha
mamlakatlaridagi do'stlariga, dafn marosimiga
taklif etib, elektron xabarlar yozdi. Ella uzoq
mamlakatlardan, hattoki Keyptaun, Sankt-
Peterburg, Murshidobad, San-Pauludan
ko'pchilik odamlar kelganidan mamnun bo'ldi.
Ular orasida Azizning fotograf hamkasblari,
asrandi farzandlari, shuningdek, olimlar,
jurnalistlar, yozuvchilar, raqqoslar,
haykaltaroshlar, biznesmenlar, fermerlar, uy
bekalari bor edi.

Marosim iliq va xushkayfiyatlar bilan o'tdi,
unda barcha din, mazhab vakillari qatnashdi.

Ular, uning o'z istagiga binoan, marosimni bayram qilib o'tkazishdi. Bolalar betashvish o'yinlar qilishdi. Meksikalik shoir o'zlarining urflariga binoan hammaga «pan de los muertos» (o'lganlar uchun non deb atalgan yejidigan narsa) ulashib chiqdi, Azizning shotlandiyalik do'sti esa hech kim o'limga qo'rqish kerak bo'lgan hodisa, deb hisoblamasligi uchun hammaning ustidan gul yaproqlarini sochib chiqdi. Marosimni kuzatgan ko'zlari sinovchan va samimiy tabassumli shu yerlik qari bukchaygan chol bu marosimni, ko'p asrlar avval Konyada Mavlono uchun o'tkazilgan dafn marosimini hisobga olmaganda, eng devonavor marosim deb aytdi. Dafn marosimidan keyin ikki kun o'tgach, nihoyat yolg'iz qolgan Ella yonidan o'tayotgan oilaviy juftliklarni, unga nimadir tiqishtirishni istagan do'kondor- lar va ko'chalardagi sotuvchilarni kuzatib yurib shaharni aylandi. Hamma odamlar ko'zlari yig'idan qizarib ketgan amerikalik ayolga tikilib qarashardi. U

bu yerda begona edi. To'g'risi, u hamma yoqda ham begona edi.

Nomerga qaytib, oteldan chiqish va aeroportga yo'l olishdan oldin Ella jaketini echib, shaftolirang angor junidan tikilgan sviterini kiydi. Bolalari orasida faqat bittasiga, uning o'z tuyg'ulariga bo'y sunish istagini qo'llab-quvvatlagan Janetga telefon qildi. Orli bilan Avi hamon u bilan gaplashishni istamas edilar.

- Oyi! Ahvolingiz qanday? - samimiy jonkuyarlik bilan so'radi Janet.

Ella go'yo qizi uni ko'rib turgandek jilmaydi. Keyin zo'rg'a eshitiladigan qilib dedi:

- Aziz vafot etdi.

- Oh, oyijon, siz bilan hamdardman.

Qisqa jimlik cho'kdi, har ikkisi ham yana nima deyish kerakligini o'ylashardi. Jimlikni Janet buzdi.

- Oyijon, uyga qaytasizmi?

Ella o'yga toldi. Qizining so'zlarida aytilmagan savollar bor edi: u o'zaro bir-birovlarini ayblastish va xafalashuvlar tuguniga aylanib

bo'lgan nikohni bekor qilish jarayonidan voz kechib, Nortgemptonga, eriga qaytadimi? U nima qilmoqchi?

Uning puli ham, ishi ham yo'q edi. Lekin u ingliz tilidan dars berishi, jurnalda ishlashi, hatto omadi kelsa, albatta, biron joyda yaxshi muharrir bo'lib ketishi ham mumkin.

Ella bir zумгина ко'зини yumib, yaqin orada o'zini shodu xurram va o'ziga ishongan qiyofada bo'la olishini tasavvur etdi. Uning hali shu vaqtga qadar faqat o'z kuchiga ishonib yashashiga to'g'ri kelmagan edi, lekin, ne ajabki, u o'zini yolg'iz qolgan deb his etmayotgan edi.

- Qizalog'im, seni juda sog'indim, - dedi u. - Ukang va singlingni ham sog'indim. Meni ko'rgani kelasanmi?

- Albatta, oyijon... biz boramiz... Lekin siz nima qilmoqchisiz? Rostdan ham bu yerga qaytishni istamaysizmi?

- Men Amsterdamga boraman, - javob qildi Ella.

- U yerda derazalari kanallarga qaragan kichik-kichik kvartiralar ijara ga beriladi. Pulim bunga etadi. Yana velosipedda uchishni o'rganishim kerak. Boshqasini hali bilmayman...

Rejalashtirishni istamayman, azizam. Bir kun bilan, hozirning o'zi bilan yashamoqchiman.

Ko'raylik-chi, nima bo'lar ekan? Bu Qoidalardan biri, agar tushunsang?

- Oyi, bu qanaqa qoida? Nima deyapsiz?

Ella deraza yoniga keldi va ajabtovur tiniq ko'm-ko'k lojuvard osmonga qaradi.

- Bu qirqinchi qoida, - dedi sekin Ella. - «Ishq bo'lmasa, hayot ham kerak emas. Ishqning qay xilini izlasam ekan - ruhiysinimi yo jismoniysinimi, ilohiysinimi yoki dunyoviysinimi, g'arbga xosinimi yoki sharqqa xosinimi, deb o'zingdan so'rama... Ajratishlar yana boshqa ajratishlarga olib keladi....

Ishqning xos nomi yo'q. U qanday bor bo'lsa, shundayicha bor - oddiy va sof tuyg'u. Ishq obi hayotdir. Oshiqlik esa olov. Olov suvga oshiq

bo'lgan chog'da butun koinot butkul boshqacha
aylana boshlaydi».